

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DALAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**OBID HAYDAROV, SUHROB QORABOYEV**

# **O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI**

***USLUBIY QO‘LLANMA***

(Kunduzgi ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarining  
talabalari uchun)

**SAMARQAND – 2022**

**UDK: 93/99**

**Tuzuvchilar: O.Haydarov, S.Qoraboyev.**

O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Uslubiy qo‘llanma. SamDVMChBU. Samarqand. 2022. 236 bet.

Uslubiy qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanidan tavsiya qilingan yangi dastur asosida tayyorlandi.

Uslubiy qo‘llanma barcha bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida o‘tiladigan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini o‘qitishga mo‘ljallangan. Qo‘llanmadan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” masalalari bilan qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

**Taqrizchilar:**

**O.Turg‘unboyev** - SamDVMCHBU “Gumanitar fanlar, madaniyat va jismoniy tarbiya” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

**S.O‘sarov** - SamDU “Jahon tarixi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Ushbu uslubiy qo‘llanma Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Markaziy o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan chop etishga tavsiya qilindi.*

*(29.06.2022 y. Bayonnoma № 6)*

**©O.Haydarov, S.Qoraboyev. 2022.**

**©SamDVMChBU. 2022.**

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi tufayli xalqimizning asriy orzusi ushaldi, o‘z taqdiri va kelajagini o‘zi yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Tarixan qisqa davrda jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida keskin burilish yasaldi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, faol demokratik yangilanishlarni amalga oshirish bilan bog‘liq qator islohotlar o‘tkazildi. Jumladan, ana shu buyuk o‘zgarishlarni asrlar davomida orzu qilgan xalqimizning ko‘hna tarixiga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgardi. Zero, Birinchi Prezident Islom Karimov ta’kidlaganidek: “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”.

“Vatan fidoyilarini eslashimiz, ularning haqiga Qur'on o‘qishimiz yaxshi an'ana. Ma'rifatparvar bobolarimiz mustaqillik uchun, xalqimiz emin-erkin yashashi uchun kurashganini bilamiz. Oxirgi yillarda butun jamoatchiligimiz harakati bilan ularning nomlarini tiklash, muzeylarni yangi namunalar bilan to‘ldirish, ijod maktablari tashkil etish bo‘yicha ko‘p ishlar qilinyapti. Bularning hammasi odamlarga tarixiy adolatni, haqiqatni yetkazish uchun, xalqimiz u kunlarni bilishi va hech qachon unutmasligi, bugungi kunlarning qadriga yetishi uchun”, - deb ta’kidlaydi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitishning maqsadi – mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko‘rsatish va jamiyat hayotida talabaning o‘rnini, o‘zligini anglatishdan iborat.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitishning vazifalari – mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hamda boshqa sohalardagi islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g‘ururni shakllantirishdan iborat.

Vatanimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan mamlakatimiz tarixida yangi davr – mustaqil taraqqiyot davri boshlandi. Xalqimiz demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida dastlabki sinovlardan o‘tdi. Istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma’naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Demokratik islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. Yangi jamiyat qurish, avvalo, yoshlarga, ularning ma’naviy dunyosi, kasb-mahoratiga bog‘liq. Binobarin, yosh avlodda milliy g‘oyani, yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog‘lom fikrni uyg‘otish, ularni Vatan, xalq va istiqlol taqdiri uchun g‘oyaviy kurashchanlik ruhida tarbiyalashda, yuksak ma’naviyatli komil inson bo‘lib shakllanishida, shuningdek, xalqimizning ma’naviy yuksalishi yo‘lida “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining ahamiyati katta. Ushbu fanning barcha oliy ta’lim muassalarida o‘qitilishi ham ana shu yuksak ahamiyat bilan belgilanadi. Qisqa qilib aytganda, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fani millat va Vatan kelajagining ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega.

Ushbu uslubiy qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2020 yil 29 avgustda tasdiqlangan fan dasturi asosida tayyorlandi.

Uslubiy qo‘llanma O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanidan yangi dastur asosida tayyorlangan ilk ishlardan bo‘layotganligi uchun ayrim kamchilklardan xoli emas, albatta. Shuning uchun kitob yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

# **Mavzu: KIRISH. “O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI” O‘QUV FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI, NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *O‘zbekiston tarixi faniga yangicha yondashuv, O‘zbekiston tarixini davrlashtirish, fan, predmet, obyekt, nazariy - uslubiy asoslar, tamoyillar, xolislik, ilmiylik, tarixiylik, ma’naviy yetuk shaxs, milliy tarix*

## **1. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi**

O‘zbekiston tarixi ko‘hna bo‘lib, olamshumul voqeliklarga juda boy. Mamlakatimiz jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanib, O‘zbekiston tarixi qadim va yaqin ajdodlarimizning hayotiy kechmishlari qanday bo‘lganligi, jahon tarixi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o‘rganadi. Umuman, O‘zbekiston tarixi fani ajdodlarimiz hayotida sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni tahlil qilishni, ularning sabablari va mohiyatini, ichki va tashqi omillarini, umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi o‘ta muhim masala bo‘lib, u fanning tub ilmiy-nazariy asoslarini tashkil etadi. Vatanimiz tarixini mukammal o‘rganish, tadqiq qilishda uni to‘g‘ri davrlashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Sovetlar hukmronligi davrida SSSR tarkibidagi yuzdan ortiq xalqlar tarixi, jumladan vatanimiz tarixini besh davrga bo‘ldilar:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi davri
2. Quldorlik tuzumi davri
3. Feodalizm tuzumi davri
4. Kapitalizm tuzumi davri
5. Sotsializm va kommunizm davriga bo‘lindi

Bunday davrlashtirishning maqsadi jamiyat taraqqiyoti insoniyatni albatta “Kommunizm”ga olib boradi degan g‘oyani ilgari surish va o‘tkazishdan iborat edi. Shu tufayli XX asrning oxiriga kelib insoniyat bu g‘oyani yelkasidan uloqtirib tashladi. Natijada butun dunyoda “sinfiy qadriyatlar”dan “milliy va umuminsoniy qadriyatlar”ning ustunligi e’tirof etildi.

Vatanimizning, o‘zbek xalqining boy, betakror tarixi, uning o‘ziga xos va mos tarixiy taraqqiyot davri mavjud bo‘lib, uni tarixnavis olimlarimiz fikriga ko‘ra quyidagi davrlarga bo‘lish

joizdir.

1. Ibtidoiy jamiyat, Qadimgi davr.
2. O‘rta asrlar davri.
3. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri.
4. Sovetlar istibdodi davri.
5. Milliy istiqlol davri.

“Turon tarixi” jurnalida akademik A.Asqarov O‘zbekiston tarixini davrlashtirishda quyidagi 7 davrni ko‘rsatib o‘tadi:

1. Ibtidoiy to‘da davri.
2. Urug‘chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri.
3. Ilk o‘rta asrlar davri.
4. O‘rta asrlar davri.
5. Mustamlakachilik va milliy uyg‘onish davri.
6. Sovetlar davri.
7. Milliy istiqlol, demokratik va fuqorolik jamiyati qurish davri.

Mustaqillik yillarida tarixchi olimlar “Yangi tarix” ta’limoti va tarix fanini o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslariga suyangan holda shonli boy tariximizni ilmiy asosda davrlashtirish sohasida ma’lum yutuqlarni qo‘lga kiritdilar va tarixni sinflar kurashidan iborat, deb tushunish, uni 5 ta formatsiyaga bo‘lishdan batamom voz kechdilar. O‘zbekiston tarixiga oid dastur, darslik va o‘quv qo‘llanmalari sovet tuzumi davrining soxta, to‘qima materiallaridan butunlay xoli qilindi. Ularda O‘zbekiston tarixi shartli ravishda eng muhim davrlarga, o‘zbek davlatchiligi tarixiy davrlariga, xususan, *dastlabki davlatlar (qadimgi davrlardan IX asrgacha), IX-XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi, Amir Temur va Temuriylar davrida o‘zbek davlatchiligi, O‘rta Osiyo hududlarining xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari, Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati, Sovetlar davri siyosati va Mustaqil O‘zbekiston davlati tarixiy davrlariga* bo‘lindi.

Ko‘pgina mutaxassislarning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonning zamonaviy tarixi 1989 yildan boshlanadi. Mazkur sana bilan bog‘liq voqealar - sovet totalitar tuzumining so‘nggi o‘n yilligidan boshlab chuqur inqiroz pallasiga kirganligi, xususan, respublikalarning milliy, iqtisodiy, ijtimoiy manfaatlariga e’tiborsizlik bilan xarakterlanadi. O‘zbekiston tarixidagi ushbu murakkab davrda siyosiy sahnada yangi shakllangan lider - Islom Abdug‘anievich Karimov paydo bo‘ldi. Uning oqilona siyosati tufayli respublikaning manfaatlari himoya qilindi, mamlakatni siyosiy va iqtisodiy inqirozdan, ichki va tashqi

mojarolardan qutqarish mumkin bo'ldi. I.A.Karimov davlat rahbari sifatida faoliyat boshlagan kundan boshlab, milliy mustaqillik g'oyasini ilgari surdi va nihoyat,1991 yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi. Suveren davlat sifatida O'zbekistonning eng yangi tarixi butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining yangi bosqichiga to'g'ri keladi va shuning uchun ham u zamonamizning global voqealari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan eng yangi tarixning ajralmas qismiga aylandi.

Tarixdan ma'lumki, ko'plab xalqlarning mustaqillikka erishishi, ularning nafaqat yangi shakllangan davlatlari tarkibini, balki xalqaro maqomini ham o'zgartirgan va bu "yaqin tarix" tushunchasini belgilashda muhim omillardan biri bo'lgan. Bu o'rinda yangi va zamonaviy zamon o'rtasidagi tarixiy davrni bir voqea sodir bo'lgan sana bilan emas (juda katta miqyosda bo'lsa ham), balki jamiyatning turli sohalaridagi sifat o'zgarishini ko'rsatadigan hodisa va jarayonlarning umumiy miqyosi doirasida aniqlash kerak.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, O'zbekistonni mustaqil rivojlanishining mohiyati, mazmuni va ahamiyatini baholab, mamlakat yaqin tarixini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

**Birinchi bosqich:** 1989 yildan 1991 yilgacha. Bu bosqich - yangi rahbarning siyosat maydonida paydo bo'lishi, milliy istiqlol g'oyasining pishib yetilishi, SSSRning parchalanib ketishi negizida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq sa'y-harakatlar bilan tavsiflanadi.

**Ikkinchi bosqich:** 1991 - 2000 yillar. Bu - ustuvor islohotlar va o'zgarishlardan milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri. Tarixan qisqa vaqt ichida "taraqqiyotning o'zbek modeli"ni tanlab olish natijasida milliy davlat shakllanishi uchun ishonchli qonunchilik va huquqiy asos yaratildi. Davlat boshqaruvining yangi tuzilmalari yuzaga keldi, jamoat va fuqarolik institutlarining asoslari barpo etila boshlandi, bozor iqtisodiyotiga o'tish amalga oshirildi.

**Uchinchi bosqich:** 2001-2010 yillar. Bu bosqichda - mamlakatni faol demokratik yangilash va modernizasiya qilish boshlandi. Bu davrning asosiy vazifasi kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish edi. Shu negizda siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini demokratlashtirish va liberallashtirish, davlat va jamiyat qurilishi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiladigan, fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy

faolligini oshiradigan, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantiradigan mustaqil sud tizimini mustahkamlash jarayonlari davom etdi.

**To‘rtinchi bosqich:** 2010-2016. Bu bosqichda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va modernizasiya qilish jarayoni davom etdi. Ushbu bosqich davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimini, axborot sohasini isloh qilish, so‘z erkinligini ta‘minlash, saylov qonunchiligini rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish bo‘yicha islohotlarning huquqiy asoslarini yaratish bilan tavsiflanadi.

**O‘zbekistonning zamonaviy tarixining beshinchi bosqichi** 2017 yildan boshlandi. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining yangi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu tarixiy hujjat mustaqillikni qo‘lga kiritilganidan boshlab, mamlakatni demokratik yangilash va rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni rivojlantirishni aks ettiradi, unda davlat va jamiyat rivojlanishining yangi bosqichida modernizasiyani yanada davom ettirishning strategik dasturi belgilab berilgan. Ushbu bosqich davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimini, axborot sohasini isloh qilish, so‘z erkinligini ta‘minlash, saylov qonunchiligini rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish bo‘yicha islohotlar uchun huquqiy asoslarni yaratishni davom ettirish bilan tavsiflanadi.

## **2. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari**

O‘zbekiston tarixi, shuningdek, O‘zbekistonning eng yangi tarixi jahon tarixining ajralmas bir qismi bo‘lib, u bizning zamonamizdagi global jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Eng yangi tarixni o‘rganishning muhimligi va dolzarbligi shundaki, u mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma‘naviy jihatdan barqaror rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi voqea-hodisalarni tushunishga hamda teran idrok etishga yordam berishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, u bizga tarixiy taraqqiyot tendensiyalarini oldindan ko‘ra bilish va bashorat etish imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish jarayoni sobiq sovet hududidagi boshqa mamlakatlar singari



murakkab siyosiy o'zgarishlar sharoitida yuz berdi. Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi mamlakatning barcha siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimini tubdan o'zgartirishga yo'l ochdi. Demokratik prinsiplarga ko'ra milliy davlatchilik va siyosiy tizimning asoslari shakllantirildi, ularda hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari funksiyalari va vakolatlari taqsimlandi. Respublikaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini erkinlashtirish bosqichma-bosqich, keskin inqilobiy larzalarsiz amalga oshirildi. Tashqi siyosatning milliy strategiyasi ishlab chiqilib, O'zbekiston zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimiga munosib ravishda kira oldi.

O'zbekiston tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'li xalqimizning milliy xususiyatlari, urf-odatlarini va madaniyatini har tomonlama hisobga olgan holda, to'plangan xalqaro tajribadan ijodiy foydalanishga asoslangandir.

Zamonaviy tarixni o'ta dolzarbligini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2012 yil yanvar oyida "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida O'zbekistonning zamonaviy tarixi bo'yicha jamoat kengashini tashkil etish to'g'risida" qaror qabul qildi. Kengashga tarixiylik va ob'ektivlik, dogmatizmning oldini olish, o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kunini baholashga har tomonlama yondoshish asosida O'zbekistonning zamonaviy tarixini tizimli o'rganish vazifalari yuklatildi. Bunda zamonaviy tarixni ilmiy tadqiq qilishda xalqaro tajribani hisobga olish, yangi avlod o'quv va ilmiy adabiyotlarini tayyorlash, O'zbekistonning zamonaviy tarixi global va mintaqaviy jarayonlar bilan uzviy bog'liq ekanligi nazarda tutildi.

**O'zbekistonning eng yangi tarixi** - bu tarix fanining nisbatan yangi yo'nalishi bo'lib, u 2020 yilda mustaqil ilmiy fan sifatida o'ziga xos metodologiyasi, tadqiqot yo'nalishlari va o'quv-uslubiy ishlanmalari bilan ajralib chiqdi. Shu munosabat bilan, zamonaviy tarix mamlakatimizning mustaqillik arafasidagi va mustaqillik taraqqiyot davri tarixini, uning o'ziga xos tendensiyalari, tarixiy shart-sharoitlari va rivojlanish jarayonlarini ilmiy asoslangan holda yoritishni taqozo etmoqda. Binobarin, tarixshunoslar va, shuningdek, O'zbekiston ijtimoiy-gumanitar fanlarining boshqa vakillari oldida jahon amaliyotini bu boradagi tarixiy tajribasini hisobga olgan holda, mazkur ta'limni yangi nazariy va metodologik darajaga ko'tarish hamda yangi ilmiy yo'nalishlarni o'zlashtirish vazifasi turibdi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi hali institutsional xususiyatga ega emas, ya'ni, mustaqil metodikaga, ilmiy ishlarga va o‘quv-uslubiy ta‘minotga ega emas. So‘nggi yillarda mamlakatimiz tarixidagi voqealar ko‘lami va ularning dinamikasi uni fan va ta‘lim oldida tizimli ravishda tushunish masalasini ko‘taradi. Bundan tashqari, "yangi avlodning o‘quv, ilmiy va uslubiy adabiyotlari va nashrlarini tayyorlash, O‘zbekistonning eng yangi tarixini global va mintaqaviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda, shuningdek, mintaqada shakllangan sivilizasiya, xalqlar va davlatlarning tarixiy va madaniy merosini mushtarak tarzda o‘rganishni taqozo etadi. Yoshlar mustaqil ravishda ma'lumot qidirishlari, turli manbalarni tanqidiy qabul qilishlari va tahlil qilishlari, o‘zlarining fuqarolik pozitsiyalarini dalillar bilan taqdim etishlari kerak. Globallashuv sharoitida O‘zbekiston yoshlari turli mafkuraviy oqimlarning ta'siri zonasida qolmoqdalar, ularning ba'zilari hatto mustaqil O‘zbekistonni va uning hukumati yuritayotgan siyosatni ataylab obro‘sizlantirishga qaratilgan aksil tashviqotlar iskanjasiga tushib qolmoqdalarki, endilikda ilmiy va akademik fan sifatida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bilan bog‘liq axborot xavfsizligi tizimini ta‘minlash zarur.

**O‘zbekistonning eng yangi tarixi** - bu nafaqat akademik bilim va o‘qitish, balki tarixiy xotirani shakllantirish, vatanparvarlik va faol fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirish yo‘lidir. O‘zbekistonning zamonaviy tarixini bilish - yoshlarga XX asr oxiri – XXI asr boshlarida milliy tarix voqealarini mustaqil tarzda baholashga, jahon tarixi kontekstidagi va davlatimiz taraqqiyotidagi eng muhim tendensiyalarni ko‘rish, O‘zbekistonning zamonaviy dunyoda tutgan o‘rni haqida tasavvurni shakllantirish, mamlakatning yangi strategik yo‘nalishini, uning ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini tushunishiga xizmat qiladi.

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fani boshqa ijtimoiy va tabiat fanlaridan farqli o‘laroq mustaqil fan. Shuningdek, u barcha fanlar orasida alohida o‘z o‘rni va mavqega ega. U barcha fanlar tarixini ham o‘z ichiga olgan holda ularning rivojiga katta ta‘sir etadi. Bu uning o‘rganish predmeti va ob‘ekti hamda vazifasida to‘la namoyon bo‘lmog‘i kerak. Tarix fani o‘z xususiyatiga ko‘ra, birinchidan, o‘zining butun diqqat-e’tiborini faqat o‘tmishga qaratadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi, ajdodlarimizning moziyda qolgan hayot tarzini, ular yaratgan moddiy-madaniy, ma’naviy-mafkuraviy qadriyatlarni o‘rganadi.

Ikkinchidan, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq fan. U matematika usulidan keng foydalanadi. Tarixiy voqea va hodisalar qat’iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik – xronologik asosda o‘rganiladi. Shuningdek, tarixiy voqea va hodisalar, hujjat va dalillarning haqiqiy va haqiqiy emasligi, ular qachon, qayerda, qanday tarixiy muhit va sharoitlarda tarixan voqe’ bo‘lganligi aniqlanadi. Va nihoyat, bo‘lib o‘tgan voqeliklarning aniq sabab va oqibatlari, shu bilan birga, ularning aniq shakl-shamoyillari va holati aniqlanadi.

Uchinchidan, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fani mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy hayotning ahvoli, rivojlanishi sabab hamda oqibatlarini o‘rganadi, ulardan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi. Bu esa kelajak avlodlar uchun dasturilamal bo‘ladi.

To‘rtinchidan, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fani ko‘p qirralik va xilma-xillik xususiyatiga ega. U jamiyat taraqqiyoti va inqirozlarining faqat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini uzviy o‘zaro bog‘liqlikda, bir butunlikda o‘rganadi. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fani O‘zbekistonning hozirgi hududida insoniyat hayoti, tabiat va jamiyat taraqqiyotini tahlil qiladi. Uni o‘rganish predmetiga esa, mana shu makondagi jamiki xilma-xil voqea va hodisalar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi.

Fanning **predmeti** shu mintaqada sodir bo‘lgan jamiki voqea va hodisalar, ulardagi umumiylik va aloqadorlik qonuniyatlari, tarixiy hodisa va jarayonlar, umuman insoniyatning barcha tarixiy faoliyat jarayonlarini o‘rganishdir.

Fanning **ob’ekti** aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik va umumiy mintaqaviy chegaralar, ma’lum xalqlar, mamlakatlar tarixi bilan bog‘liq jarayonlar bo‘lib, ular voqea va hodisalarni bir butun va yaxlitlikda qamrab oladi.

Fanning **maqsadi** vatanimiz tarixining qadimgi davridan to hozirgi kungacha bosib o‘tgan uzoq va murakkab tarixiy yo‘lini, xalqning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayotini xolisona o‘rganish orqali fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongida tarixiy xotira, ular qalbida vatanparvarlik, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirishdan iboratdir.

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fani fan sifatida ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy fan bo‘lib, inson va millat o‘z o‘tmishini

bilishi, o'zligini anglashi hamda kelajagini belgilashida asosiy dasturilamal hisoblanadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi yagona fan ham emas. Jamiyat, insoniyat va tabiatning o'tmishini o'rganuvchi boshqa soha fanlari ham bor. Masalan, arxeologiya, etnologiya, geologiya, antropologiya, demografiya, madaniyat, iqtisodiyot va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Ammo boshqa fanlarning hammasi ham, tabiat, jamiyat ham avvalo, katta tarixda aks etadi. Soha tarixi fanlari ham tarix fanining o'rganish ob'ekti va predmeti hisoblanadi. Tarix fani boshqa, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanadi. Shuning uchun ham, tarixchilar falsafani, adabiyot va tilni, dinshunoslikni va boshqa fanlarni bilmay turib, haqqoniy tarixni to'la yoritib berolmaydilar.

Qisqa qilib aytganda, tarix fani ya'ni, "O'zbekistonning eng yangi tarixi" – millat va Vatan kelajagining ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega. Masalaning mohiyati shundaki, birinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi har jihatdan tarix fanining naqadar haqqoniy bo'lishiga bog'liqdir. Chunki ular tarix bilan bevosita bog'liq. Ikkinchidan, tarix falsafasi qanchalik to'la va ravon yuzaga chiqsa, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va mohiyati hamda ta'sirchanligi ham shuncha yuksak darajada bo'ladi. Tarix falsafasi deganda, tarix ya'ni o'tmish tajribasi va sabog'idan to'g'ri xulosa chiqara olish tushuniladi. Boshqacha aytganda, o'tmish-tarixga qarab, kelajakni his etish, ko'ra bilish va to'g'ri belgilay olish ham tarix falsafasini anglashni bildiradi.

### **3. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanini o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari**

Har qanday fan kabi "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani ham o'zining uslubiy ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega. Bular O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining asosini tashkil etib, uning rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo'lidagi nufuzini ortib borishi uchun o'ta muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, ilmiy-nazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qiladilar.

Agar tarix insoniyat yashab rivojlanishi uchun ijtimoiy zaruriyat va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyoj bo'lsa, tarix fani esa, bu ehtiyojlarni ro'yobga chiqishi uchun ma'sul bo'lgan yuksak intellektual ilmiy-amaliy faoliyatdir. Buning samarali bo'lishi ya'ni, tarix fani

rivojlanishida metodologik ilmiy g'oya va nazariyalar hamda usul va uslubiy tamoyillarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki, bular tarixning mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq ochib berishga, shuningdek, tarix fanining maqsad va vazifasini to'laroq ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuning uchun ham O'zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, g'oya va ta'limotlari nimalardan iborat bo'lishi o'ta muhim masala hisoblanadi. Mutaxassislarining fikricha, "tarix" moziyni o'rganish haqidagi fan bo'lib, ilmiy atama sifatida ikki o'zaro aloqadorlikdagi tushunchani ifodalaydi. Birinchidan, tarix jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi fan bo'lib, uning mavzui kishilik jamiyati o'tmishining, uning turli-tuman sohalardagi taraqqiyoti va o'zgarib borish jarayonini o'rganadigan fandır. Ikkinchidan, tarix bu insoniyat to'g'risidagi fan bo'lib, jamiyatning o'tmishini tadqiqot yo'li bilan aniqlab, o'tmishda inson tomonidan yaratilgan, inson zakovatining natijalari bo'lgan jarayonini tadqiq etish va bizgacha bo'lgan davrni o'rganib, kelajak avlodga yetkazadigan fandır.

Tarixshunoslikdan ma'lumki, tarixiy jarayon tarix qonunlari bilan asoslanadi. Tarix fanining asosiy tayanch tushunchasini tarixiy asos va tarixiy manba, tarixiy makon va tarixiy zamon tashkil etadi. Soha mutaxassisilarning e'tirof etishlaricha, tarix fanini o'rganishdagi eng dolzarb muammo - bu tarixiy voqelik va tarixiy manbalar bo'lib, mana shu ikki muammoga tom ma'noda ilmiy yondashish tarix fanining nazariyasi va metodologiyasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. CHunonchi, har bir fanda bo'lganidek, tarix, jumladan "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanida ham o'zining nazariyasi va metodologiyasi mavjud. Nazariya – bu ilmiy bilimlar yig'indisi va boshqa fanlar bilan mavjud bo'lgan aloqadorlikni bilish jarayonidir.

Har qanday fanning metodologiyasi xususida gap borar ekan, odatda shu fanga xos metod (usul)lar majumi tushuniladi. Tarix fanini o'qitish metodologiyasi deganda bu yo'nalishdagi ilmiy bilimlarning tuzilishi va rivojlanishi, ularning natijalarini asoslash yo'llarini amaliyotda mazkur fanga xos bo'lgan ilmiy bilimlar mexanizmini samarali tadbqiq etilishi tushuniladi. Tarix fani metodologiyasi deganda tarix fanlari doirasidagi ilmiy bilimlarning tuzilishi tamoyillariga, shakli va ilmiy jihatdan tarix fani doirasida qo'llaniladigan ta'limotiga aytiladi. O'zbekiston tarixi fanining fan sifatidagi nazariy-metodologik asoslari o'zida mazkur fanning

qonuniyatlari va tamoyillarini, faqatgina shu fanga xos bo‘lgan qat‘iy tushunchalar majmui va bilish metodlarini o‘z ichiga oladi.

Tarix fanining rivoji, uning metodologiyasi rivojiga bog‘liq bo‘lganidek, tarix fani metodologiyasi yuksak darajada takomil topishi tarix fani qay darajada ekanligiga ham bog‘liq. Bu holdagi uzviy va ikki tomonlama bog‘liqlik har ikkala yo‘nalishning umumiy qonuniyatidir. Mana shu o‘zaro aloqadorlik qonuniyatini, mumtoz tarixshunosligimiz va hozirgi zamon sivilizatsion yondashuvlarga asoslangan holda “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fani metodologiyasini quyidagi ikki qismga bo‘lish tavsiya etiladi:

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining **metodologik (uslubiy) ilmiy-nazariy, g‘oyaviy-mafkuraviy va falsafiy asoslariga** quyidagilar kiradi:

- Din bilan dunyoviylik o‘rtasida mo‘tadil munosabat bo‘lishi va dunyoviylik aslo dahriylik emasligi;
- Tarixni milliy, umuminsoniy, muqaddas xodisa hamda qadriyat deb tushunmoq;
- Tarixga hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtai nazari va bag‘rikenglik asosida yondashish;
- Tarixiy taraqqiyot asosini evolyutsion – tadrijiy yo‘l va islohotchilik tashkil etadi deb anglamoq;
- Tarixga milliy mentalitet nuqtai nazaridan o‘zgalar tarixiga hurmat ruhida murojaat etish;
- Tarix, jamiyat va tabiat hamda insoniyat (barcha tarixiy voqelik va jarayonlar) dialektika (Gegel) hamda sinergetika (Prigojin) qonuniyatlari asoslarida rivojlanishi haqiqat ekanligi;
- Tarix milliy va umuminsoniy xotira, millat va xalqlarning joni, tani hamda g‘oyaviy-mafkuraviy muhofaza quroli ekanligi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining **metodologik (uslubiy), ilmiy usul va tamoyillari** quyidagilardan iborat:

- Ilmiy xolislik (ob‘ektivlik);
- Tarixiy – tahliliylik;
- Mantiqiy – uzviylik;
- Vorislik va xronologik izchillik;
- G‘oyaviylik va vatanparvarlik;
- Qiyoslash, kuzatish va umumiyashtirish;
- Bahslashish, munozara yuritish va asoslab berish;
- Matematik hisoblash;
- Shakllash va modellashtirish;

- Yakkalikdan umumiylikka (induksiya) va umumiylikdan yakkalikka (deduksiya);
- Etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geneologiya, matematika kabi ko‘plab yordamchi fanlarning yutuqlari hamda usullaridan ham keng foydalanish.

Tarixiy-tanqidiylik tamoyili tariximizda qadimdan muarrixlar tomonidan qo‘lanib kelingan eng qulay usul hisoblanadi. Bu usul tarixiy voqea va hodisalarning nechog‘liq to‘g‘ri hamda noto‘g‘riligini aniqlashga, tarixni haqqoniy va to‘g‘ri yozilishiga yaqindan yordam beradi.

Istiqlol tufayli o‘z tariximizni o‘zimiz yozish va tarix fani metodologiyasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldik. O‘tgan davr ichida O‘zbekistonning yangi tarixi yozildi va tarix fani jadal rivojlanmoqda. Butunlay yangi ruh va mazmundagi ilmiy qarash (konsepsiya)lar paydo bo‘ldi, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, tarixiy asarlar chop etildi. Bu o‘rinda yuqoridagi metodologik ilmiy-nazariy asos va ularning ahamiyati katta bo‘ldi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganish va uni o‘qitishning dolzarb muammolari bo‘yicha keng munozaralarning zaruratini chuqur anglagan holda olimlar, pedagog xodimlar va maorifning boshqa vakillarini tarix ilmi va fani masalalarini keng ommaga yetkazish hamda matbuotda faol muhokama qilish zarur. Jamiyatimiz, ayniqsa, yosh avlod ona Vatanimizning yaqin o‘tmishini tushunishga, murakkab, jo‘shqin va jadal sur‘atlar bilan davom etayotgan mamlakatimiz mustaqilligining tarix solnomasini tizimli o‘rganishga, uni to‘laqonli anglab yetishga katta ehtiyoj sezmoqda. Mazkur sharafli ijtimoiy vazifani amalga oshirish esa o‘zbek tarixchilarining ilmiy va fuqarolik burchidir.

#### **4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g‘risidagi fikrlari**

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarix fani sobiq mustabid tuzum mafkurasidan voz kechish, yangi yondashuvlar bilan bog‘liq o‘zgarishlarga yuz tutdi.

Fan taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish O‘zbekiston tarixchilari zimmasiga jahon amaliyoti yutuqlaridan kelib chiqib, tarix fanini yanada yuqori ilmiy-nazariy darajaga olib chiqish hamda yangi ilmiy yo‘nalishlarni o‘zlashtirish kabi vazifalarni yuklamoqda.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori kengash ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni yangi pog‘onaga ko‘tarish hamda bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biridir. Qarorda Jamoatchilik kengashi oldiga O‘zbekistonning eng yangi tarixini tizimli, haqqoniy va xolis tarzda o‘rganishni tashkil etish, yangi avlod ilmiy va o‘quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish hamda mamlakatimizning dunyodagi o‘rni va rolini ko‘rsatishga qaratilgan qator vazifalar qo‘yilgan. Mazkur hujjatda ko‘rsatilgan vazifalarni bir-birini to‘ldiruvchi ikki yo‘l orqali ro‘yobga chiqarish lozim. Birinchi yo‘l – yangi avlod ilmiy va o‘quv adabiyotlarini yaratish. Ikkinchi yo‘l – mavjud bilimlarni yoshlarga targ‘ib etish va o‘qitish.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi haqida so‘z yuritilganda, biz uchun, avvalo, mamlakatimizning 1991-yildan keyin bosib o‘tgan tarixiy yo‘li mohiyati va mazmunini anglab yetish muhimdir. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganini tushunib yetish muhim. O‘zbek jamiyatida qadimgi davrlardan beri ayrim demokratiya unsurlari: o‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shakli, mahalla yig‘inlari, oqsoqollar kengashlari va xalq diplomatiyasi mavjud edi. Biroq hozirgi kunda ushbu institutlar tomonidan an’anaviy funksiyalar bajarilishining o‘zi bilan qanoatlanib bo‘lmaydi. Biz ularning faoliyatini hozirgi davr talablariga mos yangi mazmun bilan to‘ldirishimiz maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yilning 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda Yohlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi O‘rgatish, bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligi ta’kidlandi. “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”, – dedi Shavkat Mirziyoyev. Mutasaddilarga O‘zbekistonda tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.



O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganishda yuqorida ta’kidlab o‘tilgan vazifalar qatorida jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilishdagi o‘zbek modelining konseptual asoslarini idrok etish, davlatimizning global va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ishtiroki bilan bog‘liq masalalarning to‘g‘ri va haqqoniy tahlilini xalqimiz va kelajak avlodga yetkazish burchimizdir.

Umuman olganda, O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganish va uni o‘qitishning dolzarb muammolari bo‘yicha keng munozaralarning zaruratini chuqur anglagan holda olimlar, pedagog xodimlar va maorifning boshqa vakillarini tarix ilmi va fani masalalarini keng ommaga yetkazish hamda matbuotda faol muhokama qilish zarur. Jamiyatimiz, ayniqsa, yosh avlod ona Vatanimizning yaqin o‘tmishini tushunishga, murakkab, jo‘shqin va jadal sur‘atlar bilan davom etayotgan mamlakatimiz mustaqilligining tarix solnomasini tizimli o‘rganishga, uni to‘laqonli anglab yetishga katta ehtiyoj sezmoqda. Mazkur sharaflı ijtimoiy vazifani amalga oshirish esa o‘zbek tarixchilarining ilmiy va fuqarolik burchidir.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. Sovetlar hukmronligi davrida vatanimiz tarixi qanday davrlarga bo‘lib o‘rganilgan?
2. Tarixnavis olimlar O‘zbekiston tarixini qanday qismlarga bo‘lib o‘rganishni taklif qilishadi?
3. Akademik A.Asaqarov O‘zbekiston tarixini qanday qismlarga bo‘lishni taklif qiladi?
4. O‘zbekistonning eng yangi tarixida Islom Karimov qanday o‘rin tutadi?
5. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
6. Sh.M.Mirziyoyevning ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g‘risidagi fikrlari haqida gapirib bering.
7. Sizningcha yuksak intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o‘rni qanday?
8. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fani nechanchi yildan ta’lim tizimiga kiritildi va bunga sabab nima?

9. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining nazariy – uslubiy asoslari nimadan iborat?
10. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini o‘qitishning ahamiyati nimada?

### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. - Тошкент : Маънавият, 2017
2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабилов. - Тошкент: Академия, 2013.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. - Тошкент, 2000
6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018.

### **AXBOROT MANBALARI:**

1. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz)

## **Mavzu: MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY JARAYONLAR**

**Tayanch so‘z va iboralar.** *Iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy - siyosiy tanglik, “qayta qurish”, buyruqbozlik boshqaruv usuli, “kadrlar to‘dasi”, “Paxta ishi” “O‘zbek ishi”, Orol fojiasi, millatlararo ziddiyatlar, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, Mustaqillik deklaratsiyasi, Islom Karimov – O‘zbekistonning birinchi prezidenti.*

### **1. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat**

XX asrning 70-80 yillarida SSSRda iqtisodiyotning rivojlanish sur‘ati tobora pasayib, xarajatlar ortib bordi. Mavjud imkoniyatlarni hisobga olmasdan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy, oziq-ovqat, agrar, energetika, ekologiya va boshqa sohalardagi dasturlar samara bermadi, iqtisodiy ziddiyatlarni chuqurlashturib yubordi. Iqtisodiyot ekstensiv yo‘lda tobora ko‘p qo‘shimcha mehnat va moddiy resurslarni ishlab chiqarishga jalb etish yo‘lida deysinayotgan edi.

Mamlakat katta tabiiy resurslarga ega bo‘lsada, xo‘jaliklar uning yetishmovchiligiga duch keldi. Ko‘pgina mamlakatlar fan-texnika inqilobi tufayli xalq turmushida jiddiy ijobiy burilishlarga erishgan bir paytda SSSR bu jarayondan chetda, orqada qolib ketdi. Ishlab chiqarish texnologiyasi eskirgan, mahsulotlarning sifati past, ular sotilmasdan omborlarda to‘planib qolayotgan edi. Ma’muriy-buyruqbozlik tizimi, iqtisodiyotda partiyaviy rahbarlik va uning mafkuralashtirilishi iqtisodiyotni isloh qilish yo‘lidagi urinishlarni yo‘qqa chiqarar edi. Ijtimoiy ehtiyojlarga mablag‘ ajratishda qoldiq tamoyili va taqsimotda tekischilik hukmron edi. Boqimandalik, tayyorga ayyorlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, chayqovchilik, poraxo‘rlik kabi yaramas illatlar jamiyatni kemirmoqda edi. Buyruqbozlik – boshqaruv usuli, sansalorlik, qog‘ozbozlik, majlisbozlik iqtisodiyotning o‘z qonunlari va vositalari asosida rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda edi. Odamlar mulkdan begonalashtirilgan, shu tufayli loqayd, sust, beparvo edilar, huquq va qonuniylik puturdan ketgan edi. Xo‘jalikni boshqarishda 200 mingtacha turli buyruqlar, qonunsimon hujjatlar hukmron bo‘lib, ular xo‘jalik xodimlarining har bir qadamini nazorat qilib,

tashabbuskorlikni bo‘g‘ar edi. Oddiy korxonadan tortib tumangacha, viloyatdan tortib respublikagacha, respublikadan Markazgacha haqiqiy ahvolni bo‘yab ko‘rsatish, barcha darajadagi rahbarlarni maqtash, ular nomiga hamdu sanolar o‘qish rasm bo‘lib qolgan edi. Oqibatda dunyoda eng kuchli ikki davlatdan biri, deb hisoblanib kelingan SSSRda inqirozli holat shakllanib yetilgandi.

KPSS Markaziy Qo‘mitasining 1985-yil aprelida bo‘lgan plenumi noxush tendensiyalar yig‘ilib, SSSR tanglik vaziyatiga tushib qolganligini ilk bor e‘tirof etdi. Mazkur plenum jamiyatni “qayta qurish” orqali iqtisodiyotni ko‘tarish, xalqning turmushini yaxshilash siyosatini belgiladi. 1985–1986-yillarda Markazdagi rahbariyat tomonidan jiddiy o‘zgarishlar qilish zarurligi anglandi. Biroq ahvolning nihoyatda murakkabligi hali to‘la idrok etilmagan edi. Markazdagi rahbarlar hamon sotsializm “afzalliklari”dan foydalanib jamiyatni “qayta qurish”ga, sotsializmni yaxshilashga umid bog‘lar edi. 1987-yildagi mavjud siyosiy tuzumni va iqtisodiyotga partiyaviy rahbarlikni saqlab qolgan holda xo‘jalik mexanizmini isloh qilish yo‘lidagi urinish ham samara bermadi. Iqtisodiy islohotlar tez orada qotib qolgan ijtimoiy-siyosiy sistemaga urilib barbod bo‘ldi.

80-yillarning oxirlarida siyosiy sistemani isloh qilishga, birinchi navbatda KPSSning siyosiy va mafkuraviy hukmronligini cheklashga, davlat va xo‘jalik organlarini Kompartiya hukmronligidan chiqarishga, xalq deputatlari sovetining to‘la hokimiyatini ta‘minlashga urinish bo‘ldi. Ammo, bu sa‘y-harakatlar ham behuda ketdi. To‘g‘ri, jamiyatni demokratlashtirish, oshkoralik, turli xil fikrlar birlashtirishga imkon berish tomon ijobiy qadamlar qo‘yildi. Matbuotda, radio va televideniya da turli xil fikr-mulohazalar erkin aytiladigan bo‘ldi.

“Qayta qurish” siyosati davrida iqtisodiyotda juda kuchli buzilishlar ro‘y berdi. Markaz “qayta qurish”ning ilmiy va nazariy jihatdan puxta va aniq-ravshan dasturini ishlab chiqolmadi. Iqtisodiy siyosat puxta o‘ylab ko‘rilmagan sinov va eksperimentlarga asoslangan edi. Mamlakat imkoniyatlarini hisobga olmasdan xalq xo‘jaligining barcha sohalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirishdan iborat noto‘g‘ri yo‘l tutildi.

Sovet rahbariyati mamlakatni tanglikdan, inqirozdan chiqarish uchun ma‘muriy-buyruqbozlik tizimini, hamma resurslarni markazlashtirilgan tarzda rejalashtirish asosida boshqarish va

taqsimlash yoʻlidan tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga oʻtish kerakligini oʻz vaqtida payqamadi, buni juda kech tushundi. 1990-yilga kelganda bozor iqtisodiyotiga oʻtish zaruriyati anglandi, dasturlar tuzildi, qarorlar qabul qilindi. Biroq, vaqt ham boy berilgan edi. Iqtisodiyot batamom barbod boʻlgan, moliyaviy va narx-navo tizimi izdan chiqqan, boshqaruv mexanizmi falaj boʻlib qolgan edi. SSSR ich-ichidan zil ketib, tanazzulga, parokandalikka yuz tutgan edi.

Oʻzbekistonliklar jamiyatni qayta qurish, islohotlar yoʻlini katta umid bilan kutib oldilar. Jamiyatni yangilashdan najot kutayotgan edilar. Biroq tez orada aholining hafsalasi pir boʻldi. Oʻzbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayot yanada murakkablashib bordi. Bu oʻz xalqining or-nomusi, qadr-qimmatini himoya qilishga qodir boʻlmagan, siyosiy irodasi boʻsh kishilarning respublika rahbariyatiga kelib qolishi bilan bogʻliq edi. Ularning ojizligi orqasida respublika partiya va davlat rahbarlik lavozimlariga Markaz tomonidan koplak kadrlar yuborildi. “Kadrlar toʻdasi” deb nom olgan 400 ga yaqin kelgindilar Oʻzbekistonni oʻz bilganlaricha boshqara boshladilar. Oʻzbekiston Kompartiyasi va Oʻzbekiston Ministrlar Kengashi amalda ular tomonidan boshqarildi. Birinchi lavozimga oʻtirgan mahalliy kadrlar ularning qoʻlida qoʻgʻirchoq boʻlib qoldilar. Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Qoʻmitasida Moskva vakillari – Mogilnichenko, Bessarabov, Ponomaryovlar uya qurib olgan edilar. Oʻsha yillarda tez-tez boʻlib turadigan plenumlar va yigʻilishlar Oʻzbekistonda doimiy ishlash uchun yuborilgan “kadrlar toʻdasi”ning boshliqlari – Anishchev, Ogaryok, Satin va ularning hamtovoqlari nazorati ostiga olingan edi. Oʻzbekiston Kompartiyasi MQning birinchi kotibi I.Usmonxoʻjayev ham ular oldida ojizu harakatsiz edi. OʻzKP MQda “pinhona kabinet” tashkil topdi, ushbu “kabinet” kuch ishlatish, tuhmatlar uyushtirish yoʻli bilan xodimlarni badnom qilish, respublikaga mutlaqo aloqasi boʻlmagan avantyuristik qarorlarni tiqishtirish bilan shugʻullandi. Qoʻgʻirchoqqa aylantirilgan mahalliy rahbarlar “kadrlar toʻdasi” tomonidan tayyorlangan qarorlarga imzo chekishardi, xolos. Sovet rejimining koʻzboʻyamachilik, “ulugʻ” millatchilik, shovinistik siyosati va uni amalga oshiruvchilar oldida bu qoʻgʻirchoq rahbarlarning ojizligi, itoatkorligi xalqqa qimmatga tushdi.

## **2.Markazning O‘zbekistonda amalga oshirgan qatag‘on siyosati. “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi” nomli kampaniyalar**

Qatag‘onlikning navbatdagi yangi bosqichi 80-yillarga to‘g‘ri keldi. Bu qatag‘onlik sovetlar hukumatining yana bir navbatdagi nayrangi bo‘lib, «o‘zbek ishi», «paxta ishi», «o‘zbek mafiyasi», «qo‘shib yozish» kabi izohli lug‘atimizga mustamlakachilar tomonidan kiritilgan yangi so‘zlar bilan bog‘liq. «O‘zbek ishi, - deb yozadi O‘tkir Hoshimov – 30- va 50-yillardagi qatag‘onlarning mantiqiy davomidir. Sovet siyosati har 10-15-yilda kalla olib turmasa ko‘ngli joyiga tushmagan. To‘g‘ri, o‘sha paytlar O‘zbekistonda qo‘shib yozishlar, poraxo‘rliklar bo‘lgan. Buni inkor qilmaymiz. Ammo bunday harakatlar butun sobiq Ittifoqda avj olgan edi. Unday bo‘lsa, nima uchun markaz ayni O‘zbekistonni tanladi, degan savol tug‘iladi. Buning sababi oddiy. Biz anchagina loqaydmiz, darrov qovusha qolmaymiz»<sup>1</sup>.

Ha, juda adolatli va to‘g‘ri aytilgan gaplar. Aslida «o‘zbek ishi» degani nima o‘zi va qachon paydo bo‘ldi? Bu «ish» aslida 80-yillarda O‘zbekiston Davlat xavfsizlik qo‘mitasi (DXQ-KГБ)ning raisi bo‘lib ishlagan Melkumov (millati arman) bilan O‘zbekiston KP MQning birinchi kotibi Sh.Rashidov o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchiliklardan boshlangan. O‘sha kezlarda Buxoro viloyati OBXSS boshlig‘i Muzaffarov va Buxoro shahar savdo idorasining direktori Quدراتovlarning poraxo‘rligiga taalluqli ma‘lumotlar DXQda bo‘lgan. Bu shaxslar Buxoro viloyati partiya qo‘mitasining birinchi kotibi A.Karimov himoyasida bo‘lgan va unga «oshirib» turishgan. A.Karimov esa o‘z navbatida Sh.Rashidov bilan yaqin aloqada bo‘lgan. Shu bois Melkumov va uning gumashtalari o‘z oldilariga Muzaffarov va Quدراتovni fosh qilish orqali A.Karimovga chiqish va so‘ngra u orqali Sh.Rashidovni «nishonga» olishni mo‘ljallab harakat qilganlar. 1983-yilda Buxoroda ilgari o‘ylab rejalashtirilgan va amalga oshirilgan «operatsiya» tufayli Muzaffarov va Quدراتovlar qamoqqa olindilar. Ular xalqqa ma‘lum bo‘lgan birinchi o‘zbek millionerlari bo‘lib chiqdi. Bu ish darhol Moskvaga oshirildi va markazda ana shu tariqa «o‘zbek ishi» paydo bo‘ldi.

SSSR Prokuraturasining tergov qismi boshlig‘i G.P.Karakozov darhol tergov guruhi tuzib, unga boshqa bir armani - T.X.Gdlyanni rahbar qilib tayinladi. Tergovchilar guruhiga kiritilgan vakillarining

---

<sup>1</sup> «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati», 1996 yil, 19 aprel.

deyarlik hammasi Gdlyan bilan yaqin va hamtovoq bo'lgan shaxslar edi.

«Paxta ishi», «qo'shib yozishlar» masalasi ham aslida 1983-yilda boshlangan. O'zKompartiya MQning XVI plenumi va unda Inomjon Usmonxo'jayevning Markazdan O'zbekistonga kadrlar bilan «yordam berish»ni so'rab qilgan murojaatidan so'ng bu ish avj oldi. O'zbekistonga yuzlab, minglab kadrlar yuborildi. Bu «kadrlar desanti» tarkibida o'zbek xalqi, turkiylar va musulmonlarga qalbida nafrat va shovinizm g'oyalari burqsib turgan jallod-fashistlar ko'p edi. Bular Anishev, Ogaryuk, Klepikov, Satin, Nesterenko, Buturlin, Gaydanov, Didorenko, Lyubimov, Ivanov, Galkin, Kartashyan va boshqalardir. «Paxta ishi» bo'yicha juda ko'p guruhlar tashkil qilindi. «Barcha Konstitutsiyaga ko'ra O'zbekiston suveren davlat sanalsa ham uning prokurori, respublika rahbariyati bilan maslahatlashilmagan holda SSSR Bosh prokurori tomonidan tayinlanardi».

Qisqa muddat ichida O'zbekiston SSR prokuraturasining eng yuqori, eng muhim lavozimlaridan tortib, oblast, rayon prokurorlarigacha Markazdan doimiy ishlashga yuborilgan vakillar bilan almashtirildi. O'zbekistonga tashlangan bu «sotsialistik desant»ning soni esa yuzdan ortiq edi.

1984-yilda O'zbekiston SSR prokurori, uning muovinaridan uchtasi, eng katta boshqarmalarning boshliqlari lavozimlariga Markazdan kelgan odamlar qo'yildi. Bu bilan cheklanilmasdan, asta-sekin oblast darajasidagi prokurorlar - Buxoro oblasti prokurori (Matyushov G.N) Samarqand oblasti prokurori (Yeremenko V.I.), Xorazm oblasti prokurori (Titarenko A.D.), Navoiy oblasti prokurori (Suxaryev A.P.) Surxandaryo oblasti prokurori (Jetkov V.M), Qoraqalpog'iston ASSR prokurori (Donsov V.V.) va Toshkent shahar prokurori (Fillipenkov G.P) ham Moskva tomonidan yuborildi. Keyingi bosqichda esa rayon prokurorlari lavozimi ham «mehmonlar» uchun bo'shatildi<sup>2</sup>.

Ana shunday «mehmonlar» Respublika Ichki ishlariga ham joylashtiriladi. O'sha paytdagi Ichki ishlar vazirining o'rinbosari general G'afur Rahimovnnig dalillariga ko'ra, vazirlik tarkibidagi 27 boshqarma va bo'limdan bor-yo'g'i ikkitasinigina o'zbek millatiga

---

<sup>2</sup> Azizxo'jayev A. Ko'rsatilgan adabiyot. 31-bet.

mansub kishilar boshqargan. U ham bo'lsa, xo'jalik va tibbiyot boshqarmalari edi<sup>3</sup>.

Mahalliy xalqning «xarakter va psixologiyasi»ni yaxshi bilgan jallodlar bu guruhlariga tub yerlik prokuror va tergovchilarni bosh qilib, ularga «yaxshi konsultatsiya»lar berdilar va shu tariqa o'z sopini o'zidan chiqardilar. Yuqori saviyada «maslahat va konsultatsiya» olgan guruh a'zolari amaliy ishga tushib ketdilar. Ular 70-80-yillarda mamlakatda keng tus olgan qo'shib yozishlar bo'yicha jinoyatchilarni aniqlab berishlari kerak edi. Haqiqatdan ham shu yillarda paxta, chorva va boshqa sohalar bo'yicha qo'shib yozishlar davlat rejalarini sun'iy ravishda bajarish usuli bo'libgina qolmay, million so'mlab davlat va jamoat mablag'larini suiiste'mol qilish va talon-taroj etish bilan bog'liq bo'lib, hamma yerda poraxo'rlik avjiga mingan edi. Bunday qo'shib yozishlar poraxo'rliklarning asosiy ilhomchisi va tashkilotchisi Moskvaning o'zi bo'lib, respublika, viloyat, tuman rahbarlari, davlat xo'jaligi direktorlari, jamoa xo'jaligi raislari, paxta tayyorlash korxonalarini va paxta tozalash zavodlari rahbarlari bu ish bilan bog'liq edilar. Ular asosli ravishda jinoiy javobgarlikka tortildilar va sudlandilar. Shu bilan bir qatorda, qo'shib yozishlarga bevosita aloqador bo'lmagan, bu ishga ongsiz suratda yoki tasodifan o'ralashib qolgan, rahbarlarning ta'siri va tazyiqi ostida qo'shib yozishlarga, noiloj qo'shib qolgan, undan hech qanday moddiy manfaatdor bo'lmagan yuzlab va minglab gunohsiz kishilar ham jabr ko'rib, aziyat chekdilar.

«O'zbeklar ishi», «Paxta ishi» bo'yicha qancha odamning qamoqqa olinganligi to'g'risida turlicha ma'lumotlar bor. Ba'zi manbalarda 22 ming, boshqasida 30 ming, hatto 48 ming<sup>4</sup> odam hibsga dinganligi ko'rsatiladi. «O'zbeklar ishi» ayni quturgan va avjiga chiqqan paytda O'zKP MQning birinchi kotibi I.Usmonxo'jayev, yozuvchilar bilan uchrashuvda respublikada qo'shib yozish va poraxo'rlik avj olib ketgani tufayli yigirma uch ming kishi qamoqqa olinganini aytgan edi. Shu damlarda Kompartiya fidoyisi o'zining ham taqdiri yaqin kelajakda ne ahvollarga tushajagini tasavvur ham qilia olmagan, albatta. Chunki Usmonxo'jayev Kompartiyaning so'zsiz itoatkor qo'g'irchoq rahbari sifatida O'zKP MQning IV plenumida so'zlab «1986-yilda rahbar xodimlardan salkam 750 kishi, shu jumladan 8 obkom sekretari,

---

<sup>3</sup> O'sha asar. 48-bet.

<sup>4</sup> «Sovet O'zbekistoni». 1987 yil, 16 feral.



shahar, rayon partiya komitetlarining 10 sekretari, shahar rayon partiya komitetlarining 10 sekretari, shahar va rayon ijroiya komitetlarining 40 raisi, ministrliklar va idoralarning 18 rahbari...» almashtirganligi bilan ko'krak kergan edi.

Xullas, necha ming odam qamoqqa olinganligidan qat'iy nazar o'zbek xalqi boshiga 80-yillarda ommaviy kulfat tushgan edi. Gdlyan va Ivanovlar guruhi O'zbekistonda bilgan va bilmagan barcha noma'qulchiliklarni qildilar. 70-80-yillarda O'zbekistonda Kompartiya va sovetlar hukumatining I.Usmonxo'jayev, Xudoyberdiyev, Aytmurotov, Salimov, R.Abdullayeva, Tursunov, Musaxonov, Yahyoyev, Norov, Sattorov, B.Rahimov. A.Karimov, X.Norbo'tayev singari rahbarlari qamoqxonalarda mislsiz qiynoq va azoblarga solindilar.

Butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham kamchiliklar, qo'shib yozishlar, poraxo'rlik illatlari va boshqa jinoyatchiliklar bor edi, albatta. Lekin bu illatlarni O'zbek xalqi emas, balki sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi.

### **3. Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi. Farg'ona voqealari**

1985-yilda iqtisodiy rivojlanishning negizi sifatida qabul qilingan jadallashtirish konsepsiyasi asossiz ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Iqtisodiyot tobora tanglik holatiga tushib bordi. Respublikada sanoat korxonalarini, qurilish va transport sohalarini, ko'pgina kolxoz va sovxozlarni xo'jalik hisobiga yoki jamoa pudratiga o'tkazish hech qanday samara bermadi. 1987-yilda iqtisodiy tuzilmalarni qayta qurish, xo'jalikni boshqarish va xo'jalik mexanizmini isloh qilish, ma'muriy rahbarlikdan iqtisodiy rahbarlikka o'tish yuzasidan ko'rilgan tadbirlar ham natija bermadi. Ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan ishlaydigan vazirliklar va idoralar iqtisodiy islohotlarni yo'qqa chiqarish, iqtisodiyot taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lib qolaverdi. Respublikaning tog'-kon, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo sanoatiga qarashli korxonalar Ittifoq vazirliklari va idoralariga tobe bo'lib qolaverdi. Ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarni avvalgidek Markaz belgilab berardi, aholining ijtimoiy ahvoli nochor edi.

Maktab va maorif ishlarini isloh qilish va o'rta maxsus ta'limni qayta qurish borasidagi sa'y-harakatlar ham behuda ketdi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ham mutaxassislar tayyorlash sifati

pasayib ketgan edi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muammolar toplanib bordi, ularni ma'muriy-buyruqbozlik usullari bilan hal qilishga urinishlar hech qanday natija bermadi. Xalq orasida pinhona o'sib borayotgan ishonchsizlik, loqaydlik kayfiyatlari asta-sekin yuzaga chiqa boshladi. Ruxsat etilmagan mitinglar, namoyishlar o'tkazish hollari, hatto noxush voqealar ham sodir bo'la boshladi.

XX asrning 90 yillarida O'zbekiston ekologiyasining buzilishini quyidagi tabiiy holatlar belgilaydi:

**Birinchidan,** atmosfera havosining haddan tashqari bulg'anayotganligidandir. O'zbekiston shaharlarining deyarli hammasida havoning ifloslanish darajasi sanitariya talablari darajasidan ancha yomonlashdi. Bu ayniqsa O'zbekistonning sanoat markazlarida xavfli tus oldi. Jumladan, olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda havoga chiqarilayotgan zaharli gazlar Olmaliq shahri aholisining har biriga 1374 kg, Farg'onada 676, Navoiyda 606, Angrenda 509 kilogrammdan<sup>5</sup> to'g'ri kelar ekan. Andijon, Guliston, Qo'qon, Qarshi, Toshkent, Chirchiq va boshqa shaharlar havosi eng ifloslangan shaharlardan hisoblanadi. 1990-yilda respublika aholisining har biriga hisoblaganda zaharli moddalar chiqiti 203 kilogrammni tashkil etgan.

Zaharlanish faqat shaharlargagina xos bo'lmasdan O'zbekiston qishloqlarida ham xavfli tus oldi. Ayniqsa qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan zaharli ximikatlari tabiatni xarob qildi. 1987-1990-yillarda dehqonchilik maydonlarida pestitsidlardan foydalanish har gektar yerga 19,5-24 kilogrammdan bo'lgani holda 79-84 ming tonnani tashkil etdi. Jami bo'lib qishloq xo'jaligida 70 xilga yaqin turli zaharli kimyoviy moddalar ishlatildi. E'tiborli joyi shundaki, bu zaharli kimyoviy moddalarning faqat 1 foizigina zararkunanda hasharotga ta'sir qilar ekan, qolgan 99 foizi tuproq, yer, suv, havo, o'simlik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini zaharlagan. Ahvol shu darajada fojiali tus oldiki, g'o'zalami defoliatsiya qilish bahonasida ming-ming tonnalab zaharli ximikatlarni odamlar boshi uzra samolyotlarda sepildi. Bu har qanday fashizmdan ham dahshatliroq fojia edi.

O'zbekiston ekologiyasi buzilishining **ikkinchi sababi** bu suvga bo'lgan munosabat bilan bog'liqdir. Sovetlar hukumatining ochko'zligi, Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon daryolari

---

<sup>5</sup> «Muloqot», 1992 yil, 3 -4,sonlar, 12-bet.

suvlaridan hisob-kitobsiz foydalanish oxir-oqibatda Orol fojiasini keltirib chiqardi. Ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryoga keyingi 20-30-yil davomida kollektor-zovur, sanoat va kommunal xo'jaliklarning tashlandiq va zaharlangan suvlarning oqizishlari bu fojiani yanada kuchaytirdi. Shu davrda Orolning suv hajmi 60 foizdan ortiq kamaydi, uning quruqlikka aylangan sathi 2 million gektarni tashkil etadi. Ilgari tuz miqdori har bir litr suvda 9 grammgacha bo'lgan bo'lsa, 90-yillar boshlarida u 2,5-3 barobar ortdi. Havoga, yerga sochilayotgan tonnalab qum-tuzlar Orolbo'yi atrofida ham jonli va ham jonsiz tabiatni halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. 1970-yillardan keyingi davrda faqat Amudaryo mansabida qamishzorlar maydoni 7 barobar kamaydi, 50 dan ortiq ko'l<sup>6</sup> qurib bitdi.

Ekologik qabohatning **uchinchi sababi** tuproq tarkibining o'zgarishi bo'ldi. O'zbekistonda 1990-yilga kelib o'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlar 853 ming gektarni tashkil etdi. Tuproq tarkibining o'zgarishiga hisob-kitobsiz ishlatilgan mineral o'g'itlarning halokatli ta'siri ham katta bo'ldi. Chunki mutaxassis olimlarning xulosalariga ko'ra fosfor o'g'iti bilan birgalikda tuproqqa ftor, uran, toriy, og'ir metall tuzlar ham o'tar ekan. Ekologiya buzilishining **to'rtinchi sababi**, respublika hayvonot va nabotot olamining o'zgarishi bo'ldi. O'zbekistonda yovvoyi hayvonlargaing - 99, parrandalarning - 410, baliq-larning - 79 turi mavjud. 1990-yilga kelib 32 hayvon, 31 parranda, 5 baliq respublika «Qizil kitobi»ga kiritilgan. «Qizil kitob»ga kiritilgan o'simliklarning soni esa 163 taga<sup>7</sup> yetdi.

Mamlakatdagi ekologik qabohat aholi o'rtasida har xil kasalliklarning ko'payishiga olib keldi va katta fojialarga sabab bo'ldi. Katta yoshdagi kishilar va o'smirlar o'rtasidagi umumiy kasallanish 1976-yildagi 2466,5 kishidan 1990-yilda 3598,6 kishiga yetdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1989-yilning o'zidagina asab sistemasi, teri, teri osti hujayralari kasalliklari 1,4 barobar, qon aylanishi sistemasining kasallanish 1,3 baravar ko'paygan. Faol sil kasalligiga chalinish 3 foiz oshgan<sup>8</sup>. Oshqozon-ichak, virusli gepatit kasalliklari ko'paydi, har xil shish kasalliklari kelib chiqdi.

Xotin-qizlarda kamqonlik kasalligi avjiga mindi, bolalar o'limi ko'paydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat og'ir bo'lgan mintaqalar - Orolbo'yi, Toshkent viloyati, ayniqsa

---

<sup>6</sup> «Fan vaturmush», 1991 yil, 7-son, 14-bet.

<sup>7</sup> O'sha manba.

<sup>8</sup> «Mulokot», 1992 yil, 3-4-son, 14-bet.

Angren, Olmaliq, Chirchiq va Toshkent shahrida, Farg‘ona vodiysining ko‘pgina shaharlarida turli kasalliklarga chalinish yuqori darajadadir. «Orol-88» ekspeditsiyasi a'zolarining bergan ma'lumotlariga qaraganda Qoraqalpog‘istonning Bo‘zatov tumanida har 1000 go‘dakdan 260 tasi nobud bo‘lgan. O‘zbek ayollarining 80 foizi kamqonlik kasalligiga chalingan, har uch nafar o‘zbek yigitlaridan bittasi salomatligi tufayli harbiy xizmatga noloyiq<sup>9</sup> deb topilgan. O‘zbekistonda har yili ruhiy nuqsonli 6 mingdan ortiq bola<sup>10</sup> tug‘ilardi.

Xullas, 90-yillarda mamlakat boshiga tushgan ekologik qabohat uzoq davom etishi mumkin emas edi. Vujudga kelgan og‘ir vaziyat vaxlit ijtimoiy-adolatli ekologik siyosat yuritishni talab qilayotgan edi.

**1989-yilning may-iyun oylarida Farg‘onada** fojiali voqealar sodir bo‘ldi. 45 yil muqaddam Stalin bedodligi natijasida o‘z yeridan badarg‘a qilingan mesxeti turklarini o‘zbek xalqi o‘z bag‘riga olgan, ularga mehribonlik qilgan edi. Tub yerli aholi bilan mesxeti turklari qardoshlik aloqalarini bog‘lab, o‘n yillar davomida inoqlashib yashadilar. Biroq, 1989-yil 20-mayda Quvasoyda tub yerli aholi bilan mesxeti turklari guruhlari o‘rtasida mushtlashish sodir bo‘ldi. Respublika siyosiy rahbariyatining voqeani to‘g‘ri baholay olmaganligi hamda tezkorlik bilan zarur choralarni ko‘rmaganligi oqibatida vaziyat murakkablashdi va etnik mojaroga aylanib, qon to‘kilishiga olib keldi. 3-iyun kuni kechqurun Toshloq posyolkasida, song Marg‘ilon shahrining mesxeti turklari zich yashaydigan qasabasida ur-yiqit, uylarga o‘t qo‘yish, qotillik, tahqirlash, talonchilik, vahshiyliklar sodir bo‘ldi.

Keyingi kunlarda beboshlik harakatlari Farg‘ona shahri, uning atrofidagi qishloqlarga tarqaldi. Olomon tomonidan sanoat korxonalariga, temir yo‘l stansiyasiga, aloqa uzelliga, militsiya binosiga hujum qilindi. Boshboshdoqlik partiya va sovetlarga qarshi tus olib bordi. Ana shunday favqulodda vaziyatda respublikada hukumat komissiyasi tuzldi. Farg‘onada 4-iyun kuni favqulodda holat e‘lon qilindi. Shoshilinch ravishda SSSR ichki ishlar vazirligi ichki qoshinlarining 13 ming kishilik bo‘linmasi keltirildi. Janjal 7-iyun kuni yana takrorlandi va tez orada Qo‘qon shahriga, Rishton, O‘zbekiston tumanlariga tarqaldi. 8-iyunda Qo‘qonda aholining tinch

<sup>9</sup> «Yoshlik». 1989 yil, 9-con, 4-5-betlar.

<sup>10</sup> «Mulokot», 1992 yil, 3-4-son, 15-bet.

namoyishi SSSR ichki ishlar vazirligi qo'shinlari tomonidan o'qqa tutildi, 50 dan ortiq kishi halok bo'ldi, 200 dan ortig'i yarador qilindi. Ommaviy tus olgan tartibsizlik, ur-yiqitlar natijasida jami 103 kishi halok bo'ldi, 1011 kishi jarohatlandi va mayib bo'ldi. SSSR ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining 137 harbiy xizmatchisi, 110 militsiya xodimi yarador bo'ldi. Militsiya xodimlaridan biri vafot etdi. 757 uy, 27 davlat binosi, 275 avtotransport vositasi yondirildi va talon-taroj qilindi.

Voqealarning keng miqoyosda fojiali tus olganligi sababli sovet va ma'muriy organlar mesxeti turklarini Farg'onadagi harbiy qism poligonidagi lagerga hamda Tojikistonning Leninobod viloyati Asht tumanidagi Novgarzon posyolkasiga shoshilinch ko'chirishni tashkil etdilar, ular qurolli askarlar tomonidan qo'riqlandi, oziq-ovqatlar bilan ta'minlandi va tibbiy xizmat yo'lga qo'yildi. Minglab odamlarni bunday lagerlarda uzoq saqlab bo'lmas edi. Shuning uchun 16282 kishi Farg'ona viloyatidan Rossiyaning Smolensk, Orlovsk, Kursk, Belgorod va Voronej viloyatlariga ko'chirib olib borib joylashtirildi.

Xo'sh, Farg'ona fojiasining sabablari nimada edi? Uni harakatga keltirgan kuchlar kimlar edi? O'z KP MQning 1989-yil 23-iyunda bo'lgan XIV plenumida Farg'ona fojiasi bilan bog'liq masalalarni o'rganish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya axboroti 29-iyulda bo'lgan XV plenumda ma'qullandi. Farg'ona viloyati, shahar, tuman partiya va sovet tashkilotlarining, huquqni himoya qilish organlarining tashkilotchilik, siyosiy ishida jiddiy xatolar fojiali voqealarga sabab bo'ldi. Ular viloyatdagi keskin ijtimoiy, siyosiy vaziyatning kuchayish xavfiga yetarli baho bermadilar, millatlararo adovatni keltirib chiqarishga uringan ekstremistlarga, poraga sotilganlarga o'z vaqtida zarba bermadilar. Farg'ona viloyatida o'n yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy keskinlik ortib bordi. Ana shunday keskinlikdan, respublikada ijtimoiy-siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishdan manfaatdor siyosiy kuchlar, ekstremistlar foydalandilar. Ular allaqachon ishlab chiqilgan, puxta tayyorgarlik ko'rilgan reja asosida ig'vogarona harakat qildilar, olomonga oldindan tayyorlangan varaqalarni tarqatdilar. Farg'onada sodir bo'lgan ig'vogarlik Tbilisi, Tog'li Qorabog', Bokuda tashkil etilgan ig'vogarliklardan biri edi. Keyinchalik Bo'ka, Parkent, O'sh, Andijonda ham shunday urinishlar bo'ldi. Yovuz kuchlar harakatlari bostirildi, ig'vogarlar o'z maqsadlariga erisha olmadilar.

O‘zbekistonning yangi rahbariyati tomonidan ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida keskinlik bartaraf qilindi.

Farg‘onadan so‘ng Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan, Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlarida ham xalq g‘alayonlari bo‘ldi. Ammo bu g‘alayonlarning oldi olindi. Farg‘ona voqealari xalqimizga katta va achchiq hayotiy saboq berdi:

**Birinchidan**, xalqimiz chorizm mustamlakachi saltanati va sovet mustabid saltanati o‘rtasida hech qanday farq yo‘qligini, har ikkalasi ham o‘zbek xalqining milliy dushmani ekanligini aniq -ravshan tushundi.

**Ikkinchidan**, katta tajribaga ega bo‘lgan dushmanga qarshi kurashda milliy istiqloqlar tajribasizlik qildilar. Kurash asosan stixiyali tarzda olib borildi, ularda siyosiy kurash madaniyati yetishmadi, xalqimiz dushmanga qarshi kurashda yakdil bo‘la olmadi, milliy birlik bo‘lmadi.

Xalqning ma‘lum bir qismi hali ham mustamlakachilarga ishonar edi. Milliy birlikni ta‘minlay olmadi. Umumiy dushmanga qarshi kurashda birlasha olmadi.

**Uchinchidan**, mustamlakachilarga qarshi kurashda xalqni o‘z orqasidan ergashtira oladigan, nazariy-ilmiy asoslangan dasturga ega bo‘lgan siyosiy tashkilot bo‘lmadi.

**To‘rtinchidan**, 80-yillar oxirlaridagi voqealar mamlakatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda zudlik bilan sifat o‘zgarishlarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatdi.

#### **4. I.Karimov – O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati**

**Islom Abdug‘aniyevich Karimov** - 1938 yilning 30 yanvarida Samarqand shahrida oddiy xizmatchi oilasida tavallud topgan. Islom Karimov 1945 yilda Samarqanddagi A.S.Pushkin nomidagi 21-maktabga o‘qishga kirib, uni oltin medal bilan tamomladi. O‘quvchilik yillari mobaynida ko‘p adabiyotlarni, ayniqsa, tarix bo‘yicha adabiyotlarni o‘qidi. U aniq fanlarni yoqtirardi, shaxmatga, modellashtirish va stol tennisiga qiziqardi. 1955 yilda Islom Abdug‘aniyevich O‘rta Osiyo politexnika institutiga o‘qishga kirdi. 1960 yilda uni tamomlab va “muhandis-mexanik” mutaxassisligi bo‘yicha diplom olib, “Toshselmash” zavodida o‘z mehnat faoliyatini boshladi va qisqa davr ichida usta yordamchisi, usta va texnolog kabi lavozimlarda ishlashga ulgurdi.

1966 yildan e'tiboran Islom Abdug'aniyevich O'zbekiston Davlat reja qo'mitasiga ishga o'tib, fan bo'limi bosh mutaxassisi lavozomidan Davlat reja qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari lavozimigacha yo'lni bosib o'tdi, jiddiy va o'ziga xos fikrlaydigan iste'dodli iqtisodchi obro'siga erishdi. 1983 yilda Moliya vaziri, 1986 yilda Ministrlar Kengashi raisining o'rinbosari - O'zbekiston Davlat reja qo'mitasi raisi bo'ldi. Iqtisodchi, nazariyachi va amaliyotchi Islom Karimov xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi butunlay noto'g'riligini ko'rib anglagan. Respublikaning moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishi rejalarini shakllantirgan Davlat reja qo'mitasida va Moliya vazirligida xizmat pillapoyalaridan o'tayotib, tahliliy tafakkurga ega bo'lgan holda hech kimga ma'lum bo'lmagan yuzaga kelgan muammolarni ich-ichidan his qilardi.

1986 yilda O'zSSR Davlat reja qo'mitasi raisi bo'lgan Islom Abdug'aniyevich vaziyatni chuqur o'rganganidan keyin respublika iqtisodiy talofat oldida turganini angladi. U vaziyatni tushungan va uni yaxshi tomonga o'zgartishni xohlagan holda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasiga "O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishi muammolari va istiqbollari haqida"gi ma'lumotnoma tayyorladi. U jiddiy va aniq choralari ko'rilishiga umid qilgandi. Lekin vujudga kelgan vaziyat rahbariyatning shu darajada g'azabiga sabab bo'ldiki, uning Toshkentda bundan buyon qolishga imkoni yo'q edi. "Nomaqbul" I.A.Karimovdan qutulish istagi shunchalik kuchli ediki, shu tufayli partiya tomonidan viloyat partiya qo'mitasi birinchi kotibi lavozimiga tayinlashning belgilangan tartibi buzildi. Shunday qilib, u Siyosiy byuro yig'ilishida Qashqadaryo viloyati partiya qo'mitasi birinchi kotibi lavozimiga sirdan tayinlandi. Amalda bu uning markazdan uzoqroqqa "surgun qilinishi" edi. Islom Abdug'aniyevich juda murakkab viloyatga yuborilgan edi.

Butun O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat oson emasdi, Qashqadaryo viloyatida esa vaziyat ancha murakkablashgan edi, chunki avvalgi viloyat rahbariyati xalqning ko'z o'ngida o'zi obro'sini tushirgan, u yerda partiya rahbarlariga nisbatan ishonch umuman yo'q edi. Ehtimol, Islom Abdug'aniyevichning Qashqadaryoga tayinlanishi uni sindirish uchun kerak bo'lgandir, biroq bu aksincha uning taqdirida burilish yasadi. U Qashqadaryoda qariyb uch yil ishladi. Uning bosh maqsadi xalqning ishonchini qozonish, hokimiyatga nisbatan munosabatini o'zgartirish, viloyatda ishlarning ahvolini yaxshilashdan iborat edi. Va u buni uddaladi.

Qariyb 300 km yo‘llar, bozorlar, ijtimoiy-madaniy ob'ektlar qurildi. Hozirgacha viloyatda odamlar Islom Abdug‘aniyevich Karimov ishlagan kunlarini mamnuniyat bilan eslaydilar.

Islom Karimov qanday lavozimda ishlamasin, u, avvalambor, o‘z Vatanning fuqarosi bo‘lib qoldi, xalqining baxtli va farovon turmush kechirishini xohladi. Xalq ham o‘z hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarni his qilib, unga katta ishonch bilan qarabgina qolmay, balki o‘z yo‘lboshchisining haqiqiy fikrdoshi bo‘ldi. O‘sha yillarning o‘zida uning Vatan oldidagi xizmatlari “Mehnat Qizil Bayroq” (1981) va “Xalqlar do‘stligi” (1988) ordenlari bilan taqdirlangandi.

**1989 yil 23 iyun kuni I.A.Karimov O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo‘mitasi birinchi kotibi etib saylandi** va o‘sha vaqtda fojiali voqealar ro‘y bergan pallada O‘zbekiston boshqaruvini o‘z zimmasiga oldi. Islom Abdug‘aniyevich yuksak lavozimga kelgan vaziyatni to‘laqonli his qilish uchun uning o‘z so‘zlariga murojaat qilaylik: “Sovet kommunistik tizimi hali-hamon hukmron bo‘lgan 1989 yilni eslaylik. Mayning oxiri - iyun oyining boshida “Farg‘ona voqealari” deb nom olgan mudhish voqealar yuz berdi. Ular butun sobiq Ittifoqni hayratga soldi va nafaqat O‘zbekistondagi, balki butun O‘rta Osiyodagi vaziyatni portlatib yuborishi mumkin edi”. Aynan o‘sha kunlari respublikadagi vaziyat keskin va nafaqat Farg‘ona vodiysida, balki Toshkent, Sirdaryo viloyatlari va boshqa viloyatlarning ayrim hududlarida yer go‘yoki yonib turgan bir paytda O‘zbekiston shaxsiy jasorati va yuz berayotgan voqealarning mazmun-mohiyatiga davlat qarashi, o‘z xalqi va o‘z mamlakati uchun alohida mas‘uliyati bo‘lgan rahbarga ega bo‘ldi.

Islom Karimov bularning negizida kasodga uchragan ma‘muriy buyruqbozlik tizimi, respublikaning milliy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini inkor etish siyosati, hukmronlik va xalqni kamsitish siyosati yotishini yaxshi anglagan. Markaz tashabbusi bilan tahqirlovchi “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” asoratlari haligacha kishilarning yodida turibdi. Halokatli vaziyat xom ashyo yo‘nalishiga moslashgan iqtisodiyotda ham vujudga kelgan edi. Respublikada, ayniqsa, aholisi zich yashagan Farg‘ona vodiysida o‘z ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan norozi bo‘lgan kishilarning sabr kosasi to‘lgan edi. Endilikda aniqlik bilan aytish mumkin: aynan Islom Karimov millatlararo ziddiyatni to‘xtatdi, fuqarolar urushi olovini o‘chirdi, yuz minglab, balki millionlab kishilarning hayotini saqlab qoldi,



respublikamizda ham, ko'p millatli aholi yashaydigan Markaziy Osiyo mintaqasida ham tinchlik va xotirjamlikni ta'minladi.

Islom Karimov O'zbekiston rahbari etib saylanganidan keyingi kunidayoq, ya'ni 1989 yil 24 iyunda hukumat yig'ilishida u qat'iyon: "Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi", degan fikrni ilgari surdi, shuningdek, qadamba-qadam respublikamizni rivojlantirish bo'yicha chuqur o'ylangan o'z dasturini tatbiq etishga kirishdi. Qisqa muddatlarda tubdan ko'rilgan boshqa choralar bilan birga 1989 yil avgustidayoq tarixiy qaror qabul qilindi - 400 ming gektarga yaqin sug'oriladigan yerlar qariyb 2,5 million oilaga tomorqa sifatida ajratib berildi. Bu, shubhasiz, dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishda mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlashga xizmat qildi. Agar bitta tarixiy faktni hisobga oladigan bo'lsak, ushbu birinchi navbatdagi o'zgarishning butun miqyosini anglash qiyin emas: sovet hokimiyatining 72 yili mobaynida O'zbekiston qishloq aholisiga atigi 300 ming gektar yer ajratilgan edi, xolos. **1989 yil oktyabrida** juda uzoq vaqt mobaynida ikkinchi darajali o'rinlarda bo'lgan **o'zbek tiliga davlat tili maqomini bergan "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun** qabul qilingani Islom Karimovning dadil siyosiy qadami bo'ldi. Bu o'zbek xalqining milliy ongi yuksalishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, mustaqillikni qo'lga kiritish yo'lida birinchi g'alaba edi.

Ta'kidlash joizki, o'sha vaqtda O'zbekiston SSSR tarkibida bo'lgan, unda juda katta mamlakatni boshqaradigan qattiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi amal qilgan. Garchi mazkur qaror Moskva markazi siyosatiga zid bo'lsa ham, u qabul qilinib tatbiq etildi. O'zbekiston zimmasiga yuklangan qarorlarga ko'ra barcha ekinlar uchun mo'ljallangan maydonlarning deyarli 80-90 foizi bitta ekin - paxta bilan band qilingan edi. Bu katta ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga sabab bo'ldi. Va Islom Karimovgacha kishilar dardiga quloq solib ularning dolzarb muammolarni yechish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan bironta rahbar bo'lmadi. Islom Karimov shaxsiy jasurlik bobida ham ibrat bo'la olardi. Toshkent viloyati Bo'ka va Parkent tumanlarida avj olgan mitinglarda shaxsiy xavfsizligi haqida bosh qotirmay, u odamlarni so'zi bilan ishontira olganligini eslashning o'zi kifoya qiladi. Yoki 1991 yilning oxirida Namangan viloyati ma'muriyatining ekstremistlar tomonidan to'laligicha nazorat qilingan binosiga himoya qiluvchi xodimlarsiz

bir o'zi kirib, har qanday ekstremizmni, shu jumladan diniy ekstremizmni istisno qiluvchi demokratik va dunyoviy davlat qurish bo'yicha o'z nuqtai nazarini qat'iy va aniq qilib ko'rsatib berdi.

Respublikada kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash masalalarida milliy manfaatlar ustuvorligi ta'minlandi. Markazdan yuborilgan "kadrlar to'dasi" o'z mavqeini yo'qotdi. Anishchev, Ogaryok, Satin va boshqa "kazo-kazolar" respublikadan chiqarib yuborildi. Mahalliy kadrlar rahbarlik lavozimlariga ko'tarildi. Kadrlar siyosatidagi ijobiy o'zgarish shundan iborat bo'ldiki, endi O'zbekistonda partiya, sovet, davlat, huquqni himoya qilish organlarining boshliqlarini Moskva orqali hal qilish, Moskva belgilagan xodimlarni ko'tarish amaliyotiga chek qo'yildi, bu masalalarni hal qilishni respublika rahbariyati o'z qo'liga oldi. Bu vaziyatni teran anglagan yangi rahbarning jasorati bo'lib, juda katta siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi, ya'ni siyosiy mutelikdan qutulish tomon tashlangan birinchi qadam bo'ldi.

O'zbekistonda adolatni tiklash chora-tadbirlari ko'rildi, to'qib chiqarilgan "o'zbeklar ishi", "paxta ishi"ning tamomila sharmandasi chiqdi. Bu bilan bog'liq ishlar qaytadan ko'rib chiqilib, aybsiz qamalgan o'n minglab kishilar oqlandi, o'z oilasiga qaytarildi, adolat tiklandi.

Respublika jamoatchiligi tomonidan allaqachon o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi ko'tarilgan edi. O'zbekistonning sobiq rahbariyati bu masalaga avvallari millatchilik, mahalliychilik deb qarardi. Keyinchilik O'zbek va rus tillarini teng mavqega ko'tarishga urinildi, shu yo'sinda ikki tillilik haqidagi qonun loyihasini o'tkazishga harakat qilindi. Respublikaning yangi rahbari jamoatchilik fikrini inobatga oldi, masalani bosiqlik bilan hal qilish yo'lini tanladi. O'zbekiston SSR Oliy Kengashining **1989-yil 21-oktabrda** bo'lgan XI-sessiyasida **"O'zbekiston SSRning davlat tili haqida" Qonun qabul qilindi.** Qonunda O'zbekistonning davlat tili o'zbek tilidir, o'zbek tili respublikaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalarida to'liq amal qiladi, deb belgilab qo'yildi. 1990-yil 19-fevralda "O'zbekiston SSRning davlat tili haqida"gi Qonunni amalga oshirish davlat dasturi qabul qilindi. Qonun va davlat dasturiga binoan mehnat jamoalari. oliy o'quv yurtlari, korxonalar va davlat muassasalarida ish yuritish rus tilidan o'zbek tiliga o'tkazila boshlandi. Bu qonunning qabul qilinishi va uning amalga oshirila boshlanishi respublika ijtimoiy hayotida katta

tarixiy voqea bo'lib, mustaqillik sari tashlangan yana bir muhim qadam bo'ldi.

1990-yil 18-fevralda O'zbekiston SSR Oliy Kengashiga saylov bo'ldi. Bu saylovlarning yangiligi shundan iborat bo'ldiki, 500 saylov okrugining 326 tasida muqobil nomzodlar ko'rsatildi, deputatlik mandatiga bir nechtadan nomzodlar da'vogarlik qildi. Oldingi saylovlarda barcha nomzodlar birinchi turdayoq deyarli 100 foiz ovoz bilan saylangan bo'lsalar, bu safar birinchi turda 368 nomzod zarur ovozlarni to'play oldi. Qolgan 132 okrugda qayta saylov bo'lib o'tdi.

1990-yil 24-31 mart kunlari Toshkentda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining I-sessiyasi bo'lib o'tdi. **24-mart kuni** sessiya Moskvaning tazyiqiga qaramasdan, respublikalar orasida birinchi bolib "O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish to'g'risida" Qonun qabul qildi. **1990-yil 24-mart kuni Oliy Kengashda yashirin ovoz berish yo'li bilan Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Prezidenti etib saylandi.**

Ana shu sessiyada I.A.Karimov nutq so'zlab, O'zbekistonning siyosiy mustaqilligini, o'zini-o'zi idora qilishga va o'zini-o'zi pul bilan ta'minlashni o'zining asosiy vazifam deb bilaman, deb ta'kidladi. Hali SSSR va Markaziy hokimiyat mavjud bo'lgan sharoitda O'zbekistonda o'z Prezidentining saylanishi muhim voqea, mamlakatimiz mustaqilligiga erishish sari tashlangan yana bir dadil qadam bo'ldi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi 1990- yil 18- iyun kuni XII chaqiriq respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi ochildi. Deputatlarning taklifi bilan O'zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qilish masalasi sessiya kun tartibiga kiritildi. Oliy Kengashning doimiy komissiyalari, faol deputatlar va huquqshunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan **Mustaqillik Deklaratsiyasi** matni sessiyada qizg'in muhokama qilindi va **20-iyun** kuni qabul qilindi.

Respublika Oliy Deklaratsiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq normalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya tamoyillariga asoslanib, O'zbekiston SSRning Davlat suverenitetini e'lon qildi. **Mustaqillik Deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo'lib,** quyidagilar bayon etilgan:

O‘zbekiston SSR Davlat suvereniteti O‘zbekiston SSR demokratik davlatining o‘z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir;

O‘zbekiston SSR davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo‘yilmay turib o‘zgartirilishi mumkin emas;

SSSR Oliy Kengashi qabul qiladigan qarorlar O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangandan keyingina O‘zbekiston hududida kuchga kiradi;

O‘zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O‘zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi va hokazo.

O‘zbekiston mustaqilligi to‘g‘risidagi Deklaratsiya muhim tarixiy hujjat bo‘lib, mamlakatimizning o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish yo‘lida yana bir muhim qadam bo‘ldi.

Shunday qilib, 80-yillar oxiri va 90-yillar boshida O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo‘lgan muhim voqealar davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish tomon dadillik bilan amaliy qadamlar tashlanganligini yaqqol ko‘rsatadi.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. XX asrning 70-80 yillarida SSSRda iqtisodiyotida qanday vaziyat yuzaga keldi?
2. Qanday sabablar SSSRni inqirozli vaziyatga olib keldi?
3. “Qayta qurish” siyosati deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun “qayta qurish” siyosati barbod bo‘ldi?
5. “Paxta ishi” nima, uning oqibatlarini bilasizmi?
6. “Kadrlar to‘dasi” deganda nimani tushunasiz?
7. “Kadrlar to‘dasi” respublikada qanday bedodliklarni amalga oshirdi?
8. O‘zbekiston ekologiyasining buzilishiga nima sabab bo‘ldi?
9. Farg‘ona fojialari haqida nimalarni bilasiz?
10. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov faoliyati haqida qanday ma‘lumotlarga ega bo‘ldingiz?

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. Азизхўжаев А.А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, кувончлар. - Тошкент: 2001.
2. Азизхўжаев А.А. Чин ўзбек иши. - Тошкент, 2003.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
4. Мустақил Ўзбекистан тарихининг дастлабки саҳифалари. - Тошкент, 2000.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабилов. - Тошкент: Академия, 2013.
6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.
7. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
8. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 2 том. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, Қ.Ражабов, М.Раҳимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
9. Юнусова Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). - Тошкент: Abu matbuot- konsalt, 2009.

## **AXBOROT MANBALARI**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz)

## **Mavzu: MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Mustaqillik, mustaqil davlat, referendum, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida” Oliy Kengash Bayonoti, “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonun, xalqning asriy orzusi, O‘zbekistonning o‘z yo‘li, mustaqillikni mustahkamlash, I.Karimovning tarixiy xizmatlari, I.Karimov xotirasini abadiylashtirish*

### **1. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol**

O‘tgan asrning 80-yillari oxirlariga kelib mamlakatda yuzaga kelgan vaziyatda respublikalardagi markazdan qochuvchi kuchlarning ta’siri, ular tomonidan ko‘tarilayotgan muammolar doirasi borgancha kengayib bordi. Bu holat markaz va respublikalar o‘rtasidagi munosabatlarni tobora taranglashtirib, markaz boshqaruv qobiliyatini borgancha yo‘qotib borishiga, har bir mintaqa, har bir respublikaning o‘z holiga tashlab qo‘yilganligi tarixiy vaziyatni to‘g‘ri baholash zaruratidan keltirib chiqardi. O‘sha paytdagi O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati bu vaziyatdan to‘g‘ri xulosa chiqargan holda boshlangan siyosatni izchil davom ettirishga kirishdi. 1991 yil 19-21- avgust kunlari Moskvada davlat to‘ntarishiga urinish sodir bo‘ldi. Unda mamlakatda hokimiyatning yuqori maratabalarini egallab turgan bir guruh shaxslar ishtirok etishdi. Favqulodda holat davlat qo‘mitasi tuzilib, unga G.Yanaev boshchilik qildi. Ularning maqsadi hokimiyatni qo‘lga olish va yana eski tartiblarni saqlab qolishdan iborat edi. Ulug‘ davlatchilik, shovinistik va zo‘rovonlik o‘tkazish siyosatini chuqurlashtirishga va mamlakatda diktatorlik tizimini o‘rnatishga intilish bu jarayonning yakuniy intihosi bo‘ldi. Rossiyadagi demokratik kuchlar B.Yelsin R.Xasbulatovlar rahbarligida davlat to‘ntarishiga urinishni oldini olishga muvaffaq bo‘lishdi. Aybdor bo‘lgan shaxslar jinoiy ishga tortildi. Bunday sharoitda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasini chaqirish va unda O‘zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi.

1991- yil 25 - avgustda O‘zbekiston Prezidentining maxsus farmoni e‘lon qilindi. Farmonga binoan Respublika Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik qo‘mitasi O‘zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi.

Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari bevosita O‘zbekiston Prezidentiga bo‘ysundirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991 yil 26 avgust kuni O‘zbekistonning davlat mustaqilligi to‘g‘risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31 avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirish haqida qaror qabul qilindi.

O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi va Markaziy nazorat qo‘mitasining 1991 yil 28 avgustda bo‘lib o‘tgan qo‘shma Plenumi Respublika Kompartiyasining KPSS MQ bilan har qanday aloqasini to‘xtatishga, KPSSning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlaridagi o‘z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

## **2. Mustaqillikning e‘lon qilinishi. O‘zbekiston Respublikasining tashkil etilishi**

1991 yil 31 avgustda Toshkent shahrida O‘zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi o‘z ishini boshladi. O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e‘lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etdi. Unda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida» hamda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi masalalar kun tartibiga qo‘yilib, qizg‘in muhokama qilindi. Sessiyada O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov nutq so‘zlab, Sobiq Ittifoqda so‘ngi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to‘ntarishiga urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular O‘zbekiston taqdiriga, xalqimiz tarixiga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qildi va uni mustaqillik to‘g‘risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi.

1991 - yil 31- avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Sessiyada Prezident I. A. Karimov nutq so‘zlab, sobiq Ittifoqda so‘nggi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to‘ntarishiga antikonstitutsiyaviy urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular

O‘zbekiston taqdiriga, xalqimiz taqdiriga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi.

I.Karimov O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qildi va uni mustaqillik to‘g‘risidagi Qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi.

Sessiyada „O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengash Bayonoti” qabul qilindi. Oliy Kengash Bayonotida shunday deyiladi:

O‘tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarni e‘tiborga olib,

- xalqaro huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga asoslanib,

- O‘zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas‘uliyatni anglab,

- shaxsning huquq va erkinliklari, mustaqil davlatlar o‘rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to‘g‘risidagi Xelsinki shartnomalariga qat‘iy sadoqatini bayon etib,

- millati, diniy e‘tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat‘iy nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha‘ni va qadr-qimmatini ta‘minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib,

- Mustaqillik Deklaratsiyasini amalga oshira borib, **O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O‘zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat - O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e‘lon qiladi.**

O‘zbekiston Respublikasi, - deb ta‘kidlanadi Bayonotda, - to‘la davlat hokimiyatiga ega, xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, oldindan hech qanday shart qo‘ymagan holda barcha sheriklar bilan teng huquqli, o‘zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o‘zini ochiq deb e‘lon qiladi.

Oliy Kengash sessiyasi „**O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida**” qaror qabul qilib, O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Oliy Kengash Bayonotini tasdiqladi va respublikani bundan keyin **O‘zbekiston Respublikasi** deb atashni belgilab qo‘ydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarorida: **1- sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991- yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e‘lon qilinsin,** - deb belgilab qo‘yildi.



Oliy Kengash „**O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida**” Qonun qabul qildi. Bu qonun 17 moddadan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi.

Qonunning birinchi moddasida: „*O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlatdir*”, - deb qonunlashtirib qo‘yildi.

Qonunda O‘zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir. U o‘z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi, deb belgilab qo‘yildi.

Mustaqillik asoslari to‘g‘risidagi qonunda O‘zbekiston Respublikasi to‘la davlat hokimiyatiga ega, o‘zining milliy davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi, davlat chegarasi, hududi daxlsiz va bo‘linmas bo‘lib, uning xalqi o‘z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o‘zgartirilishi mumkin emas, deb qat‘iy qonunlashtirib qo‘yildi.

Mazkur qonunda respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o‘rmonlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma‘naviy boyliklari O‘zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi, deb belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida oltin, boshqa qimmatbaho metallar va toshlarni qazib chiqarish, qayta ishlash va saqlashni mustaqil amalga oshiradi hamda nazorat qiladi, o‘z oltin zahirasini yaratadi deyiladi bu qonunda.

«O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonun g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu qonun asosida O‘zbekistonning huquqiy holati tubdan o‘zgardi. O‘z mohiyatiga ko‘ra bu hujjat respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini ham o‘ynaydigan bo‘ldi. 17 moddadan iborat ushbu qonun suveren O‘zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi.

Bunday Qonunning qabul qilinishi Mustaqillik davrida qo‘lga kiritilgan yutuqlarning natijasi hisoblanadi. Bu esa huquqiy, iqtisodiy hamda ma‘naviy-axloqiy munosabatlar natijasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mazkur Qonunga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 30 sentabrda bo‘lib o‘tgan

VII sessiyasida qabul qilingan qarori bilan Konstitutsiyaviy Qonun maqomi berildi. Jumladan, unda shunday deyiladi:

1. «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida» 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga konstitutsiyaviy maqom berilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddalarida «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonunning moddalariga zid kelgan hollarda mazkur Qonunga amal qilinsin», – deb belgilab qo‘yildi.

Shu tariqa, **xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro‘yobga chiqdi.** Uzoq yillar davom etgan kurash natijasida mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy mutelikdan, asoratdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi. O‘zbekiston tarixida yangi davr – milliy istiqlol davri boshlandi. O‘zbekiston uchun mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish, xalqimiz uchun o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zlari uchun munosib turmush yaratish imkoniyati vujudga keldi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi ham qonuniy-tarixiy jarayon bo‘lib, xalqimizning uzoq yillar davomidagi milliy istiqlol uchun olib borgan qahramonona kurashining natijasidir.

1991- yil 31- avgustdan e'tiboran Vatanimiz tarixida yangi davr – milliy istiqlol davri boshlandi. O‘zbekiston xalqi o‘z taqdirini o‘z qo‘liga oldi, siyosiy, ma'naviy mutelikdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil, to‘la huquqli, suveren davlat **O‘zbekiston Respublikasi** paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston xalqi va rahbariyatining donishmandligi, sabotliligi va qat'iyatligi, uzoqni ko‘ra bilishi natijasida uning davlat mustaqilligi tinch, demokratik, parlament yo‘li bilan, ijtimoiy larzalarsiz, qurbohlar va vayronagarchiliksiz amalga oshdi.

Mustaqil O‘zbekiston dunyoga, jahonga yuz tutdi, qariyb yuz yildan ortiq vaqt davomida yopib qo‘yilgan chegaralari ochildi. Jahon hamjamiyati O‘zbekistonni quchoq ochib qabul qildi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekiston Respublikasini suveren davlat sifatida Turkiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston, Hindiston, Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya singari yirik davlatlar tan oldilar.

O‘zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlash uchun, avvalo, xalqning fikrini bilish, mustaqillikka munosabatini aniqlash zarur edi. Shu maqsadda 1991 yilning 18 noyabrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasi chaqirilib, unda O‘zbekistonda Referendum to‘g‘risida qonun qabul qilindi, hamda «O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Qarorda quyidagilar belgilandi:

1. 1991 yil 29 dekabr, yakshanba kuni O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining referendumini o‘tkazilsin.

2. Referendumda ovoz berish byulleteniga masala quyidagi ta’rifda kiritilsin: «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini ma’qullaysizmi?»

**1991 yil 29 dekabr** kuni bo‘lib o‘tgan **referendumda** 9 million 898 ming 707 kishi yoki saylov ro‘yxatiga kiritilganlarning 94,1 % qatnashdi. Ularning 98,2 % referendumda qo‘yilgan savolni ma’qullab ovoz berdi. Demak, O‘zbekistonning Davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan yakdillik bilan ma’qullandi. Shuni ta’kidlash lozimki, referendum butun respublika hududida qonun asosida tashkiliy jihatdan uyushqoqlik, fuqarolarning yuksak siyosiy faolligi bilan o‘tdi. Buni referendumda AQSh, Turkiya, Malayziya va boshqa mamlakatlardan kelgan mustaqil kuzatuvchilar ham tasdiqladilar.

O‘zbekiston o‘zining davlat mustaqilligini mustahkamlashga dadillik bilan kirishdi. Birinchi bo‘lib, davlat ramzlari belgilab olindi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng kun tartibidan jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. Chunki sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda respublikada barpo qilinajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi. Mulkchilik, mulkka egalik qilish va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini normal izga solish ana shunday jiddiy yangilanishlarni taqozo etar edi.

Shuni ham aytish kerakki, jahonda hamma mamlakatbop ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari, barcha uchun tavsiya etish lozim bo‘lgan tayyor andozalari hech qachon bo‘lmagan va bo‘lmaydi ham. Shu bilan birga rivojlanishning madaniy, ma’rifiy,

tarixiy jihatdan asrlar mobaynida shakllangan an'analari mavjud bo'lgan O'zbekistonda qadimiy makonda o'ziga xos yo'l tanlash uchun ancha-muncha izlanish lozim edi. Biroq, vaqtni boy bermay, tezkorlik bilan ish tutish lozim edi. Shuning uchun ham «Mustaqil O'zbekiston tug'ilgan kuniyoq oyoqqa turishga, o'zi yurishga majbur edi».

Yana shuni ta'kidlash darkorki, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan paytda mamlakat ichkarisida bo'lgani kabi uning tashqarisida ham unga ishonmaydigan, shubha bilan qaraydiganlar bor edi. Hatto sobiq markazdagi ayrim «bashorat»chi O'zbekistonga nisbatan «O'zlaringni mustaqil boshqarishga, Mustaqil davlat qurishga qodir emassizlar», «Sizlar mute, qaram xalqsizlar», «Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazariya yaratamiz, sizlar esa bajarasizlar, xolos» deb shovinistlaracha g'arazgo'ylik qilsa, mamlakat ichkarisidagi ayrim toifalar o'rtasida «Endi O'zbekiston qanday yo'ldan boradi? Qanday jamiyat quradi? Markazsiz yashay oladimi? Respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta'minlanadimi?» - qabilidagi savollar paydo bo'lgan edi. Unga har kim o'zicha javob qidirar edi.

Tabiiyki, ana shunday ziddiyatli va murakkab bir paytda O'zbekiston uchun o'ziga xos istiqloq va taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish uchun o'z andozasini ishlab chiqish g'oyat dolzarb va ahamiyatli edi. O'z navbatida bunday vazifani uddalash O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari shuni taqozo etardi. Ayni chog'da, O'zbekistonning o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish andozasini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish, ularning foydali tomonlarini o'zlashtirish bilan birga O'zbekiston xalqining turmush tarzi va an'analariga ham tayanish lozim edi.

Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunidanoq, «jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishga kirishdi».

Hali Sobiq Ittifoq mavjud bo'lgan davrda I.Karimov respublika rahbarligiga (1989 yil, iyun) kelgan vaqtdan boshlab respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy ravishda yangilanishni, tub o'zgarishlarni boshlab yuborgan edi.

1990-yil mart oyidayoq Sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo‘lib, O‘zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining tashkil etilishi, g‘oyaviy qarashlari, siyosati yangilanayotgan jamiyatga mos bo‘lmayotgan O‘zbekiston Kompartiyasini Xalq demokratik partiyasiga aylantirilishi, hokimiyatning asta-sekin va izchillik bilan partiya idoralaridan Prezident, hukumat, mahalliy idoralar qo‘liga o‘tishi, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, milliy qadriyatlarning tiklana boshlagani O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li shakllanayotganini ko‘rsatar edi.

### **3. Mustaqil O‘zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I. Karimovning tarixiy xizmatlari**

Islom Karimov nafaqat O‘zbekiston, balki jahon miqyosida katta hurmat va obro‘-e‘tiborga sazovor bo‘lgan ulkan siyosatchi va davlat arbobi edi. Mustaqil O‘zbekiston davlatining asoschisi, buyuk davlat va siyosat arbobi, o‘zbek xalqining ulug‘ va ardoqli farzandi, mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimov Vatanimizni mustabid tuzum qaramligidan ozod qilib, halokat yoqasiga kelib qolgan yurtimizni qayta tikladi.

Bugungi O‘zbekiston – yangidan-yangi imkoniyatlarni namoyon etayotgan, kuchga to‘lib, nufuzi oshib borayotgan mamlakat. O‘zbekiston – barcha qiyinchiliklarni yengib, mustaqillik yo‘lidan yorug‘ istiqbol sari dadil qadam tashlayotgan, xalqaro maydonda obro‘si oshib borayotgan davlat. Bu – xalq bilan davlat birligidan, omma fikri bilan davlat siyosatining mushtarakligidan, prezident siyosiy yo‘lining naqadar xalqchilligidan dalolat beradi.

Germaniya matbuoti Islom Karimovni mustaqillikning dastlabki yillaridayoq “O‘rta Osiyodagi eng kuchli Prezident”, O‘zbekistonni esa “Hamdo‘stlik mamlakatlari orasidagi eng tinch va rivojlanayotgan mamlakat” deb tan olgan edi. Bu yuksak baho bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotgan emas.

Mustaqil O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov har qanday tayyor andozalarga ham tanqidiy qaradi. Jahon tajribalari va milliy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, mavjud hodisalarga o‘ziga xos yondashdi. Natijada siyosat va davlat arbobi sifatida o‘zining yangidan-yangi imkoniyatlarini tobora ko‘proq namoyon etdi. Bu bilan jahon davlatchiligi tajribalarini boyitib borib, novator islohotchi va siyosatchi sifatidagi noyob bashoratlarini va amaliy faoliyatini yorqinroq ko‘rsata oldi.

I.A.Karimov voqelikka real qaradi va uni real baholadi. Kutilmaganda o'ta aniqlik bilan ish yuritdi. Shuning uchun ham u qisqa fursatda xalqning mislsiz ishonchini qozondi. 1980-yillarning tahlika va umidsizliklarini, tushkun kayfiyati va ozurda muhitida xalqni to'la safarbarlikka, yakdillikka yo'naltira oldi. Bu jahon tarixida kamdan-kam yuz beradigan hodisadir.

I.A.Karimov o'zining chuqur asoslangan fikrlari va voqelikka salbiy oqibatlarining oldini olgan holda yondashuvlari bilan kommunistik afsonaning sarobligini isbot etdi. O'zbekistonni, qolaversa, barcha ittifoqdosh respublikalarnin g'oyaviy tanazzul girdobiga tortgan sovet totalitarizmiga qarshi tura oldi va uni qat'iyat bilan yengdi. Harbiy kommunizm va fuqarolar sotsializmining lenincha g'oyalari uydirmalarini fosh etish bilan o'zining noyob mafkuraviy va siyosiy jihatdan butunlay yangi, tasavvurimizga sig'maydigan dunyoning kashf etuvchisi sifatida ko'rsata oldi.

Boshqacha qilib aytganda, I.A.Karimov fenomeni haqidagi mulohazalar shaxsning tarixdagi o'rni to'g'risidagi fikrgina emas. Balki, tarixning shaxs borasida taqdiri va qadriyati bilan bog'liqligi hamdir. Zotan, kamdan kam tarixiy shaxslar tarixning tub burilish nuqtasini belgilab beradilar, jarayonlar va turmush tarzining bir xildagi oqimini keskin o'zgartirib yuboradilar. Butunlay yangi, hayotbaxsh va huzurbaxsh turmush kechirish, aniqrog'i, inson va insoniyat taqdiridagi mislsiz ma'naviy ko'tarilishlar davrini boshlab beradilar.

Islom Karimovning davlatchilik borasidagi faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, beixtiyor ko'z o'ngimizda turli davrlarda faoliyat ko'rsatgan siyosat va davlat arboblari gavdalanadi. Xususan, yer yuzining turli mintaqalarida milliy ozodlik harakatlariga boshchilik qilgan, o'z Vatanini mustamlakachilik iskanjasidan ozod etib, milliy davlatchiligiga asos solgan daholar diqqatimizni tortadi. Darhaqiqat, haqiqiy baho taqqoslanganda beriladi. Tarixiy jarayon, voqea va hodisalar tahlil etilayotganda, ular bir-biriga qiyoslanganda o'zining butun salmog'I va miqyosi bilan namoyon bo'ladi. Ana shu jihatdan qaraganda, milliy davlatchilikni barpo etish borasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarni jahonning ko'plab mamlakatlari tarixida kechgan olamshumul jarayonlarga qiyoslash mumkin.

Islom Karimovning O'zbekiston hali SSSR tarkibida turgan paytdayoq milliy ozodlik uchun boshlagan harakati, mustamlakachilikka qarshi kurashish, mustaqillikka erishish va,

nihoyat, milliy davlatchilikka asos solish borasidagi faoliyati yuqorida tilga olingan, mashhur davlat va siyosat arboblarning faoliyatini eslatadi. I. Karimovning o'zbek xalqi uchun tarixiy xizmati shundaki, u butunlay yangi tarixiy sharoitda butunlay yangi o'zbek milliy davlatchiligiga asos soldi. Qolaversa, O'zbekiston rahbarining jahon davlatchiligi qurilishi tajribalarini boyitganligi, unga yangi mazmun, yangi shakl va joziba berganiuning o'ziga xos daholik qudratidan dalolat berdi. Zero, O'zbekistondagi islohotlarni, dunyoning eng ilg'or davlatchilik tajribalari va demokratik tamoyillariga mos keladigan, ayni paytda nihoyatda milliy, tagzaminli davlat qurilayotganligini xorijiy atoqli siyosatdonlar tan olmoqdalar va yuqori baholamoqdalar.

Islohotlar davrida yangilik bilan eskilik o'rtasida hamma vaqt keskin kurashlar, ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar bo'lib o'tadi. Taassufki, hayotda ko'pincha yangilikdan ko'ra eskilik, yaxshilikdan ko'ra yomonlik, ezgulikdan ko'ra yovuzlik yashovchan bo'ladi. Ana shu hayotiy falsafadan kelib chiqib aytish mumkinki, turmush tarziga aylangan va kundalik hayot qobig'ida o'ralib qolgan dunyoqarashlarni o'zgartirish oson ish emas. Bu vaqt talab etadigan hodisa. Ayni paytda, u siyosiy arbobdan nihoyatda kuchli iroda, mustahkam asab, sabot va matonat talab etadi. Bu intihosiz iztiroblar, o'z hayotining har bir daqiqasini e'tiqod va g'oya uchun qurbon qilishdek fidoyilik hamda oliy darajadagi shaxsiy fazilat ko'rigidir.

Mustaqillik – o'zbek xalqining tarixiy va eng buyuk yutug'idir. Uni qo'lga kiritish uchun xalqimiz o'ta tahlikali va tahdidli, murakkab va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Bugungi kunda bizning eng buyuk vazifamiz mustaqillikni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlashdan iboratdir. Bu esa, avalambor, el-yurt osoyishtaligi, xalq farovonligi va Vatan ravnaqi yo'lida fidokorona mehnatimiz, yurtimizdagi bunyodkorlikka va xalqimizning tinch va osuda hayotiga turli ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan murosasiz fuqarolik pozitsiyamiz bilan amalga oshadi, albatta.

Islom Karimov O'zbekiston uchun, o'z xalqining farovonligi uchun ulkan ishlar qilgan, eng murakkab paytlarda ham tinchlik va barqarorlikni taminlagan, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilgan buyuk davlat arbobidir.

Mustaqil O'zbekiston davlatining asoschisi, buyuk davlat va siyosat arbobi, o'zbek xalqining ulug' va ardoqli farzandi, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich

Karimov Vatanimizni mustabid tuzum qaramligidan ozod qilib, halokat yoqasiga kelib qolgan yurtimizni qayta tikladi. Buyuk Yo'lboshchimiz g'oyat qaltis va tahlikali bir vaziyatda og'ir qiyinchiliklar va sinovlarga qaramay, tarixan qisqa davrda O'zbekistonni jadal va barqaror sur'atlar bilan rivojlanayotgan zamonaviy demokratik davlatga aylantirdi.

Xalqimizning samimiy tilaklari va xohish-irodasidan kelib chiqib, ona Vatanimiz mustaqilligi, el-yurtimiz ravnaqi yo'lidagi buyuk tarixiy xizmatlarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, O'zbekiston Qahramoni Islom Abdug'aniyevich Karimovning yorqin xotirasini abadiylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra:

- 2016-yil oktabr oyida Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondi tuzildi;

- Toshkent shahar, Yashnobod tumanining Farg'ona yo'li ko'chasida joylashgan jome masjidga "Islom ota jome masjidi" deb nom berildi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda "Buyuk davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov siymosi tasvirlangan haykalni yaratish bo'yicha xalqaro ijodiy tanlovni tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi;

- Samarqand shahrida Islom Karimov dafn etilgan hududda yodgorlik majmuasini barpo etildi;

- O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov haykallari mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrida, Islom Karimov tug'ilib o'sgan Samarqand shahrida va u kishi birinchi rahbar bo'lib ishlagan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida o'rnatildi;

- Birinchi Prezidentimiz ko'p yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohida (O'zbekiston ko'chasi, 45) Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasini tashkil etildi va Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondini ham ushbu manzilda joylashdi;

- Samarqand shahrida Islom Karimov muzeyini tashkil etish;

- Toshkent davlat texnika universitetiga; Asaka shahridagi avtomobil zavodiga;



- Fargʻona shahridagi Sanʼat saroyiga; Toshkent xalqaro aeroportiga; Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi markaziy koʻchalarga (mahalliy davlat hokimiyati organlari takliflari asosida) Islom Karimov nomi berildi;

- har yili Birinchi Prezidentimiz tavallud topgan sana – 30-yanvar kunini keng nishonlanmoqda, 2-sentabr kunini Xotira kuni sifatida yod etilmoqda. Ushbu sanalar munosabati bilan ommaviy axborot vositalarida Islom Karimov hayoti va faoliyatini keng yoritib bermoqda;

- oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasini joriy etildi;

- Islom Karimovning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar, hujjatli va badiiy filmlar yaratish ishlari boshlandi;

- Islom Karimov siymosi aks ettirilgan maxsus pochta markalari chiqarildi.

Shu tariqa xalqimiz mustaqilligimiz meʼmorining tarixiy xizmatlarini munosib baholab, uning xotirasini abadiylashtirdi.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. Nima sababdan Ittifoqdosh respublikalar SSSR tarkibidan chiqib boshladilar?
2. 1991 yil 19 -21 avgust kunlari Moskvada qanday voqealar sodir boʻldi?
3. Suverenitet, referendum soʻzlarining maʼnosini bilasizmi?
4. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991- yil 31-avgustda boʻlgan sessiyasida qanday hujjatlar qabul qilindi?
5. Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi toʻgʻrisidagi Oliy Kengash Bayonoti haqida soʻzlab bering.
6. Qanday vaziyatda Oʻzbekiston oʻz mustaqilligini eʼlon qildi?
7. Mustaqil Oʻzbekiston davlatini dastlab qaysi davlatlar tan oldi?
8. 1991-yil 29-dekabrda referendum natijalari haqida nima bilasiz?
9. Oʻzbekistonning oʻz mustaqilligini mustahkamlashda Islom Karimovning oʻrnini yoritib bering
10. Respublikada Islom Karimovning xotirasini abadiylashtirish uchun qanday ishlar amalga oshirildi?

## TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Азизхўжаев А.А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. - Тошкент: 2001.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
3. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. - Тошкент, 2000.
4. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабиrow. - Тошкент: Академия, 2013.
5. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018.
6. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
7. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 2 том. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, Қ.Ражабов, М.Раҳимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

## AXBOROT MANBALARI

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz)

## **Mavzu: O‘ZBEKISTONNING O‘ZIGA XOS ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO‘LI**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”, besh tamoyil, milliy taraqqiyot, milliy model, O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li, evolyutsion o‘tish yo‘li, mulkni xususiyashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat bayrog‘i, davlat gerbi, davlat madhiyasi*

**1.O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlashi. Taraqqiyotning „O‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari**

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va

iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. Chunki sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar yendilikda respublikada barpo qilinajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi. Mulkchilik, mulkka egalik qilish va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy - iqtisodiy hayotini normal izga solish ana shunday jiddiy yangilanishlarni taqozo etar edi.

Shuni ham aytish kerakki, jahonda hamma mamlakatbop ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari, barcha uchun tavsiya etish lozim bo'lgan tayyor andozalari hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Shu bilan birga rivojlanishning madaniy, ma'rifiy, tarixiy jihatdan asrlar mobaynida shakllangan an'analari mavjud bo'lgan O'zbekistonday qadimiy makonda o'ziga xos yo'l tanlash uchun ancha-muncha izlanish lozim edi. Biroq, vaqtni boy bermay, tezkorlik bilan ish tutish lozim edi. Shuning uchun ham «Mustaqil O'zbekiston tug'ilgan kuniyoq oyoqqa turishga, o'zi yurishga majbur edi».

Yana shuni ta'kidlash darkorki, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan paytda mamlakat ichkarisida bo'lgani kabi uning tashqarisida ham unga ishonmaydigan, shubha bilan qaraydiganlar bor edi. I.A.Karimov mamlakatning dastlabki yillardagi rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida quyidagi beshta asosiy qoidani o'rta tashladi:

Birinchi, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosi shuki, **iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi** kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli qilish kerak.

Ikkinchi, o'tish davrida **davlat bosh islohotchi** bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi shart.

Uchinchi, **qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi** lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.

To'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda **kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish**.

Bozor munosabatlarini joriy yetish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Beshinchidan, **bozor iqtisodiyotiga o'tish** obyektiv iqtisodiy qonunlar talablarini hisobga olgan holda, yaqin o'tmishimizdagi «Inqlobiy sakrash»larsiz, ya'ni evolutsion yo'l bilan puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

O'zbekiston hukumatining bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish haqidagi tamoyili vaqt o'tgani sayin o'zining hayotiy qiymatini, siyosiy kuchini ko'rsatdi. Binobarin, bular yetakchi tamoyillar sifatida tan olindi. Chunki ular iqtisodiy islohotlarning butun ichki mantig'ini, rivojlanish yo'lini va xarakterini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng kelajakda qanday yo'ldan borishi masalasi kun tartibiga qo'yilgan eng dolzarb masalalardan biri bo'ldi. Uning dolzarb bo'lib qolishining bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablari va omillari ham mavjud edi. Uning ob'ektiv sabablaridan biri jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha davlatlarga mos keladigan biron bir tayyor andozasining yo'qligi va bo'lishi ham mumkin emasligi edi. Ikkinchi obyektiv sababi – ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va qoidalar endilikda respublikada barpo etilayotgan yangi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat manfaatlariga mos kelmasligi edi. Demak, birinchidan, har bir davlat demokratik taraqqiyot yo'liga kirishi uchun ma'lum bir muddat talab qilinar edi. Ikkinchidan, vaqtni qo'ldan boy bermasdan rivojlanishning tarixiy jihatdan asrlar mobaynida shakllangan an'analari asosida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishni bir daqiqa ham kechiktirib bo'lmas, yangi konsepsiya ishlab chiqish zarur edi.

I.A.Karimov O'zbekistonning rahbari sifatida asosan ikki narsani mushtarak holda olib bordi. Ulardan biri mamlakatimizning o'z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish va ularning bizga maqbul jihatlarini ijobiy jihatdan o'zlashtirish bo'lsa, ikkinchisi -

O‘zbekiston xalqining turmush tarzi, mentaliteti va an‘analariga tayanishdan iborat bo‘ldi. Unga Islom Karimov tomonidan taklif qilingan besh asosiy tamoyil asos qilib olindi.

XX asr 50-yillardan keyingi yillarda ko‘pchilik sobiq mustamlaka mamlakatlar o‘z mustaqilligiga erishib, milliy davlat qurish yo‘liga o‘ta boshladilar. Bu vaqtda asosiy 3 taraqqiyot yo‘li: 1) kapitalistik; 2) sotsialistik; 3) milliy ozodlikka erishgan davlatlarning aralash yo‘nalishi haqidagi qarashlar bor edi. XX asr oxirlariga kelib biron-bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini qat‘iy qabul qilingan qoidalar doirasi bilan cheklab turish mumkin emasligi, taraqqiyot yo‘llari (modellari) ancha keng ko‘lam va maqsadga egaligi, ulardan birini tanlashda har bir mamlakat o‘z ichki sharoitlaridan kelib chiqmog‘i zarurligi ma‘lum bo‘ldi.

Taraqqiyot modellarining o‘ziga xos yo‘nalishlari va xususiyatlari:

“O‘zbek modeli” - O‘zbekistonning o‘ziga xos va mos taraqqiyot yo‘li ijtimoiy

yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish;

“Amerika modeli” - “Erkin bozor munosabatlari”

“Fransiya modeli” – “davlatning roli kuchli”

“Nemis va shved modili” – “ijtimoiy yo‘nalish ustuvor”

Lotin Amerikasi va Afrika modeli – “Iqtisodni barqarorlashtirish”

Sharqiy Yevropa modeli – Iqtisodiyotda “Shok terapeya” usulidan foydalaniladi;

«Yaponiya modeli» iqtisodiy munosabatlarda davlatning yetakchi o‘rni bilan belgilanadi;

Janubi-Sharqiy Osiyo (Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong) – “ijtimoiy soha va eksportni rag‘batlantirish”

Iqtisodiy taraqqiyot modeli global va milliy xarakterda bo‘ladi. Hozirgi vaqtda taraqqiyotning bir qator tipik global modellari mavjud.

“O‘zbek modeli” – qisman Erxard (nemis) modeliga o‘xshab ketadi. Nemislarga o‘xshab, mamlakatimizda 2 ta islohot o‘tkazildi.

1) 1993–94 yillarda pul islohoti (kupon) joriy qilinib, milliy sum muomalaga kiritildi;

2) Narx-navo islohati 1991–2001 yillar va undan keyingi davr

O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, – Biz mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, o‘z

umrini o‘tab bo‘lgan eski mustabid sovet tizimidan voz kechib, mamlakatimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga azmu qaror qildik.

Ma'lumki, taraqqiyotning – o‘zbek modelining mohiyati asosiy g‘oyalari eng dastlab I.Karimovning – “O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li” nomli fundamental asarida ko‘rsatib o‘tilgan edi. Keyinchalik mazkur taraqqiyot modeli haqidagi g‘oyalar birinchi Prezidentimizning boshqa asarlarida yanada rivojlantirildi va takomillashtirildi. Xususan, birinchi Prezidentning “O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li”, – “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” nomli asarlarida taraqqiyotning – o‘zbek modelining asosiy mazmunini, o‘zagini belgilab beruvchi tamoyillar yanada chuqurroq asoslab berildi.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek, – Beshta asosiy qoida O‘zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o‘zagidir. Ularning mohiyati quyidagicha: bir tomondan milliylik, ikkinchi tomondan umuminsoniylik yo‘nalishlari uyg‘unlashdi yoki ularning dialektik mutanosibligi o‘z aksini topdi.

“Birinchi tamoyilimizda, - deb yozgan edi I.A.Karimov, - avval-iqtisod, keyin siyosat degan shiorni olg‘a surdik”. Boshqacha qilib aytganda, **iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi** nazarda tutiladi. Iqtisodiy islohotlar siyosatdan ortda qolmasligi zarur.

Ikkinchi tamoyil - bu **davlatning bosh islohotchi ekanligi**. Yangilanish va o‘zgarishlar siyosatini ishlab chiqish va ularni izchillik bilan amalga oshirishni davlat o‘z zimmasiga oladi.

Uchinchi tamoyil, o‘z navbatida jamiyat hayotida, barcha sohalarda **qonunning ustuvorligi** ta'minlanadi. Aynan O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi ham umuminsoniy va milliy tamoyillarning mujassamlashgan yorqin namunasi hisoblanadi.

To‘rtinchi tamoyil, bu aholining demografik vaziyati, ayniqsa, uning 60 foizidan ko‘prog‘ini yoshlar tashkil yetganligi, kam ta'minlangan oilalarni, bolalarni, nafaqaxo‘rlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida **kuchli ijtimoiy siyosat** olib boriladi.

Beshinchi tamoyil - bu halqimiz an'analari, urf-odatlarini hamda **bozor iqtisodiyotining obyektiv qonun-qoidalarini hisobga olgan holda unga «shok terapiyasi» asosida emas, balki evolyusion**

**tadrijiy asosda, puxta o‘ylab bosqichma-bosqich o‘tish nazarda tutiladi.**

## **2.O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li**

O‘zbekiston mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning bir qancha bosqichlarini bosib o‘tdi. Albatta, ana shu bosqichlar biri ikkinchisidan keskin farq qilmasada, ulardagi asosiy g‘oya demokratik jarayonlarning olg‘a tomon rivojlanishini va ma‘lum bir vaqtga kelganda bu jarayonga yangi kuch, qudrat hamda faollik baxsh yetishdir. Chunki jarayonlar izchillik bilan tahlil etilmasa, undagi asosiy muammo aniqlanmasa va istiqboldagi vazifalar belgilanmasa, rivojlanish ham bo‘lmaydi.

Istiqlol yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida tub islohotlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar iqtisodiy hayotimizni ham qamrab oldi. Respublikaning boy imkoniyatlari, geosiyosiy sharoitidan kelib chiqib, O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish masalasi dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi sifatida belgilandi.

O‘tish davrida bozor iqtisodiyoti tushunchasi, unga o‘tish zarurati, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning «O‘zbekiston yo‘li» kabi masalalarning tub mohiyatini anglash eng dolzarb masalalaridan biri edi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning umumiyliigi, masalan, xususiy mulkchilik, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va takomillashtirishda talab, taklif qoidalarining bir xilligi bo‘lishi bilan bir qatorda har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi yo‘li mavjuddir. Bunda uning xo‘jalik tuzilishi va shart-sharoitlari, joylashgan yeri, tabiati va iqlimi, milliy kelib chiqishi, urf-odatlarini, an‘ana va milliy tavsifi va boshqa omillar sabab bo‘ladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo‘lgan bir xil taraqqiyot yo‘li, bir xil andoza bo‘lishi mumkin emas. Hozirda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning turli modellari mavjud bo‘lib, ular barcha mamlakatlarni bitta manzilga – erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keladi. Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining sotsial-iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti har xil bo‘lganligi tufayli, unga o‘tishning milliy xususiyatlari ham mavjud bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan biror

mamlakatning taraqqiyot yoʻlini yoki taraqqiyot modelini borligicha qabul qilib boʻlmaydi. Natijada oʻzigi xos yoʻlni tanlash muhim hisoblanadi.

Oʻzbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning iqtisodiy tizimni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqishdagi xizmatlari katta boʻldi. Sobiq tuzumda amal qilgan va markazlashgan maʼmuriy boshqarish tizimiga asoslangan iqtisodiyot oʻzining hayotiy emasligini, aholining oʻsib boruvchi ehtiyojlarini taʼminlay olmasligini aniq koʻrsatdi. Natijada mustaqillik yillarida mamlakat taraqqiyoti uchun Oʻzbekistonda bozor munosabatlariga oʻtishning oʻziga xos yoʻlini ishlab chiqish va bu yoʻlda tub islohotlarni belgilash zarurati yuzaga keldi. Oʻzbekistonning taraqqiyot yoʻlini ishlab chiqishga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boshchilik qildi. Islom Karimov Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 4 yanvardagi oʻn ikkinchi chaqiriq navbatdan tashqari IX sessiyasida soʻzlagan dasturiy nutqida hamda 1992 yil avgust oyida nashr etilgan «Oʻzbekistonning oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻli» asarida Oʻzbekistonning taraqqiyot yoʻlini har tomonlama puxta belgilab berdi.

Oʻzbekistonning oʻziga xos taraqqiyot yoʻli Islom Karimovning keyingi asarlari, maʼruza va nutqlarida yangi maʼno – mazmun bilan toʻldirilib, aniqlashtirilib borildi. Oʻzbekistonda ijtimoiy yoʻnaltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga oʻtish modeli Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Besh tamoyilni oʻz ichiga olgan bu modelning mazmuni va mohiyati Prezidentning 1993 yilda nashr etilgan «Oʻzbekiston – bozor munosabatlariga oʻtishning oʻziga xos yoʻli» nomli asarida asoslab berildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish “oʻzbek modeli”ning konsepsiyasi va tamoyillari, uning dunyo tomonidan tan olinishi. Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan mustaqil taraqqiyot yoʻli xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyot-ning «oʻzbek modeli» deb qabul qilindi. Oʻzbek modeli ishlab chiqishda, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xoʻjalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros boʻlib qolgan muammolar hisobga olindi.

Shuning uchun ham, respublika ichki va tashqi siyosatining asosiy yoʻnalishlari pirovard natijada chinakam mustaqil Oʻzbekistonda yangi, adolatli jamiyat barpo etishga qaratildi. «Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil, adolatli jamiyatni



bunyod etish - bosh vazifadir, - deb belgilandi. Birinchi Prezidentimiz bu boradagi fikrini davom ettirib «O‘zbekiston - kelajagi buyuk davlat. Bu - mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu - insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlah beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbayidir», - degan qoidani ilgari surdi. Bu Mustaqillikning bir yilligi arafasidayoq qat’iy qilib o‘rtaga tashlangan davlat siyosati edi. Shuningdek, yangilangan jamiyat har bir a’zosining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini kafolatlovchi yo‘llarni ham ko‘rsatib berdi. Jumladan, **siyosiy sohada** bu:

- xalq, ham bevosita, ham o‘z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to‘liq ishtirok etishi lozimligini;
- hokimiyat bo‘linishining jahon tan olgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linish tamoyilini joriy etish asosida demokratiyani chuqurlashtirish hamda milliy davlatchilikni barpo qilishni;
- jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yangilashni;
- barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini ta’minlashni;
- bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni;
- demokratiyaning qonuniy tarkibi sifatida ko‘ppartiyaviylikni shakllantirishni;
- O‘zbekistonda tug‘ilib, uning zaminida yashayotgan, mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligi va e’tiqodidan qat’i nazar respublikaning teng huquqli fuqarosi bo‘lishga erishishni bildiradi.

**Iqtisodiy sohada** esa bu:

- milliy boylikning ko‘payishini ta’minlaydigan barqaror, rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni;
- ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirishni;
- mulk egalari huquqlarining davlat yo‘li bilan himoya qilishini ta’minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirishni;

- iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmasdan korxonalar va tashkilotlarning Mustaqilligini kengaytirishni, davlatning xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechishni;

**Ijtimoiy va ma'naviy sohada bu:**

- insonparvarlik g'oyalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmatini, yashash joyini tanlash huquqi saqlanib qolishini;

- ma'naviyatni qayta tiklashni;

- o'zbek tilini rivojlantirishni;

- hurfiylik, vijdon va din erkinligini qaror toptirishni;

- ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari - keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi-yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlarini ta'minlashni;

- odamlarning iste'dod qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilishni bildiradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning ikkinchi bosqichi vazifalari sifatida mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish borasidagi asosiy vazifalar - xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy valyutani mustahkamlash, ijtimoiy kafolatlari kuchli bo'lgan demokratik davlatni shakllantirish vazifalarini belgilab beradi.

Mazkur masalaning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

birinchidan, iqtisodiy siyosatda dehqonchilikka, umuman qishloq hayotiga yetakchi tarmoq sifatida qarash;

ikkinchidan, milliy valyutani joriy qilish, uning qadrini muttasil oshirib borish;

uchinchidan, mulkchilikning barcha shakllariga erk berish, shaxsiy tashabbus va ishbilarmonlikka yo'l ochish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;

to‘rtinchidan, iqtisodni jonlashtirish uchun korxonalarni xususiy lashtirish, bu jarayonni tobora chuqurlashtirish;

beshinchidan, o‘tish madaniyati va qadriyatlarini tiklash ishlarini yo‘lga qo‘yish va bu borada izchil tadbirlarni amalga oshirish.

Bular Mustaqil O‘zbekistonda davlat Mustaqilligini amalga oshirishning jamiyat rivojining hozirgi bosqichidagi ustuvor yo‘nalishlaridir. Bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy xususiyatlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan iborat edi. Shuning uchun 1991 yilning 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida mulkni “Davlat tasarraufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra mulkchilik shakllarini o‘zgartirish sahasidagi ishlar mamlakat miqyosida hayotga tatbiq etila boshlandi.

Dastlabki bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko‘rsatish korxonalarini hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimni, xullas “kichik xususiylashtirish” jarayonini qamrab oldi. Birinchi bosqichda (1992-1993 yillar) 1 mln. kvartira xususiylashtirildi yoki O‘zbekiston shaharlaridagi har bir oildada o‘rtacha 4,7kishi bo‘lsa, qariyb 5 mlnga yaqin kishi birgina kvartirani xususiylashtirish hisobiga mulkdorga aylandi. “Kichik xususiylashtirish davrida 1992-1994 yillarda 54 mingga yaqin korxonalar va obyekt davlat tasarrufidan chiqarildi”. Xususiylashtirishning yangi bosqichi 1994 yildan boshlanib, shu yilning o‘zida 5127 ta obyekt xususiylashtirildi. Bu jarayonlar qishloq xo‘jaligida ham boshlandi.

### **3. Yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari**

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritilgach, tabiiy ravishda davlat mustaqilligi va suverenitetini Konstitutsiya asosida mustahkamlash zarurati yuzaga keldi.

O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini tayyorlash g‘oyasi dastlab Islom Karimov tomonidan 1990 yilning mart oyida ilgari surildi. 1990 yil 20 iyun kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Oliy Kengashining II sessiyasida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat

Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo'jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi.

Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida 2,5 yil ishladi. Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o'rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo'lga kiritilgan yutuqlar hisobiga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa davlat arbobi hamda allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g'oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi.

Loyihaning dastlabki varianti 1991 yil oktabr – noyabrigacha tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'limga bo'lingan 158 moddadan iborat edi. Bu loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi. Uning ustida yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash zarur edi. 1992 yil bahorida esa loyiha 149 – moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. 1992-yil 26-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992-yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Birinchi Prezident Islom Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o'zining katta hissasini qo'shdi.

**1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo'ldi. Unda mamalakatning Asosiy Qonunini qabul qilish masalasini muhokama qildi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining Qonstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e'lon qilish to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini amalga kiritish tartibi to'g'risida»gi Qonunlarni qabul qildi.**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. U «Mustaqillik Deklaratsiyasi», «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g‘oyalarni o‘zida to‘la mujassamlashtirdi.

**Davlat ramzlarining qabul qilinishi:** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabr VIII sessiyasida 13 moddadan iborat bo‘lgan «**O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi Qonuni** qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i ramzi mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo‘lgan g‘oyat qudratli saltanatlar bayrog‘iga xos bo‘lgan eng yaxshi an‘analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalardagi o‘zligini ham aks ettiradi.

Bayroqdagi moviy rang – mangu osmon va musaffo suv ramzidir. Yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuhratga sadoqatni bildiruvchi moviyrang Sharqda azaldan qadrlanadi, o‘z vaqtida buyuk Amir Temur ham o‘z bayrog‘iga bu rangni tanlagan. Oq rang – tinchlik va poklik timsolidir. Yosh mustaqil davlat o‘z yo‘lida baland dovonlardan oshib o‘tishi kerak. Bayrog‘imizdagi oq rang yo‘limizning musaffo va charog‘on bo‘lishi uchun yaxshi niyat ramzidir. Qizil yo‘llar – bu har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, tiriklik ramzidir. Yashil rang – serne‘mat va orombaxsh tabiat timsoli. Hozirgi vaqtda butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyilmoqda, uning ramzi ham yashil rangdir. Yarim oy — O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik an‘analariga muvofiq keladi. Yarim oy va yulduzlar – musaffo osmonning va tinchlikning ramzlaridir. Bayrog‘imizda 12 yulduz tasviri bor, bu o‘lkamizda qadimdan buyon barkamollik, mukammallik timsoli hisoblanadi.

Davlat bayrog‘i – bizning o‘tmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagimiz ramzidir. O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i Nyu-York shahrida joylashgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti qarorgohida dunyodagi suveren davlatlar bayroqlari qatorida turibdi. O‘zbekiston bayrog‘i xorijiy mamlakatlarda Prezidentimiz boshliq davlat delegatsiyasini qabul qilish marosimlarida, chet el davlat delegatsiyalarini O‘zbekistonda qabul qilish marosimlarida ko‘tariladi.

O‘zbekiston bayrog‘i O‘zbekiston Prezidenti qarorgohi Oqsaroy binosi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi binosi tepasiga olib qo‘yilgan. O‘zbekiston sportchilari jahon sport musobaqalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, shohsupaga ko‘tarilgan paytlarda ham O‘zbekiston bayrog‘i ko‘tariladi. Shu boisdan mamlakatimizda va jahon uzra O‘zbekiston bayrog‘ining ko‘tarilishi, bir tomondan, davlatimiz shon-shuhratini ko‘tarsa, ikkinchi tomondan, barchamizga quvonch, faxrlanish, g‘urur bag‘ishlaydi. O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i yurtimizning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ramzi bo‘lib qoldi.

1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 8 moddadan iborat bo‘lgan **«O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida»gi Qonun** qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma‘noga ega. Gerb rangli tasvirda bo‘lib, Humo qushi kumush rangda, quyosh, boshoqlar, paxta chanog‘i va «O‘zbekiston» degan yozuvlar tilla rangda, g‘o‘za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, tog‘lar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i tasvirlangan lenta to‘rt xil rangda berilgan.

Gerbning markazida tasvirlangan – qanotlarini keng yozib turgan Humo qushi – baxt saodat va erksevarlik ramzidir. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy Humo qushini barcha tirik mavjudotlar ichida eng saxovatlisi deb ta‘riflagan. Gerbning yuqori qismida respublikamizning sobit va barqarorligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. U “qutlug” degan ma‘noni anglatadi. Uning ichida yarim oy va besh qirrali yulduz ifodalangan. Quyosh tasviri – davlatimizning yo‘li hamisha nurli bo‘lishi uchun bildirilgan yaxshi niyat timsoli. Ayni paytda u respublikamizning noyob iqlim sharoitini ham ko‘rsatib turadi.

Boshoqlar – rizq-ro‘zimiz bo‘lmish g‘allaning timsoli, oppoq bo‘lib ochilayotgan paxta chanoqlari tasvirlangan g‘o‘za shoxlari – serquyosh yurtimizning dong‘ini butun dunyoga taratgan asosiy boyligimiz ramzidir. Bug‘doy boshoqlari va paxta chanoqlarining davlat bayrog‘iga o‘xshagan lenta bilan o‘rab qo‘yilganligi — bu respublikada yashayotgan xalqlar yakdilligining timsolidir. Gerb rangli tasvirda bo‘lib, Humo qushi kumush rangda, quyosh, boshoqlar, paxta chanog‘i va “O‘zbekiston” degan yozuv tillaranda; g‘o‘za shoxlari va barglari, vodiylar yashilrangda, tog‘lar

havorangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda, O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i tasvirlangan lenta to‘rt xil rangda berilgan. Gerb suveren davlatimiz ramzi sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tuzilgan bitim va shartnomalarida, davlatlararo aloqa va diplomatik hujjatlarda O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi tasviri tushirilgan bo‘ladi. Shuningdek, gerb davlat ahamiyatiga molik ichki hujjatlarda, davlat korxonalarida va muassasalarining muhrlarida, o‘zaro aloqa hujjatlarida ham gerb tasviri bo‘ladi. Milliy valutamiz – so‘mda ham davlat gerbi o‘z ifodasini topgan.

1992-yil 10-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida 12 moddadan iborat **«O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi Qonuni** qabul qilindi.

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi Qonun 1992-yil 10-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilindi. Shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan variant tasdiqlandi. Davlat madhiyasi davlat mustaqilligining timsoli bo‘lib, u O‘zbekiston fuqarosida vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otadi. O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi jamoatchilik oldida ijro etilganida ishtirokchilar uni tik turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib kuylaydilar va tinglaydilar.

Har bir mustaqil davlatning asosiy belgilaridan biri – **milliy valyutasidir**. O‘zbekiston davlat mustaqilligini ko‘lga kiritib o‘zining milliy valyutani muomalaga kiritishga kirishdi. Biroq bu jarayon uchun ma‘lum vaqt, tajriba kerak edi. Shu boisdan O‘zbekiston 1991 – 1993-yillarda Sobiq Ittifoqdan meros qolgan rubl zonasida bo‘lib turdi. Ammo sovetlardan keyingi makonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi.

O‘zbekiston muomalaga yangi milliy valyuta kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1992 yildayoq muomalaga chiqarishga mo‘ljallangan so‘m – kupon nusxalari tayyorlanadi. Nihoyat, 1993 yil 1 noyabrda O‘zbekistonda so‘m – kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo‘lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. O‘zbekiston rahbariyati so‘m-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko‘rdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyunda e‘lon qilingan «O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq **1994 yil 1 iyulidan** boshlab respublika hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to‘lov vositasi sifatida **milliy valyutasi – so‘m** muomalaga chiqarilgan. 1 so‘m kursi 1000 so‘m-kuponga tenglashtirilgan holda joriy qilindi.

Muomalaga 1994 yilda 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so‘mlik, 1997 yil 1 martdan 200 so‘mlik, 2000 yil 1 iyuldan 500 so‘mlik, 2001 yil 1 sentyabrdan 1000 so‘mlik, 2013 yilda 5000 so‘mlik, 2017 yil 10000 hamda 50000 so‘mlik, 2019 yildan 100000 so‘mlik banknotlar chiqarilgan. Keyinchalik, 1, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500 so‘m qiymatidagi tangalar muomalaga kiritilgan.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” deganda nimani tushunasiz?
2. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” nechta tamoyilni o‘z ichiga oladi?
3. Taraqqiyotning o‘ziga xos modellari haqida nima bilasiz?
4. O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘li I.Karimovning qaysi asarlarida bayon qilib berilgan?
5. Yangilanayotgan jamiyatning siyosiy sohasida qanday o‘zgarishlar amalga oshiriladi?
6. Yangilanayotgan jamiyatning iqtisodiy sohasida qanday o‘zgarishlar amalga oshiriladi?
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi tarixiy jarayoni haqida nimalarni bilasiz?
8. O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari haqida gapirib bering.

### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
2. Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. - Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
3. Мустакил Ўзбекистан тарихининг дастлабки саҳифалари. - Тошкент, 2000.



4. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабилов. - Тошкент: Академия, 2013.
5. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Тошкент: Шарқ, 2006.
6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.
7. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
8. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Тошкент: Маънавият, 2011.

## **AXBOROT MANBALARI**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

### **Мавзу: О‘ЗБЕКISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHOTLAR**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Hokimiyatlar bo‘linish prinsipi, huquqiy demokratik davlat, Prezident, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati, milliy parlament, Oliy Majlis, qonunchilik palatasi, Senat, Vazirlar Mahkamasi, sud-huquq tizimi, Oliy sud, fuqarolik sudi, ma‘muriy sud, jinoyat ishlari sudi, iqtisodiy sudlar, hokimlik, fuqarolik jamiyati, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlar*

#### **1. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. O‘zbekistondagi parlament tizimi va undagi islohotlar**

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik orzu-umidlari ifodasi bo‘lgan mustaqillikning asosiy xususiyati milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ta‘minlaydigan huquqiy-demokratik davlat qurish edi.

Mustaqillik yillari milliy davlatchilik asoslarini qurish yillari bo‘ldi. O‘tgan yillar ko‘hna tariximizni teran his qilish, hozirgi jahon sahnasida o‘z o‘rnimizni egallash davri bo‘ldi. Bu davrda biz o‘zligimizni anglab, tarixiy yo‘limizni uzil-kesil tanlab oldik.

Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov tarixiy an‘analarga, dunyo tajribalariga, o‘lkaning o‘ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni siyosiy jihatdan tubdan isloh qilish yo‘llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita bosh vazifa:

1.Eski ma‘muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish;

2.Yangi davlatchilikning huquqiy va siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalarini hal qilishdan iboratdir.

Jamiyatda qonuniylikning g‘alaba qilishi, fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy va boshqa huquqlarini himoyasi uchun hokimiyatlarning bo‘linish prinsipi haqli ravishda amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida **hokimiyatning bo‘linishi tamoyili** Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Xususan, Konstitutsiyaning 11-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi-hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga bo‘linishi tamoyiliga asoslanadi”, deb belgilab qo‘yilgan. Mazkur tamoyil davlat idoralari faoliyatining samarali bo‘lishiga shart-sharoit yaratadi, ayni paytda, hokimiyatning suiste‘mol qilinishiga chek qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati Konstitutsiyaning V-bo‘lim XVIII bobida va 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan. Bu qonunlarga ko‘ra, oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Mustaqillik qo‘lga kiritilgan dastlabki paytlardan oq O‘zbekistonda demokratiyani taraqqiy toptirish uchun hozirgi zamon jahon standartlariga javob bera oladigan samarali va ishchan parlamentni shakllantirish zarur degan fikrda yakdil edi. Ammo bir ijtimoiy tizimdan ikkinchisiga o‘tish sharoitida bu vazifa – murakkabgina bo‘lib qolmay, balki hayot-mamotni hal qiladigan darajada qiyin masala ham edi.

“Bosqichma-bosqichlilik” tamoyiliga amal qilgan islohotchi davlat ushbu jarayonni quyidagi bosqichlarda o‘tkazdi: **O‘zSSR Oliy Sovetidan – mustaqil O‘zbekistonning Oliy Sovetiga, undan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va yarim professional bir palatali parlamentdan – ikki palatali professional parlamentga.** Birinchi bosqichda suverenitet asoslarini o‘rnatish, davlat va jamiyat qurilishi, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va

ijtimoiy sohalarda muhim qonunlar qabul qilish kerak edi. Parlamentarizm saboqlarini o'zlashtirish, bunda nafaqat parlament sub'ektlari, balki butun jamiyat bu saboqlarni o'zlashtirmog'i kerak edi. Gap shundaki, parlament degan so'zning o'zi mustaqillik qo'lga kiritilgunicha O'zbekistonda ishlatilmas edi.

O'zbekiston 1991 yil 1 sentyabrda davlat mustaqilligiga erishgach, davlat hokimiyatining eng muhim institutlaridan biri sifatida milliy parlamentni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e'tirof etilgan uchta asosiy davrga bo'linadi. ***Birinchi davr: 1991-1994 yillar, ikkinchisi: 1995-2004 yillar va uchinchi davr: 2005 yildan hozirgi paytgacha.***

#### ***Birinchi davr: 1991-1994 yillar***

O'tish davri parlamenti deb atash mumkin bo'lgan oxirgi chaqiriq Oliy Kengash davlat boshqaruvining mutlaqo yangi organlarini tashkil etishning, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli demokratik jamiyat qurishning huquqiy negizi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Parlament yosh davlatning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonunlarni qabul qildi.

Oliy Kengashning o'n ikkinchi sessiyasi 1994 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi saylovni 1994 yil 25 dekabrda o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Uch bosqichda (1994 yil 25 dekabrda, 1995 yil 8 va 22 yanvarda) bo'lib o'tgan saylov yakunlariga binoan 245 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament shakllantirildi. Saylov ko'p partiyaviylik asosida o'tkazildi.

#### ***Ikkinchi davr: 1995-2004 yillar***

Oliy Majlisga birinchi saylovlar 1994 yil 25 dekabrda ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida o'tdi. 250 ta deputatlik mandati uchun 634 nafar nomzod kurash boshladi, shundan 139 saylov okrugida uchtadan nomzod, 106 okrugda – 2 tadan nomzod kurash olib borgan bo'lsa, faqat 5 ta okrugdangina 1 tadan nomzod

ko'rsatilgan edi. Saylovchilar o'zlarining eng yaxshi vakillarini saylashlari uchun barcha saylov huquqlari muhayyo qilingan edi. Saylovlarda 10 million 526 ming 654 nafar saylovchi, ya'ni umumiy saylov huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning 93,6 foizi ishtirok qildi.

Oliy Kengash o'rniga O'zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti - Oliy Majlis shakllantirildi.

*Birinchi chaqiriq* (1995-1999 yillar) Oliy Majlis tarkibida O'zbekiston Xalq-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan 69 nafar, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan 47, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 14 va «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan ko'rsatilgan 7 nafar deputat bo'lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko'rsatilgan shaxslar tashkil etdi. Parlament fraksiyalari ilk bor tashkil etildi. Bundan tashqari deputatlarning ma'lum bir qismi Qoraqalpog'iston parlamenti, viloyatlar hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi tomonidan saylandi. Shunga ko'ra, fraksiyalar bilan bir qatorda parlament faoliyatida hokimiyatlarning vakillik organlaridan kelgan 120 deputatlik blok ham bor edi. Deputatlarning yarmidan ko'pi yilda 4 marotaba bo'ladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyalari vaqtida qonunchilik vazifalarini amalga oshirib, avvalgi ish o'rinlarida ishlab turgan o'z majburiyatlarini ado qilishda davom etdilar.

*Ikkinchi chaqiriq* (1999-2004 yillar) Oliy Majlisga saylov hokimiyat vakillik organlari bilan bir qatorda beshta siyosiy partiya va saylovchilar tashabbuskor guruhleri ishtirokida bo'lib o'tdi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisda 11 nafar deputatni birlashtirgan «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi, 10 nafar deputatdan iborat «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi, 20 nafar deputatga ega bo'lgan «Vatan taraqqiyoti» partiyasi fraksiyasi, 34 nafar deputat tashkil etgan Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi fraksiyasi, 49 nafar deputatdan iborat Xalq-demokratik partiyasi fraksiyasi, 107 nafar kishidan iborat hokimiyat vakillik organlaridan saylangan deputatlar bloki va 16 nafar saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bloki ro'yxatga olindi.

Parlament faoliyatini kuchaytirishga, shu jumladan, qonunchilik jarayonini to'la professionallashtirishga, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning sifatini oshirishga bo'lgan ehtiyoj – ikki palatali parlament tizimiga o'tishning asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Bundan tashqari, taqsimlangan vakilliklarga ham ehtiyoj tug'ildi, ya'ni quyi

palatani partiyalar va fuqarolar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bilan shakllantirish (jami 120 nafar), yuqori palatani joylardagi hokimiyat organlari vakillari (Qoraqalpog‘iston, Toshkent shahri va viloyatlardagi deputatlarning mahalliy kengashlaridan 6 kishidan) va mamlakat Prezidenti tayinlaydigan 16 nafar deputat bilan to‘ldiriladigan bo‘ldi (jami 100 nafar senator).

2008 yilda saylov qonunchiligiga o‘zgartirishlar kiritildiki, bunda Qonunchilik palatasi deputatlari o‘rinlarining soni 120 tadan 150 taga oshirildi. Shundan 15 tasi O‘zbekiston Ekologik harakatidan va 135 tasi siyosiy partiyalardan saylanishi belgilab qo‘yildi. Keyinchalik kiritilgan o‘zgartishlarga ko‘ra O‘zbekiston Ekologik harakatiga berilgan kvotalar bekor qilindi.

**Qonun ijodkorligi** deputatlar ishining bosh yo‘nalishiga aylandi. 1995 – 2004 yillarda Oliy Majlis 240 ta qonun, 778 ta qaror qabul qildi, amaldagi qonun hujjatlariga 1573 ta o‘zgartish va qo‘shimcha kiritdi, 130 tadan ziyod xalqaro shartnoma va bitimni ratifikatsiya qildi. **Parlament nazorati** bir palatali Oliy Majlis faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Oliy Majlis qo‘mitalari va komissiyalari qonunlar, konvensiyalar, milliy dasturlar ijrosini nazorat qilish tartibida har yili 60 ga yaqin masalani ko‘rib chiqdilar.

***Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylov va ikki palatali parlamentga o‘tish (2004 yil dekabr — 2005 yil yanvar).*** Ikki palatali parlamentga o‘tish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish asosida amalga oshirilgan konstitutsion islohotlar, shuningdek asosiy konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilinishi natijasida Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazilib, u ikki bosqichdan iborat bo‘ldi. Saylov o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, saylov uchastkalariga bo‘lingan 120 ta saylov okrugi tashkil etdi. Saylovning birinchi bosqichi 2004 yil 26 dekabr kuni o‘tkazilib, 62 nafar xalq noibi, 2005 yil 9 yanvarda bo‘lib o‘tgan ikkinchi bosqichda Qonunchilik palatasiga 58 nafar deputat saylandi.

Saylovda quyidagi siyosiy partiyalar ishtirok etdi: O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O‘zbekiston Xalq-demokratik partiyasi, O‘zbekiston Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi (2000 yilning iyunida Fidokorlar partiyasi “Vatan taraqqiyoti” partiyasi bilan birlashgan), O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi,

shuningdek O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi. Saylov natijalariga ko‘ra siyosiy partiyalar va saylovchilarning tashabbuskor guruhlari vakillari bo‘lgan deputatlar o‘rtasida parlamentdagi o‘rinlar taqsimoti quyida keltirilgan diagrammada berilgan.

**Uchinchi davr.** Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo‘shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o‘z ishlariga kirishdilar.

Ikki palatali parlament sharoitlarida qonunlar uch o‘qishda qabul qilinadi. Birinchi o‘qishda odatda qonun loyihasining umumiy konsepsiyasi va asosiy qoidalaritasdiqlanadi, ikkinchisida - har bir modda batafsil ko‘rib chiqiladi hamda shu modda yuzasidan alohida ovoz berish o‘tkaziladi, uchinchi o‘qishda esa qonun loyihasi uni muhokama qilmay to‘laligicha ovozga qo‘yiladi. Shundan so‘ng qonun qabul qilinib, ma’qullash uchun Senatga yuboriladi. Qonun Senat tomonidan ma’qullangandan so‘ng imzolash uchun Prezidentga yuboriladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi – **Prezidentlik boshqaruvi** shaklini rivojlantirishga kirishildi. Dunyo davlatchiligi tarixida davlat boshqaruvining monarxiya va respublika shakllari mavjud bo‘lib, respublika boshqaruv shakli o‘z navbatida parlamentar respublika va prezidentlik respublikasi ko‘rinishlariga ega.

Bugungi kunda BMTga a’zo bo‘lgan 193 ta davlatdan 143 tasida Prezident lavozimi ta’ sis etilgan. *Prezident so‘zi lotincha so‘z bo‘lib, “oldinda o‘tiruvchi” ma’nosini bildiradi.*

1990-yil 24-martda O‘zbekiston Respublikasida prezidentlik institutining vujudga kelishi mamlakatimiz milliy davlatchiligining rivojlanishida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. 1990-yil 1-noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan davlat boshqaruvining uyg‘un tizimini yaratish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini bir-biridan qat’iy farqlab qo‘yish muhim ekanligini hisobga olib, prezidentlik hokimiyati bilan Ministrlar Sovetining ijroiya-boshqaruv hokimiyati qo‘shib yuborildi. O‘zbekiston Respublikasi Ministrlar Soveti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi bo‘lishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining apparati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi bitta apparatga birlashtirilishi belgilandi. Mazkur qonun mamlakatimizda davlat boshqaruv shakli – prezidentlik respublikasiga asoslanishini mustahkamlab qo‘ydi. Prezidentlik instituti ta’ sis etilganidan so‘ng davlatimizda keng qamrovli islohotlar boshlandi.

1991-yil 18-noyabrda mamlakatimizda prezidentlik saylovlarini tartibga soluvchi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Shu asosda 1991-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida saylov bo‘lib o‘tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod – O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi va O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi nomzodi Islom Karimov va “Erk” demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo‘yildi. Saylovlar yakuniga ko‘ra, ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 12,3 foizi esa Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi.

1995-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish masalasi bo‘yicha umumxalq referendumini bo‘lib o‘tdi. 2000-yil 9-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o‘tkazildi. Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida o‘tkazilgan saylovda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. 2002-yil 27-yanvarda bo‘lib o‘tgan referendumda prezidentlik lavozimi vakolati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. 2007-yil 23-dekabrda bo‘lib o‘tgan saylovda 88,1 foiz ovoz bilan Islom Karimov 7 yilga saylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati 2015-yil dekabrda tugashi munosabati bilan Prezidentlik lavozimiga saylov o‘tkazildi. 2015-yil 29-mart kuni prezident saylovida Islom Karimov 90,39 foiz ovoz bilan g‘alaba qozondi.

2016-yil 2-sentabrda Islom Karimov og‘ir xastalik tufayli vafot etdi. Shu munosabat bilan navbatdan tashqari umumxalq prezidentlik saylovlari o‘tkazildi. 2016-yil 4-dekabrda O‘zbekiston

Konstitutsiyasi va “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq muqobillik va sog‘lom raqobat asosida Prezidentlik saylovi o‘tkazildi. Unda 88,61 % ovoz bilan o‘sha paytdagi Bosh vazir Shavkat Miromonovich Mirziyoyev (O‘zLiDeP nomzodi) Prezident etib saylandi. 2021-yil 24-oktabrda o‘tkazilgan navbatdagi Prezidentlik saylovlarida Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 80,12 % ovoz olib ikkinchi muddatga O‘zbekiston Respublikasi Prezident etib saylandi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi tizimiga davlat boshlig‘i sifatida Prezident, respublika hukumati sifatida Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, markaziy davlat boshqaruvi idoralari va ularning joylardagi mahalliy organlari, viloyat, shahar, tuman hokimlari va hokimiyatlar hamda ularning bo‘limlari va boshqarmalar kiradi.

**Hukumat** bu – davlat boshqaruvining oliy organi bo‘lib, Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. Hukumat shu bilan birga, jamoat tartibi va milliy xavfsizlikni ta‘minlaydi, shuningdek davlat boshqaruvining boshqa organlari hamda Qurolli kuchlarga umumiy rahbarlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida hukumat “Vazirlar Mahkamasi” deb nomlangan bo‘lib, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonunga binoan u O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma‘naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta‘minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.<sup>11</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan respublikada ijro etuvchi hokimiyatning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qoida hukumat maqomi, uning alohida huquqlarini, tarkibini, qonun chiqaruvchi organlar, ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan o‘zaro munosabatlari tarkibini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hukumat Prezident, Oliy Majlis va sudlar bilan bir qatorda hokimiyatni, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘lish asosida davlat hokimiyatini amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi qonun bilan belgilab qo‘yilgan o‘z tarkibiga ega. Unga ko‘ra, Vazirlar mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, uning

---

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1993 йил 5 сон. 202 модда. (янги тахрирда «Халқ сўзи» газетаси 2003 йил 29 август)



birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi vazirlari, davlat qo‘mitalarining raislari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari kiradilar.

Vazirlar Mahkamasining asosiy huquqiy maqomi – uning mustaqil O‘zbekiston hukumati ekanidadir. Unga, o‘z vakolati doirasida, qonunlarni va Prezident farmonlarini ijro etish ma’suliyati yuklangan. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni ta’minlaydi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruv idoralar tizimiga va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruvi muassasalariga rahbarlik qiladi.

1990-yil 15-noyabrda O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq ravishda O‘zbekiston Prezidenti huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi, Prezident uning Raisi bo‘ldi. Respublikada vitse-prezident lavozimi ta’sis etilib, uning zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini uyushtirish vazifasi yuklandi. 1992-yil 4-yanvarda vitse-prezident lavozimi tugatildi va O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimi ta’sis etildi. Bosh vazir zimmasiga vitse-prezident vakolatlari berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XX bobida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, uning tashkil etilishi, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va vakolatlari belgilab qo‘yildi. Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining 1993-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi (yangi tahriri 2003-yil) qonuni asosida olib boradi. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining hukumati hisoblanib, Oliy Majlisning qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta’minlovchi O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatida Bosh vazir va uning o‘rinbosarlaridan iborat tarkibdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosati faoliyat ko‘rsatadi. 2003-yil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 89-moddasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi”, degan ikkinchi qismi olib tashlandi.

**O‘zbekiston hukumati – Vazirlar Mahkamasiga Bosh vazir rahbarlik qiladi.** Vazirlar Mahkamasi tarkibida Rais lavozimi

bo'lmaydigan bo'ldi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari nomzodlari avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi hamda tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolari esa Bosh vazirning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Umuman, hozirgi kunda mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida islohotlar chuqurlashtirilmoqda. Oliy Majlisga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi (lot. erk, ixtiyor, xohish) bildirish huquqi berildi. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi Prezident vakolati doirasidan chiqarildi. Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartib belgilanib, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi (saylovchi tashkilot vakillarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qarorlar) instituti joriy qilindi.

O'zbekistonda Bosh vazir maqomiga teng Vitse-prezidentlik lavozimida Shukrullo Mirsaidov (1990 – 1992), Bosh vazir lavozimida Abdulhoshim Mutalov (1992–1995), O'tkir Sultonov (1995–2003), Shavkat Mirziyoyev(2003–2016) lar faoliyat yuritgan. 2016-yil 14-dekabrda **Abdulla Aripov** Bosh vazir lavozimida faoliyat olib bormoqda.

O'tgan yillar davomida boshqaruv sohasidagi vazifalarning bir qismi respublika darajasidan viloyat, shahar, tuman miqyosiga o'tkazildi, mahalla tizimini shakllantirish masalasiga katta e'tibor berildi. Bir so'z bilan aytganda, boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash ishlari amalga oshirildi va bu boradagi islohotlar davom etmoqda.

## **2. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati**

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ko'ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi davlat hokimiyati oliy va mahalliy organlarning takomillashishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Istiqlol yillarida vujudga kelgan siyosiy partiyalar o'z faoliyatida o'zbek xalqining eng yaxshi demokratik an'analariga, adolat, ezigulik, tinchlik va inson erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlar hamda

g'oyalarga, axloqiylik va odamiylik qoidalariga suyanadi. Ular o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan Qonuniga va boshqa hujjatlarga muvofiq, shuningdek o'z dasturlariga asosan amalga oshiradilar. Ko'ppartiyaviylik demokratik taraqqiyot yo'lida erishilgan muhim yutuqlaridan biridir.

**Ko'ppartiyaviylik** – jamiyat hayotida ikki yoki undan ortiq partiyaning faoliyat yuritishidir. Bu holat demokratik yo'lga kirgan davlat va jamiyatlarga xos hisoblanib, jamiyat taraqqiyoti fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi. Jamiyatda siyosiy partiyalarning erkin faoliyat ko'rsatishi demokratik huquqiy davlat barpo etishning asosiy garovidir. Hozirgi davr jahondagi demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishidir.

Mustaqillik davrida tashkil topgan ilk siyosiy partiya bu – **O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidir**. Partiyaga 1991-yilning noyabrda asos solindi. Uning maqsadi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Mazkur partiya tashkil etilganidan hozirgi kunga qadar besh marotaba Prezident saylovlarida hamda parlament saylovlarida ishtirok etib, parlamentda o'z fraksiyasini tashkil etishga erishdi.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylikning rivojlanish tarixida o'z o'rniga ega partiyalardan yana biri O'zbekiston "**Vatan taraqqiyoti**" partiyasi bo'ldi. Ushbu partiya 1992-yil tashkil topgan. Lekin besh yillik faoliyati o'z vazifalari doirasida faoliyat yuritishga olmadi, deb topildi. 2000-yil aprelda "Vatan taraqqiyoti" partiyasi va "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasining qo'shma qurultoyi bo'lib, unda har ikki partiya harakati, faoliyat dasturi yakdilligi muhokama qilindi, ularning birlashib ishlashlari maqsadga muvofiq, degan xulosa asosida ikkita partiya birlashdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida tashkil topgan partiyalardan yana biri bu – **O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidir**. 1995-yil fevralda tuzilgan O'zbekiston "Adolat sotsial-demokratik partiyasi O'zbekistonda shakllangan sotsial-demokratik partiyadir. Sotsial-demokratik partiyalarning asosiy maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan. Partiya shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlardagi sotsial-demokratik yo'nalishdagi partiyalar bilan aloqalarni yo'lga qo'yishga va xalqaro sotsial demokratik harakatlarda faol ishtirok etishga intilmoqda.

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi o‘rta sinf va ehtiyojmand aholi tabaqasiga tayanadi, ularning siyosiy va ijtimoiy irodalarini ifodalashga intiladi.

Mustaqillik yillarida tashkil topgan partiyalardan yana biri – bu **O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasidir**. Ushbu partiya 1995-yili iyunda tuzilgan. O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasining asosiy maqsad vazifasi milliy an‘analarni va qadriyatlarni saqlashdan iborat. 2008-yil iyunda O‘zbekiston “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi va O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo‘lib, unda asosiy masala O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasini birlashtirish to‘g‘risidagi masala ko‘rildi. Qurultoyda partiyalarning maqsadli dasturiy vazifalari mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir-biriga yaqinligi ta’kidlandi va ular birlashtirildi.

O‘zbekiston siyosiy tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib ulgurgan partiya **O‘zbekiston Liberal-Demokratik partiyasi (O‘zLiDeP)dir**. Partiya 2003-yil noyabrda tashkil topgan. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi umummilliy siyosiy tashkilot sifatida mulkdorlar qatlami, kichik biznes, fermerlik va dehqon xo‘jaliklari vakillari, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassisleri va boshqaruv xodimlari, ishbilarmonlar manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi.

2008-yil O‘zbekiston Respublikasining “Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining *Qonunchilik palatasiga besh yil muddatga 135 deputat saylanib, Qonunchilik palatasining 15 deputati O‘zbekiston ekologik harakatidan, o‘z ichki qurultoyidan saylanishi* belgilandi. Ushbu Qonun asosida Oliy Majlisning **Qonunchilik palatasidagi deputatlarining soni 150 deputatdan iborat bo‘ldi**. O‘zbekiston ekologik harakati – 2008-yil avgustda tashkil topgan. Ushbu harakat asosida 2019 yil yanvarda O‘zbekiston ekologik partiyasi tashkil etildi.

2017-yil 22-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi e‘lon qilindi. Mazkur Murojaatnomada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi 15 ta deputatlik o‘rni belgilab

qo'yilmasdan, Ekologik harakat boshqa partiyalar bilan teng raqobatga kirishgan holda, saylovlar orqali deputatlik o'rniga erishishi lozimligi taklif etildi va ushbu taklif amaliyotga joriy qilindi.

2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusida ma'ruza qildi. Ushbu ma'ruzada O'zbekistonda siyosiy partiyalarning rolini oshirish borasida takliflar bildirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi.

Shuningdek, saylovda ishtirok etadigan siyosiy partiyalarning ro'yxatdan o'tishi uchun o'rnatilgan muddat 6 oydan 4 oyga tushirildi. Ayni vaqtda siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishi uchun ruxsat berish masalasini hal etish borasida zarur bo'ladigan saylovchilar imzosining miqdori avvalgi 50 ming imzo o'rniga 40 ming qilib belgilandi. Shuningdek, deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillari soni 5 nafardan 10 nafargacha ko'paytirildi. Shular qatorida saylov to'g'risidagi qonun hujjatlariga siyosiy partiyaning «vakolatli vakili» degan yangi institut kiritildi, unga imzo varaqalarining to'g'ri to'ldirilishini tekshirishda, saylov uchastkalarida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish huquqi berildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda beshta siyosiy partiya faoliyat olib bormoqda:

**1. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zXDP)** - 1991-yil 1-noyabrda tashkil topgan. Partiya Markaziy Kengashi raisi **Ulug'bek Inoyatov**. A'zolari soni: 520 mingdan ortiq. Markaziy nashri "O'zbekiston ovozi" gazetasi. Rasmiy internet sayti: **www.xdp.uz**

**2. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi (ASDP)** - 1995-yili 18-fevralda tashkil topgan. Partiya Siyosiy Kengashi raisi: **Bahrom Abduhalimov**. A'zolari soni: 430 mingdan ortiq. Partiyaning rasmiy nashri "Adolat" ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Rasmiy internet sayti: **www.adolat.uz**

**3.O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (O‘z MTDP )** – 1995 - yil 3- iyunda tashkil topgan. A‘zolari soni: 358 mingdan ortiq. Partiya Markaziy Kengashi raisi **Alisher Qodirov**. Partiyaning matbuot nashri - “Milliy tiklanish” ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Rasmiy internet sayti: **www.mt.uz**

**4.O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘zLiDeP)** – 2003 - yil 15-noyabrda tashkil topgan. Partiya Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi raisi **Aktam Xaitov**. A‘zolari soni: 1 mln.dan ortiq. Markaziy nashri –“XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Rasmiy internet sayti: **www.uzlidep.uz**

**5.O‘zbekiston ekologik partiyasi** - 2019 yilning 8 yanvar kuni tashkil etilgan. Partiya Markaziy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi raisi **Narzullo Oblomurodov**. A‘zolari soni: 453 mingdan ortiq. Markaziy nashri “Oila va tabiat” gazetasi. Rasmiy internet sayti: **www.ecouz.uz**

### **3. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar**

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu - qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir.

Avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta‘minlash, uni sobiq tuzumda bo‘lgani kabi qatag‘on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma‘nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Sud hokimiyati hokimiyatning uchinchi tarmog‘i bo‘lib, uning asosiy vazifasi odil sudlovni ta‘minlash va amalga oshirishdir. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatiga rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi amalga oshiradi. Respublikamizda sud tarmog‘i quyidagilardan tashkil topgan: jinoyat ishlari bo‘yicha sud, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud, iqtisodiy sud va ma‘muriy sudlar. Respublikada sud organlarining faoliyati “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun asosida amalga oshiriladi.

Sudlar tomonidan davlat organlari huquqiy hujjatlarining Konstitusiyaga va qonunlarga mosligini nazorat qilinishi – sud

organlarining vakolatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ayni paytda sudyalik lavozimiga nomzodlarni taqdim etish, sudyalarning vakolatini to'xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy ish yurituvni qo'zg'atish vazifalari Adliya vazirligi vakolatidan chiqarilgani ham bu borada muhim qadam bo'ldi.

**Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat.** Ushbu asosiy maqsaddan kelib chiqib, sud-huquq tizimidagi islohotlar insonlarning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquq hamda erkinliklarini himoya qilinishini ta'minlashga va kafolatlashga xizmat qiladi. Bu Konstitutsiyamizning 44-moddasida "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi" bilan mustahkamlangan.

Respublikamizda sud-huquq islohotlarining konstitutsiyaviy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanishi" belgilangan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 106-moddasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatlaridan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi, 107-moddasida odil sudlovni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasining sud tizimi belgilangan. Bu konstitutsiyaviy asoslar insonlarning sud idoralariga bo'lgan ishonchini orttirib, o'z navbatida, sudya va sud xodimlarida o'zlariga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarish, ularga mas'uliyat bilan yondoshish hissini kuchaytiradi. Zero, davlat va jamiyatning obro'si sud organlari va sudyalarning qonun normalariga qanchalik rioya qilishiga, ular qabul qilgan qarorlarning adolat me'yorlariga nechog'lik mos kelishiga bevosita bog'liqdir.

Jahon tajribasini hisobga olgan holda ilk bor mamlakatimizda Konstitutsiyaviy sud ta'sis etildi. Bozor iqtisodiyotining rivojlanish sharoitida xo'jalik munosabatlarida qonunchilikni ta'minlashda muhim rol o'ynayotgan xo'jalik sudlari tizimi yaratildi. Sudlarning ixtisoslashuvi, ya'ni fuqarolik ishlari bo'yicha va jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning tashkil etilishi bilan fuqarolarning huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishning huquqiy doirasi yanada

kengayganligi bu yoʻnalishdagi oʻzgarishlarning asosiy omillaridan biri boʻldi desak, aslo mubolagʻa boʻlmaydi.

Shuningdek, 2000 yilda yangi tahrirdagi “Sudlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi sud tizimini isloh qilishda muhim bosqich boʻldi. Sud ishlarini apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida koʻrib chiqish institutlari joriy etildi, tergov-surishtiruv va kishilarni hibsdan saqlash muddatlari sezilarli darajada qisqartirildi hamda ishlarni sudlarda koʻrib chiqishning qatʼiy muddatlari belgilandi.

Yangi tahrirdagi “Sudlar toʻgʻrisida”gi Qonun sud-huquq tizimini isloh qilishda muhim bosqich boʻlib, jamiyatni harakatga keltiruvchi huquqiy munosabatlarni tartibga solish, har qanday koʻrinishdagi huquqbuzarliklarning oldini olish, jazoning muqarrarligini taʼminlash, fuqarolarning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini zamon talablariga muvofiq tarzda shakllantirish, huquqiy himoya qilish ishlarini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazish uchun qonuniy asos yaratdi.

Bundan tashqari, sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan taʼminlash, xususan, sud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shugʻullanish vazifasi maxsus organ — Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish boʻyicha oliy malaka komissiyasiga yuklatilganini qayd etish lozim.

Shular qatorida Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli tuzilma - Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy taʼminlash departamenti tashkil etilgan edi. Keyinchalik ushbu department tugatilib, oʻniga Bosh prokuratura huzuridagi majburiy ijro byurosi tashkil etildi.

Maʼlumki, Oʻzbekistonda 2008 yilning 1 yanvaridan boshlab oʻlim jazosi bekor qilindi va uning oʻrniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etildi.

Mamlakatimizda oʻlim jazosining bekor qilinishi xalqaro hamjamiyatning katta eʼtibori va eʼtirofiga sazovor boʻlgani albatta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik oʻta muhim voqeadir. Nufuzli xorijiy ekspertlarning taʼkidlashiga koʻra, ushbu chora va bu sohada yuqorida koʻrsatilgan boshqa bir qator ishlarning amalga oshirilishi bilan Oʻzbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi.

Oʻzbekistonda esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi boʻlib, faqat ikki turdagi jinoyat, yaʼni



javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun tayinlanadi. Ushbu jazo turi bizning mamlakatimizda xotin-qizlarga, jinoyat sodir etgan paytda 18 yoshga etmagan shaxslarga va yoshi 60 dan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Bu borada «Xabeas korpus» institutining joriy etilishi, ya'ni 2008 yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi prinsipial qadam bo'ldi. Ushbu qarorning o'z vaqtida va puxta o'ylab qabul qilingani bugungi kunda ko'pgina amaliy misollarda o'z isbotini topmoqda. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, huquqni qo'llash va sud amaliyotiga 2001 yildan boshlab yarashuv instituti kiritildi va u samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Yarashuv institutining talabiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs jabrlanuvchiga etkazilgan zararni to'liq qoplab bergan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Mazkur institutning samaradorligi hamda o'zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko'p asrlik an'alariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo'ldi.

2010 yilning 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan bayon qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"da sud-huquq sohasida bir qancha islohotlarni amalga oshirish taklif qilingan edi. Ushbu konsepsiyada yurtimizda huquqiy davlat asoslarini tobora takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hal qiluvchi vazifa bo'lib qolishi ta'kidlangan. Zero, jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu boradagi islohotlarning samarasi ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va madaniyati darajasiga bog'liq.

2016 yil 21 oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoyalash kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4850-sonli Farmoni bilan sud-huquq sohasidagi davlat siyosatining sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarildi. Ushbu farmonda uchta asosiy ustuvorlik ajratib ko'rsatiladi:

- sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligi;
- fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoyalash kafolatlarini kuchaytirish;
- odil sudlovni amalga oshirish darajasini kuchaytirish.

Sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, kasb obro'-e'tiborini oshirish, yuqori malakali va samarali faoliyat yuritadigan sud korpusini tashkil qilish maqsadida birinchi marta sudyalarning vakolat muddatlari qayta ko'rib chiqildi. Xususan, sudyalarni dastlabki besh yillik va navbatdagi o'n yillik muddatlarga tayinlash (saylash), kelgusida esa lavozimni muddatsiz davr mobaynida egallash nazarda tutiladigan tartib joriy qilindi.

2017 yilda esa sud – huquq sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, Oliy xo'jalik sudi Oliy sud tarkibiga qo'shib, yagona sud hokimiyati oliy organi Oliy sud qayta tashkil etildi. Sud sohasida ma'muriy va iqtisodiy sud kabi yangi tarmoqlar tashkil etildi.

Fuqarolarning sud orqali himoyalaniş kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirildi, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishni ta'minlash bo'yicha katta ko'lamdagi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda prokuror va advokatning tengligini, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud faoliyatining barcha bosqichlarida o'zaro tortishuv bo'lishini ta'minlashga, odil sudlovning sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, 2017 yil 1 apreldan jinoiy, jinoiy-prosessual, fuqarolik prosessual va boshqa qonun hujjatlariga inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini ta'minlash, sudda ishlarning adolatli va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi va jazoning insonparvarligi kafolatlarini kuchaytirish hisobga olingan holda odil sudlovni amalga oshirish samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Bundan tashqari, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar qonuniyligini va samarali realizasiya qilinishini ta'minlashda davlat organlari yuridik xizmatlari rolini oshirish maqsadida, ularning faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari

xodimlari va aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida BMTning Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llab-quvvatlash dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 oktyabrdagi Farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tuzildi. Farmonda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning maqsad va asosiy vazifalari aniq belgilab qo'yildi. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadlarida milliy institutlarning qonunchilik asoslarini takomillashtirish O'zbekistonning demokratik o'zgarishlarga sodiqligini yana bir karra namoyish qilmoqda.

#### **4.O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. O'z-o'zini boshqaruv organlarining faoliyati**

Fuqarolik jamiyatining asosiy instituti bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) dastlab jamiyatni o'zini o'zi boshqarishi asosida, ya'ni fuqarolik jamiyatining mustaqil ijtimoiy birlik sifatida yashashini ta'minlash ehtiyojlari va manfaatlari asosida paydo bo'ldi. XX asrga kelib nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolik jamiyatining muhim va asosiy institutlaridan biriga aylandi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar individlarning ixtiyoriy birlashmalaridir. Ular siyosiy partiyalardan farq qilib, hokimiyatni egallash, lavozimlarga nomzodlar ko'rsatish bilan shug'ullanmaydilar. Lekin, ular hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarga ta'sir qilish uchun harakat qiladilar. Bu sohadagi faoliyat siyosiy tashkilotlar vositasiz bo'lishi lozim. Manfaatlar guruhlarining harakat usullari davlat organlarini ishontirish, maslahat berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy arboblarga ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlarini yetkazish, o'z manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy tadbirlar o'tkazish bilan chegaralanadi<sup>12</sup>.

Fuqarolik jamiyatining ilk shakllanish davri nodavlat tashkilotlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Siyosiy tizimda demokratik qadriyatlar keng o'ringa ega bo'lib borgani sari muhim ijtimoiy muammolarni hal etishda «uchinchi sektor» deb ataluvchi nodavlat notijorat tashkilotlar muhim o'rin tuta boshladi. Hozirgi davrda

---

<sup>12</sup>Каранг: Орнстейн Н. Демократик жамиятда қонун чиқарувчи ҳокимият ўрни. - Озодлик рисоласи. - Вена: АҚШ информация агентлиги, 1994.-Б.8-9.

«uchinchi sektor» tushunchasi dunyodagi barcha mamlakatlarda xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo'llanishi keng tus oldi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasidagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar»<sup>13</sup> kabi fuqarolarning jamiyat institutlarida ishtirok etishini ta'minlab beradigan huquqiy asoslarning e'tirof etilishi respublikada jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynidagi tajribalari va sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan erkinlik jamiyati - fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini anglatadi.

Parlamentda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga doir yuzlab qonunlar va boshqa huquqiy me'yorlar qabul qilingan bo'lib, ularning ichida O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni (1999 yil 14 aprel) nodavlat notijorat tashkilotlarning serqirra faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish va huquqiy jihatlardan ta'minlashga qaratildi. Qonunning 1-moddasida nodavlat notijorat tashkiloti tuzishning umumiy maqsadi ijtimoiy foydali manfaatlarning qondirilishi ekanligi e'tirof etilib, bu bilan nodavlat tashkiloti o'z faoliyatida xalqchilik prinsipiga amal qilishi shart ekanligi belgilab qo'yildi<sup>14</sup>. Mazkur Qonunning 2-moddasida «Nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasi»ning ta'rifi demokratik qadriyatlar asosida talqin qilinadi: «Nodavlat notijorat tashkiloti - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini

---

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.: Ўзбекистон, 2012.-Б.9..

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Нодавлат нотижорат ташкilotлари тўғрисида»ги Қонуни.// «Нодавлат нотижорат ташкilotлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига шарҳлар.- Т.: Адолат, 2001.-Б.15.

amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi»<sup>15</sup>.

«Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunga binoan nodavlat notijorat tashkilotlarining maqsadlari quyidagi yo'nalishlardagi faoliyatlar bo'yicha amalga oshiriladi:

-birinchidan, keng ma'nodagi madaniy maqsadlarga erishish ko'zlab tuzilgan. Bunda maorif, ilm-fan, madaniyat sohalarida faoliyat olib boriladi;

-ikkinchidan, mamlakat aholisining sihat-salomatligini ta'minlashni ko'zlab faoliyat yuritish (sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi, turli xil xastaliklarning oldini olish va ularni davolashning ilg'or tajriba ham usullarini targ'ib etuvchi tashkilotlar);

-uchinchidan, turlicha faoliyat yo'nalishidagi huquqni muhofazalovchi tashkilotlar (masalan, iste'molchilar huquqini himoyalash jamiyati);

-to'rtinchidan, fuqarolarning ma'naviy va boshqa xildagi nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tashkilotlar (nosiyosiy uyushmalar, ijtimoiy jamg'armalar va boshqalar);

-beshinchidan, xayr-ehson ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar<sup>16</sup>.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan demokratik institutlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga doir islohotlar ham tobora chuqurlashib bormoqda. 2005 yilga kelib respublikada 402 ta respublika ahamiyatiga molik nodavlat jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsata boshladi. Ulardan 81 tasi xalqaro tashkilotlardan iborat edi. Nodavlat tashkilotlarning 48 tasi jamg'arma, 78 tasi jamiyat, 4 tasi siyosiy partiya, 42 tasi federatsiya, 16 tasi kasaba uyushmalari, 2 tasi harakat, 20 tasi markaz, 48 tasi assotsiatsiya, 20 tasi uyushma, 5 tasi qo'mita, yana 37 tasi turli nomlarda rasmiy ro'yxatdan o'tganlar. SHuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda davlat ro'yhatiga olingan 1957 ta, shuningdek, hisob ro'yxatiga olingan 2911 ta, hammasi bo'lib 4868 ta mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatdi<sup>17</sup>.

O'zbekistondagi NNTlarni xalqaro tashkilotlar ekspertlari quyidagicha tasniflaydi:

<sup>15</sup> Ўша жойда.-Б.14.

<sup>16</sup> Ўша жойда.-Б.16.

<sup>17</sup>Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги жорий архиви. Давлат рўйхатидан ва ҳисоб рўйхатидан ўтган ҳамда фаолият кўрсатаётган нодавлат нотижорат ташкилотлар умумий жадвали (2005 й. 12 майдаги ҳолати). –Б.2-3.

1. Aholining yirik qatlamlari ijtimoiy manfaatlar uchun xizmat qiladigan umummilliy tuzilmalar («Mahalla» xayriya jamoat fondi, «Yoshlar ittifoqi», Xotin-qizlar Kengashi, Nogironlar jamiyati, «Nuroni» jamg'armasi va boshq.).

2. Ekologiya, madaniyat va sog'liqni saqlash sohaliga ixtisoslashgan milliy-xalqaro jamg'armalar («Ekosan», «Ibn Sino», «Sog'lom avlod», Orolni qutqarish, Amir Temur va boshq. xalqaro jamg'armalar).

3. Kasbiy va ma'naviy manfaatlar bo'yicha tuzilgan ijtimoiy tashkilotlar (Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» Respublika jamoatchilik markazi, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi va boshq.).

4. Umum milliy xayriya jamiyatlari va jamg'armalari (Bolalar jamg'armasi, «Mehr nuri» jamg'armasi va boshq.).

5. Huquqni himoya qilish nohukumat tashkilotlari (O'zbekiston sudlar uyushmasi, Advokatlar palatasi, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va boshq.).

6. Ijodiy ziyolilarning milliy jamoat tashkilotlari (Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi, Kompozitorlar uyushmasi, Arxitektorlar uyushmasi va boshq.)

7. Milliy-madaniy markazlar (ular O'zbekistonda yashayotgan milliy jamoalar (ozchilik) vakillarini milliy va etnik belgilariga qarab birlashtiradi, xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik jamiyatlari va boshq.).

8. Ijtimoiy ahamiyatli qatlamlar va ijodiy manfaatlar bo'yicha birlashmalar (Veteran jangchilar birlashmasi, Avtomoto havaskorlarining ko'ngilli jamiyati, Ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyati, Turistlar klubi, Havaskor qo'shiqchilar klubi va boshq.).

Bundan tashqari, NNTlar qatoriga turli shakllarga mansub bo'lgan tashkilotlarni kiritish mumkin:

- Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar;
- Kasaba uyushmalari;
- Diniy tashkilotlar;
- Turli sport federatsiyalari va uyushmalari<sup>18</sup>.

Mamlakatimizda 1991 yili jamoat birlashmalarining soni 200 tani tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda ularning soni 2300 taga, 2010 yilda – 5100 taga etdi. 2014-yilda jamiyat hayotining turli sohalarida 8 ming 100

---

<sup>18</sup> Формирование нового видения роли и места ННО в процессах политической и экономической модернизации в Узбекистане. -Т.:ЦЭИ;БМТ Ривожланиш дастури, 2010.-Б.54-55.

dan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat ko'rsatgan. Bu degani 2010 yilga nisbatan 1,6 marta ko'p demakdir<sup>19</sup>.

Mamlakatda milliy mustaqillikning dastlabki davrlarida O'zbekiston «Mahalla» xayriya jamg'armasi tashkil topdi. O'tgan davr ichida «Sog'lom avlod uchun» xalqaro nohukumat xayriya jamg'armasi, «Ekosan» xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasi, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi, Xalqaro Amir Temur jamg'armasi, Xalqaro Imom Buxoriy jamg'armasi, «Oltin meros» jamg'armasi, respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, «Xalq birligi» harakati, O'zbekiston faxriylarini qo'llab-quvvatlash «Nuroni» jamg'armasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasi, Milliy matbuot markazi, Baynalmilal madaniy markaz, respublika «Iste'dod» jamg'armasi kabi nodavlat tashkilotlar tuzildi. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi esa demokratik prinsiplar asosida butunlay qaytadan tashkil etildi. SHu bilan birga, O'zbekiston «Tadbirkor ayol», O'zbekiston Bolalar jamg'armasi, «Ayol va salomatlik», «Mehr», «Ayollar resurs markazi», «Ayol va jamiyat» instituti kabi xotin-qizlar muammolarini hal etishga qaratilgan va ular manfaatlarini ifodalaydigan nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi davrda mamlakatda 27 ta millat vakillari tomonidan tuzilgan 150 ga yaqin milliy-madaniy markaz (MMM) faoliyat olib bormoqda. Ulardan 14 tasi respublika ahamiyatiga molik tashkilot maqomiga egadir. Ularning 31 tasi koreys, 23 tasi rus, 10 tasi tojik, 9 tasi qozoq, 9 tasi tatar millatiga mansub faollar tomonidan tashkil etilgan. SHuningdek, mamlakatda 8 ta ozarbayjon, 7 ta turkman, 6 ta ukrain va qirg'iz, 5 ta turk va Yevropa yahudiylar millatiga mansub bo'lgan milliy-madaniy markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. SHuningdek, nemis, polyak va arman, uyg'ur, arab, bolgar, boshqird, grek, gruzin va boshqa millat vakillari ham o'zlarining milliy-madaniy tashkilotlari tarkibida turli madaniy tadbirlar va anjumanlar vositasida faol ishtirok etmoqda.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlantirishda 2005 yilning 10 iyunida «O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy Assotsiatsiyasi»ning tashkil topishi muhim ahamiyat kasb etdi. Hozirgi davrga kelib «O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy Assotsiatsiyasi»ga 400 dan ortiq turli

---

<sup>19</sup>Ўзбекистон Республикаси нодавлат нотижорат ташкilotлари миллий форуми материаллари, (21-22 декабрь 2014 й.). –Т., 2015.-Б.3-4.

respublika miqyosidagi va viloyatlarda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar a'zo bo'lib kirdilar.

Mamalkatdagi kasaba uyushmalarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida demokratlashtirishdagi muhim vazifalardan biri – bu xalqaro tajribalardan kelib chiqib, mehnat jamoalaridagi boshlang'ich kasaba uyushmalarining tashkiliy va ijtimoiy himoyaga taalluqli faoliyatini yuksaltirish, ijtimoiy sherikchilikda ham ularning hal qiluvchilik rolini ko'tarish, ularni mustaqil tashkilot sifatidagi maqomini ta'minlash, shuningdek, tarmoqlar kasaba uyushmalari atrofiga jipslashtirish fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga muhim e'tibor berishdir.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlatning bosh islohotchilik faoliyati natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarning demokratik tamoyillar asosidagi huquqiy asoslari shakllandi. Qisqa davr ichida mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning poydevori - konstitutsiyaviy va huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Islohotlar natijasida mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar tizimi shakllandi. Muhimi, «uchinchi sektor» bilan davlat hamkorligi natijasida mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlarning mustaqil faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari** – fuqarolarning xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirishi, davlat va jamiyat ishlarida to'g'ridan to'g'ri ishtirok etishi vositalaridan biri. Asosiy vazifasi fuqarolarni mahalliy ahamiyatga bog'liq masalalarni hal qilishda mustaqil faoliyat olib borishini ta'minlashdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (105modda) va "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" (yangi tahriri)gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (2013 yil 22 aprel)da fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy holati ko'rsatib o'tilgan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinishi kerak. O'zbekistonda 10 mingga yaqin fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat ko'rsatmoqda. Fuqarolar yig'ini organlarini va ularning mansabdor shaxslarini saylash fuqarolarning qonunda belgilangan saylov huquqlari kafolatlarini ta'minlagan hodda, umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri



saylov huquqi asosida yashirin yoki ochiq ovoz berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

"Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida" Qonun qabul qilingan. Fuqarolar yig‘ini – fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarishining yuqori organi bo‘lib, aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan tegishli hududda amal qiluvchi qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Fuqarolar yig‘inida 18 yoshga to‘lgan hamda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla hududida doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadi. "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida"gi yangi tahrirdagi Qonunda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig‘ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig‘inining vakolatlari ko‘rsatilgan. Fuqarolar yig‘inining qarorlarini bajarish va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fuqarolar yig‘inlari oraliq davridagi joriy faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolar yig‘inining raisi (oqsoqoli), uning maslahatchilari, fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiyalarning raislari va yig‘inning mas‘ul kotibidan iborat tarkibda fuqarolar yig‘inining kengashi tuziladi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini tashkil etishni uning kengashi hamda fuqarolar yig‘inining raisi (oqsoqoli) amalga oshiradi.

Fuqarolar yig‘inining raisi (oqsoqoli), mas‘ul kotibi va kengash devoni xodimlari fuqarolar yig‘inining mablag‘lari hisobiga ham, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy byudjet mablag‘lari hisobiga ham ta‘minlanishi mumkin. Taftish komissiyasi Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari moliya xo‘jalik faoliyatini tekshirish uchun tuziladi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi o‘z mablag‘laridan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda ajratiladigan byudjet mablag‘laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayr-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag‘lardan tashkil topadi.

*2017 yil 3 fevral* kuni respublika Prezidentining **“Mahalla institutini yanada takomillashtirish” to‘g‘risidagi PF-4944 sonli Farmoni** e‘lin qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi rolini

oshirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Xususan, Farmonda mahalla institutini yanada takomillashtirishning **ustuvor yo'nalishlari** etib quyidagilar belgilandi:

*fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini yanada kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish;*

*jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;*

*yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash;*

*jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;*

Shuningdek, yoshlarni ona Vatanga muhabbat, xalqimizning ko'p asrlik an'alariga hurmat ruhida tarbiyalash, mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash borasida joylarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida *Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari, shuningdek Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlarini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida esa jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan mahalla fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari - yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi.*

Bundan tashqari, ijtimoiy muhim masalalarni hal etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida kengashlar kollegial organlari tarkibiga tegishincha davlat hokimiyati vakillik organlari vakillari, moliya, ichki ishlar, mehnat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash vazirliklari, Yoshlar ittifoqi, "Nuroniylar" jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ularning hududiy tuzilmalari rahbar xodimlarini kiritildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig'ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosarlarini (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarini), hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta'lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o'z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ga hisobot taqdim qilishlari amaliyotini joriy etish belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig'inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo'yicha mustaqilligini ta'minlash, o'zini o'zi boshqarish tizimida ortiqcha bo'g'inlardan voz kechish maqsadida *tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarini mahalla fuqarolar yig'inlariga birlashtirish va bo'lish yo'li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.*

Barcha tumanlar va shaharlar markazlarida "Mahalla markazi" majmualari binolarini namunaviy loyihalar asosida barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishiga munosib hissa qo'shgan tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etiladigan "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

2022-yil 1-yanvardan boshlab respublikamizdagi har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi ta'sis etildi. Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, yoshlar

muammolarini bevosita mahallalarda hal etish maqsadida 2022-yil 19-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan respublikamizdagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy qilindi.

Mahalla boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan va oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasidagi vazifalarni samarali bajarish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligini yanada mustahkamlash hamda mahalla institutining chin ma’noda fuqarolik jamiyati instituti sifatida qaror topish imkonini beradi.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. Hokimiyatning bo‘linish prinsipi deganda nimani tushunasiz?
2. Vazirlar Mahkamasining qanday vakolatlari bor?
3. Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining funksiyalarida o‘xshashlik bormi?
4. Mustaqil O‘zbekiston tarixidagi Bosh vazirlar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
5. Fuqarolik jamiyati tushunchasi haqida nimalarni bilasiz?
6. Milliy parlamentarizmning eng yangi tariximizdagi umum e’tirof etilgan uchta asosiy davrining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Qonun ijodkorligi va parlament nazorati tushunchalarining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
8. Huquq-tartibot organlari va sud tizimida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qanday vakolatlarga ega?
10. 2017-yilgi Prezident farmonidan so‘ng sud tizimida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
11. Vazirlar Mahkamasining tarkibi kimlardan iborat?
12. Respublikamizda qanday siyosiy partiyalar faoliyat ko‘rsatmoqda?
13. Nodavlat notijorat tashkilot deganda nima tushuniladi?
14. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining faoliyati to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
2. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
3. Каримов И.А. Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари - олий кадрият. Т.14. - Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон маънафаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йилигига бағишланган тантанали маросимидаги маърузаси. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон..2017.
6. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабилов. - Тошкент: Академия, 2013.
7. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Тошкент: Шарқ, 2006.
8. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.
9. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Тошкент: Маънавият, 2011.

## **AXBOROT MANBALARI**

1. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. [www.google.uz](http://www.google.uz)
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

# **Mavzu: IQTISODIY ISLOHOTLAR, XUSUSIY MULKCHILIKNING SHAKLLANISHI. O‘ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *iqtisodiy soha, islohot, xususiy lashtirish, investitsiya, jamoa xo‘jaligi, fermer xo‘jaligi, xususiy mulk, bozor munosabatlari, narxni erkinlashtirish, sanoat, savdo, ishlab chiqarish, eksport, avtomobilsozlik, soliq tizimi, bank tizimi*

## **1.O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari**

O‘zbekiston qaramlik davrida o‘z tabiiy boyliklariga, yer-suv, o‘rmon va boshqa resurslariga o‘zi egalik qila olmasdi, iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilay olmasdi. Respublika hududida qurilgan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar markazga bo‘ysundirilgan edi. O‘zbekiston rahbariyati, xalqi o‘z hududida qancha mahsulot ishlab chiqarilayotgani, ular qayerga realizatsiya qilinayotgani va qancha daromad keltirayotganidan bexabar edi. Moliya-kredit, bank siyosati yuritishda qaram edi, o‘zining milliy valyutasiga, valyuta jamg‘armasiga ega emasdi.

Aholi turmush darajasi jihatidan nochorlik, Sobiq Ittifoq miqyosida eng oxirgi o‘rinlardan biri meros bo‘lib qolgan edi. Rossiya, Ukraina va Belorussiyadan farqli o‘laroq, O‘zbekiston aholisining deyarli uchdan ikki qismi qo‘l uchida tirikchilik qilardi. Eski mustabid tuzurndan o‘tkir ijtimoiy, ekologik muammolar meros bo‘lib qolgan edi. Mamlakatimiz aholisi yerning nihoyat darajada sho‘rlanishi, havo bo‘shlig‘i va suv zahiralarning ifloslanganligi, radioaktiv ifloslanish, Orol dengizining qurib borishi oqibatida juda katta ekologik xavfga duch kelib qolgan edi.

"Bugun o‘sha davr to‘grisidagi haqiqatni xolisona aytadigan bo‘lsak, u zamondagi hayotimizni jahon tarixi va amaliyoti bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, shuni ochiq aytish kerakki, u paytda O‘zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga-markazda butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo‘lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi"<sup>20</sup>

---

<sup>20</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston “XXI asrga intilmoqda. T.: "O‘zbekiston ", 1999, 6-bet

Sobiq SSSRning tarqatib yuborilishi bilan respublikalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar uzildi, oqibatda O'zbekistonning bir qancha sanoat korxonalarini to'xtatib qoldi va mahsulot ishlab chiqarish kamaydi. Endilikda iqtisodning tarkibiy tuzilishini yangidan qurish kerak edi. Jahon bozorida raqobatga bardosh bera oladigan va aholining iste'mol talablarini qondiradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur bo'ldi.

Mustaqillik xalqimizni iqtisodiy zulm, mutelikdan ozod etdi, o'z yeri, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralari to'la egalik qilish huquqini berdi. Barcha mulk, korxonalar O'zbekiston tasarrufiga olindi, mustaqil iqtisodiy siyosat yuritish, o'z iqtisodiy taraqqiyot yo'lini o'zi belgilash erkinligini qo'lga kiritdi.

Davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishi **O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish** uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. Bizning diyorumizda bozor munosabatlari yangilik emas. Ming yillar davomida ajdodlarimiz hunarmandlar ishlab chiqargan ajoyib mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini dunyoning to'rt tomoniga chiqarib savdogarlik qilgan, mol almashgan. O'zbekistonning boy imkoniyatlari, geopolitik sharoitidan foydalanib o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo'lib qoldi. O'zbekiston tanlagan islohot yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodini shakllantirishga qaratildi. Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari birinchi Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilib dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassisleri, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o'zining hayotiylikini namoyish etdi.

Birinchi bosqichda **totalitar tizimdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish** davridagi bir-biriga bog'liq, ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to'g'ri keldi. Bular: ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish hamda bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning g'oyat muhim yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan belgilab berildi:

- o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;

- qishloq xo‘jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;
- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, davlat mol-mulknı xususiylashtirish masalalari bo‘yicha 20 dan ortiq maxsus dasturlar ishlab chiqildi va ularni amalga oshirishga davlat boshchilik qildi. Xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko‘rsatish korxonalarini, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlovchi xo‘jaliklarnı davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Bu jarayon «kichik xususiylashtirish» deb nom oldi.

**1992-1993-yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichida** “Kichik xususiylashtirish” amalga oshirildi. Buning oqibatida asosan maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o‘zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiylashtirish mulk etib berildi.

Dastlabki davrda agrar sohada ham islohotlar amalga oshirildi. Natijada qishloq xo‘jaligida 770 kolxoz va davlat xo‘jaliklari xususiylashtirildi, jamoa va ijara xo‘jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin va qiyinchiliklarnı bartaraf etishga to‘g‘ri keldi. I.A.Karimov ta’kidlaganidek, agrar sohadagi byurokratik boshqaruv tizimining har xil to‘siqlari qishloqda islohotning borishiga xalaqit berardi. Mulkning davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani, xususiylashtirish mexanizmining ishlab chiqilishi, iqtisodiy islohotlarga nisbatan kishilar psixologiyasi va munosabatining o‘zgarishi bo‘ldi. Mustaqillik yillari yuz bergan tub o‘zgarishlardan biri mamlakatda ikki yo‘l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik korxonalar va xususiylashtirish tadbirkorlikni keng rivojlantirish, ikkinchidan, pul mablag‘larini omonat kassalari yoki banklariga qo‘yish, qimmatbaho qog‘ozlarga aylantirish yo‘li bilan. Iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lgan mulkdor “o‘z boyligini ko‘paytirishdan manfaatdor bo‘libgina qolmay, balki butun mamlakatni boyitishga ham qodir bo‘ladi”-degan edi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov.



Kichik xususiylashtirish 1994- yildayoq tugallandi. Davlat ixtiyorida bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog'i fuqarolarning xususiy mulki bo'lib qoldi. Bunda har 3 kvartiraning bittasi egalariga imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, ilmiy xodimlar va ijodiy ziyolilarga kvartiralar bepul berildi. 2002-yilga qadar Respublika uy-joy fondining 98 foizga yaqini xususiylashtirildi.

1994-yil 21-yanvarda e'lon qilingan «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 1994-yil 16-martda e'lon qilingan «Mulknini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida»gi Prezident farmonlari xususiylashtirish jarayoniga yangi turtki bo'ldi. Bu bilan **davlat mulkini xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi boshlandi**. O'rta va yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyat-lariga, ijara korxonalariga aylantira boshlandi, bu jarayonga aholi va chet ellik investorlar kengroq jalb qilindi. Davlat mulkini sotish bo'yicha kim oshdi savdolari va tanlovlar tashkil etildi. 2000-2005 - yillarda jami 4660 ta davlat korxonasi va ob'yekti xususiy mulkdorlarga sotildi.

Aloqa, transport, geologiya qidiruv, yoqilg'i-energetika komplekslari xususiylashtirilmadi. Ayrim sohalarda-kimyoy, oltin qazish, paxta tozalash, tog'-kon sanoatida 51% aksiya davlat ixtiyorida qoladigan bo'ldi.

1995-yil mamlakatning barcha sohalarini isloh qilishda tub burilish yili bo'ldi. Eng muhimi islohiy jarayonlarga kishilarimizning ishonchi ortdi. Ishlab chiqarishning pasayishi keskin to'xtadi, jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy barqarorlik yuz berdi. Moliyaviy vaziyat o'nglanib, inflyatsiyani 1994-yilga nisbatan uch barobar kamaytirishga erishildi. Narxning o'sishi yil boshida 16,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, yil oxirida 2,2 foizni tashkil qildi. Valyuta bozorida joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 11 marta ko'p, ya'ni 1,3 mlrd dollar sotildi.

Ichki yalpi mahsulot 1995-yilda 1994-yilning darajasiga nisbatan 96 foiz o'rniga 98,8 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan milliy daromad 98,5 foizga yetdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi shu yili o'tgan yilga nisbatan 100,2 foizga teng bo'ldi.

1995-yil o'rtasida Respublika xalq xo'jaligida 30770 kichik korxonalar va kooperativlar, 20115 xususiy korxonalar ishlab turdi. 15600

fermer xo‘jaligi tashkil etildi, ularga 200 ming gektarga yaqin yer birlashtirib berilgan bo‘lib, 67,5 ming kishi mehnat qilmoqda edi. Fermer xo‘jaliklarining tasarrufida 190 mingga yaqin qoramol va boshqa hayvonlar mavjud. 1995-yilning faqat birinchi choragidagina fermer xo‘jaliklari tomonidan o‘tgan yilning tegishli davridagiga nisbatan ikki barobar ko‘p go‘sht va sut mahsulotlari tayyorlandi.

1995-yil 5-yanvarda Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko‘rsatish va uni rag‘batlantirish to‘g‘risida Prezident farmoni, 1995-yil 21-fevralda «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida» qonunlar qabul qilindi.

1995-yil xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tuzilib, bu tadbirkorlarga 10 mlrd.so‘m. yordam ko‘rsatdi.

Kichik va o‘rta biznesga chet ellik investitsiyalar jalb etildi. 2003-yili 450 mln. dollar xorijiy investitsiya sarf qilindi. 1992-yilda 1996-yil 85 mln.dollarga yaqin 2001-yil boshlarida 190 mln. dollardan oshdi. 2003-yil 1-iyulga kichik va o‘rta biznes korxonalarini 200 mingdan oshdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog‘i 1991- yilda 1,5 foizni, 1999-yilda 12,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2005- yilda 38,2 foizga yetdi. 2005- yilda faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalarini soni 310 mingtaga yetdi. Faqat 2004- yilda bu sektor hisobiga 425 ming ish o‘rinlari yaratildi. 2004 - yil 1 - oktabrida mazkur sektorda ish bilan band bo‘lganlar soni 6,4 mln. kishini yoki iqtisodiyotda jami band bo‘lganlarning 65 foizini tashkil etdi. Bu sohani rivojlantirish maqsadida keyingi 3 yilda ham katta ishlar amalga oshirildi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish yo‘lida respublikada g‘oyat yirik qurilishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizning yoqilg‘i mustaqilligiga erishish siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. **Istiqlolga erishgan O‘zbekiston tarixda ilk bor 1995-yilda neft mustaqilligiga erishdi.** Natijada O‘zbekiston aholisining 75% 2003-yilda tabiiy gazdan foydalaniladigan bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich ayrim viloyatlarda ayniqsa ko‘zga ko‘rinarli bo‘ldi. Masalan: 1990-2003-yillari tabiiy gazdan foydalanish Surxondaryo viloyatida 3,2%dan, 59%ga, Qashqadaryoda 5,7%dan 66%gacha, Namanganda 10,5%dan 70,5%ga, Andijonda 11%dan 68,5 gacha oshdi.

1996 yildan boshlab chetdan neft mahsulotlari sotib olish to'xtadi. 1997 yilda O'zbekistonning o'zi neft mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatga aylandi. Agar 1990 yilda mamlakatimizda 2810 ming tonna neft va gaz kondensati ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1998 yilda bu ko'rsatkich 8104 ming tonnani tashkil etdi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmi ham tez sur'atlarda o'sib, 1990 yildagi 40761 million kub metrdan 2010 yilda 60111,5 million kub metr hajmiga etdi.

Istiqloq yillarida iqtisodiyotda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagi jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga olib keldi:

- Yonilg'i-energetika resurslariga bo'lgan ehtiyojini O'zbekiston o'zini-o'zi ta'minlaydigan bo'ldi;
- G'alla mustaqilligiga erishildi;
- Ishlab chiqarishda sanoat mahsulotlari hissi oshdi;
- Sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan istiqbolli tarmoqlarning hissi oshdi.

Energetika mustaqilligini ta'minlash hamda neft va gazni qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish dasturi doirasida, istiqloq yillarida eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan chet el kompaniyalari bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ("Teknip", Fransiya) va Sho'rtangazkimyo majmuasi ("ABB") barpo etildi, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi to'liq rekonstruksiya qilindi. Gaz-kimyo tarmog'ining tashkil etilishi tabiiy gazni qayta ishlashni chuqurlashtirish va turdosh tarmoqlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish imkonini yaratdi.

## **2. Qishloq xo'jaligidagi islohotlar, sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi**

Tarkibiy islohotlar mamlakatimiz aholisining farovonligi, eng avvalo, uning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasiga qaratildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1990 yili O'zbekistonga 454,8 ming tonna un, 183,9 ming tonna kartoshka, 1401 ming tonna sut mahsulotlari va shu kabilarni qo'shni respublikalardan olib kelishga majbur bo'lingan. Bunday holat sobiq tuzum davrida yuritilgan biryoqlama iqtisodiy siyosatning natijasi edi. Buning evaziga O'zbekistondan asosan paxta xomashyosini yetkazib berish talab qilinardi. Biroq, bunday siyosat mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligi, uning mustaqilligiga juda katta tahdid solar edi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan qaltis vaziyatni bartaraf etish maqsadida mamlakatimiz rahbari tomonidan aholini eng avvalo, oziq-ovqat, xususan, un mahsulotlari bilan ta‘minlash vazifasi qo‘yildi. Chunki, mustabid tuzum davrida O‘zbekiston iqtisodiyotini paxta xom ashyosini yetishtirishga ixtisoslashtirish shu darajaga yetgan ediki, buning oqibatida 5-6 millionlab gektar dehqonchilik uchun mo‘ljallangan yeri bor mamlakat aholining donga bo‘lgan ehtiyojining atigi 18 foizini qondira olar, qolgan 82 foizini qo‘shni respublikalardan sotib olishga majbur edi. Bu esa nafaqat iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash, balki oddiy oqilona xo‘jalik yuritish nuqtai nazaridan ham mantiqqa zid kelardi.

Shunga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida paxta yakkahokimligiga barham berilib, ekin maydonlarining katta qismi don mahsulotlariga ajratildi. Agar mustaqillikka erishilgan yillarda paxta maydonlari respublika umumiy ekin maydonlarining 75 foizdan ko‘proq qismini tashkil etgan bo‘lsa, keyingi davrda paxta yakkahokimligini tugatish va qishloq xo‘jalik ekinlari tarkibini optimallashtirish chora-tadbirlari olib borilishi natijasida paxta maydonlari deyarli 41 foizga qadar qisqartirildi. Natijada ozuqabop g‘alla importiga qaramlik barham topib, tez orada yurtimizda g‘alla mustaqilligi qaror topdi. Agar 1991 yilda 4003 ming tonna miqdordagi don mahsulotini import qilishga majbur bo‘lgan bo‘lsak, mustaqillikning dastlabki olti yili ichida bu ehtiyojni keskin ravishda 5,4 barobar qisqartirishga, keyinchalik esa milliy ishlab chiqarish hisobidan qondirishga erishildi. G‘alla ishlab chiqarish hajmi 1990 yildagi 1899 ming tonnadan 2010 yilda 6952 ming tonnaga, 2014 yilda esa 8050 ming tonnaga etdi, ya‘ni 4,2 barobar o‘ydi.

2015 yilda ham g‘alla yetishtirishda katta natijalarga erishildi. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli shu yili mo‘l hosil yetishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g‘alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.

Istiqloq davrida iqtisodiyotda yangi tarmoqlar – avtomobilsozlik, sellyuloza-qog‘oz, qand-shakar, farmatsevtika va boshqa tarmoqlar vujudga keldi. Respublika sanoatida yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning, ya‘ni mashinasozlik, yoqilg‘i-energetika, kimyo va engil sanoat kabi tarmoqlarning hissasi ortib bordi. Natijada, 1995 yilga qadar sanoat ishlab chiqarish hajmi pasayib borgan bo‘lsa, 1996 yildan boshlab

sanoat ishlab chiqarish hajmi izchil o'sib bormoqda. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yillik hajmi 2000 yilda 1990 yildagiga nisbatan 1,2 barobar, 2010 yilda 3 barobar, 2015 yilda esa 4.4 barobar o'sdi.

O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoq tuzilishini o'zgartirishda yangi neft konlari, Mingbuloq va Ko'kdumaloq konlarining ishga tushirilishi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodining qurilishi, Yangi Angren va Tolimarjon GRESlari qurilishining jadallashtirilishi, metall ishlab chiqarilishining ko'paytirilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin asosiy e'tibor barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratildi. Bu borada dastlabki palladanoq mamlakatimiz o'z taraqqiyot yo'lini izchil amalga oshirishi natijasida, MDHning boshqa ko'plab mamlakatlaridan farqli ravishda, ishlab chiqarish va aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka erishdi. 1991-1995 yillarda YIMning pasayishi Qozog'istonda 75,4, Belorussiyada 54,6, Rossiyada 53, Ukrainada 52 foizni tashkil etgan.

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyotning dastlabki yillarida oldingi yillarga nisbatan pasayish kuzatilgan bo'lsa (1991-1995 yillar davomida o'rtacha pasayish 18,8%ni tashkil etgan), ilk marta 1996 yilda 1,7% o'sishga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2006 yil 16 maydagi PQ-350-sonli qaroriga binoan ustuvor investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishni ta'minlash maqsadida tashkil qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tiklanish va taraqqiyot" jamg'armasi mablag'lari hisobiga markazlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish ko'lami yildan-yilga oshib bordi.

Jamg'arma o'z faoliyati mobaynida Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi qurilishi, Xonjiza polimetall konini o'zlashtirish loyihasi, Qamchiq dovoni orqali «Ohangaron-Pungan» magistral gaz tarmog'ining qurilishi, «Farg'ona azot» va «Maksam-Chirchiq» ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida yirik ammiak agregatlarining rekonstruksiya va modernizatsiya qilinishi, 500 kVli «G'uzor» kichik stansiyasi va «Surxon» kichik stansiyasi yuqori voltli liniyasi qurilishi, Pomuq va Dengizko'l konlarida siqish kompressor stansiyalarining barpo etilishi, Qo'ng'iro't kompressor stansiyasidagi gaz namini qochirish qurilmasi, Qarshi kaskadi nasos stansiyalarining rekonstruksiya qilinishi, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy

aviakompaniyasining havo flotini yangilash loyihalari, 400 ta «Mercedes-Bens» rusumli yo‘lovchi tashish avtobuslarini xarid qilish loyihalari, Sho‘rtan gaz-kimyoy majmuasida tozalangan metanni qayta ishlash bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg‘i ishlab chiqarish zavodini barpo etish, Yangi «Angren» ko‘mir konini modernizatsiya qilish orqali Angren issiqlik elektr stansiyasining 1-5-sonli energiya bloklarini yil bo‘yi ko‘mir asosida ishlash tizimiga o‘tkazish, Navoiy va Toshkent issiqlik elektr stansiyalarida bug‘-gaz moslamalarini qurish, Toshkent - Samarqand temir yo‘l yo‘nalishida foydalanish uchun «Talga - 250» yuqori tezyurar elektropoezdlarini xarid qilish, Olmaliq tog‘-metallurgiya kombinatini kompleks modernizatsiya qilish kabi ayrim loyihalarni amalga oshirgan bo‘lsa, hozirda bu loyihalarning ayrimlarini amalga oshirishda faol ishtirok etdi.

Temir yo‘l sohasida 342 kilometr uzunlikdagi yangi “Navoiy-Uchquduq-Nukus-Sultonuvaystog” va 223 kilometrlik “Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on” tarmoqlari barpo etildi. 550 kilometrdan ziyod temir yo‘l liniyalari elektrlashtirildi.

Mustaqillik yillarida aholining yengil avtomobillar bilan ta‘minlanishi 3,5 marta oshgan. **O‘zbekistonda har 2-oila yurtimizda ishlab chiqarilgan shaxsiy avtomobilga ega.**

Respublikamiz uchun tamomila yangi bo‘lgan **avtomobilsozlik** sanoatining tashkil etilishi bilan O‘zbekiston Avtotransport ishlab chiqaruvchilar xalqaro tashkilotining 33-to‘laqonli a‘zosi sifatida qabul qilindi. Bugungi kunda avtomobilsozlik sanoatida Asaka shahrida “UzAutoMotors” kompaniyasi, Samarqand shahrida “Samauto”, Germaniyaning “MAN” kompaniyasi bilan tashkil etilgan yuk avtomobillari ishlab chiqaradigan zavod, Jizzax avtomobil zavodi va boshqa korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Bugun birgina avtomobilsozlik sohasi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, mamlakatimiz istiqbolga erishgandan so‘ng o‘z faoliyatini boshlagan Asaka avtomobil zavodida yengil avtomobillarning uchta rusumi ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘sha paytda transport vositalari haqida gap ketganda birgina vodiyning Asaka shahri tilga olinar edi. Hozirda esa Toshkent, Samarqand, Xorazm, Jizzax viloyatlari ham O‘zbekiston avtomobil sanoatining markazlari sifatida tilga olinmoqda. Mazkur zavodlar yengil va yuk avtomobillari, maxsus transport vositalarining 100 dan ortiq turlarini ishlab chiqarmoqda. Bu esa o‘tgan davr mobaynida yurtimiz avtomobil sanoati qanday shiddat bilan rivojlanganini ko‘rsatadi.

1996 yil 19 iyul kuni Asakada «O'zDaewooAvto» qo'shma korxonasining ishga tushirishi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotida butunlay yangi - avtomobilsozlik tarmog'iga asos solindi. Mazkur tarixiy sanadan boshlab, to bugungi kunga qadar Asaka avtomobil zavodida eng zamonaviy standartlarga javob beradigan, qulay, ishonchli va tejamkorligi jihatidan xorijiy avtoulavlar bilan raqobatlasha oladigan avtomashinalar ishlab chiqarilmoqda.

2008 yil mart oyida O'zbekiston avtomobil sanoati hayotida muhim voqea ro'y berdi. Zavod negizida «O'zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi va «General Motors» kompaniyasi ta'sis chiligida, yangi «GM Uzbekistan» korxonasi tashkil etildi. Buning natijasida o'zbek avtomobillari yanada zamonaviy va ko'rkam avtomobil rusumlari hisobiga kengaya boshladi. «Chevrolet» brendi ostida «Captiva», «Tacuma», «Epika» rusumli avtomobillar ishlab chiqarilishi boshlandi. Shu yilning noyabr oyida esa Asaka avtomobil zavodi konveyeridan o'zida ko'rkam va keng interyerni mujassamlashtirgan millioninchi avtomobil - «Lacetti» avtomobili chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 noyabrda «2013-2015 yillarda Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi 1856-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 21 fevralda «Xorazm viloyatida «Damas» rusumli yengil avtomobillarni ishlab chiqarishni tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 51-sonli qaroriga muvofiq viloyatda «GM Uzbekistan» aksiyadorlik jamiyatining Xorazm viloyat filiali - «Xorazm avto» zavodi ishga tushirildi. 2014 yilning birinchi yarmida «Damas» va «Orlando» rusumli avtomobillarni yig'ish boshlandi. Shu yilning o'zida 30,7 ming dona «Damas» va «Orlando» avtomobillari ishlab chiqarildi. Bundan tashqari, yurtimizdagi kichik biznes egalari va xususiy tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida o'tgan yilning oxirida «Labo» avtomobilini ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ko'p yillardan buyon yengil avtomobillarimiz aksariyat kompaniyalar tomonidan o'tkaziladigan reytinglarda ommabopligi bo'yicha yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Xususan, «Matiz» avtomobili Rossiya bozorlarida ommabopligi va ko'p sotilgani bilan «Yil avtomobili» degan nomni qo'lga kiritgan.

Avtomobilsozlikni rivojlantirish va uning ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirishda mahalliyashtirish muhim o‘rin tutishi hech kimga sir emas. Bu iqtisodiyotni barqaror taraqqiy ettirish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, ishlab chiqarishga yangi va samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish imkonini beradi.

2011 yili O‘zbekistonda «General Motors» korporatsiyasi bilan hamkorlikda dvigatellar ishlab chiqaradigan yangi qo‘shma korxonada faoliyati yo‘lga qo‘yilganini ham alohida ta’kidlash joiz. Mahalliyashtirish Dasturi asosida tashkil etilgan «General Motors Powertrain Uzbekistan» qo‘shma korxonasi yiliga 132 mingdan ortiq dvigatel ishlab chiqarish quvvatiga ega. Muhimi shundaki, «Yevro-5» Xalqaro ekologik standartlariga to‘la javob beruvchi o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan ushbu dvigatellar Asaka avtomobil zavodiga yetkazib berilishi bilan birga, qator xorijiy mamlakatlarga ham eksport qilinmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 1 - iyun kuni “Avtomobil sanoatini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarorni imzoladi. Qisqa davr ichida amalga oshirilgan ishlardan yana biri “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik kompaniyasi “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. Shuningdek, Prezident O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini 2017-2021 yillarda rivojlantirish dasturini tasdiqladi. Dasturga ko‘ra, “O‘zavtosanoat” AJ 2021 yilga qadar tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshiradi. Ushbu dastur doirasida 800 mln.dollarlik sarmoyalar o‘zlashtiriladi. Shu bilan birga, importning ishlab chiqarish hajmiga nisbatan solishtirma nisbati 12,5 foizga qisqaradi, sanoat korxonalarida mehnat qiluvchilar miqdori esa 1,2 barobarga oshadi.

Prezident GM Uzbekistan AJ avtomobillariga aksiz solig‘i stavkasini 29 foizdan 27 foizga pasaytirdi. Shu bilan birga, bunday pasayish 2017 yilning 1 iyuniga qadar imzolangan, avtomobil qiymatining kamida 85 foiziga to‘langan shartnomalar bo‘yicha realizatsiya qilinuvchi avtomobillarga tegishli bo‘ladi. Shavkat Mirziyoyev Pskent avtomobil poligonini “O‘zavtosanoat” AJ avtomobillari mintaqaviy sinov bazasini tashkil etishga berdi. “O‘zavtosanoat” AJning ba’zi korxonalari soliq imtiyozlarini oldi.

Milliy avtomobilsozlik sanoatiga asos solinishi natijasida Uzbekistan o‘z mahsulotlari bilan jahon bozoriga chiqish



imkoniyatiga ega bo'ldi. Bugungi kunda quyidagi avtozavodlar O'zbekistonda faoliyat olib bormoqda.

1999-yil → "SamAuto" (Samarqand avtomobil zavodi);

2007-yil → "GM Uzbekistan" AJ (hozirda UzAutoMotors);

2009-yil → "MAN Auto Uzbekistan";

2011-yil → "GM Powertrain Uzbekistan" QK kabilar.

Bugungi kunda O'zbekiston **elektrotexnika** sohasi ishlab chiqarayotgan maishiy texnikaning 30% dan ortig'i Rossiyaga eksport qilinmoqda. "O'zeltexsanoat" ma'lumotiga ko'ra, o'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar Rossiyaga asosan xolodilnik, televizor, turli kabellar va yuqori voltli mahsulotlar eksport qilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston mahsulotlari bugungi kunda O'rta Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga ham yetkazib berilmoqda. E'tibor bering: sobiq tuzumda yuqoridagi mahsulotlarning barchasi bizga chetdan olib kelingan bo'lsa, bugun esa bu mahsulotlar bizdan chetga eksport qilinmoqda.

### **3. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash borasidagi chora - tadbirlar. Soliq tizimidagi islohotlar**

Bugungi kunda bank tizimini isloh qilish ularga yanada ko'proq mustaqillik berish banklarning o'z aktivlarini va ustav fondini ko'paytirish sarmoyalash imkoniyatlarini oshirish muammolariga katta e'tibor berayotganimiz bejiz emas albatta.

Nega deganda bank kapitali orqasida o'z aktivlarining ko'payishidan banklarni samarali ishlashidan foyda ko'rishidan manfaatdor bo'lgan haqiqiy mulkdorlar turishi ayniqsa ulkan ahamiyatga ega".

O'zbekistonda mustaqil **bank tizimini yaratish** bo'yicha eng asosiy tadbir – 1991 yilda O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida respublikada ikki pog'onali bank tizimining yaxlit qoidalarini shakllantirish, shuningdek bank tizimida sog'lom raqobat munosabatlarini faollashtirishning qonunchilik poydevorini yaratishga asos bo'ldi. SSSR Davlat bankining tarkibiy bo'linmasi hisoblangan, ayni vaqtda kredit va hisob-kitob operatsiya muassasasi vazifasini bajarib kelgan sobiq respublika Davlat banki tugatildi. Markaziy bank zimmasiga federal rezerv tizimiga xos bo'lgan vazifalar yuklatildi. Davlat shu bilan bir qatorda tijorat banklarining

rivojlanishiga ham yordam berdi. Sobiq, tarmoq doirasida ish yurituvchi davlat banklari tugatildi. Agrosanoat banki va Sanoat-qurilish banki ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik-tijorat banklariga aylantirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tuzildi.

O‘zjamg‘armabankka (hozirgi Xalq banki) kredit-moliya muassasasi maqomi hamda kredit resurslaridan jismoniy va yuridik shaxslarga qarz berish uchun foydalanish, shuningdek, kredit resurslarini banklararo pul bozorida kim oshdi savdosi orqali sotish huquqi berildi.

Ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik - tijorat banklari – “G‘allabank”, “Mevasabzavotbank”, “Tadbirkorbank”, “Savdogar” va boshqa banklar tuzildi. Bu banklar tadbirkorlik ishlariga xizmat qildi, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, iste‘mol bozorini eng zarur tovarlar bilan boyitish manfaatlarini ko‘zlab investitsiyalar uchun mablag‘ beradi.

O‘zbekistonda ikki pog‘onali bank tizimini tashkil qilishga 1988 yildan boshlab kirishilgan bo‘lsada, bu maqsadning to‘liq amalga oshirilishiga 1994 yildan boshlab sharoit yuzaga keldi. Bu davrga kelib Markaziy bankning tashkiliy tarkibiy asosi, faoliyat olib borish uslubi o‘zgardi, tijorat banklarning soni va ular bajaradigan operatsiyalar salmog‘i oshib bordi. Bu bosqichda kreditdan foydalanish masalasida keskin o‘zgarishlar yasaldi, tarmoqlar, birlashmalar, korxonalar, avvalo o‘z kuchiga ishonishlari iqtisodiy barqarorlik omillaridan biri etib belgilandi .

Mazkur Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tuzilib, uning zimmasiga respublikada pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimini vujudga keltirish va to‘lov tizimini tashkil etish vazifalari yuklatildi. Bu vazifalarni bajarish uchun Markaziy bankda pul-kredit va valyuta siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishga, hisob-kitoblar va to‘lov tizimini rivojlantirishga xizmat qiluvchi bo‘linmalar tuzildi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish esa yangidan tuzilgan ixtisoslashtirilgan tijorat banklariga yuklatildi. Shunga muvofiq ravishda, tijorat banklari ham o‘zlarining ichki tarkibiy bo‘linmalarini qayta tuzish va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga kirishdilar.

Mamlakatimizda keyingi yillarda iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan muhim tadbirlardan biri bu pul muomalasini

mustahkamlash valyuta munosabatlarini tartibga solish bo'ldi. Bu iqtisodiy mustaqillikning asosiy shartlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1993 yil 7 mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida nutq so'zlarkan «*Mustaqil davlat boshqa davlatlardan ayri tarzda iqtisodiy hur bo'lishi uchun o'z puliga o'zining milliy valyuta sig'ega bo'lmog'i kerak. Bu iqtisodiy mustaqillikning asosiy shartlaridan biridir*».-degan edi.

**1994 yil 1 iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasining pul birligi - so'm muomalaga kiritildi.** Shu kundan boshlab respublika hududidagi yagona qonuniy to'lov vositasi sifatida u barcha turdagi to'lovlar uchun shuningdek bankdagi hisob varaqalariga kiritish uchun qabul qilinishi shart bo'lib qoldi. Keyingi vaqtlarda milliy valyuta qadrini oshirish uchun katta ishlar qilindi.

Natijada 1995-1996 yillarda pul qadrsizlanishi sur'atlari ancha qisqardi.

1995 yil 21 dekabrda Oliy Majlisning 4 sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida" "Banklar va banklar faoliyati to'g'risida" alohida Qonunlar qabul qilindi. Bu huquqiy hujjatlar Xalqaro Valyuta Fondi va Jahon banki tomonidan yuqori baholandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida 20 ta tijorat banki ro'yxatga olingan. 1995 yildan ularning 19 tasi aksiyadorlik – tijorat shaklida 5 tasi ma'sulyati cheklangan jamiyat 1 tasi kooperativ 2 tasi xorijiy sarmoya ishtirokidagi 2 tasi davlat banki sifatida faoliyat ko'rsatgan. Bugungi kunda respublikamizda 30 dan ortiq banklar faoliyat ko'rsatmoqda. 2022 yildan banklarni xususiy lahzastirish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilishi boshlandi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirishda **soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan choralar** ham muhim rol o'ynaydi. Chunki soliqlar xazinani to'ldiruvchi asosiy manbadir. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida mamlakatda mavjud soliq tizimini takomillashtirishga katta e'tibor berildi.

Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 12 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida Soliq organlari haqida"gi Qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 18 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Davlat Soliq Bosh Boshqarmasini O'zbekiston Respublikasining Soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida"gi Farmoni imzolanishi soliq tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda turtki bo'ldi.

1997 yilga kelib faoliyati kengaygan O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi Davlat Soliq qo‘mitasi deb o‘zgartirildi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitlarida barcha sohalar qatori soliq tizimiga bo‘lgan munosabatlar ham tubdan o‘zgardi. U ikkinchi darajali tizimdan bozor iqtisodiyotini amalda tartibga soluvchi muhim vosita va davlat daromadlarini vujudga keltiruvchi bosh manba darajasiga ko‘tarildi.

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalariga asoslanib ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi.

Ta‘kidlash joizki, bu jarayonda mustaqil byudjet tizimimizga ega bo‘lgan davrdan buyon eng yuqori ko‘rsatkich 2018 yilga tegishli bo‘lmoqda, ya‘ni davlat byudjetiga soliq tushumlarini prognozi 2018 yilda 62229,5 mlrd so‘m qilib belgilangan bo‘lsa, dastlabki rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra davlat byudjetining ijrosi 74500 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lgan, bu esa qariyb 20 % ga ortig‘i bilan bajarildi. Oxirgi ikki yildagi prognoz ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishining asosiy sabablari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi «Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlari vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017 yil 18 iyuldagi «Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2018 yil 29 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi Harakatlar strategiyasining soliq tizimini isloh qilish borasidagi vazifalarning amalga oshirilishi natijalari va keng qamrovli iqtisodiy islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarga erishish yo‘lidagi farmoni, 2018 yil 26 iyundagi PQ-3802-son «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlarida belgilab berilgan vazifalarning izchillik bilan amalga oshirilishi bo‘yicha soliq ma‘murchiligining yanada

takomillashtirilishi va soliqlarni undirish mexanizmlarining soddalashtirilishini keltirish mumkin.

2019 yil 1 yanvardan soliq islohotlari konsepsiyasiga muvofiq Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishni takomillashtirish maqsadida barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yagona stavkasi 12 foiz miqdorida joriy etildi.

Mehnatga haq to'lash jamg'armasiga soliq yukini kamaytirishning yana bir tadbirlaridan biri, bu – yagona ijtimoiy to'lov stavkalarining 25 foizdan 12 foizgacha kamaytirilishi bo'ldi, bunda byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar uchun tatbiq qilinmaydi. Natijada soliq to'lovchilar ixtiyorida qoladigan mablag'lar 2,9 trillion so'mni tashkil qiladi.

Fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari (stavkasi 8 foiz) bekor qilindi. Foyda solig'i to'lovchilarga soliq yukini kamaytirish, investitsiyalar miqdorini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

- tijorat banklari uchun foyda solig'i stavkasi 22 foizdan 20 foizgacha;
- korxonalar va tashkilotlar uchun 14 foizdan 12 foizgacha;
- dividend va foiz ko'rinishidagi daromadlar uchun 10 foizdan 5 foizgacha kamaytirildi.

Soliq solishning soddalashtirilgan rejimidagi soliq to'lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirishning salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 5 foizdan 2 foizgacha pasaytirildi. Yillik aylanmasi 1 milliard so'mgacha bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 5 foizdan 4 foizgacha kamaytirildi.

Yillik aylanmasi 100 million so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari 13-40 foizga kamaytirildi. Yillik aylanmasi 100 million so'mdan yuqori va 1 milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga aylanmadan 4 foizlik stavkada soliq to'lashga o'tkazish yo'li bilan qat'iy belgilangan soliq bekor qilindi.

2019 yil 1 yanvardan boshlab, o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik aylanmasi (tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan yoki yil davomida belgilangan chegaraviy miqdorga yetgan korxonalar umum belgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazildi.

Bugun byudjet tashkilotlarida 1,7 million aholi doimiy ish bilan band, 3 milliondan ortiq pensiya yoshidagi fuqarolar bor. Davlat tomonidan ularga har oy maosh va nafaqalar beriladi. Davlat o'z oldida turgan ana shunday majburiyatlarni to'la bajarishi uchun o'tgan vaqt davomida qo'shilgan qiymat solig'ini 20 foizda ushlab turishga to'g'ri keldi.

2018 yilgi soliq konsepsiyasida 2019 yil 1 yanvardan ish haqi fondiga bo'lgan soliq yukini kamaytirish ko'zda tutilgandi. Natijada ushbu sanadan boshlab jismoniy shaxslarning daromad solig'i 22 foizdan yagona 12 foizga tushirildi. Sakkiz foizlik ish haqidan sug'urta badali olish umuman bekor qilindi.

Ammo Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko'zlab ish tutishi natijasida tadbirkorlar yaratilgan soliq imtiyozlaridan oqilona foydalanib, o'z faoliyatini yanada jonlantirdi. Buning natijasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining davlat byudjetiga tushumi ikki baravarga ortishi kuzatildi. Yilning birinchi yarmida qo'shimcha 571 ming soliq to'lovchi aniqlandi. Daromad solig'i davlat byudjetini shakllantiruvchi uchinchi soliq turi ekani qayd etildi.

2020 yil 7 yanvar kuni "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi" qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi Qonun imzolandi (O'RQ-601-son Qonun).

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yonalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ga muvofiq, shuningdek, ilg'or xorijiy tajriba, zamonaviy innovasion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida elektr energetika tarmog'ida davlat boshqaruvining tashkiliy huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 oktyabrdagi" Elektr energetikasi tarmogini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda respublika **energetika tizimi** 37 issiqlik va gidro-elektrostansiyalardan iborat bo'lib, ularning umumiy quvvati 11 million kilovattni tashkil etadi. U yiliga 55 milliard kilovatt soatgacha energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Issiqlik elektrostansiyalaridan tashqari, nisbatan arzon va ekologik toza Elektr energiyasini etkazib beruvchi gidroelektrostansiyalar, jumladan, Chorvoq, Xo'jakent, Farg'ona, G'azalkent va boshqa bir qancha elektrostansiyalar ishlab turibdi.

O'zbekiston energotizimining Markaziy Osiyo Birlashgan energotizimidagi ulushi 40 foizni tashkil etadi. Respublikamiz elektr tarmoqlari orqali elektr energiyasi Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonga uzatilmoqda.

2017 yilda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari 5,5 foizni tashkil etdi, eksport hajmi qariyb 15 foizga ko'paydi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini 854 million dollarga etdi". 2017 - yilda YIM o'sish sur'ati 2018 yil yakuniga ko'ra 5,2 %, 2019 yilda esa 5,4 % bo'lishi prognoz qilingan.

**2017 - yildan milliy valyutamizni erkin konvertatsiya qilina boshandi.** Yuridik va jismoniy shaxslar xorijiy valyutani tijorat banklaridan cheklovsiz sotib olish va erkin sotish imkoniga ega bo'ldi. Shu yili chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalari hajmi liberalizatsiya davriga nisbatan 1,5 barobar oshib, o'rtacha 1,3 milliard dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, davlatimizning oltin-valyuta zaxiralari yil davomida 1,1 milliard dollarga ko'paydi.

2017 yilda mamlakatimizda **12 ta erkin iqtisodiy va 45 ta sanoat zonasi** faoliyati yo'lga qo'yildi va bu tashkiliy choralar hududlarni jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Keyingi yillarda yana 50 ta yangi sanoat zonasini tashkil etildi.

Biz uchun g'oyat muhim bo'lgan yangi ish o'rinlarini tashkil etish masalasi doimiy e'tiborimiz markazida bo'lmoqda. 2017 yilda yangi sanoat korxonalarini qurish, xizmat ko'rsatish ob'ektlarini ishga tushirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 336 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari tashkil etildi.

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Bozor munosabatlarining shakllanishida iqtisodiy islohotlarning ahamiyati nimada?

2. Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligida qanday islohotlar o‘tkazildi?
3. Respublikada xususiylashtirish jarayonlari qanday amalga oshirildi?
4. Sanoat ishlab chiqarish sohasida qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?
5. Mustaqillik yillarida avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
6. Valyutaning erkin konvertatsiya qilina boshlanishining qanday ahamiyati bor?
7. Soliq tizimida qanday islohotlar amalga oshirildi?
8. O‘zbekiston bank tizimi haqida nimalarni bilasiz?
9. “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari haqida ma’lumot bering.
10. Mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida so‘nggi yillarda qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?

#### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон.. 2017.
4. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабилов. - Тошкент: Академия, 2013.
5. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Тошкент: Шарқ, 2006.
6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018.
7. Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. - Тошкент: Шарқ, 2006.
8. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Тошкент: Маънавият, 2011.



## АХБОРОТ МАҲБАЛАРИ:

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

### **Мавзу: О‘ЗБЕКISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOIIY O‘ZGARISHLAR**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasi, ijtimoiy soha, ijtimoiy himoya, aholi daromadlari darajasini saqlash, aholi turmush darajasi, sog‘liqni saqlash tizimi, aholini uy-joy bilan ta‘minlash, pensiyalar, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, Yoshlarga oid davlat siyosati, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun*

#### **1.Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi**

XX asrda 70 yildan ko‘proq vaqt hukmron bo‘lgan, dunyo xaritasida “Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi” degan nom bilan katta hududni egallagan, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan yirik mamlakatdagi to‘g‘ri bo‘lmagan, samarasiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosat 1980-yillarning oxiriga kelib barcha ittifoqdosh respublikalar qatorida O‘zbekiston aholisining ham yashash sharoitlarini og‘irlashtirib, uni ko‘plab muammolar iskanjasiga solib qo‘ydi. Bu muammolarning barchasi 1980-yillarning oxiri, 1990-yillarning boshlarida O‘zbekistonda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Xususan, respublikada demografik vaziyat murakkablashdi. Biroq, aholining bunday o‘sishi uzoq yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko‘paytirish hamda aholining hayot ta‘minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmadi. Bu esa odamlar turmush sharoitining og‘irlashuvi, ishsizlar sonining ko‘payishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishiga olib keldi.

Respublikadagi ijtimoiy ahvol, odamlarning ijtimoiy ta‘minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish qoniqarsiz darajada edi. Ayniqsa, qishloq aholisining toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan

ta'minlanishi atigi 5 foizni, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi salkam 50 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 17 foizni tashkil etar edi. Aholini uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat ob'ektlari, maktablar, bolalar bog'chalari va hokazolar bilan ta'minlash ishlarida siljishlar sezilmadi. Vaholanki, aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qilar edi. Yuqorida qayd etilgan holatlar O'zbekiston aholisi daromadlari va turmush darajasining keskin pasayishiga olib keldi.

Ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari - sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolda bo'lib, maktab va kasalxonalarining 60 foizi nobop binolarda joylashtirilgan. Bu esa o'sha davrda insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham yetishmaganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki paytdayoq, uning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilangan edi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davridan boshlab aholini oldindan ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rib borildi. Shu maqsadda miqdori muntazam o'zgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, turli nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya to'lovlari tarzidagi pul to'lovlari keng qo'llanildi. Mamlakatning 2 mln. 640 ming fuqarosi pensiya va moddiy yordam oladi. Bunday to'lovlar miqdori 2000 yilda 187,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Faqat 2000 yilning o'zida aholining kam ta'minlangan qismiga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari - mahalla yig'inlari orqali 54,2 mlrd. so'm miqdorida nafaqa, ko'mak va boshqa turdagi yordamlar berildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda 70 mln. kv.m. turar joylar, 19,5 ming o'rinli kasalxonalar, 95,7 ming marta tashrifli poliklinikalar, 805,9 ming o'rinli maktablar, 15,3 ming o'rinli akademik litseylar, 126,5 ming o'rinli kasb-hunar kollejlari qurilib foydalanishga topshirildi. Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash va gazlashtirish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda. 1991-2000 yillarda 22,6 ming km. suv quvurlari va 54,1 ming km. gaz tarmoqlari yotqizildi. Aholining uy-joylarini gazlashtirish darajasi 46,2 foizgacha, ichimlik suvi bilan markazlashgan holda ta'minlash esa 64,2 foizdan 77,6 foizgacha ko'tarildi. Yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda aholining ehtiyojmand qismini, shu jumladan, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2005-yil – "Sihat-salomatlik yili" da 2 mingga yaqin yolg'iz nuroniyning uy-joyi ta'mirdan chiqarildi, kam ta'minlangan oilalar va keksa fuqarolarga moddiy yordamlar ko'rsatildi. Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash davlat siyosatining bosh yo'nalishi hisoblanadi. Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilning muhim qismi aholini ijtimoiy himoyalash ekanligi ham shu bilan bog'liqdir. O'zbekiston hukumati ana shu besh tamoyil asosida o'tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur choralar ko'rdi. Bu choralar odamlarning turmush darajasini keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi. Mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo qilishda davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya siyosati olib borildi. Kuchli ijtimoiy himoya siyosati O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi. Respublikada ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratildi, unga qonuniy asos solindi.

Ijtimoiy himoya deganda - keng ma'noda - mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy choratadbirlar majmui; tor ma'noda - davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi tushuniladi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat.

Kuchli ijtimoiy himoya siyosati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topdi. Mamlakatda daromad olishning kafolatlanishi amalga oshirildi. Eng kam ish haqi va boshqa to'lovlar odatda, oldindan ko'paytirib kelindi, narx-navo o'zgarishi bilan bog'lab olib borildi, bu esa aholining to'lov qobiliyati saqlanib qolishini ta'minladi va turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymadi. Aholini ijtimoiy himoyalashning *ikkinchi yo'nalishi* – ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy

turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'ldi. Bunga erishishda, muhimi, mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to'lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo'nalishi – aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash borasida chora-tadbirlar o'tkazilganligi bo'ldi.

Bu yo'nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari – pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo'llar bilan himoya qilib borildi. 1992–2017-yillar mobaynida ish haqi va pensiyalarning, oliy o'quv yurtlari talabalarining, aspirantlarining, doktorantlarining stipendiyalari miqdori bir necha bor oshirildi. Pensionerlarning ijtimoiy ahvolini e'tiborga olib, eng kam pensiyaning mutlaq miqdori ish haqining eng kam miqdoridan oshiqroq bo'lishi muttasil ta'minlanib kelindi. Bu yo'l ijtimoiy adolat tamoyillariga mos kelar edi.

1994-yilga kelib, O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan o'zgartirildi. Ijtimoiy ko'mak berishning mutlaqo yangi ilg'or tizimi shakllantirildi. Bu tizimning mohiyati shundan iboratki, bolalar va kam daromadli oilalar bu yordamdan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar bo'lib qoldi. 1994-yilning sentabridan boshlab barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi. Bunday yordam odamlarga yaqin turadigan mahalla fuqarolar yig'inlarida amalga oshiriladigan bo'ldi.

1996-yil dekabrda bolali oilalarga ijtimoiy yordam berilishni kuchaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida “Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida” yana bir muhim farmon qabul qilindi. Unda 1997-yildan boshlab yordamga muhtoj, bolali oilalarga bolalarning soniga qarab, eng kam ish haqining 50 foizidan boshlab 175 foizigacha nafaqalar beriladigan bo'ldi. Nogiron bolalarni sog'lomlashtirish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi, “Sog'lom avlod uchun” jamg'armasi tashabbusi bilan, xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda, tug'ma nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalarni murakkab jarrohlik yo'li bilan davolash ishlari amalga oshirildi.

1994 yilda aholining dori-darmonga bo'lgan ehtiyoji Respublikada ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga bor-yo'g'i 4,5 foizga qondirilar edi. 2003 yilga kelib, katta miqdorda sarmoya jalb etilganligi hisobidan, bu ko'rsatkich 25 foizgacha o'sdi. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich 60-70 foizdan oshirildi

1997-yildan boshlab har yili 1-sinf o'quvchilariga bepul o'quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi, kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yildagi "2007–2010-yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, "Nuroniy" jamg'armasi hisobidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga, faxriylarning davolanish maskanlariga, "Saxovat" va "Muruvvat" uylariga dori-darmon vositalari yetkazib berildi. Respublikamizdagi barcha "Saxovat", "Muruvvat", va "Mehribonlik" uylari hamda maxsus maktab-internatlarga homiylar tomonidan har yili moddiy yordam berib boriladi.

Har yili 9-may «Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan urush qatnashchilari mukofotlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-apreldagi farmoniga ko'ra, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari 2 mln. so'm (ushbu mukofot 2020-yilda 10 mln. so'm, 2021-yilda 12 mln. so'm, 2022-yilda 15 mln. so'm )dan mukofotlandilar. Urush qatnashchilarining ayrimlariga to'la jihozlangan uylar, Haj ziyoratiga bepul borish va navbatsiz avtomobil sotib olish imtiyozlari berildi.

Mamlakatimizda 2007-yilning "Ijtimoiy himoya yili" deb e'lon qilinishi aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, uning turmush va farovonlik darajasini izchil oshirishga qaratilgan keng ko'lamli davlat siyosatining amaliy ifodasi bo'ldi.

## **2. Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joylar bilan ta'minlash, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish**

O'tgan yillarda respublikada aholiga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatishning rivojlangan tizimi bunyod etildi. Mustaqillik yillarida ambulatoriya-poliklinika muassasalarining soni 3 mingdan 4,8 minggacha yoki 1,6 baravar ortdi. Qishloq joylaida 1600 ta vrachlik

punktlari ochildi. Aholiga 81,5 mingdan ortiq shifokorlar turli ixtisosliklar bo'yicha malakali tibbiy yordam ko'rsatmoqda.

2009-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2009–2013-yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish va shu sohada sifat o'zgarishlarini amalga oshirishni ta'minlash borasidagi ishlar davom ettirildi. Bolalarni yuqumli kasalliklarga qarshi emlash darajasi qariyb 100 foizni tashkil etdi. Barcha viloyatlar markazlarida kattalar va bolalar uchun ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, har bir tumanda eng zamonaviy tibbiyot asbobskunalari bilan jihozlangan qishloq vrachlik punktlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda respublikamizda 3000 ga yaqin qishloq vrachlik punkti (QVP) faoliyat ko'rsatmoqda.

2015-yilga kelib Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda tug'ilayotgan bolalarning 92 foizi mutlaq sog'lom. «Bolalarni asraylik» xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida O'zbekiston bolalar salomatligini mustahkamlash borasida katta g'amxo'rlik ko'rsatayotgan eng ilg'or yetakchi o'nta mamlakat qatoriga kirdi.

2016-yil O'zbekistonda "Sog'lom ona va sog'lom bola yili" deb e'lon qilindi. 2016-yilda chekka qishloq tumanlarida yashayotgan aholi, birinchi navbatda, xotin-qizlar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy sharoitlar yaratish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan ta'minlash, xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. O'tgan yillar mobaynida yurtimizda aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi ham sezilarli ravishda ortib bordi. Bu boradagi umumiy ko'rsatkich 1990-yilda 67 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda 74 yoshni tashkil etdi. Jumladan, erkaklar o'rtasidagi o'rtacha umr ko'rish 66 yoshdan 70 yoshga, ayollar o'rtasida esa 72 yoshdan 76 yoshga uzaygani odamlar salomatligini muhofaza qilish va turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning aniq va yaqqol natijasi sifatida baholash o'rinli bo'ladi.

2016 - yilda chekka qishloq tumanlarida yashayotgan aholi, birinchi navbatda, xotin-qizlar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy sharoitlar yaratish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi, tabiiy gaz

bilan ta'minlash, xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish borasidagi ishlar izchil davom ettirildi.

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha 167-170 bandlarda qator vazifalar belgilangan edi. "Taraqqiyot strategiyasi" markaziga taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, bosh vazir o'rinbosari hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan 2019-yil 9-yanvarda "Respublika hududlarida 2019-yilda og'ir turmush sharoitida yashayotgan ayollar, ayniqsa yosh xotin-qizlar bandligini ta'minlash" Dasturi tasdiqlangan. Shundan kelib chiqib, 2019-yilda og'ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash maqsadida hududiy dasturlar kesimida 13 044 nafar ayol va yosh qizlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha manzilli dasturi tasdiqlangan va dastur asosida ishlar amalga oshirilgan.

2019-yilning yanvar-dekabr oylari davomida og'ir turmush sharoitida yashovchi xotin-qizlardan 13 044 nafarining (100%) bandligi ta'minlandi. Shundan, 475 nafari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida ishga tushayotgan korxonalarda yaratilayotgan ish o'rinlariga, 4 283 nafari mavjud korxonalaridagi bo'sh ish o'rinlariga, 386 nafari kvota ish o'rinlariga, 339 nafari hunarmandchilik yo'nalishida, 525 nafari oilaviy tadbirkorlik yo'nalishida, 365 nafari homiylar hisobidan shaxsiy va yordamchi xo'jaligida chorvachilik, asalarichilik, quyonchilik, issiqxona va boshqalarni tashkil qilish hisobiga, 4 001 nafar haq to'lanadigan jamoat ishlariga va 2 670 nafari boshqa yo'nalishlarida bandligi ta'minlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uylarni berish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, Xotin-qizlar qo'mitalari tomonidan uy-joyga muhtoj og'ir turmush sharoitidagi va nogironligi bo'lgan xotin-qizlarning ro'yxatlari shakllantirildi hamda tuman, shahar hokimliklarida tashkil etilgan maxsus Komissiyalar tomonidan ko'rib chiqildi. Komissiyalar xulosasi natijasida Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'lari

hisobidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi 1 493 ta arzon uy-joylar uchun 26 mlrd. 277 mln. so‘m miqdorida boshlang‘ich badallari o‘tkazib berildi.

2018-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekiston aholisi 32,65 million kishini tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich 2017-yilga nisbatan 1,7 % ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni jami aholining 50,6 % ini, qishloq aholisi 49,4 % ni tashkil qiladi. Aholisi soni 3 million kishidan oshgan hududlar soni 4 ta bo‘lib, ular Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari hisoblanadi. O‘zbekistonda O‘rta Osiyodagi jami aholining 1/3 qismidan ko‘prog‘i yashaydi. Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lum qilishicha 2022-yil 1 yanvar holatiga ko‘ra **O‘zbekiston doimiy aholisi soni 35,2 million kishini** tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 712,4 ming kishiga yoki 2,1 % ga o‘sgan. BMT Aholishunoslik jamg‘armasining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekiston aholi soni bo‘yicha dunyoda 43-o‘rinni egallaydi.

Istiqlol arafasida, hali mustabid tuzum hukmronlik qilib turgan bir paytda, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning yuksak jasorati bilan aholini uy-joyli qilish masalasining yechimi topildi. Natijada 1989–1990-yillarda bir yarim milliondan ko‘proq oilaga qo‘shimcha yer ajratildi, 700 ming oilaga tomorqa yerlari berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 3-avgustdagi “Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko‘lamini kengaytirishga oid qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori bilan boshlangan qishloq infratuzilmasini yangilashga qaratilgan bunyodkorlik ishlari bugun qishloqlarimiz qiyofasini zamonaviy arxitektura asosidatubdan o‘zgartirishga xizmat qilmoqda. Xususan, 2009–2016-yillarda qishloq joylarda 70 mingga yaqin shinam namunaviy uy-joy bunyod etildi. Pirovardida 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 21-oktabrdagi “2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha imtiyozli uy-joylar qurish dasturi to‘g‘risida”gi qarori mazkur yo‘nalishdagi keng ko‘lamli islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lib, qishloq qurilishida yangi bosqichni boshlab berdi. Ayni paytda qishloq aholisining zamonaviy va arzon uylarga o‘sib borayotgan ehtiyojlaridan kelib chiqib, imtiyozli kredit berishning yuqori darajadagi shartlari joriy etildi. Shuningdek, energiyani tejaydigan materiallar va asbob-



uskunalarning yangi turlaridan foydalanishning yanada kengaytirilishi barpo etilayotgan uylarning tannarxi pasayishi hamda aholining barcha qatlamlari uchun maqbul narxlar belgilanishiga xizmat qildi.

Qarorga ko'ra, qishloq joylarda mavjud namunaviy loyihalarga qo'shimcha ravishda ikki, uch qavatli (2, 3 xonali) uy-joylar qurildi. Shuningdek, aholi zich joylashgan tumanlarda maydoni 0,02 gektar bo'lgan bir qavatli 2 va 3 xonali, maydoni 0,04 gektar bo'lgan yer uchastkalarida joylashtiriladigan ikki qavatli 4 xonali birlashtirilgan arzon uylarning yangi namunalari joriy etildi. Bundan tashqari, 2017-yildan boshlab mamlakat poytaxti va viloyatlarda uy-joyga ega bo'lmaganlar, harbiy xizmatchilar, yosh olimlar va ichki ishlar xodimlari uchun imtiyozli uy-joylar qurilib, egalariga topshirilmoqda.

Mamlakatimizni yoshlar mamlakati deb aytish mumkin. Aholining 60 foizdan ortiq qismini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda 2016-yilda «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra, 30 yoshgacha bo'lgan barcha toifadagi shaxslar yoshlar ekanligi qayd etilgan. «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar mas'uliyatini kuchaytirishga, ushbu sohada sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning 2017-yil iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq, mamlakatimizdagi barcha harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berildi. Yoshlarni yanada rag'batlantirish maqsadida «Mard o'g'lon» mukofoti ta'sis etildi. Shu yil sentabrda o'quvchilarning aniq fanlarning yuksak marralarini zabt etishiga ko'maklashish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi iqtidorlarini aniqlash hamda qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tasarrufida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni

chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab (Al-Xorazmiy maktabi) tashkil etildi. Ushbu maktabga o‘quvchilar 5-sinfdan boshlab yozma va og‘zaki sinov natijalariga ko‘ra tanlov asosida qabul qilinadi.

### **3. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati**

**Korrupsiya** balosi - jamiyat rivojiga g‘ov bo‘ladigan qabih illatdir. U nafaqat mamlakat ravnaqiga to‘siq bo‘ladi, ayni paytda odamlarning ertangi kunga, kelajakka ishonchini susaytiradi, davlat institutlarini obro‘sizlantiradi. Shuning uchun ham mamlakatimizda ushbu illatning oldini olishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda Korrupsiyaga qarshi kurashishning yaxlit tizimi yaratilgan. Ayniqsa, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi davlat apparati va fuqarolik jamiyati institutlarining mazkur xavfli illat bilan kurashdagi kuch hamda imkoniyatlarini birlashtirishga zamin yaratdi.

**2017 yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.** 6 bob, 34 moddadan iborat ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar va me‘yorlar belgilangan.

Qonunning 4-moddasig ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarligi.

Qonunning 5-moddasiga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid

huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash.

Qonunning 7-moddasiga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy (hozirda Davlat) xavfsizlik xizmati;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish (hozirda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish) departamenti. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Qonunga ko'ra Respublika miqyosida Idoralararo komissiya tashkil etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish va boshqalar.

Qonunning 14-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Idoralararo komissiya va hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Qonunning 18-moddasiga ko'ra ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi. Davlat ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik.

28-modda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo'ladi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning qoidalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborot bergan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Mazkur qonun bilan yaqindan tanishish, uning har bir moddasini chuqur o'rganib, hayotimizga tatbiq etishga intilish, sodda qilib aytganda, korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushunish, mustaqil idrok etish, eng muhimi, unga qarshi kurashish har birimizning fuqarolik burchimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyunda "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli yana bir Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida shu kuni **O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini** tashkil qilish to'g'risidagi Prezident Qarori qabul qilindi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak. Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz.

### NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Ijtimoiy soha deganda nima tushuniladi?
2. Kuchli ijtimoiy siyosat, aholini ijtimoiy himoyalash, deganda nimani tushunasiz?
3. Istiqlolning dastlabki yillarida aholini ijtimoiy himoya qilish masalsida qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi?
4. Mustaqillik arafasida va undan keyin aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
5. Respublikamizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida qanday ishlar olib borilmoqda?
6. Harakatlar strategiyasida yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida qanday tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan?
7. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi qanday kurash olib borilmoqda?

8. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati nimadan iborat?

### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
2. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70 80-йиллар мисолида). Қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 1999.
3. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. - Тошкент: Ўзбекистон. 2015.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
6. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабилов. - Тошкент: Академия, 2013.
7. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018.
8. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Тошкент: Маънавият, 2011.

### **AXBOROT MANBALARI**

1. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).

## **Mavzu: MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *O‘zbek tili, ma’naviy meros, milliy qadriyatlar, buyuk siymolar tavallud sanalari, islom dini, milliy an’analar, milliy istiqlol g‘oyasi, o‘zlikni anglash, ajdodlar merosi, madaniyat, sport, kino, teatr, adabiyot, musiqa, besh tashabbus, millatlararo munosabatlar, dinlararo bag‘rikenglik*

### **1. Mustaqillik yillarida ma’naviy va ma’rifiy hayot. Madaniyat va san’at sohasining rivojlanishi**

Ma’lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujumiga duchor bo‘lgan, qaramlik zulmi ostida qolgan davrlar ham bo‘ldi. Buning oqibatida xalqimizning boy ma’naviy merosi, urf-odatlarini qadrsizlantirishga urinishlar bo‘ldi. Ayniqsa, so‘nggi mustamlakachilik, sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma’naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko‘plab masjid-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. Buyuk allomalarimiz idealist degan yorliq bilan qoralandi, asarlarini unutish, yo‘qotish siyosati yuritildi. Islom dini qadriyatlari, musulmonlarning e’tiqodlari oyoq osti qilindi, ruhoniylar quvg‘in ostiga olindi. Mustabid tuzum hukmdorlari madaniy inqilob shiori ostida o‘zbek xalqining yuzlab iqtidorli, milliy-ozodlik uchun kurashgan vatanparvar ziyolilarini, istiqlolchi farzandlarini siyosiy qatag‘on qildi, ularning nomlarini xalqimiz xotirasidan o‘chirib tashlashga harakat qildi.

Eski tuzum o‘zining boy mafkuraviy kuchini, ommaviy axborot vositalarini, butun maorif tizimini ishga solib, odamlar ongiga soxta, noinsoniy g‘oyalarni singdirishga urinardi. Tariximizni soxtalashtirish, tarixiy haqiqatni buzub ko‘rsatish, milliy tuyg‘ularni qo‘pol ravishda kamsitish siyosati yuritilardi. O‘z ona tilini, milliy an’ana va madaniyatini, o‘z tarixini bilmaslik ko‘plab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib qolgan edi. Biroq og‘ir judoliklarga qaramasdan, xalqimiz ongini yo‘qotmadi, o‘zining boy ma’naviy merosini, milliy qadriyatlarini avaylab saqlab, boyitib keldi.

Mamlakatimizda o‘zbek tilining xalq va davlat turmushidagi asosiy ahamiyati va o‘rni qayta tiklandi. O‘zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisning IV-sessiyasi 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda Oliy davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining faoliyati, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hisob-kitobi, statistika va moliya ishlari o'zbek tilida yuritilmoqda. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari, geografik o'rinlarining nomlariga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida yozib qo'yildi. Natijada o'zbek xalqining milliy qadr-qimmatini qayta tiklandi va mustahkamlandi. Shuningdek, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlarning tillari, qadr-qimmatini o'z o'rniga qo'yildi.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz ma'naviy zug'umlardan ozod bo'ldi, erkin fikrga, milliy tiklanishga yo'l ochildi. Jamiyat ma'naviyatini tiklash va yuksalishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi. Boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosni tiklash ishlari boshlanib ketdi. Mustaqillik tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo'lishga muyassar bo'ldi.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi eng asosiy vazifa, - deb ta'kidlaydi birinchi Prezident Islom Karimov, - milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va odamlar ongiga singdirishdan iboratdir. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan kundan boshlab jamiyatimizning milliy g'oyasini yaratish dolzarb vazifa bo'lib qoldi. 1993-yil 23-aprel kuni birinchi Prezidentimiz bir guruh adiblar bilan suhbat qilib, milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII-sessiyasida 1993-yil 7-may kuni nutq so'zlab, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi:

milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch. Mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim;



shu bilan birga, bu g'oya xalqimizda, o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqiy davlatlar orasida teng huquqli asosda munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

Milliy istiqlol g'oyasidan kutilgan maqsad nima?

Bugungi kunda sobiq Ittifoq zamonida hukmronlik qilgan, odamlarni qullik, mutelik holatiga solgan, manqurtga aylantirgan kommunistik mafkurani tanqid qilish, taqiq qilish, ma'myuriy choralar ko'rish yo'li bilan yengib bo'lmaydi. "G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin", degan haq fikrni ilgari surdi Islom Karimov.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekistonning milliy istiqlol g'oyasini yaratish tashabbuskori va ijodkori bo'ldi. Ma'no-mazmuni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash kabi insonparvar tamoyillarni o'zida uyg'unlashtirgan milliy istiqlol g'oyasi shakllandi.

O'zbek xalqiga xos quyidagi jihatlar uning milliy qadriyatlari sifatida boshqa xalqlar tomonidan e'tirof etilgan:

- tug'ilgan makon va ona yurtiga ehtirom;
- avlodlar xotirasiga sadoqat;
- kattalarga hurmat, kichiklarga izzat;
- mehmondo'stlik;
- bolajonlik;
- ma'naviyat-axloq-odob-ma'rifat;
- muomalada mulozamat, hayo, andishalik;
- og'ir kunlarda vazminlik, sabr-toqat va hokazo.

Mustaqillik yillarida xalqimizning milliy qadriyatlarini tiklash, yangi ma'no-mazmun bilan boyitish yo'lida bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi.

Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri "Navro'z" bayramidir. Qaramlik yillarida mana shu ardoqli bayramni nishonlash ham taqiqlangan edi. 1990-yildan boshlab O'zbekiston hukumatining qarori bilan 21-mart "Navro'z" milliy xalq bayrami kuni sifatida belgilanib, dam olish kuni deb e'lon qilindi. Xalqimiz "Navro'z"

kunlarida hasharlar uyushtirib, dalalarga ko‘chatlar ekish, ko‘chalarni tozalash tadbirlarini, turli ommaviy o‘yinlar, poyga musobaqalari, sayllar uyushtiradilar, yetim-yesirlarga va nogironlarga yordam berib, marhumlar qabrlarini ziyorat qiladilar.

1994-yil 23-apreldagi Prezident farmoni asosida tashkil etilgan Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi o‘zbek xalqining ma’naviy-madaniy merosini tiklash, millat kelajagini belgilaydigan g‘oyalarni yuzaga chiqarish, yuksak iste’dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan ravnaqi sari yo‘naltirishga qaratilgan tadbirlar, anjumanlar, ko‘rgazmalar tashkil etishni yo‘lga qo‘ydi. Markaz tomonidan aholi o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, so‘rovlar asosida ishlab chiqilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish boy’icha tavsiyalar jamoat birlashmalari, ilmiy-ijodiy muassasa va tashkilotlar, ommaviy-axborot vositalarining ma’naviy-tarbiyaviy saviyasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

1996-yil yanvarda Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi huzurida “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi tuzildi. 1996-yil 27-sentabrda Vazirlar Mahkamasining “Oltin meros” xayriya jamg‘armasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qaroriga binoan mazkur jamg‘arma davlat tomonidan moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi. Mazkur jamg‘arma “Xalq merosi durdonalari” ilmiy anjumanlarini, xorijdan izlab topilgan qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi amaliy san’at namunalari, yodgorliklarini tahlil qilish, ko‘rik tanlovlar o‘tkazish bilan shug‘ullanmoqda.

Milliy adabiyot rivojiga H.S.Karomatovning “Qur’on va o‘zbek adabiyoti”, O.Sharofiddinovning “Cho‘lponni anglash”, B.Qosimovning “Maslakdoshlar” asarlari ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron, To‘ra Mirzo kabi ijodkorlarimizning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug‘ bobokalonlarimiz, sohibqiron Amir Temur, Ulug‘bek, Bobur va boshqa buyuk zotlar siymolari yangicha badiiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritildi.

Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” romanida, To‘lepbergen Qayipbergenovning “U dunyoga, bobomga xat” asarida, Nazar Eshonqulovning “Qora kitob” povestida, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida, Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Qasoskorning oltin boshi” romanida, Oygul Muhammad qizining

“Jannat qushi” romanida, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida mustabid sovet davrida yuritilgan shovinistik siyosatning qatag‘onlik, zo‘ravonlikka asoslangan mohiyati, xalq boshiga solingan tashvishu kulfatlar, g‘am-g‘ussa va alamlari tasvirlangan.

Tohir Malikning “Shaytanat”, Hojiakbar Shayxovning “Tutash olamlar” asarlarida insonni iymon va vijdondan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafratlanish tuyg‘ulari o‘z aksini topgan.

Omon Muxtorning “To‘rt tomon qibla” nomli trilogiyasi, Barot Boyqobilovning “O‘zbeknoma” tarixiy-falsafiy va ma‘naviy-ma‘rifiy dostoni, Abduqahhor Ibrohimovning “Biz kim, o‘zbeklar” asari, Azim Suyunning “Oq va qora”, A.Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” she‘rlari zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin ifodasidir. O‘zbekiston Respublika hukumati ijod ahliga katta g‘amxo‘rlik qilmoqda. Iste‘dodli adiblar faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlanmoqda. Abdulla Oripov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Ozod Sharofiddinov, To‘lepbergen Qayipbergenovlar mamlakatimizning oliy mukofoti – “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandilar. Ko‘plab shoir va yozuvchilar yuksak saviyadagi badiiy asarlar uchun o‘tkazilgan tanlovlarning sovrindorlari bo‘ldilar.

1994-yilda Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, Abbos Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi. 2000-yili Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat teatri to‘la ta‘mirlandi.

Respublika Prezidentining farmonlari asosida teatrlar davlat byudjeti hisobiga qo‘llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998-yilda “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma‘naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg‘otuvchi spektakllar yaratishda, iste‘dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatr-larning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy himoya qilishda ko‘maklashdi. “O‘zbekteatr” birlashmasi va barcha teatrlar 5 yilga barcha turdagi soliqlardan ozod qilindi. Murakkab o‘tish davri qiyinchiliklariga qaramasdan bironta teatrning yopilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Teatr binolari ta‘mirlandi, ichki jihozlari yangilandi.

Respublikamizda 36 ta professional teatr faoliyat ko'rsatmoqda. Har bir viloyatda qo'g'irchoq teatrlari bolalarga xizmat ko'rsatmoqda.

1996-yilda Toshkentda Koreya drama va estrada milliy teatri tashkil etildi va shu yilning dekabr oyida o'z faoliyatini boshladi. Davlat akademik rus drama teatri 1999-yilda hozirgi zamon talablari darajasida tubdan qayta qurilgan muhtasham binoga ko'chirildi va o'zining 64-teatr mavsumini yangi binoda boshladi.

2001-yilda respublika teatr san'atida muhim tarixiy voqea sodir bo'ldi. Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi, zamonaviy teatr uskunalari va mebellar bilan jihozlandi. 2001-yil 21-sentabrda Prezident farmoni bilan unga Milliy teatr maqomi berildi, O'zbekiston Milliy akademik drama teatri deb ataldi.

Mustaqillik yillarida kino san'ati ham rivojlandi. Kino san'atining ijodkor ustalari Shuhrat Abbosov, Yo'ldosh A'zamov, Elyor Eshmuhamedov, Ali Hamroyev, Rashid Malikov, Jahongir Fayziyev, Zulfiqor Musoqov, Sharof Boshbekov va boshqalar zamonaviy kinofilmlar yaratish ishlarida peshqadamlik qildilar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xususiy kinostudiyalar vujudga keldi. 1992-yil fevralda Latif Fayziyevning dastlabki xususiy kinostudiyasi "Fayzifilm" ro'yxatga olindi. 1996-yilda "O'zbekfilm" tasarrufida 8 ta studiya, shuningdek 30 ga yaqin mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi.

1996-yil 29-aprelda e'lon qilingan Prezident farmoni milliy kino san'atining rivojida muhim bosqich bo'ldi. Unga binoan "O'zbekkino" davlat aksionerlik kompaniyasi tuzildi. Kino tarmog'i tashkilotlariga davlat budjetidan ajratiladigan har yillik dotatsiyalar 2000-yilgacha saqlab qolindi. Kino sohasining iqtidorli yoshlari uchun xorijiy kino akademiyalari va o'quv markazlarida o'qish, malakasini oshirish ishlari amalga oshirildi.

Istiqloq yillarida tasviriy san'at ham rivojlandi, rassomchilik yangi ma'no-mazmun bilan boyidi. 1997-yilda Prezident farmoniga muvofiq O'zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi va "Tasviriy oyina" respublika ijodiy uyushmasining tuzilishi, ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tasviriy san'at rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Iste'dodli yoshlarni izlab topish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston xalq rassomlari Malik Nabiyeu, Bahodir Jalolov, qobiliyatli mo'yqalam sohibi Zayniddin Faxriddinov va boshqalar

xalqimiz ongida milliy gʻurur, istiqlol va Vatanga sadoqat tuygʻularini uygʻotuvchi qator sanʼat asarlarini yaratdilar. Amir Temur, Ulugʻbek, Bobur, fan va maʼnaviy-maʼrifiy sohada dunyoga mashhur bobokalonlarimizning portretlari yaratildi.

1992-yilda “Oʻzbekdavlat sirk” birlashmasining tashkil etilishi sirk sanʼatining rivojlanishida, yosh isteʼdodli ijrochilarni qoʻllab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega boʻldi. Toshkent sirki zamonaviy talablar asosida qayta taʼmirlandi, unga dorbozlar sulolasi asoschisi, Oʻzbekiston xalq artisti Toshkenboy Egamberdiyev nomi berildi. Anʼanaviy sirk sanʼatining unutilgan turlari tiklandi va rivojlandi. Isteʼdodli yoshlarga amaliy yordam berish maqsadida 1996-yilda estrada-sirk kolleji ochildi. Respublika shaharlarida faoliyat yuritayotgan sirk guruhlarini soni koʻpaydi. Agar 1990-yilda 7 ta anʼanaviy sirk guruhi faoliyat yuritgan boʻlsa, 2001-yilda ularning soni 20 tadan oshdi, sirkchilarning ijrochilik mahoratlari oʻsdi.

1993-yilda Toshkentda yangi “Hayvonot bogʻi” ochildi.

Mustaqillik yillarida milliy musiqa va qoʻshiqchilik sanʼati rivojlandi. Respublika Madaniyat ishlari vazirligi, 1992-yilda tashkil etilgan “Xalq ijodi va madaniy-maʼrifiy ishlar respublika markazi”, markazning viloyatlardagi boʻlimlari musiqa va qoʻshiqchilik sanʼatini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil koʻrik-tanlovlar, festivallar tashkil etmoqda.

1996-yil aprel oyida Turkiston saroyi, Bahor majmuasi va boshqa ijodiy konsert tashkilotlari negizida tashkil etilgan “Oʻzbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi xalq orasidan isteʼdodli qoʻshiqchilarni izlab topish va koʻrik-tanlovlarga jalb etish, musiqa va qoʻshiqchilik sanʼati boʻyicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi tadbirlarni amalga oshirdi. Musiqa-raqs sanʼatini rivojlantirish davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

1997-yil 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatining “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivalini oʻtkazish toʻgʻrisida” qarori musiqa sanʼatining noyob namunalarini keng targʻib qilish, rivojlantirishda dasturulamal boʻlib xizmat qildi.

1997-yil 25-avgust – 2-sentabr kunlari Samarqandda boʻlib oʻtgan “Sharq taronalari” birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, sanʼatshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdilar, festivalda yangragan oʻzbek ohanglari, kuy-

qo‘shiq-lari jahon uzra aks-sado berdi. Har ikki yilda Samarqandda “Sharq taronalari” Xalqaro festivalini o‘tkazish an‘anaga aylandi.

Jamiyat madaniy-ma‘rifiy hayotida, aholida tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta‘mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e‘tibor berildi. 1992-yilda Namanganda ulug‘ o‘zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda hofiz Hojixon Boltaboyev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san‘ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o‘g‘lining uy-muzeyi, 1993-yilda Toshkentda o‘zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olim Xadicha Sulaymonova muzeyi, o‘zbek raqqosasi Mukarrama Turg‘unboyeva muzeyi, Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho‘pon, ikki marta Mehnat Qahramoni Jaboy Bashmanov muzeyi, 1994-yilda Toshkentda xalq rassomi Usta Muhiddin Rahimov muzeyi, 1996-yilda O‘zbekiston Gidrometeorologiya muzeyi, 1997-yilda Buxoroda mashhur zarb qiluvchi Salim Hamidov muzeyi, shuningdek oliy ta‘lim muassasalarida ko‘plab muzeylar ochildi.

1996-yil 1-sentabr kuni Toshkentda Osiyoda yagona bo‘lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi ochildi. Bu muzey o‘zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlarini namoyish etadigan, mamlakatimizda sport harakatining rivojini rag‘batlantiradigan markaz bo‘lib qoldi.

1996-yil 18-oktabrda Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Muzey temuriylar davri ruhini aks ettiruvchi o‘sha davrga xos tarixiy jihozlar, qurol-aslahalar, lashkarboshilar va oddiy jangchilarning kiyim-boshlari, oltindan yasalgan uy-buyum ashyolari, musiqa asboblari, Amir Temur, Bobur qo‘lyozmalari, Ulug‘bekning astronomik qurilmalari va boshqa 2000 dan ortiqroq tarixiy, madaniy yodgorliklar bilan jihozlangan. Temuriylar tarixi davlat muzeyi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan madaniy, ma‘naviy, ma‘rifiy ishlar, ilmiy tafakkur markaziga aylandi. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi yangi binoga ko‘chirildi hamda ajdodlarimizning ko‘p ming yillik hayoti va madaniyatini ilmiy, xolisona aks ettiruvchi yangi eksponatlar bilan qayta jihozlandi.

O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi Yaponiya hukumati tomonidan beg‘araz ajratilgan 38,8 mln iyen pul mablag‘i hisobiga

ta'mirlandi, yangi muzey jihozlari, asbob-uskunalari bilan yanada boyidi.

O'zbekistonda 510 ta muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1,3 milliondan ortiq ajdodlarimiz tarixi, betakror madaniyatini aks ettiruvchi nodir buyumlar – eksponatlar saqlanmoqda va aholiga namoyish etilmoqda. Mamlakatimizning me'moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritilgan. 2500 ta me'moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800 monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan.

Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey-ko'riqxonalarida butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, monumental san'at asarlari saqlanib qolgan, davlat muhofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e'tirof etilgan. Mustaqillik sharofati bilan respublikamizdagi betakror me'moriy yodgorliklar Jahon xalqaro madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

## **2. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo'lgan e'tibor. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati**

Xalqimiz ma'naviyatining yulduzlari bo'lgan buyuk allomalarimizning tavallud topgan sanalari YUNESKO bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Jumladan, 1991-yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi; 1992-yil – Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi; 1994-yil – Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi; 1996-yil – Amir Temur tavalludining 660 yilligi; 1997-yil – Cho'lpon tavalludining 100 yilligi; 1998-yil – Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi; 1999-yil – Alpomish dostonining 1000 yilligi; 2000-yil – Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi va Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi; 2001-yil – “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligi keng nishonlandi. Buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz yubileylari munosabati bilan ularning o'nlab nodir va noyob asarlari o'zbek, ingliz, fransuz, nemis, yapon va boshqa tillarda nashr etildi, haykallar o'rnatildi, ziyoratgoh maydonlari, bog'lar yaratildi.

1991-yilda Buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Shu yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi

Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta'asis etildi. Yubiley yilida Buyuk "Hamsa"si va "Lison ut-tayr" asarlari nashr qilindi, kinofilmlar va sahna asarlari yaratildi. 1991-yil 28-sentabr kuni Toshkent shahrida barpo etilgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy haykali va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

1994-yil oktabr oyida Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yillik yubileyi tantanalari bo'lib o'tdi. Ulug'bek madrasasi, Ulug'bek yashagan davrdagi astronomik asboblari, Toshkentdagi Ulug'bek haykali aks ettirilgan pochta markalari muomalaga chiqarildi. Shu yil 24-oktabrda Parijda YUNESKONing majlislar zalida "Ulug'bek va temuriylar davri" mavzusida xalqaro konferensiya hamda "Ulug'bek va an'anaviy san'at" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Bu tadbirlar Mirzo Ulug'bek qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga aylanishiga ko'maklashdi.

1998-yil 23-oktabrda Farg'ona shahrida Buyuk alloma Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yillik yubileyi keng nishonlandi. Uning noyob ilmiy merosi xalqimizga qaytarildi. Farg'ona shahrida Al-Farg'oniy nomi bilan ataluvchi bog' yaratildi va buyuk allomaga haykal o'rnatildi.

**1996-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida "O'zbekistonning yangi tarixi markazi" tashkil etildi.**

O'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998-yil iyun oyida bo'lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida belgilab berildi.

Prezident farmoni bilan 1996-yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Shu yili mashhur davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi mamlakatimizda va jahon miqyosida keng nishonlandi. YUNESKO qarori bilan 1996-yil aprelda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro tantanalari bo'lib o'tdi. Toshkent shahrida Amir Temurga haykal o'rnatildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Samarqand va Shahrisabzda o'nlab tarixiy obidalar ta'mirlanib, qayta tiklandi,



yangi inshoatlar qurildi, bog'lar yaratildi. Ushbu shaharlar markazida ko'rkam Amir Temur maydoni barpo etildi va ulug'vor haykal o'rnatildi. Bu shaharlarga "Amir Temur" ordeni topshirildi. Amir Temurning shaxsi butun ma'rifiy insoniyatning boyligi ekanligi tan olindi.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o'z joyiga qo'yildi, asarlari nashr etildi. Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkent shahrining Bo'zsuv kanali bo'yida qatag'on davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida "Shahidlar xotirasi" yodgorligi majmuyi bunyod etildi va uning ochilish marosimi 2000-yil 12-may kuni bo'lib o'tdi. Mazkur majmua qoshida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi qurilib, 2002-yil 27-avgust kuni foydalanishga topshirildi. Ushbu majmua va muzeyning tarixiy, siyosiy ahamiyati shundaki, u bugungi va kelgusi avlodlar uchun qaramlik davrida xalqimiz qanday ayanchli kunlarni boshidan kechirgani, mustaqillik tufayli yurtimizda adolat, shahid ketganlarning xotirasi tiklanganligi to'g'risida tarixiy xotira, saboq bo'lib xizmat qiladi.

1999-yilda Toshkent shahrida Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi Vatan ozodligi uchun jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida "Xotira maydoni" majmuasi barpo etildi va shu yili 9 may kuni uning ochilishi marosimi bo'lib o'tdi. Respublika "Nuroniylar" jamg'armasi tashabbusi bilan janglarda halok bo'lgan 400 mingga yaqin vatandoshlarimiz haqida 33 tomlik xotira kitobi tayyorlandi va nashr etildi. Har yili 9 may "Xotira va qadrlash kuni" sifatida nishonlanmoqda. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan bu tadbirlar xalqimizning o'zligini anglashiga, tarixiy xotirasini tiklashga xizmat qilmoqda.

Buyuk ajdodlarimiz xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g'ururni ko'tarishga hamda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongida milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirishga ko'maklashmoqda.

Qaramlik davrida tahqirlangan diniy qadriyatlarimiz mustaqillik nuri bilan qayta tiklandi, islomshunos allomalarimizning ulug' nomi o'z o'rniga qo'yildi. 1993-yil sentabrda Buxoroda mashhur shayx Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi tantanalari bo'lib o'tdi. Yubiley munosabati bilan Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy yodgorliklar qaytadan tiklandi, uning ijodiga

bag'ishlangan qator risolalar chop etildi. 1998-yil Samarqandda Buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nishonlandi. Shu kuni Xartang (Chelak) qishlog'ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi ochildi. Yubiley munosabati bilan bobokalonimizning 4 jildlik "Al-Jomi as-Sahih" kitobining ko'p ming nusxadagi nashri o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi.

2000 - yil 16 - 17 - noyabr kunlari Marg'ilonda islom huquqining asoschilaridan biri Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi, Samarqandda islomshunos olim Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi nishonlandi va ular xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari ochildi. Burhoniddin al-Marg'inoniyning islom huquqiga oid "Hidoya" kitobi nashr etildi. Shuningdek, islom olamining taniqli allomalari Iso at-Termiziyning 1200 yil-ligi, Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Xo'ja Ahror Valiy tavalludining 600 yilligi keng ko'lamda nishonlandi.

O'zbekiston Prezidentining 1992-yil 27-martdagi farmoni bilan Ro'za-Ramazon hayitining birinchi kuni dam olish kuni deb e'lon qilindi. Respublika musulmonlarining istak va xohishlariga ko'ra Qurbon hayiti ham tiklandi, dam olish, bayram kuni bo'lib qoldi. O'zbekiston Prezidentining 1990-yil 2-iyundagi "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilish to'g'risida"gi farmoniga binoan O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Mustaqillik yillarida 32 ming O'zbekistonliklar Makka va Madinada Haj safarida bo'ldilar. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etilmoqda. Qur'oni karim sakkiz marta 1 mln. nusxada nashr etildi. Bu tadbirlar faqat dindorlar uchun qilingan marhamatgina emas, ular aslida xalqimizning qadimiy rasm-rusum va udumlarining, qadriyatlarining tiklanishi, ajdodlar ruhining qayta uyg'onishidir.

Uzoq va boy tariximiz hamda madaniyatimiz, shuningdek ma'naviyatimizning ildizi qadim moziy qa'riga borib taqalishidan guvohlik beruvchi Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yillik to'yining (1997-yil) o'tkazilishi Jahon shaharsozlik madaniyati tarixining ibtidosi sifatida ham e'tirof etilgan edi. 2002 yilda Termiz shahrining 2500 , 2006 yilda Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 , Qarshi shahrining 2700 , 2007-yilda Samarqand shahrining 2750, Marg'ilon shahrining 2000 va 2009-yilda Toshkent shahrining 2200

yilligi to'ylarining jahon miqyosida nishonlashi ma'naviyatimiz tomirlari naqadar baquvvatligining dalillaridir. Avestoning 3 ming yillikka yaqinlashgan yoshi (2001-yilda 2700 yilligi o'tkazildi) sivilizatsiya ufqlarimiz moziy tongida bo'y ko'rsatganligidan dalolat.

Mamlakatimizda islom madaniyati hamda ma'naviy qadriyatlarni tiklash va saqlab qolish bo'yicha amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning xalqaro ko'lamdagi e'tiroflaridan biri. 2007 yil yanvarda Islom konferensiyasi tashkiloti tarkibidagi muassasalardan biri – Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) Toshkentni islom madaniyatining poytaxti, deb e'lon qildi. Toshkent bilan bir qatorda Fes (Marokash), Tripoli (Liviya), Dakar (Senegal) shaharlari ham «Islom madaniyatining poytaxti», deb e'lon qilindi. Prezident Islom Karimov bu e'tirofni «O'zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasiga berilgan munosib baho», deb ta'rifladi.

Shu munosabat bilan shaharda bunyodkorlik ishlari yanada avj oldirildi. Jumladan, qisqa muddatlarda Hazrati Imom majmuasi tubdan qayta ta'mirlandi, yangi minora, masjid, xiyobonlar bunyod etilib, unda ko'plab shaharliklar o'z beminnat mehnatlari bilan hissa qo'shdilar.

Yoshlarni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazishda sportning ham ahamiyati katta hisoblanadi. Mustaqillik yillarida **sport** O'zbekiston milliy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirildi. Sport aholini, xususan yoshlarni jismoniy va axloqiy tarbiyalashning, xalqlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlash va mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omilidir.

1992-yil 5-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi Qonuni sportni ommaviy ravishda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. 46 mingdan ortiq sport inshootlari – sport sog'lomlashtirish klublari, bolalar, o'smirlar sport maktablari, olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari, oliy sport mahorati maktablari, o'yingohlar, sport zallari, maydonlari, hovuzlar barpo etildi va ta'mirlandi. Ularda 7 mln. kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

1992-yil yanvarda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tuzildi va 1993-yil sentabrda Xalqaro olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida rasmiy e'tirof etildi. 1996-yil 14-avgustda Toshkentda olimpiya muzeyi ochildi. 1998-yil may oyida mamlakatimiz

alpinistlari Himolay tog'ining eng baland "Everest" cho'qqisiga chiqib, O'zbekiston dovrug'ini dunyoga taratdilar.

Mustaqillik sharofati bilan **milliy o'zbek kurashi** tiklandi. 1992-yilda Termiz va Shahrisabz shaharlarida dastlabki milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazildi. Milliy kurashimizning nazariy jihatlari va qoidalari ishlab chiqildi va xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etildi, xalqaro sport turlari qatoridan o'rin oldi. 1999-yil may oyida Toshkentda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan sportchilar ishtirokida kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonlik kurashchilar 3 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritdilar. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tuzildi, uning faxriy Prezidenti etib Islom Karimov saylandi. 2000–2002-yillarda Buyuk Britaniyaning Bedford shahrida 3 marta Islom Karimov nomi bilan ataluvchi xalqaro turnir bo'lib o'tdi.

2002-yil oktabrda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi Xalqaro sport federatsiyasi a'zolicigiga qabul qilindi. O'zbek milliy kurashi xalqaro sport turi sifatida butun dunyoda e'tirof etildi.

2004-yilda Liviya poytaxti Tripoli shahrida bo'lib o'tgan shaxmat bo'yicha jahon chempionatida 56 mamlakatdan 128 nafar shaxmatchi qatnashdi. Ular orasida hamyurtimiz, xalqaro grossmeyster Rustam Qosimjonov ham bor edi. Rustam Qosimjonov barcha da'vogarlar ustidan g'alaba qozonib, jahon chempioni degan yuksak unvonni qo'lga kiritdi. Bu g'alaba butun xalqimizga cheksiz quvonch va g'urur-iftixor bag'ishladi.

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1500 dan ortiq zamonaviy sport inshootlari qurildi. Har yili bo'lib o'tadigan, uch bosqichdan iborat (maktab o'quvchilari uchun "Umid nihollari", litsey va kollej o'quvchilari uchun "Barkamol avlod", oliy o'quv yurti talabalari uchun "Universiada") sport musobaqalari tizimi shakllantirildi. Bu esa yuz minglab bolalar, o'smirlar, yigit va qizlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish imkonini berdi.

Mazkur tadbirlar o'z samarasini berdi. Jumladan, birgina 2015 yili 1 ming 668 nafar sportchimiz, jumladan, 567 nafar qizimiz 165 ta xalqaro musobaqada ishtirok etib, 983 ta medalni qo'lga kiritdi, yosh iqtidorli musiqachi va ijrochilarimiz nufuzli xalqaro tanlovlarda 137 ta sovrinli o'ringa sazovor bo'ldi va ularning 76 tasi Gran-pri va birinchi o'rinni tashkil qildi.

O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning milliy-ma’naviy tiklanishimiz borasida qilgan xizmatlar haqida fikr yurtganda ularning kontseptual g‘oyalarni ishlab chiqish bilan bir qatorda ana shularni amalga oshirish borasida qilagan katta xizmatlari haqida alohida ta’kidlash lozim bo‘ladi. Jumladan, 1994 yildayoq Respublikamizda “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazini tuzish to‘g‘risida farmon chiqarganlari, ularning faoliyatini takomillashtirish haqida g‘amxo‘rlik ko‘rsatayotganliklarini aytish joiz. Mustaqillik yillarida ma’naviy merosimiz rahnomalari nomlari tiklandi, ular tavallud topgan kunlar nishonlanmoqda, asarlari chop etildi. Chunonchi, Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi, Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi keng nishonlandi. 1998 yilda imom al-Buxoriy hazratlarining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg‘oniyning 1200 yilligi nishonlanishida bosh-qosh o‘lganliklarini ta’kidlash lozim. 1999-yilda vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlandi. Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtiruvchi yodgorlik majmuyi barpo etildi.

Mustaqillik yillari Qur’oni Karim o‘zbek tiliga tarjima qilinib, ko‘p nusxada chop etildi. Imom al-Buxoriyning turli jildlik hadisalari, Xoja Axmad Yassaviyning “Hikmatlar” to‘plami, ko‘plab Qur’oni Karim shaxslariga oid kitoblar chop etilganligini va ulardan xalqimiz baxramand bo‘layotganliginign guvohi bo‘lib turibmiz.

Mustaqillik tufayli milliy istiqlolimiz kurashchilari Munovvarqori, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir va boshqalarning nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Ularning tavallud topgan kunlar umummilliy bayram sifatida nishonlanadi.

Qatag‘on yillarida millatimiz mustaqilligini ta’minlash yo‘lida qurbon bo‘lgan xalqimizning ana shu sevikli farzandlarining muborak nomlarini abadiylashtirish maqsadida Vatanimiz poytaxti Toshkent shahrida Shahidlar xiyoboni barpo etildi. Bu o‘zlikning anglashning tarix bilan uyg‘ongan millat tarjimasini holining mustaqillik ko‘zgisida namoyon bo‘lishining bir qarrasidir.

O‘zbek tilining davlat tiliga aylanishi borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan davlat idoralarida ish yuritish, shaharlarda ko‘chalar va joylarning nomlanishida tarixiy haqiqat tiklanmoqda. Ma’naviy merosimiz sanalgan ko‘plab asarlar o‘zbek tiliga tarjima etilmoqda. Mustaqillik yillari biz uchun o‘zbek tilining xalq va davlat hayotidagi asosiy ahamiyati va o‘rnini tiklash borasida

sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu tariqa millatning, davlatimizning qadr-qimmatini mustahkamladi. Maktablar va oliy o'quv yurtlarida o'zbek tilini rusiyazabon yoshlarining o'rganishi uchun ham katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Mustaqillik yillari ma'naviyatimizning muhim bo'g'ini hisoblangan ta'lim va tarbiya tizimiga milliy ruh bag'ishlashda bir qator ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, birinchi Prezidentimizning tashabbusi, bevosita rahbarligi ostida "Ta'lim to'g'risida" Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi milliy ma'naviyatimizning yuksalishida, mamlakatimizning kelajakda rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, millatimizning obro'-e'tiborining oshib borishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan yutuqlarni qo'lga kiritishimiz adolatli ravishda birinchi Prezidentimiz nomi bilan bog'liq.

Yurtimiz taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat qilgan, milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi nishonlanishi xalqimizni quvontirdi. O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 27-martdagi "Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori asosida 2017-yil 6-noyabr – Sharof Rashidov tug'ilgan kuni Jizzaxda tantanali tadbirlar bo'lib o'tdi. Jizzax shahridagi tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so'zladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

### **3. Beshta tashabbus va uning yuksak ma'naviy madaniyatni ta'minlashdagi o'rni**

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Ma'lumki, 2019 yil 19-martda davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha **5 ta muhim tashabbusni** ilgari surgan edi.

**Birinchi** tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

**Ikkinchi** tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

**Uchinchi** tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

**To'rtinchi** tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

**Beshinchi** tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Prezidentning 2019- yilda Sirdaryo hamda Namangan viloyatlariga qilgan amaliy tashrifi davomida mazkur hududlardagi tuman va shahar kutubxonalariga bir necha yuz ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. "Ma'rifat karvoni" tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi.

Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi. Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi.

Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi. Taniqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, o'sha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga mas'ul bo'ladi, tuman va

shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi. Musiqa va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular bo'yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini tashkil qilish topshirildi. Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinar ekan, diyorimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Umumta'lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko'rsatkichi mamlakat bo'yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpog'istonda 15 foizni tashkil etadi, xolos. Shuning uchun olis va chekka qishloqlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun yer ajratish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bunday tadbirkorlarga O'zmilliybank tomonidan "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

#### **4. O'zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlash borasidagi davlat siyosati**

Jamiyatda bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini ta'minlash, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona, teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Bular Konstitutsiyamizda mustahkamlangan fuqarolarning irqi, millati, tili, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi tamoyillari hamda turli millat va elatlar vakillarining tili, urf-odatlarini va an'alarini hurmat qilish, ularni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga asoslanadi. Jamiyatda do'stlik va ahillik, tinchlik va barqarorlik muhitini mustahkamlash ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, gumanitar va ma'naviy sohalarida islohotlarni izchil amalga oshirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishning muhim omili va zarur sharti hisoblanadi.



Bugun O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila bo‘lib yashamoqda. Ular barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishga va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qo‘shmoqdalar. Mustaqillik yillarida milliy madaniy markazlarning 120 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga «O‘zbekiston Qahramoni» yuksak unvoni berildi.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 milliy madaniy markaz, O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma’rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 do‘stlik jamiyati faoliyati O‘zbekistondagi barcha millatlar va elatlarning tarixi, madaniyati, ma’naviy qadriyatlari, an’ana hamda urf-odatlarini asrash va har tomonlama rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular «xalq diplomatiyasi» mexanizmidan faol foydalangan holda tinch va farovon hayotni asrash, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar va madaniy-ma’rifiy aloqalarni rivojlantirish, chet eldagi hamyurtlar bilan yaqin va o‘zaro manfaatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim muassasalarida o‘qish 7 tilda olib borilmoqda. Teleradioko‘rsatuv va eshittirishlar 12 tilda efirga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tilda chop etilmoqda.

Prezidentning 1992-yil 7-martdagi farmoni bilan islom dini omilidan, uning ma’naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi. Uning tasarrufida Xalqaro islom-tadqiqot instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda 1000 dan ortiq talaba yoshlar ta’lim olmoqdalar. 1999-yilda tashkil etilgan Toshkent Islom universitetida (hozirda Xalqaro Islom akademiyasi) 1000 dan ziyod talaba o‘qimoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va 2021-yil 5 - iyulda yangi tahrirda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunda davlatning din va dindorlar vakillariga munosabati huquqiy jihatdan aniq belgilab berilgan. O‘zbekistonda davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarda quyidagi tamoyillarga amal qilinmoqda:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini himoya qilish;
- diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy-axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida diniy uyushmalar bilan muloqot qilish;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish;
- din va e'tiqodga sig'inish erkiga qonun bilan belgilangan cheklashlar orqaligina daxl qilish mumkin;
- diniy da'vatlar bilan hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot, qonun-chilikka aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida din, eng avvalo, islom dinining ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatidagi mavqeyi tiklandi, diniy ulamolarning qadr-qimmatini o'z joyiga qo'yildi.

O'zbekistonda 2019 – yilgi ma'lumotga ko'ra 2241 diniy tashkilot erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va o'rta Osiyo Yeparxiyasi, Yevangel xristian-baptistlari cherkovi, Rim-katolik cherkovi, To'la Yevangel xristianlari cherkovi, O'zbekiston Injil jamiyati singari diniy tashkilotlar faoliyatidan turli dinlarga mansub fuqarolarimiz birdek manfaatdor ekanliklarini izohlashga hojat bo'lmas kerak. Bulardan tashqari respublikamizda 2000 dan ortiq musulmonlar masjidi, 168 xristian cherkovi, 7 yahudiy sinagogasi, 7 bahoiylar uyushmasi, 2 Krishna jamiyati, 1 budda ibodatgohi mavjud. Diniy ta'limotni puxta o'zlashtirishga xizmat qiladigan 12 ta diniy ta'lim muassasasi qatorida 1 tapravoslav, 1 ta xristian protestant seminariysi ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yurtimizda islom diniga qanday sharoitlar yaratilgan bo'lsa, boshqa dinlarga ham xuddi shunday amin-erkin ibodat qilish va bu borada hech bir to'siqlarsiz faoliyat yuritishlari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan. Har yili minglab musulmonlarimiz Haj safarlariga borishgani kabi mazkur diniy tashkilotlarning 120 dan ortiq vakili Isroil, Gretsiya va Rossiyadagi diniy ziyoratgohlarga

safar uyushtiradilar, xorijga e'tiqodiy ziyoratga yo'l oluvchilar uchun beriladigan imkoniyatlardan foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash, fuqarolar ongida katta, ko'p millatli yagona oilaga mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan.

Xususan, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi **Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining** tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur Qo'mita zimmasiga jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar siyosatni, mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, chet eldagi hamyurtlarimiz diasporasi bilan do'stlikni mustahkamlashga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirish vazifasi yuklanadi.

Qo'mita millatlararo totuvlik, do'stlik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish va rag'batlantirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shuningdek, milliy madaniy markazlarga amaliy va metodik yordam ko'rsatadi, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolar ongida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, «O'zbekiston – umumiy uyimiz» tamoyilini amalga oshirish choralari ko'radi.

Yoshlarni bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, tarix, madaniyat, milliy ana'ana va urf-odatlarni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu millatchilik va ekstremizm aqidalariga qarshi mafkuraviy immunitetga ega, mustaqillik g'oyalariga sodiq, O'zbekiston milliy manfaatlarini himoya qiladigan va ilgari suradigan ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish imkonini beradi.

Qo‘mita o‘zbek xalqining mamlakatimiz tashqarisidagi tarixiy va madaniy meros obyektlarini asrab-avaylashni ta‘minlash maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilish masalasiga ham alohida e‘tibor qaratadi.

2019-yil 15-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonni imzoladi.

Quyidagilar millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an‘analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo‘shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish va boshqalar.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
2. Ma‘naviy meros, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an‘analarning bugungi kundagi ahamiyati nimada deb bilasiz?
3. Istiqlol yillarida adabiyot qanday rivojlandi?
4. Qaysi buyuk siymolarning tavallud yubeleylari keng nishonlandi?
5. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning milliy-ma‘naviy tiklanishimiz borasida qilgan xizmatlar haqida o‘z fikringizni bildiring
6. Mustaqillikdan keyin diniy qadriyatlarni tiklash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
7. Prezidentimiz tomonidan ilgari surgan Beshta tashabbus haqida nimalarni bilasiz?

8. O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta‘minlash borasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini ayting.
9. Istiqlol yillarida teatr va kino san‘ati qanday rivojlandi?
10. Respublikada diniy erkinlikni ta‘minlash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон..2017.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008.
3. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Тошкент: Шарқ, 2006.
4. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабилов. - Тошкент: Академия, 2013.
6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018
7. Ўзбекистон халқининг дини, маданияти ва урф-одатлари: тарих ва ҳозирги ҳолат. - Тошкент: ТИУ, 2011.
8. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2019.
9. Юнусова Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). - Тошкент: Abu matbuot- konsalt, 2009.

### **AXBOROT MANBALARI**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

## **Mavzu: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, ta’limni moliyalashtirish, ta’lim, maktab ta’limi, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, oliy ta’limdagi islohotlar, ta’lim va tarbiya, ilm-fan, sirtqi ta’lim, kredit-modul tizimi*

### **1. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi. Yangi jamiyat qurishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni va roli**

Ma'lumki ta'lim mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-madaniy hayotining muhim tarmog‘idir. Ta'lim asoslari O‘zbekistonda uning Konstitutsiyasi va «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun bilan kafolatlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 2-iyuldagi qaroriga asosan «Ta'lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (keyinchalik 1997-yilda hamda 2020-yilda yangidan qabul qilingan)amalga kirdi.

Ta’lim sohasidagi mazkur qonunda respublikada ta'limning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e'tirof etilgani holda ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta’lim tizimi va boshqaruvi tartibi, ta’lim-tarbiya xodimlarining haq-huquqlari, vazifalari, mas’uliyatlari, maqsadlari belgilab berildi.

Xalq ta’limi xodimlari hayotida muhim ahamiyatga molik ushbu qonun xalq ta'limi sohasini barcha yo‘nalishlarda takomillashtirish, rivojlantirish ishlariga katta yo‘l ochdi.

Mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga o‘tish mulkchilikning xususiy shakllari ishlab chiqarishini kengaytirish sharoitida o‘rta hunar ta'limini yanada takomillashtirishni ham talab qila boshladi. Bu muammo, ayniqsa, qishloq joylarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qishloqda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish, qishloq yoshlarini faol tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish uchun 1995-yildan boshlab qishloq yerlarida joylashgan hunar-texnika bilim yurtlari va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari faoliyatini tubdan qayta isloh qilish amalga oshirildi.

Har bir viloyat va tumanlarda tadbirkorlik o‘quv yurtlari, kasb litseylari, biznes maktablar, kichik va o‘rta biznes, fermerlik

xo'jaliklari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari uchun kollejlari ochildi.

Ta'lim tizimida quyidagi o'zgarishlar amalga oshirildi:

- Toshkent, Samarqand, Urganch, To'rtko'l, Andijon bank kollejlari, Toshkent ayollar kolleji tashkil etildi. Respublikada 1996–1997-o'quv yilida 258 ta o'rta kasb-hunar ta'lim o'quv yurti ishladi. Ularda qariyb 16 ming o'qituvchi va muhandis-pedagog xodimlar 197 ming o'quvchiga kasb-hunar o'rgatish bilan shug'ullandi;

- Oliy ta'lim sohasida ham qator yangi o'quv yurtlari ochildi. Eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha yangi oliy o'quv yurtlari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Toshkent moliya instituti, Navoiy konchilik instituti, Samarqand davlat chet el tillari instituti, Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti, Jizzax politexnika instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti hamda viloyatlarda yirik universitetlarning filiallari tashkil etildi. 1997-yil boshlarida Respublika Oliy ta'lim tizimida 58 ta oliy o'quv yurti, shu jumladan, 16 ta universitet va 42 ta institut faoliyat ko'rsatdi. Ularda 164 ming talaba o'qidi, 18,5 ming professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatdi;

- Abituriyentlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg'or usullari joriy etildi;

- Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar sifatiga bo'lgan talablarning oshgani bois aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlash kengaydi. Oliy attestatsiya komissiyasi tashkil etildi;

- Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlash maqsadida Respublika bolalar fondi, "Kamolot", "Sog'lom avlod uchun", "Iste'dod", "Ulug'bek" va "Umid" jamg'armalari tashkil etildi;

- O'zbekiston ta'lim sohasida AKSELS, AYREKS, Amerika Kollejlari Konsorsiumi, SARE, Tinchlik Korpusi (AQSH), DAAD, Konrad Adenauer Fondi (Germaniya), Britaniya Kengashi (Buyuk Britaniya) kabi xalqaro tashkilotlar va boshqa nohukumat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. 2006-yil yozida Toshkentda Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universitetining filiali tashkil etildi.

Oliy o'quv yurtlari mamlakat ta'lim tizimida yetakchi bo'g'indir. Chunki oliy maktab O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlovchi milliy boylikning o'sishiga imkon yaratuvchi, kuchli, qat'iyatli mutaxassislar shu bo'g'inda tayyorlanadi.

Ma'lumki, sho'rolar hukumati davrida hukmron tuzum o'zining jahonda eng insoniy, eng odil va eng demokratik, eng savodxon jamiyat barpo etgani bilan maqtanib, butun jahonga jar solar edi. «Dunyodagi eng o'qimishli mamlakat», «oliy ma'lumotli mutaxassislar soniga ko'ra jahondagi birinchi davlat» degan soxta ta'riflar rasmiy va maqtanchoq mafkura orqali keng tashviq qilindi.

Sirtan qaraganda, haqiqatan ham manzara shunday edi. Sobiq SSSRda yuzlab universitet va institutlar, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari, minglab ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyat ko'rsatardi. Lekin ular, son va miqdor jihatidan ko'p bo'lgani bilan jahoniy andozalar darajasida emas edi. Buning asosiy sabablaridan biri kommunistik jamiyatda hamma narsa, jumladan, ilm-fan, maktab-maorif tizimining ham o'sha yolg'on va o'lik g'oyalarga qurbon qilinganida edi. Sovet Ittifoqini tanazzulga olib kelgan sabablardan biri ham shunda ekani shubhasiz.

Shuning uchun O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari singari ta'lim sohasini ham tubdan isloh qilish vazifasi jamiyat oldida ko'ndalang bo'ldi. Chunki sho'ro hukumati boshqa sohalar singari milliy kadrlar tayyorlash masalasida ham riyokorona siyosat olib borardi. Eng nufuzli, jahon mezonlariga javob beradigan mutaxassislar yetishtiradigan o'quv muassasalari aksariyat Markazda - Rossiyada joylashgan bo'lib, ittifoqdosh respublikalar, xususan O'rta Osiyo mintaqasidan bu dargohlarga sanoqli vakillargina qabul qilinardi, bunday imkoniyat chegaralangan edi. Natijada milliy respublikalarda noyob ixtisosga ega mutaxassislar yetishmaydi, degan muammo sun'iy ravishda vujudga keltirilib, bu yurtlarga ming-minglab «o'z odamlari» jo'natilardi.

Shu bois istiqlolning dastlabki kunlaridanoq xalq ta'limi tizimini jadal isloh qilishga kirishildi. Bir qator o'quv yurtlarining maqomi, dasturlari va ta'lim uslublari butunlay o'zgartirildi.

Viloyatlarda ham yangidan-yangi o'quv yurtlari ochildi. Birinchi Prezident I. Karimovning 1992-yil 28-fevraldagi farmoni bilan 8 viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi. Bu respublika hukumatining izchil madaniy-ma'rifiy siyosatining



yana bir dalili bo'ldi. Bunday yangilanishdan ko'zda tutilgan maqsad viloyatlarda oliy universitet ta'limini tashkil etish, bu joylarda ilmiy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga, eng olis va chekka shaharlarni madaniy-ma'rifiy markazga aylantirishga asos bo'ldi. Ilmiy va ma'rifiy ishlar xalq hayotiga tobora chuqurroq kirib bora boshladi. Bu mamlakat aholisi ongi va dunyoqarashini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etdi. Bevosita mehnat jarayoni bilan bog'liq odamlar endi ilmiy yangiliklardan doimo va o'z vaqtida xabardor bo'lib bordilar. Yangidan-yangi ilmiy-texnikaviy ishlanmalar, ixtirolar yaratilgan joyida tezroq ishlab chiqarishga joriy etilish imkonlari vujudga keldi. Viloyat universitetlarining tashkil etilishi hayot bilan ilmning, nazariya bilan amaliyotning yaqinlashuviga katta yordam berdi. Hozirgi kunda ilm-u fan sohasida ham raqobat muhiti hayotiy zarurat bo'lib qoldi. Busiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. Ilm-fandagi raqobat yangi-yangi fikr va g'oyalarga turtki beradi, kishi dunyoqarashini kengaytiradi. Qaysi universitet o'z ixtirolari, ilmiy xulosa va ishlanmalari bilan nom chiqarsa, o'sha universitetning nufuz va e'tibori osha boradi. Viloyatlarning kelajak taraqqiyoti ana shu hududlardagi oliy ta'lim markazlari bilan bevosita bog'liq. Viloyatlarda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun yangi sohalarni egallash, yangi ixtisosliklarni tashkil etish, zarur kadrlarni shu joylarda tayyorlash imkoniyati tug'ildi. Oldindan markazda o'qigan kadrlarni viloyatga yuborish masalasi ancha-muncha muammo edi. Viloyatlarda universitetlar tashkil etilishi bilan bu muammoning ham yechimi topildi.

Mamlakat shaharlarida oliy universal ta'limni joriy etishda rivojlangan davlatlar tajribasiga suyanib ish tutildi. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarining Garvard, Stenford, Priston, Buyuk Britaniyaning Oksford, Kembrij, Lid, Fransiyaning Strasburg, Lion, Dijon, Grenobl shaharlari nomi bilan ataluvchi universitetlari bu mamlakatlarning poytaxtlarida emas, turli viloyatlarida joylashgan bo'lishiga qaramasdan, o'zining yuksak malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatlari bilan jahonda nom qozongan.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda talabalarning xorijda o'tadigan stajirovkalariga va qo'shma korxonalar, firmalar, auditorlik kompaniyalarida ishlab chiqarish praktikasidan o'tishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Shu kunlarda mamlakatimizdan minglab talabalar xorijiy mamlakat o'quv yurtlarida iqtisodiy ixtisoslar

bo'yicha o'qishmoqda. Bir necha ming talaba 3 oydan bir yilgacha xorijiy o'quv yurtlarida ta'lim olmoqda.

Mustaqil respublikamizda **fan taraqqiyotiga** katta e'tibor berilmoqda. Yuzaga kelgan yangi tarixiy shart-sharoit ilm-fan sohasini tub isloh qilishni taqozo etdi. Zero, dolzarb ilmiy-texnik muammolar hal qilinishi respublikaning rivojlanishini ta'minlar edi. Avvalo, Prezidentning 1992-yil martdagi farmoni bilan ilmiy kadrlar tayyorlanishini tashkil etuvchi vakolatli organ – Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tashkil etildi. Prezidentning 1992-yil iyuldagi «Ilm-fanni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni asosida respublika olimlari xorijiy mamlakatlarga tajriba oshirishga yuborilishi yo'lga qo'yildi. Ilmiy natijalarni ichki va tashqi bozorga olib chiqish bilan shug'ullanuvchi Respublika ilmiy ishlanmalarni innovatsiya tijorat markazi Fanlar akademiyasi tarkibida tashkil etildi.

1997-yil Xorazm Ma'mun akademiyasi qayta tiklanib, Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'linmasi sifatida tashkil etildi. 2000-yili Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondi dunyoning eng boy qo'lyozmalar xazinasidan biri sifatida YUNESKO madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. Prezidentning 2006-yil avgustdagi «Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tashkil etildi (bugungi kunda Innovatsion rivojlanish vazirligi). Qo'mitaga fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar integratsiyalashuviga, ilmiy sohadagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish kabi vazifalar belgilab qo'yildi.

2008-yildan buyon Toshkentda innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasi o'tkazib kelinmoqda. 2008–2015-yillar davomida o'tkazilgan I – VIII yarmarkalar doirasida jami 4000 dan ortiq ishlanmalar taqdim etildi. 2008-yildan buyon umumiy qiymati 113 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan 3000 dan ziyod shartnomalar tuzildi. O'zbekiston olimlari demokratik va huquqiy jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy rivojlanishini tadqiq qilish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, energetika va energiya xomashyosini tejash, axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya, kimyo, bio va nanotexnologiyalarni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi,

ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish, tibbiyot, farmakologiya, geologiya, geofizika, seysmologiya bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishib kelmoqda.

Arxeologiya fani sohasida ham ma'lum siljishlar bo'ldi. Jumladan, 2002-yildan «O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar» yillik to'plamlari nashr etilib, ularda respublikamiz hududida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarning umumlashma ilmiy xulosalari berib boriladi. 2010-yildan esa «O'zbekiston Arxeologiyasi» ilmiy jurnali chop etila boshlandi. Fanning boshqa yo'nalishlaridagi olimlar ham yirik natijalarni qo'lga kiritishmoqda.

Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti tomonidan tayyorlangan 10 jildlik «Tabiiy birikmalar (O'simlik zahiralari, tuzilishi va xossalari)» nomli noyob ma'lumotnoma ingliz tilida Londonda chop etildi. Bu ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlik rivojlanayotganidan ham dalolat beradi.

## **2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi**

Ta'lim tizimida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilsada, hali bu sohada jiddiy kamchiliklar mavjud edi. Ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash jamiyatda bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, bozor islohotlari talablari bilan bog'lanmagan edi. O'quv jarayonining moddiy texnika va axborot bazasi qoniqarsiz ahvolda edi. Ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv adabiyotlari va didaktik materiallar yetishmasdi. Yuqori malakali pedagoglar yetishmasdi, ishlab turgan murabbiy-o'qituvchilar kattagina qismining bilim va kasb saviyasi yetarli darajada emas edi. Maktab o'quvchilarida mustaqil fikr shakllantirilmayotgan edi.

Birinchi Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi. Islom Karimov 1997-yil 29-avgustda Oliy Majlisning IX-sessiyasida “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” mavzusida ma'ruza qildi. Ma'ruzada oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizni ro'yobga chiqarish taqdiri, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq ekanligi asoslab berildi va quyidagi vazifalar ilgari surildi:

– eski sovet davridan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan, sarqitlardan qutulish;

- milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, jahon andazalari darajasiga ko‘tarish;
- uzluksiz ta’lim tizimini tashkil qilish;
- ta’lim muassasalarining moddiy bazasini zamon talablari darajasiga ko‘tarish;
- bolalarimizga zamonaviy bilim berish, buning uchun, avvalo, o‘qituvchi-murabbiylar bilimining saviyasini ko‘tarish;
- zamonaviy o‘quv dasturlari, darsliklar yaratish;
- xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga katta ahamiyat berish;
- bitiruvchilarni emas, maktab ta’limi va tarbiyasini ko‘rgan shaxslarni tayyorlash;
- o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish, ularni erkin fikrlaydigan etib tarbiyalash;
- respublika oliy o‘quv yurtlarining xorijiy davlatlardagi oliy o‘quv yurtlari bilan aloqasini o‘rnatish va mustahkamlash; yoshlarimizni, professor-o‘qituvchilarni taraqqiy topgan davlatlardagi o‘quv markazlariga borib o‘qishini, malakasini oshirishini tashkil etish.

1997-yil 29-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Ularda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining quyidagi asosiy prinsiplari belgilab berildi:

- ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy-o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hammauchun ochiqligi;
- ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi belgi-landi:

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o‘rta ta’lim;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Milliy dasturni yaratishda hayotimizning barcha sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarga monand ravishda, ta’lim islohotlarini uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan:

Birinchi bosqich (1997–2001-yy.) da mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish vazifalari ro‘yobga chiqariladi;

Ikkinchi bosqich (2001–2005-yy.) da Milliy dastur to‘liq ro‘yobga chiqadi, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritiladi;

Uchinchi bosqich (2005- va undan keyingi yillar) da to‘plangan tajribani tahlil qilish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi va rivojlaniladi.

O‘zbekiston hukumati ta’limni rivojlantirish uchun katta mablag‘ ajratmoqda. Birgina 2001-yilda ta’lim xarajatlari davlat budjeti sarf-xarajatlarining 36 foizini tashkil etdi. Ta’lim uchun 150 mln AQSH dollaridan ziyod chet el investitsiyasi sarflandi. Ular yangi ta’lim binolari barpo etish, ularni eng zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari va o‘quv mebellari bilan jihozlash uchun sarflandi. Keyingi yillarda 848398 o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan 2244 ta yangi umumta’lim maktab binolari qurilib, foydalanishga topshirildi. Umumta’lim maktablari uchun davlat ta’lim standartlari, ularga asoslangan o‘quv dasturlari, darsliklar yaratilib, ta’lim jarayoniga joriy etildi. 2002/2003 o‘quv yiliga kelib umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida, ya’ni 1 - 9 - sinflarda o‘qitish to‘laligicha lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida olib borildi. Hukumat o‘quvchilarni darsliklar bilan ta’minlashga g‘amxo‘rlik qilmoqdi.

Ta'lim mazmun va mohiyat jihatidan yangilandi. Har yili 600 ming nafardan ziyod birinchi sinf o'quvchilari Prezident sovg'asi sifatida o'quv qurollari, darsliklar bilan bepul ta'minlanadi.

2004-yil 19-fevraldagi Prezident farmoni va 2004-yil 9-iyuldagi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi ishlab chiqildi. Dasturga binoan 2004–2009-yillarda buziladigan umumta'lim maktablari o'rniga yangi maktablar qurish, maktablarni kapital rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash tadbirlari ishlab chiqildi.

2000/2001 o'quv yilida respublikamizda 9661 umumta'lim maktablarida 45 mingga yaqin o'qituvchi faoliyat ko'rsatdi, 6 millionga yaqin o'quvchi ta'lim-tarbiya oldi, ulardan 552084 nafari 9-sinfni, 375853 nafari 11-sinfni tugatdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining eng muhim O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitqadamlik bilan amalga oshirildi. 1998–2004-yillarda 54 ta akademik litsey va 533 ta kasb-hunar kolleji barpo etildi. Bu maqsadlar uchun 135 mlrd. so'm mablag' sarflandi. Kollej va litseylar uchun o'qitiladigan barcha fanlar bo'yicha Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi, tajriba-sinovdan o'tkazildi va ta'lim jarayoniga joriy etildi, asosiy darsliklar yaratildi. 2000/2001 o'quv yilida kollej va litseylarni 4890 nafar ilk "qaldirg'och"lar tugatdilar. "Ustoz" jamg'armasi yo'llanmasi bilan litsey va kollejlarning 700 o'qituvchisi chet ellardagi nufuzli universitetlarda o'z malakasini oshirib keldi.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan: bakalavriat va magistraturadan iborat etib qayta tashkil etildi. 1999-yilda Toshkent Islom universiteti tashkil etildi. 2001/2002 o'quv yilida 62 ta oliy o'quv yurtida 180 mingdan ortiq bo'lajak bakalavrlar va 5 mingdan ortiq magistrantlar ta'lim-tarbiya oldilar. 18486 nafar professor-o'qituvchilar mehnat qildilar, ularning 1462 nafari fan doktori, 7201 nafari fan nomzodidir. 1998–2001-yillarda 131 ta bakalavriat yo'nalishi, 664 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bakalavr va magistrlar uchun qo'yiladigan talablarni o'zida mujassamlashtirgan davlat ta'lim standartlari, ularga mos o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlari yaratildi va ta'lim jarayoniga joriy etildi. 2002-yilda 35620 talaba bakalavr, 3000 tasi magistr unvonini oldi.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati olib

borilmoqda. Bu borada xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish Milliy dasturda belgilangan muhim vazifalardan biri edi. 1997-yilda tashkil etilgan "Umid" jamg'armasi yo'llanmasi bilan 1997–2001-yillarda 785 nafar yigit-qiz rivojlangan davlatlarning oliy o'quv yurtlariga o'qish uchun jo'natildi. Ular-dan 519 nafari o'qishlarini bitirib keldi va Prezident farmoyishi bilan tashkil etilgan Maxsus ishchi guruhi yo'llanmasi bilan vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalarda ishlamoqdalar. 2002-yil iyulda Toshkentda Xalqaro Vestminster universiteti tashkil etildi va 160 ta dastlabki talabalar qabul qilindi.

O'zbekiston ta'lim muassasalarining Yevropadagi ta'lim jamg'armasi, Germaniyadagi Texnika hamkorlik tashkiloti, Yaponiyadagi JAYKA xalqaro tashkiloti, Koreyaning KOYKA agentligi, YUNESKO, Jahon banki, TESIS-TEMPUS ochiq jamiyat instituti, AQSH, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Daniya, Xitoy, Gollandiya Oliy ta'lim vazirliklari bilan hamkorligi kengayib bordi. Ta'lim ravnaqi uchun 150 mln. AQSH dollari hajmida chet el investitsiyalari jalb etildi. Oliy o'quv yurtlarining yuzlab professor-o'qituvchilari "Ustoz" jamg'armasi yo'llanmasi bilan xorijiy oliy o'quv yurtlarida malaka oshirishda bo'lib qaytdilar.

Prezidentning 2011 yil 20 mayda "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror oliy ta'lim muassasalari faoliyatini jahon andozalari darajasida tashkil etish, ularni zamonaviy darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy laboratoriyalar bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning amaliy jihatdan chet tillarini bilishi bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

2015 yilda O'zbekistonda nogiron va rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun quyidagi yo'nalishlardagi ta'lim turlari mavjud edi:

- maxsus maktabgacha ta'lim;
- uyda yakka tartibdagi ta'lim;
- maktabgacha umumta'lim muassasalari qoshidagi integrasiya guruhlari;

- umumta'lim maktablari qoshidagi logopediya punktlari va integrasiya sinflari;

- maxsus kasb-hunar kollejaridagi integrasiya guruhleri.

Mazkur muassasalarda ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi, kar va zaif ko'ruvchi, aqli zaif, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, tayanch harakati a'zolari harakati buzilgan, nutqida murakkab nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya oldi. Mamlakatimizda alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlar ta'limi, ularning nuqson turlari va uning darajalarini inobatga olgan holda, maxsus ta'limning 8 yo'nalishi (aqli zaif, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, nutqida, ko'rishida va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar) bo'yicha korreksion ta'lim tashkil etildi.

Mazkur davrda oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ham bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2015 yil 12 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon yurtimizdagi oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni bugungi kun talablariga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirishga qaratildi.

2015 yilgi ma'lumotlarga ko'ra umumta'lim maktablarida qariyb 4,5 million bola tahsil oldi. Barcha maktablar yagona Ziyonet tarmog'iga ulandi. Mazkur tarmoq Uz domenidagi eng yirik axborot-ta'lim resursiga aylandi. Unda yoshlar uchun foydali va ahamiyatli axborot manbalari, darslik va o'quv qo'llanmalar, turli sohalarga doir adabiyotlar, media mahsulotlar, multimedia vositalari, ta'limmaqsadida foydalaniladigan bir qator interfaol xizmatlar jamlandi.

Bu paytga kelib oliy ta'lim yo'nalishida ham xalqaro hamkorlik aloqalari olib borildi. Ushbu hamkorlik samarasi natijasida O'zbekistonda xorijdagi nufuzli oliy o'quv yurtlarining oltita, jumladan, Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti, Turin politexnika universiteti, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot, I.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universitetlari, Singapur menejmentni rivojlantirish institutining filiallari ochildi.



Bundan tashqari, O‘zbekistonda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari orasida birinchi bo‘lib oliy ta’limning zamonaviy ikki bosqichli - bakalavriat va magistratura yo‘nalishiga o‘tildi.

### **3. O‘zbekistonda yangi avlod kadrlar tayyorlash sohasidagi o‘zgarishlar. Oliy ta’lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar**

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar keyingi yillarda ham davom ettirildi. Jumladan, 2017-yil 7-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni e‘lon qilindi. Mazkur Farmonda ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohasini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilandi.

2017-2021-yillarda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o‘quv dasturlarini yanada zamonaviylashtirish, pullik xizmatlar ko‘rsatish va moliyalashtirishning qo‘shimcha manbalarini izlashda oliy o‘quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo‘li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirib borilishi belgilandi.

2017-yil 10 yildan ortiq vaqt mobaynidagi tanaffusdan keyin, davlat va jamiyatdagi malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlar inobatga olinib, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sirtqi ta’lim tizimi tiklandi, maxsus sirtqi ta’lim takomillashtirildi.

2017-yil 16-noyabrda O‘zbekiston Prezidentining «Respublika oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab alohida iqtidor talab etiladigan madaniyat, san’at, dizayn, tasviriy va amaliy san’at, musiqiy ta’lim, san’atshunoslik, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta’lim yo‘nalishlarida test sinovlari o‘tkazilmaydigan bo‘ldi. Masalan, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti va alohida iqtidor talab etadigan ta’lim yo‘nalishlariga faqat ijodiy imtihonlar orqali qabul qilish yo‘lga qo‘yildi.

Test sinovlari shaffof va haqqoniy o‘tishini ta’minlash maqsadida ushbu tizimni takomillashtirish hamda abituriyentlar, ota-onalarga yengilliklar tug‘dirish maqsadida mavjud tizimni isloh qilish

talab etildi. 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab, test jarayonini bir kunda emas, 15 kun davomida o‘tkazish, natijasini esa imtihonning ertasiga e‘lon qilish amaliyoti yo‘lga o‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi 2909-sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori oliy ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma‘no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan dasturga muvofiq, 2017-2021-yillarda 48 ta oliy ta‘lim muassasasida jami 180 ta o‘quv, ilmiy-laboratoriya binosi, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalari obyektlarida qurilish, rekonstruksiya va kapital ta‘mirlash ishlari olib borildi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonlarining sifati ustidan samarali davlat nazoratini o‘rnatish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta‘lim sifati nazorat qilish bo‘yicha davlat inspeksiyasi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi – ta‘lim-tarbiya jarayoni, professor-o‘qituvchilar tarkibi, ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifati hamda mulkchilik shakli va idoraviy bo‘ysunishidan qat‘i nazar, ta‘lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish, ta‘lim-tarbiya sifati nazorat qilish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat.

Oliy ta‘lim tizimini 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan moliyaviy mablag‘lar 1,7 trillion so‘mdan ziyod bo‘lib, ulardan 1,2 trillion so‘mi o‘quv-laboratoriya binolari, sport zallari va talabalar turar-joylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlashga, 500 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ esa o‘quv-laboratoriya uskunalari, mebel va inventar bilan ta‘minlash, umumiy tartibda foydalanishga mo‘ljallangan, barcha ta‘lim muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan laboratoriya komplekslarini tashkil etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga sarflandi.

Tibbiyotga oid oliy ta‘lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, tibbiyot sohasida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qish muddati 7 yildan 6 yil va tibbiy profi laktika yo‘nalishida 6 yildan 5 yil etib belgilandi.

2012-yilga qadar aspirantura (3 yil) va doktorantura (3 yil)dan iborat bo‘lib, 2012–2017-yillarda bir bosqichli doktorantura faoliyat

olib bordi. 2013–2017-yillar oralig‘ida faqat 360 ga yaqin tadqiqotchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu esa respublikadagi oliy ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalari uchun oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondira olmadi. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiytadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida hamda bir qator ilg‘or xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotini o‘rgangan holda **2017-yilning 1- iyulidan** boshlab oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limning ikki pog‘onali tizimi joriy etildi. Birinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura va ikkinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimidir.

2017-yilda mamlakatimizda 80 dan ortiq oliy o‘quv yurti, jumladan, 19 ta universitet, 37 ta institutlar, 6 ta akademiya, 1 ta konservatoriya, 1 ta raqs va xoreografiya oliy maktabi, 13 ta OTMLar filiallari, 6 ta xorijiy davlatlar OTMLarining filiallari faoliyat ko‘rsatdi.

2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmishga yaqin farmon, qaror va farmoyishi qabul qilindi. Bu tom ma‘noda ta‘lim tizimidagi o‘zgarish va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi. Umumta‘lim maktablariga mazkur yilda 10-sinfga o‘quvchilar qabul qilish qayta yo‘lga qo‘yildi. Bu akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga qabul jarayoni bilan barobar olib borildi. Bunda ota-onalar va o‘quvchilarning xohish-istaklari inobatga olindi.

Vazirlik markaziy apparati tarkibida **o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoyalash, ular huquqlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ta‘lim muassasalari faoliyatiga asossiz aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik** maqsadida Nazorat-huquqiy xizmati tashkil etildi. Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi Moliya vazirligidan Xalq ta‘limi vazirligiga o‘tkazildi. Xalq ta‘limi sohasida loyiha hujjatlariga texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va qurilish ob‘ektlari sifatini nazorat qilish injiniring kompaniyasi tashkil etildi. Xalq ta‘limi sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi tashkil etildi, shu

bilan birga 2019 yil 1 yanvardan xalq ta'limini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

**2019 yil 8-oktabrda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi** qabul qilindi. Unda oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish, respublikadagi barcha OTMlarni kredit-modul tizimiga o'tkazish vazifasi qo'yildi.

2020 yilda mamlakatda 117 ta OTM faoliyat olib bordi. 2022 yilga kelib ularning soni 159 taga yetdi. Yangi oliy ta'lim muassasalarini ochish va yoshlarni oliy ta'limda o'qishni davom ettirishga jalb qilish ishlari amalga oshirilmoqda. 2017-yilda oliy ta'limga o'rta ta'limdan o'quvchilarni qamrab olish 9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yil ushbu raqam 20 foizga yetgan. 2021 yil yili ushbu ko'rsatkichni 25 foizga yetkazildi. 2020 yil holatiga O'zbekistonda 21 ta xorij OTM filiali, jumladan, Germaniya, Italiya, Fransiya, Rossiya, Yaponiya va Malayziya kabi davlatlarning institut va universitetlarining filiallari nafaqat poytaxt, balki viloyatlarda ham ochilgan. 2020-yilda xorij OTM filiallari soni yana 10 taga ko'payadi.

**2021 yilda oliy ta'limga qabul parametrlari 2016 yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sdi, yoshlarimizni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 29 foizga yetdi.** Oliy ta'lim muassasalariga, real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etish belgilandi. Oxirgi 3 yilda oliy ta'lim muassasalari soni 65 tadan 117 taga yetdi, qabul o'rinlari 66 mingtadan 181 mingtaga oshdi. Ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Professor-o'qituvchilarning maoshi o'rtacha 3,5 baravarga oshirildi.

2020 yildan boshlab, abituriyentlarga test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi hamda fanlar ketma-ketligi bir xil bo'lgan beshtagacha bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etish huquqi berildi. Oliy ta'lim muassasalariga hujjatlar onlayn topshirilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shuningdek, test sinovlarining 15 kunda o'tkazilishi; natijalar test sinovi o'tkazilgan kunning ertasiga e'lon qilinishi; abituriyentlar bino hududiga va bevosita bino ichiga kirishda metallodetektorlar, shaxsni identifikatsiya qilish va videofiksatsiya qurilmalari orqali kiritilishi; test sinovi jarayonlari

to'la videokuzatuv ostida o'tishi, barcha hatti-harakatlar nazoratda olinishi kabi amaliyotlar yo'lga qo'yildi.

2020/2021-o'quv yilida 25 ta OTM kredit-modul tizimiga o'tkazildi.

**2020 yil 23 sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi.** Hujjat 1997 yildan buyon amal qilib kelayotgan eskirgan "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarni almashtirdi. Yangi qonunning oldingisidan farqlari quyidagilar:

**birinchidan,** ta'lim olish shakllarining tasnifi kengaytirildi:

- ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy);
- nazariy - ta'lim tashkiloti negizida, amaliy - ta'lim oluvchining ish joyida birga olib boriladigan dual ta'lim;
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun inklyuziv ta'lim;
- eksternat tartibidagi ta'lim - o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tish;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

**ikkinchidan,** Vazirlar Mahkamasi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Ta'lim inspeksiyasi), Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, shuningdek soha vazirliklari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari tafsilotlari bilan aniqlashtirildi.

**uchinchidan,** ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining huquqiy maqomiga ko'proq etibor qaratilgan:

- ta'lim tashkilotlari – ularni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, ustavga talablar;
- pedagogik xodimlar, ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari – huquqlar, majburiyatlar va kafolatlar bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari belgilangan.

**to'rtinchidan,** davlat ta'lim standartlari va talablari, o'quv jarayoniga o'quv rejalari va dasturlarini, ta'lim sohasiga

eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni joriy etish bilan bog'liq masalalar tartibga solingan. O'qishga qabul qilish, jumladan maqsadli qabul qilish mexanizmi bayon etilgan;

**beshinchidan**, davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish dastaklari reglamentlangan:

- nodavlat ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash – litsenziyalar Ta'lim inspeksiyasi tomonidan cheklanmagan muddatga, har bir ta'lim turi uchun alohida beriladi;
- ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish – Ta'lim inspeksiyasi tomonidan 5 yil muddatga amalga oshiriladi. Bunda nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e'tiboran 5 yil davomida akkreditatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi, bu muddat tugagach, ushbu attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Davlat akkreditatsiyasidan o'tgan tashkilotlar maxsus reyestrda kiritiladi, bu haqdagi ma'lumotlar Ta'lim inspeksiyasining saytiga joylashtiriladi;

Ushbu qonun o'zida ta'lim tizimiga zamonaviy yondoshuvni aks ettirgani bilan ahamiyatlidir.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. Istiqloлга endi erishgan O'zbekistonda ta'lim tizimi qanday ahvolda edi?
2. Ta'lim tizimini rivojlantirishning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati nimada?
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimida qanday muhim ishlar amalga oshirildi?
5. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi uchun dastlab nimalarga e'tibor berildi?
6. O'zbekistonda xorijiy mamlakatlarning qaysi oliy ta'lim muassasalari filiallari ochilgan?
7. Oliy ta'limdagi so'nggi yillardagi yirik o'zgarishlarni ayting.
8. Oliy ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar sizni qoniqtiradimi?
9. So'nggi yillarda Xalq ta'limi tizimida qanday muhim islohotlar amalga oshirildi?
10. 2020 yilda yangi qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning oldingilaridan farqli jihatlarini ayting.

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. - Тошкент: Ўзбекистон.2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон..2017.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабилов. - Тошкент: Академия, 2013.
6. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Тошкент: Шарқ, 2006.
7. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.

## **AХВОРОТ MANBALARI**

1. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

## **Mavzu: MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jo‘qorg‘i Kenges, davlat ramzalri, ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar, ta‘lim va fan, madaniyatning rivojlanishi, qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar, transport sohasidagi o‘zgarishlar, Orol fojiasi, Orolni qutqarish jamg‘armasi*

### **1. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar**

Qoraqalpog‘iston xalqlari qariyb 70 yildan beri O‘zbekiston xalqlari bilan ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarida bir-birlari bilan og‘alarcha yelkadosh bo‘lib yashab kelmoqdalar. Sobiq Ittifoq parchalangandan so‘ng mustaqil O‘zbekiston tarkibidagi **suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi** maqomini oldi. Bu tabiiy hodisa edi. Chunki, asrlar mobaynida qoraqalpoqlar bilan o‘zbek xalqi o‘rtasida do‘stlik, qardoshlik munosabatlari qaror topgan, turmush tarzlari va dunyoqarashlarida mushtaraklik vujudga kelgan edi. Orol bo‘yi kengliklarida qadimdan o‘zbek va qoraqalpoq ajdodlari birgalikda yashab, mehnat qilishdi. o‘zlarining taraqqiyot yo‘llarini bosib o‘tishdi. 1990-yil 14-dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasida **«O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat suvereniteti to‘g‘risida»gi Deklaratsiya** qabul qilindi. Mazkur Deklaratsiya 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonunda o‘zining huquqiy asosini topdi. Unda Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e‘tirof etildi. Qonunda Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarni teng huquqlilik, ikki tomonlama shartnomalar, bitimlar va boshqa qonun aktlari asosida mustahkamlash ko‘rsatib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (70-75-moddalar) o‘z aksini topdi. Natijada ikki tomonlama hurmat asosida qoraqalpoq xalqining o‘z taqdirini o‘zi belgilash, mustaqil taraqqiyot hamda milliy davlatchilikni mustahkamlashdagi roli oshdi. Kelajakka qat’iy



ishonch bilan qaraydigan, olis istiqbolni yaratishning kafolatini beradigan huquqiy maqomga ega bo'ldi.

Konsitutsiyaning 21-moddasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarosi ayni paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. Bu qoraqalpoq xalqiga O'zbekiston xalqlarining barcha huquqlardan foydalanish imkonini beradi. Ularning haq-huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi taraqqiyoti uchun qator imkoniyatlar beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 86-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati rahbari lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi. 107-moddaga binoan esa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasining xuddi shunday sud organlarining rahbarlari kiradi. Sud hujjatlari o'zbek tili bilan birga qoraqalpoq tilida ham olib boriladi (115-modda). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida belgilab qo'yilganidek, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lmog'i kerak. Ana shu huquqiy asosga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi o'zining o'n ikkinchi sessiyasida (1993-yil 9-aprelda) **Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasini** qabul qildi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga hech qanday monelik qilmaydi, aksincha, uni bosh huquqiy asos sifatida biladi va Qoraqalpog'iston hududida to'la amal qilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'istonning butun hududida majburiy ekanligi e'tirof etilgan. Qoraqalpog'iston milliy davlatchiligi o'z taraqqiyoti tarixida birinchi marta ana shunday insonparvar, adolatli, demokratik imtiyozlarga ega bo'ldi. Ayni paytda u suveren davlatning barcha ramzlariga ega. 1992-yil 14-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida **Qoraqalpog'iston Davlat bayrog'i** tasdiqlandi. 1993-yil 9-aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi sessiyasida **Davlat gerbi** tasdiqlandi. 1993-yil 4-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining o'n

to'rtinchi sessiyasida **Davlat madhiyasi** tasdiqlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan 1994-yil 25-dekabrda **Oliy Kengashning 75 deputatdan iborat** yangi tarkibi muqobilik asosida saylandi. Respublika parlamenti **Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qarg'i Kengesi** deb ataldi. Jo'qarg'i Kengesning 1995-yil 11-yanvarda Nukus shahrida bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida Jo'qarg'i Kenges Raisi, uning o'rinbosarlari, mandat komissiyasi, 8 ta qo'mita raislari va uning a'zolari saylandi. Ayni paytda, deputatlar qo'mitalar raislari rahbarligida Qoraqalpog'iston qonunchilik tizimini yaratishda faol ishtirok etmoqdalar. Xususan, demokratik jamiyat qurish hamda erkin bozor munosabatlarini shakllantirishga mo'ljallangan muhim qonun va qarorlar qabul qilindi.

Jo'qarg'i Kenges Raisi qoshida doimiy harakatdagi Kengash tashkil qilindi. Uning tarkibiga Jo'qarg'i Kenges Raisi, Rais o'rinbosarlari, mandat komissiyasi va qo'mitalar raislari kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi ijroiya hokimiyat organi Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Uning tarkibiga Rais, ikkita birinchi o'rinbosar va 4 ta tarmoq o'rinbosarlari kiradi. Shuningdek, ijroiya hokimiyat tarkibiga vazirliklar va qator tarmoq qo'mitalari rahbarlari ham kiritilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida o'zining ish olib boruvchi doimiy vakiliga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan qator jamoat tashkilotlari bu yerda demokratik jarayonlarning tobora qaror topayotganidan dalolat beradi. Ayni paytda, Respublika hududida hukumatga qarashli bo'lmagan qator tashkilotlar, jumladan, «Orol va Amudaryoni himoya qilish uyushmasi», «EKOSAN», «Aralsos», «Sog'lom avlod uchun» singari bir qator xalqaro tashkilotlarning bo'limlari ish olib bormoqda. Ayni vaqtda, shuni ta'kidlash joizki, istiqlol yillarida Qoraqalpog'istonda qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatining zamonaviy tizimini vujudga keltirishda dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, hali bu borada qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Qoraqalpog'istonda 1996-yilda 51 ta mayda ulgurji tizim, shu jumladan 2 ta savdo uyi, 13 ta mayda ulgurji savdo do'konlari va omborlar, 17 ta ko'tara savdo bozor hamda O'zbekiston tovar xomashyo birjasi Qoraqalpog'iston bo'limi 19 ta supermarket do'konlari faoliyat ko'rsatdi. 1997-yilning birinchi yanvarigacha

bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda xususiylashtirishdan tushgan mablag'larning umumiy hajmi 330 million so'mni tashkil etdi. Uning 20 foizi o'lka ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi. 50 foizi esa bilan birga Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat mulkini xususiylashtirish qo'mitasi xususiylashtirilgan korxonalar va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 13,8 million so'm kredit ajratdi. 2002-yilda 9 ta korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi. Bozor fondining faoliyati sezilarli ravishda faollashdi. 1996-yilda fond birjalari filiallarida 191,6 million so'mlik aksiyalar sotildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat korxonalarini aksionerlik jamiyatlariga aylantirish, qimmatbaho qog'ozlar bozorini rivojlantirishga oid farmonlarini bajarish amalda o'z samaralarini bera boshladi. 1997-yil 1-yanvar holatiga qaraganda respublikada soliq idoralari tomonidan 318 ta aksionerlik jamiyatlari ro'yxatga olindi. 1996-yil yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 11 milliard so'mlikni tashkil etdi. Bu 1995-yilga nisbatan 2,2 marta ko'pdir. Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida nodavlat korxonalarining ulushi 90 foizga o'sdi. 144 ta sanoat korxonalari va birlashmalaridan 113 tasi mulkchilikning turli shakllariga o'tib ishlay boshladi.

To'rtko'l tumanida 2000-yil 6-martdan e'tiboran Rossiyaning Savvinovo yigiruv fabrikasi bilan hamkorlikda yiliga 2750 tonna ipkalava ishlab chiqaradigan qo'shma korxonani qurib tugallashga kirishildi. Kichik va xususiy korxonalar, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar rivojlandi. Mikrofirmalar soni 1999-yildagi 3755 tadan 2000-yilga kelib 5565 taga yoki 1,5 martaga, fermer xo'jaliklari soni esa 1823 tadan 2353 taga yoki 1,6 martaga ko'paydi. Birgina 2002-yilning o'zida respublikaning 12 ta tumanida 21 ta qishloq xo'jalik korxonalari negizida yangidan 901 fermer xo'jaliklari tuzildi va faoliyat ko'rsatib turgan 79 ta fermer xo'jaliklariga qo'shimcha yer maydonlari ajratilib, jami 980 ta fermer xo'jaliklari tuzildi. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashga moslasha boshladilar. Mehnat unumdorligi va mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'sa boshladi. Respublikada 1996-yilda amaldagi narxlarda 10754,4 so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Bu solishtirma narxlarda olganda 1995-yildagiga nisbatan 101,5 foizni tashkil etadi.

2000-yilga kelib yalpi mahsulot yetishtirishda kichik va o'rta biznes hajmining ulushi 27 foizni tashkil etdi. Bu 1999-yilgi ko'rsatkichdan 3 foizga ko'p demakdir. Kichik va o'rta tadbirkorlik

subyektlariga tijorat banklari va byudjetdan tashqari jamg'armalar tomonidan 2000-yilda 2,9 milliard so'm miqdorida kreditlar berildi. Natijada harakatsiz turgan korxonalar sonini 771 taga kamaytirish imkoniyati tug'ildi. 1991-2003-yillarda natura ko'rinishida mahsulot ishlab chiqarish ham ko'paydi, xususan past voltli apparaturalar, yo'l qurilishi mashinalari ehtiyot qismlari, yengil sanoat texnologik uskunalari va ularning ehtiyot qismlari, mebellar va boshqalar ana shular jumlasidandir. Paxtadan ip ishlab chiqarish, ip gazlamalari, tayyor trikotaj buyumlar, iste'mol mahsulotlaridan un, makaron, mineral suvlar ishlab chiqarish ko'paydi. 1991-2003-yillar mobaynida respublikada arxitektura qurilishi sohasida katta yutuqlarga erishildi. Bu yillar mobaynida san'at va Berdaq nomidagi muzeylar, Mirzo Ulug'bek, Ajiniyoz, «Markaziy bank», «Xalq», «Paxta», «Tadbirkor», «Asaka» banklari, Xo'jalik sudi, Nukus aeroporti binolari, respublika markaziy shifoxonasining binolari qayta ta'mirlandi va bunyod etildi. 80 kilometrli Qo'ng'irot-Beynov avtomobil yo'li, Nukus-Xo'jayli yo'nalishida temir-beton ko'prigi qurilib foydalanishga topshirildi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida 144 ta sanoat korxonasidan 113 tasi mulkchilikning turli shakllariga o'tib ishlay boshladi. Nodavlat shakliga o'tib ishlayotgan korxonalarining rivojlanish darajasi nisbatan yuqori bo'ldi. Shuningdek, bu korxonalarining iqtisodiy samaradorligi, foyda olish borasida ham sezilarli yutuqqa erishdi. Bu borada xususiylashtirilgan korxonalar, ayniqsa, peshqadamlik qila boshladi. Nukus aeroportining bahosi 151,8 million so'm bo'lgan yangi binosi qurilib, foydalanishga topshirildi. 2002-yili rasmiy delegatsiya zalida va Nukus shahar aviakassa agentligining binosiga jahon andozalariga javob beradigan darajada ta'mirlash ishlari olib borildi va zamonaviy texnik asbob-uskunalar bilan jihozlandi. 2002-yilda Nukus aerovokzal majmuasi ta'mirdan chiqarildi va soatiga 200 nafar mijozga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega bo'ldi.

Yangidan «Uchquduq-Miskin-Qorao'zak» temir yo'l liniyalari ishga tushirilib, qo'shni Turkmaniston Respublikasi hududidan o'tmaydigan bo'ldi. Miskin, To'rtko'l va Ellikqal'a temir yo'l vokzallari qurib foydalanishga topshirildi. «Qo'ng'irot-Nukus-Chimboy», «Nukus-To'rtko'l» va «To'rtko'l-Uchquduq» yo'nalishlari tashkil etildi. «Uchquduq-Miskin-Nukus», «Toshkent-

Nukus-Qo'ng'iroq-Toshkent», «Andijon-Nukus-Saratov» va boshqa shaharlararo yo'nalishlar tashkil etildi.

Hozirgi vaqtda «O'ztelekom» aksionerlik kompaniyasining «Qoraqalpoqtelekom» filialida 132,9 ming telefon nuqtasi, ya'ni 202 avtomat telefon stansiyasi aholiga xizmat ko'rsatmoqda. 1999-yildan boshlab Yaponiya fondining OECF krediti bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasining 9 ta shahar tumanlarida (Nukus, Taxiato'sh shaharlari va To'rtkul, Beruniy, Ellikqal'a, Xo'jayli, Kegayli, Nukus tumanlari) qayta qurish va rivojlantirish loyihasi bo'yicha yangidan 306 kilometr shisha tolali kabelli 78,5 ming raqamlik ATS va 6720,0 ming portga ega raqamli shaharlararo telefon stansiyalari ishga tushirildi. Mazkur ATSlar orqali abonentlar jahondagi 180 davlatiga sanoqli soniyalarda bog'lanishi va sifatli so'zlashish imkoniyatiga ega. Mazkur dasturning ikkinchi bosqichi bo'yicha Chimboy, Qorako'zak, Taxtako'pir, Amudaryo, Qanliko'l, Bo'zatov tumanlarida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Qoraqalpog'istonda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloqda istiqomat qiladi. Mustaqillik yillarida boshqa sohalar qatorida agrar sektorda ham iqtisodiy qayta qurish, bozor munosabatlariga o'tish ro'y berdi. Qishloq xo'jaligi ilgari gidek, o'lka iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i bo'lib qoldi. 1997-yil 1-yanvar holatiga respublikada 263 ta qishloq xo'jalik korxonasi faoliyat ko'rsatdi. Nodavlat sektorining jami ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi 98,3 foizni tashkil etdi. Ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlari, jumladan, paxta yetishtirishda nodavlat korxonalarining hissasi 97,9 foizni, donchilikda 98,1 foizni, kartoshkachilikda 99,7 foizni, sabzavotchilikda 98,8 foizni, polizchilikda 100 foizni, go'sht yetishtirishda 98,9 foizni, sut va tuxum ishlab chiqarishda Mustaqillik yillarida respublikada pilla, g'alla, paxta, sholi va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 2003-yilda o'lkada 568 tonna pilla, 9 ming 746 tonna g'alla yetishtirildi. Dehqonchilikda ekin maydonlarining tarkibi o'zgardi. Mazkur yilda rejadagi 8,0 ming gektar o'rniga 91,5 ming gektar paxta, 55,0 ming gektar o'rniga 61,0 ming gektar yerga sholi ekildi.

Respublika oziq-ovqat majmuasida shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning hissasi tobora ko'payib bormoqda. Qoraqalpog'istonda dehqon fermer xo'jaliklarini tashkil etish bo'yicha yetarli tajriba to'plandi. Masalan, Ellikqal'a tumanida

dehqonlarga yer, ishlab chiqarish vositalari va yetishtirilgan mahsulotlarga egalik qilish imkonini berish maqsadida mavjud 14 ta jamoa xo‘jaliklari dehqon-fermer xo‘jaliklari uyushmasiga aylantirildi. Dehqonlarga meros qilib qoldirish huquqi bilan yerlar uzoq muddatga ijaraga berildi. Ana shu tajribani ma’qullab, O‘zbekiston hukumati yerni uzoq muddatga ijaraga berish bo‘yicha maxsus qaror qabul qildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2018-2019-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi doirasida 1 ming 309 loyiha rejalashtirildi. Ularni amalga oshirishga tashabbuskor korxonalar va tijorat banklari mablag‘lari, xorijiy investitsiyalar yo‘naltirildi. Buning natijasida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish o‘zlashtiriladi, mahalliy lashtirish va qayta ishlash darajasi oshdi, 10 mingga yaqin ish o‘rni tashkil etildi. Hudud sanoatini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida mamlakatimizdagi yirik korxonalar ham jalb etilgan. Xususan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati Taxiatoosh tumanida metall konstruksiyalar va nostandart jihozlar, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Qoraol‘zak tumanida temir-beton mahsulotlar va qumshag‘al ishlab chiqarishi rejalashtirilgan.

Tebinbuloq konini o‘zlashtirish istiqbollari alohida e‘tibor qaratildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda metall mahsulotlar mavjud shunday buyumlarni eritish orqali ishlab chiqarilmoqda. Tebinbuloq koni temir rudasining ulkan zaxirasiga ega. Ushbu konni o‘zlashtirish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Natijada 2021-yildan boshlab yiliga 1 million tonna po‘lat ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu boradagi ishlarni tashkil etish maqsadida “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tarkibida direksiya tashkil etildi.

Qoraqalpog‘istonda 6 ta kichik sanoat zonasi tashkil etish rejalashtirilgan. Ulardagi obyektlar 5 yil muddatga keyinchalik mulk huquqini rasmiylashtirish sharti bilan bepul beriladi. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish va tiklash ishlari davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi. Shu tariqa ushbu zonalarda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratiladi.

## **2. Qoraqalpog‘iston respublikasida xalq ta’limi, fan va madaniyat**

Qoraqalpog‘iston xalqi qadimiy va boy tarixga ega. Uning milliy madaniyati, jozibali san’ati, mumtoz adabiyoti, qadriyatlarini udum va

an'analari olamga mashhurdir. Mustaqillik tufayli qoraqalpoq xalqi juda ko'p qadriyatlarini qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Adolat va tenglik, ozodlik va erk uchun kurashgan Ernazar Olako'z, Ollayor Do'stnazarov singari xalq qahramonlarining – jasoratli, o't yurakli qoraqalpoq farzandlarining orzu-armonlari amalga oshdi. Bugungi kunda Ibroyim Yusupov, To'lepbergen Qaibergenov, Tilovbergen Jumamuratov kabi Qoraqalpoq yozuvchi va shoirlarining asarlari xalqlarimiz ma'naviy xazinasidan munosib joy oldi. Sobir Kamolov, Charjau Abdirov kabi yirik olimlar O'zbekiston fani rivojiga juda katta hissa qo'shdilar.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston madaniy hayotida ham jiddiy o'zgarishlar haqida gap ketganda, avvalo xalq ta'limi tizimida yuz bergan o'zgarishlarni ta'kidlash o'rinli. Bugungi kunda respublika xalq ta'limi tizimi milliy uyg'onish, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojiga xizmat qilishda yetakchi rol o'ynamoqda. Respublikada yangi tipdagi o'rta umumta'lim muassasalari – litseylar, gimnaziyalar va alohida fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitiladigan maktablar, biznes maktablar, kollejlari va boshqalar tez rivojlandi. Hozirgi vaqtda Respublikada 25 tadan ziyod maktab va maktab internatlarda o'quvchilarning fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari asosida muayyan fanlarni chuqur o'rgatishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari qator maktablarda ixtisoslashtirilgan sinflar tashkil etilgan.

2003-yilga kelib «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda samarali natijalarga erishildi. Eski turdagi ta'lim muassasalari o'rniga yangi turdagi kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasida 1998—2002-yillarda 3 ta akademik litsey va 33 ta kasb-hunar kollejlari qurilib foydalanishga topshirildi. Hozirgi paytda respublikada 763 ta umumta'lim maktabi, 405 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 91 maktabdan tashqari ta'lim muassasasi (shundan 28 tasi bolalar sport maktabi) faoliyat ko'rsatadi. Bolalarga xorijiy tillarni, xoreografiya, tasviriy va musiqa san'atini, kompyuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi guruhlar tashkil etildi. Barcha qishloq hunar-texnika bilim yurtlarida respublika uchun zarur bo'lgan soha kadrlarini tayyorlashga e'tibor kuchaytirildi. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga, gilam to'qish, keramika buyumlari tayyorlash,

ganchkorlar va boshqa shu kabi hunar egalarini tayyorlashga ahamiyat berila boshlandi.

Respublikada o'rta bo'g'indagi kadrlarni tayyorlash tizimida 2003-yilga kelib 71 ta o'quv yurti faoliyat ko'rsatdi. Shundan 68 tasi kasb-hunar kollejlari, 3 tasi akademik litseylardir. Mazkur o'quv yurtlarida 51 mingdan ortiq o'quvchi tahsil oldi. Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat Universitetida bugungi kunda 33 ta mutaxassislik bo'yicha bakalavrlar, 15 ta mutaxassislik bo'yicha esa magistrlar tayyorlanmoqda. O'ziga xos tarixga ega bo'lgan Ajiniyoz nomli Nukus Davlat pedagogika institutida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlanmoqda. Mazkur o'quv yurtining 15 ta fakultetida 4 ming 402 ta talaba ta'lim olmoqda. O'lkada sog'liqni saqlash sohasidagi kadrlarni tayyorlash borasida ham muayyan ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

Respublika sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiyot xodimlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 1991-yilda Nukusda Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining Qoraqalpog'iston filiali tashkil etildi (hozirgi Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti). Keyingi besh yil mobaynida yangidan maktablar qurish va kapital ta'mirlash hisobidan 30 ta maktab avariya holatidan chiqarildi. 2001-yili hashar yo'li bilan 2 ta maktab binosi, 2002-yili 8 ta maktab binosi qurilib foydalanishga topshirildi. 2003-yilning o'zida esa 7 ta maktab va kasb-hunar kolleji yangidan qurilib ishga tushirildi. 1991-2003 yillarda fan sohasida ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi.

1992-yilda O'zbekiston Respublika Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq filialiga O'zbekiston Respublikasi FAning Qoraqalpoq bo'limi maqomi berildi. Uning tarkibida ilgari 3 ta institut mavjud bo'lgan bo'lsa, yana ikkita institut qo'shildi. «Tarix, arxeologiya va etnografiya» hamda «Bioekologiya» institutlari ham shu bo'lim tarkibiga kirdi. Botanika bog'i bo'linmasiga esa bo'lim maqomi berildi. Qoraqalpoq fanida erishilgan yutuqlar hamda to'rt jildlik «Qoraqalpoq tilining izohli lug'ati»ni yaratishdagi xizmatlari uchun Fanlar Akademiyasining 4 nafar ilmiy xodimi (M.Qalandarov, R.Yesemuratova, T.To'raboyev, D.Qozoqboyev) 1996 yilda O'zbekiston Respublikasining Beruniy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar.

1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasining Qoraqalpoq bo'limi tashkil etildi. Uning tarkibiga Sh.Musayev nomidagi Chimboy yer ishlari instituti hamda sholichilik



va chorvachilik institutlarining filiallari kiritildi. Nukusda O'rta Osiyo irrigatsiya ilmiy tekshirish institutining bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikada oliy o'quv yurtlarida ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Keyingi yillarda Toshkent olimlari ko'magida katta miqdordagi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlandi. Respublikadagi 60 nafar fan doktori va 600 nafar fan nomzodidan deyarli 30 foizi O'zbekiston mustaqilligi yillarida ilmiy daraja oldilar.

### **3. Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi**

Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida atrof muhitda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, iqlim o'zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda.

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta'sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inqirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan "**Orol muammosi**" vujudga keldi.

Bu haqda quyidagi ma'lumotlar fikrimizni isbotlaydi. Oxirgi 40-45 yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib ketdi, akvatoriya maydoni 4 martadan ziyodga kamaydi, suv hajmi 10 baravargacha (1064 kub km dan 70 kub km) kamaydi, suv tarkibidagi tuz miqdori 112 g/l gacha, Orolning sharqiy qismida esa 280 g/l gacha yetdi. Orol dengizi deyarli "o'lik" dengizga aylandi. Qurib qolgan tubi maydoni 4,2 mln. hektarni tashkil etib, tutash hududlarga chang, qum-tuzli aerozollarini tarqatish manbaiga aylandi. Bu yerda har yili atmosfera havosiga 80 dan 100 mln. tonnagacha chang ko'tariladi. Shu bilan bir vaqtda, Amudaryo va Sirdaryoning deltalarida yerlarning tanazzulga uchrashi va cho'llashish sur'atlari o'sib bormoqda.

Yaqin vaqtlargacha kattaligi bo'yicha dunyoda to'rtinchi ko'l bo'lgan Orol dengizi tabiiy zaxiralarga boyligi bilan mashhur edi. Orolbo'yi mintaqasi esa rivojlanayotgan va biologik jihatdan boy tabiiy muhit hisoblanardi. Orolning o'ziga xosligi va xilma-xilligi

hech kimni befarq qoldirmasdi. Mahalliy aholining aytishicha, Orolbo‘yi bir paytlar Qoraqum va Qizilqum sahrosi o‘rtasida joylashgan najotbaxsh maskan bo‘lgan.

Mutaxassislarning fikricha, daryolarning Orolga quyilish hajmi keyingi ellik yil ichida qariyb 4,5 barobar, suv yuzasi maydoni 8 va suv hajmi 13-martadan ko‘proqqa kamaygan. Sho‘rlanish darajasi esa 13-25 barobar ortib, bu Tinch okeanining o‘rtacha minerallasuv darajasidan 7-11-marta ko‘pdir.

Orol dengizi fojiasi – eng katta global ekologik halokatlardan biri bo‘lib, xususiyati va ko‘lamiga ko‘ra turli ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Aynan shu bois Orol dengizi tanazzulining salbiy oqibatlarini bevosita boshidan kechirayotgan Markaziy Osiyo mamlakatlari, birinchi navbatda, O‘zbekiston jahon hamjamiyatini tobora qurib borayotgan ushbu dengizni qutqarish, mintaqadagi ekologik ahvolni barqarorlashtirish va eng muhimi, bu yerda yashayotgan aholi hayotini yaxshilashga da‘vat etib keladi.

Orol va Orolbo‘yi muammosini yechishdagi uchta asosiy yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

Birinchi, ichimlik suvini quvurlar orqali aholiga yetkazib berish bilan hududning sanitar-epidemologik ahvolini yaxshilashga, shuningdek, yer osti chuchuk suvidan foydalanishga ham e‘tibor qaratildi. Sog‘liqni saqlash va sanitariya xizmati darajasini keskin yuqoriga ko‘tarish zarur;

Ikkinchi, dengizning qurigan janubiy qirgoqlarida sun‘iy damba qurib, delta eksosistemasini doimiy suvlashtirish yo‘li bilan "Yashil kamar" hosil qilish;

Uchinchi, dengizni o‘zini saqlash. Uni saqlash uchun unga sistematik ravishda ko‘p miqdorda suv yuborib turish kerakligi va bundan tashqari Orolni qurigan tubida saksovulzorlar barpo etish natijasida qum ko‘chishi, chang ko‘tarilishini oldini olinishi mutaxassislar tomonidan ta‘kidlandi.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlari ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo‘lgan farzandlik burchidir.

Bugungi kunda Orol dengizining katta qismi Orolbo‘yi mintaqasini shafqatsizlarcha qamrab olayotgan 5,5 million gektardan iborat qum-tuz sahrosiga aylangan. Olimlarning ta‘kidlashicha, har yili

atmosfera qurib borayotgan dengiz tubidan 75 million tonnadan ziyod chang va zaharli tuzlar ko'tarilib, 400 kilometrlik maydon bo'ylab tarqalmoqda. Orol dengizining G'arbdan Sharq tomonga esadigan kuchli havo oqimi yo'lida joylashgani va bu aerozollarning atmosfera yuqori qatlamlariga ko'tarilishiga yordam berayotgani atrof-muhit ifloslanishi oqibatlarini yanada kuchaytirmoqda. Tuz oqimlari alomatlari butun Yevropa va hatto Shimoliy muz okeanida ham kuzatilmogda.

Suvning ifloslanishi, dengizning qaqragan tubidan katta miqdorda tuz va chang ko'tarilishi Orolbo'yi mintaqasi aholisi orasida turli kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, bu yerdagi xavfli ekologik holat bolalarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Orol dengizining halokatga uchrashi tabiatga ham katta zarar yetkazayotir. Mintaqada hayvonot va nabotot olami genofondining deyarli yarmidan ko'pi, ya'ni baliqlarning 11, sut emizuvchilarning 12, qushlarning 26 va o'simlikning 11 turi yo'q bo'lib ketgan.

Suv resurslarining tanqisligi, ichimlik suvi sifatining pasayishi, yerning ifloslanishi va yaroqsiz holga kelishi, bioxilma-xillikning keskin kamayib ketishi, aholi salomatligi va genofondining yomonlashuvi, iqlim o'zgarishlari, ehtimol, shu bilan bog'liq ravishda mintaqa asosiy daryolari oqimining katta qismi hosil bo'ladigan Pomir va Tyan-Shan muzliklari maydonining qisqarib borishi – bular Orol dengizining halokati natijasida vujudga kelayotgan muammolarning bir qismi, xolos.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ko'p yillardan buyon ushbu ekologik ofat oqibatlarini bartaraf etish yo'lida samarali ishlarni amalga oshirmoqda. 1993-yilning yanvar oyida O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston hamkorligida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining tashkil etilgani bu borada muhim voqea bo'ldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ushbu masalani ilk bor BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil 28-sentabrda bo'lib o'tgan 48-sessiyasida ko'tarib chiqqan va jahon hamjamiyati e'tiborini Orol dengizi muammosiga qaratgan edi. Bundan tashqari, Orol fojiasining halokatli oqibatlari kuchli ta'sir ko'rsatayotgan davlatlar vakillari Bosh Assambleyaning 1995-yil 24-oktabrdagi 50-sessiyasida jahon hamjamiyatiga Orol dengizi va Orolbo'yi mintaqasini qutqarishda yordam so'rab murojaat qildi. Davlatimiz rahbari BMTning Atrof-

muhit bo'yicha dasturi shaf'eligida Orol dengizi va Orolbo'yi muammolari bo'yicha kengashni tashkil qilish tashabbusini ilgari surdi.

Buning samarasida 1995-2012-yillarda Orolbo'yi mintaqasiga umumiy hajmi 1,1 milliard dollardan ortiq xalqaro donorlik yordami ko'rsatildi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'z mablag'lari hisobidan Orol dengizi havzasi davlatlariga yordam ko'rsatish bo'yicha ikkita dastur amalga oshirildi. Jumladan, Orol dengizi havzasida suv resurslarini birgalikda boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish, ekologik ofat hududlarini qayta tiklash, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, salomatligini yaxshilash, qashshoqlik va ishsizlik darajasini kamaytirishga doir salmoqli ishlar bajarildi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga a'zo davlatlar 2003-2010-yillarda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni amalga oshirish uchun 2 milliard dollardan ziyod mablag' ajratdi.

**Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi** O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston rahbarlari hamkorligida Orol dengizi havzasida ekologik inqirozga barham berish va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash maqsadida tuzilgan mintaqaviy tashkilotdir. Ta'sischi davlatlar ushbu jamg'armaga galma-gal uch yil muddatga raislik qiladi va Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari navbati bilan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi Prezidenti etib saylanadi. 2017-yildan 2019-yilgacha jamg'armaga Turkmaniston raislik qildi.

Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyat o'nglab bo'lmaydigan holatga kelgan, uning salbiy ta'siri tobora kengayib borayotgan bugungi sharoitda davlat rahbarlarining ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi hamfikrliligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Orolbo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, aholining turmush darajasini yaxshilash bo'yicha keng miqyosli loyihalarni amalga oshirdi. Orol dengizi qurigan 350 ming gektar maydonga saksovul va sho'rga chidamli o'simliklar ekilib, butazorlar barpo etildi. Bunday hududlarning umumiy maydoni qariyb 700 ming gektarga yetdi.

Orol halokati oqibatlarini yumshatish va Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha 2013 – 2017 yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi doirasida 500 dan ortiq loyiha amalga oshirildi. Ularning yarmidan ko'pi milliy loyihalardir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017 – 2021-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi doirasida Orolbo‘yida ijtimoiy-iqtisodiy holatni, aholi turmush sharoitini yaxshilash, ekologik falokat asoratlarini yumshatish bo‘yicha investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish jamg‘armasi tuzildi va unga 200 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi. Bu mablag‘lar hisobidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisining suv ta‘minoti, turmush sharoiti yaxshilash chora-tadbirlari ko‘rilmoqda.

2018-2021 yillarda Orolbo‘yi hududini rivojlantirish bo‘yicha Davlat dasturi qabul qilindi. O‘zbekiston **Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosida trast fondini tashkil etish borasidagi** tashabbusni ilgari surdi va bu BMT tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston o‘rtasidagi munosabatlar nima asosida tartibga solinadi?
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat ramzlari qachon qabul qilingan?
3. Suveren Qoraqalpog‘iston respublikasi haqida bosh qomusimizda nimalar deyilgan?
4. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyoti qanday bo‘ldi?
5. Qoraqalpog‘iston Respublikasida fan va ta‘limning rivojlanishi qanday bo‘ldi?
6. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘zgarishlar haqida qisqacha ma‘lumot bering.
7. Orol fojiasining kelib chiqishiga qanday omillar sabab bo‘lgan?
8. Orolni qutqarish jamg‘armasi faoliyati haqida so‘zlang.
9. Ekologik holatni yaxshilash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

2. Қорақалпоғистон тарихи (1917-1994 йй.). - Нукус, 1995.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон..2017.
4. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2019.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. - Тошкент, 2000.
6. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабилов. - Тошкент: Академия, 2013.
7. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018.

## **AXBOROT MANBALARI**

1. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. [www.google.uz](http://www.google.uz)

### **Mavzu: O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, O‘zbekiston va BMT munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, diplomatik munosabatlar, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, O‘zbekiston va Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi aloqalar, Shanxay hamkorlik tashkiloti, O‘zbekiston va AQSh, O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari munosabatlari*

#### **1. O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati asoslari va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishi**

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi yosh davlatimizni jahon hamjamiyatiga qo‘shilish uchun imkoniyat yaratdi. Shu bois mamlakatimiz rahbariyati istiqlolning dastlabki kunlaridan e‘tiboran O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta siyosiy yo‘lini belgilash, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar o‘rnatish kabi dolzarb

masalalarni hal qilishga kirishdi. Istibdod davrida mamlakatimiz to‘la mustaqil ravishda tashqi siyosat va diplomatik faoliyat yuritish, xorijiy davlatlar va xalqaro nufuzli tashkilotlar bilan aloqalarni o‘rnatish kabi huquqlardan mahrum etilgan edi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li” va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 17-moddasida Respublika mustaqil tashqi siyosiy faoliyatining huquqiy asoslari, prinsiplari, maqsad va vazifalari o‘zining qonuniy aksini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar hamkorlik uchun ochiqliq umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va havsizlikni saqlashga sodiqlik;

davlatlarning suveren tengligi va chegaralar dahsizligini hurmat qilish;

boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish;

kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;

inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;

ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;

davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, faravonligi va havfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga kirish va ulardan chiqish;

tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;

davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

2018 yil holatiga ko‘ra O‘zbekistonni 180 ga yaqin davlat tan olgan. Ularning 134 tasi bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan. Toshkentda 45 ta davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsulxona, 11 ta xalqaro tashkilot, 5 ta xalqaro moliyaviy, 3 ta diplomatik mavqedagi savdo vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. 2022 yil 13 iyun kuni Antigua va Barbuda davlati bilan diplomatik munosabatlar

oʻrnatilishi natijasida Oʻzbekiston diplomatik munosabatlar oʻrnatgan davlatlar soni 141 taga yetdi.

Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda Oʻzbekiston Respublikasining 47 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud. Oʻzbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning aʼzosi boʻlib, mamlakatimiz turli xil koʻp tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan oʻzaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi. Oʻzbekiston Respublikasi oʻzining xohish irodasi va taklifiga koʻra **1992- yil 2-martda** jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot - Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli aʼzosi boʻldi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993-yilda boʻlgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27-sentabrda qilgan maʼruzasi Oʻzbekistonni jahonga koʻhna va yosh navqiron davlat sifatida namoyon etdi. Oʻzbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari boʻyicha BMT ning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar boʻyicha bir qator takliflar oʻrtaga qoʻyildi.

**1993-yil 24-oktabrda** Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi va ish boshladi.

2017 yil 19 sentyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev AQShda boʻlib, BMTning 72-sessiyasida nutq suzladi. Mazkur nutq Oʻzbekistonning BMT doirasidagi xalqaro tashabbuslarida yangi tendensiyalarni namoyon qildi. Oʻzbekiston Prezidenti oʻz nutqida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi oʻzgarishlar hamda aniq va asosli manbalarga ega bir nechta tashabbuslarni ilgari surdi. Yaʼni globallashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat - **BMTning Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish, BMT Bosh Assambleyasining «Maʼrifat va diniy bagʻrikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish, BMT Xavfsizlik Kengashini bosqichma-bosqich isloh qilish** kabi global xarakterdagi takliflari jahon jamoatchiligida katta qiziqish uygʻotdi. Xususan, Oʻzbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mazkur nutqi mavjud muammolarga mahalliy,



mintaqaviy va global darajada ahamiyat qaratilib, ularning yechimiga pragmatik yondashilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, Sh.Mirziyoyev 2020 yil 23 sentabrda ham BMTning 75-sessiyasida ham nutq soʻzladi. Eʼtiborlisi mazkur nutq oʻzbek tilida boʻldi.

Hozirda jahonda turli xil xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar mavjud boʻlib, ularning orasida **Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi** (MDH) oʻziga xos koʻrinishga ega. 1991 yil 8-dekabrda Minskda – Rossiya, Ukraina va Belarus rahbarlarining uchrashuvida Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH) ni tuzish toʻgʻrisida shartnoma imzoladilar. Shartnomada 1922 yil 30-dekabrda tashkil topgan SSSR tugatilganligi va Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH) tashkil etilganligi rasman eʼlon qilindi. 1991 yil 25-dekabrda SSSR xalqaro huquq subyekti sifatida barham topdi va M.S.Gorbachyov Bosh kotib va Prezident lavozimlaridan isteʼfoga chiqdi.

1991 yil 21-dekabrda Almatida 11 davlat – Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozogʻiston, Oʻzbekiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldova davlatlari boshliqlarining Kengashida Belovejskoye Pushche shartnomasi yuzasidan protokol imzolanib, “Teng huquqli va ahdlashayotgan oliy tomonlar” maqomida MDH muassisi boʻldilar. Kengashda Almati Deklaratsiyasi qabul qilindi.

1992-yil 20-martda Kiyev shahrida Oʻzbekiston Respublikasi bilan **Rossiya Federasiyasi** oʻrtasida diplomatik munosabatlar oʻrnatish toʻgʻrisida Protokol imzolangan boʻlsa, 1992-yil 5-mayda Moskvada Oʻzbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federasiyasi oʻrtasida davlatlararo munosabatlar asoslari toʻgʻrisidagi Shartnoma imzolandi, 1992-yil 22-iyulda esa Toshkentda Rossiya Federasiyasi Bosh vaziri A.Shoxin boshchiligidagi Rossiya Federasiyasi va Oʻzbekiston delegasiyalarining muzokaralari boʻlib oʻtdi. Muzokaralar yakunida Oʻzbekiston Rossiya munosabatlarni rivojlantirishga aloqador qoʻshma axborot imzolangan edi.

2014-yilning 10-dekabrda Rossiya Federasiyasi Prezidenti V.Putinning Oʻzbekistonga rasmiy tashrifi boʻlib oʻtdi. Sh. Mirziyoyev 2017 yil 4-5 aprel kunlari Rossiya Federasiyasiga tashrif buyurdi. Ushbu tashrifda ikki mamlakat Prezidentlari mamlakatlar oʻrtasida turizm, neft va gaz sohasida oʻzaro manfaatli hamkorlik sogʻliqni saqlash, tibbiyot va fan sohasida 16 mld lik 50 dan ortiq hujjatlarni imzoladi. Oʻzbekiston va Rossiya oʻrtasida madaniy-

gumanitar sohalarida o‘zaro hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Adabiyot va san’at uyg‘unligini biz Moskva shahrida buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir Alisher Navoiyga, Toshkent shahrida esa Pushkin haykalini o‘rnatilganligidan bilishimiz mumkin. Ikki mamlakat o‘rtasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi tovar ayrboshlash 2019 yilda 20 % o‘sib 398 mln. ga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasi **Belarus Respublikasi** bilan har tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratadi. Mamlakatlarimiz iqtisodiyoti bir-birini to‘ldiradi. So‘nggi ikki yilda Toshkent va Minskda Hukumatlararo komissiyaning (HK) ikkita yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Belarus Respublikasi o‘rtasida 2008-2017-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma va uning ijrosi yuzasidan Dastur imzolangan. O‘zbekiston va Belarus hukumatlari o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari o‘rtasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda hamkorlik to‘g‘risidagi hujjatlar imzolangan.

1994-yil dekabrda Belarus Respublikasi Prezidenti A.Lukashenkoning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirilgan.

MDH mamlakatlari boshliqlari majlisi doirasida Minsk shahrida 2014-yil oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Belarus Respublikasi Prezidenti A.Lukashenko uchrashishdi. Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlan tirishning asosiy masalalari muhokama qilindi.

O‘zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo‘yicha qariyb 113,4 million AQSh dollarini tashkil etdi.

**Gruziya** O‘zbekistonning eng muhim tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat – 1995-yilning 4-sentyabrda O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasida imzolangan do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuv hisoblanadi.

Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlarni iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha O‘zbek-gruzin Qo‘shma komisiyasi tartibga soladi. 2014-yilning 20- oktyabrda Toshkent shahrida mazkur komissiyaning navbatdagi yetinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

2016-yil yakunlari bo‘yicha ikki davlat o‘rtasidagi umumiy tovar aylanmasi hajmi 90,8 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Yuqorida etirof etilgan uchrashuvlar, siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohada amalga oshirilgan hamkorlik O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan har tomonlama aloqalarini yanada mustahkamladi.

## **2. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari**

O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik do‘stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Markaziy Osiyodagi beshta davlat o‘rtasida o‘xshash jihatlar ko‘p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dilimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakat xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirish zaminidir.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi aloqalarida, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishida Markaziy Osiyo Hamkorlik (MOH) tashkiloti muhim ahamiyat kasb etdi. Bu tashkilot 1994 yil iyul oyi boshida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston Prezidentlarining Almati shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvi asosida tashkil topgan Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (MOIH) zaminida 2002 yil 28-fevralda tashkil topgan. 2002 yil 28-fevral kuni Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvi bo‘lib o‘tadi. Muzokaralarning yakunlari bo‘yicha prezidentlar Markaziy Osiyo Hamkorlik (MOH) tashkilotini ta‘sis etish to‘g‘risidagi shartnomani imzolaydilar. Tashkilotning raisi etib I.A.Karimov saylanadi. Bu tashkilot endi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bilan birga siyosiy-ijtimoiy, madaniy texnikaviy va boshqa aloqa turlarini kengaytirish masalalari bilan shug‘ullanadigan bo‘ldi. MOH tashkilotining tashkil etilishi, uning a‘zolari bo‘lgan O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli aloqalarni yanada kuchayishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ayni paytda O‘zbekiston Markaziy Osiyo respublikalari bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yib borar ekan, bu mintaqada iqtisodiy, madaniy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdagi asosiy xavf Afg‘oniston mojarosi ekanligini doimo diqqat markazida saqlab turdi. Bularga siyosiy jihatdan diniy ruhdagi ekstremizm, xalqaro terrorizm, korrupsiya va jinoyatchilik, narkotik moddalarni tarqatish, qurol-yarog‘ savdosi kabi muammolarni kiritish mumkin.

Oxirgi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan O‘zbekistonning Qozog‘iston,

Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston respublikalari bilan munosabatlari yangi bosqichga chiqdi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqida "Bizning mintaqamiz xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari bog'lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi", deb ta'kidladi.

Yevroosiyoning "yuragi"da joylashgan mintaqamiz Yevropa va Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog'lovchi ko'priklar bo'lib, Rossiya va Xitoy singari yirik davlatlar bilan chegaradoshdir.

Mintaqamiz tabiiy resurslarga boy, bu yerda ko'plab mamlakatlar va butun mintaqalar rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan noyob madaniyat va taraqqiyot salohiyati mavjud. Ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishmoqda, beqarorlik va qarama-qarshilik o'choqlariga tutash bo'lgan ushbu mintaqada yaqin va uzoq xoriжда ro'y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta'sirini his etmoqda. Tabiiy savol tug'iladi: mintaqada vaziyat qanday rivojlanadi? Bu yerda qanday kuch ustun keladi – nizo va qarama-qarshiliklarmi yoki hamkorlik va taraqqiyotmi?

Umumiy aholisi **70 milliondan** ortiq bo'lgan mintaqamizning kelajagi bugungi kunda Markaziy Osiyoning har bir davlati tomonidan barpo etilmoqda. Bizning qat'iy ishonchimizga ko'ra, amaliy hamkorlikka tayyorlik va unga astoydil intilish, shuningdek, barcha Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy kelajak uchun mas'uliyatni his etishi mintaqaning barqaror rivojlanishi va farovonligining mustahkam poydevori va kafolatidir.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar bilan aloqalarida **Qozog'iston** Respublikasi bilan yo'lga qo'yilgan ko'p tomonlama o'zaro manfaatli aloqalari katta ahamiyatga ega. O'zbekistonning Qozog'iston bilan ikki tomonlama munosabatlari 1992 yil 24-iyunda imzolangan O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma asosida mustahkamlanib bormoqda. Qozog'iston va O'zbekiston birinchi Prezidentlari N.Nazarboyev va I.Karimovlarning 1994 yil 10-12-yanvardagi Toshkentdagi rasmiy uchrashuvida ikki respublika o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarini erkin

o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narh boj va valyuta siyosatini ta'minlash to'g'risidagi shartnoma imzolandi. 1998 yil 31-oktyabrda O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida abadiy do'stlik shartnomasi imzolandi.

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarining 2000 yil 20-21-aprelda Toshkentda ikki davlat chegaralarini aniq belgilashga bag'ishlangan uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuv yakunida "O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Qozog'iston Respublikasi birinchi Prezidenti N.Nazarboyevning qo'shma bayonoti" imzolandi.

2017 yil 23-24 mart kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi birinchi Prezidenti N.Nazarboyev taklifiga binoan Qozog'iston Respublikasida bo'ldi. Uchrashuvda Afg'oniston muammosi, uni tinch yo'l bilan hal etish zarurligi, transchegaraviy daryolar suvlaridan oqilona foydalanish, siyosiy savdo-sotiq masalalari muhokama qilindi. O'zbekistonda hozirgi kunda Qozog'iston kapitali ishtirokida 230 dan ortiq, Qozog'istonda O'zbekistonlik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda 130 dan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Toshkent Samarqandni bog'lovchi Maxtaral tumanidan o'tuvchi avtomobil yo'lining oichilishi, Toshkent- Olmata tezyurar poyezdi va ikki mamlakat o'rtasida avtobus qatnovining yo'lga qo'yilishi, hududlararo aloqalar savdo va turizm rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonning **Qirg'iziston** bilan ikki tomonlama hamkorligi O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida Toshkentda 1992 yil 29-sentyabrda imzolangan do'stlik hamkorlik va o'zaro yordam haqida shartnoma asosida yo'lga qo'yildi va rivojlandi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1993 yil avgustda Qirg'izistonga qilgan davlat tashrifi paytida ikki mamlakat o'rtasida 1994-2000 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integrasiyani rivojlantirish to'g'risida Bayonot imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xomashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyatdan unumli foydalanishga qaratilgan. Ikki davlat o'rtasida turli sohalarda hamkorlikni mustahkamlash haqida bitimlar imzolangan. 1994 yil 16-yanvarda I.A.Karimov Qirg'izistonda bo'ldi, tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarini erkin o'tib yurishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan savdo-sotiq,

byudjet, soliq, narh boj va valyuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladi. Bu hujjatlar asosida ikki respublika o'rtasida qardoshlik aloqalari, ikki tomonlama hamkorlik rivojlanib bormoqda. 2000 yilda O'zbekistonda 22 ta o'zbek-qirg'iz qo'shma korxonasi, Qirg'izistonda 61 ta qirg'iz-o'zbek qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi. 2017 - yil 5-6 - sentabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Almazbek Atamboyevning taklifiga binoan Qirg'iziston Respublikasida bo'ldi. 2021 - yil 11 - 12 - mart kunlari Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning O'zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. O'tkazilgan muzokaralar natijasida qo'shma bayonot imzolandi.

**Tojikistonda** 1992-1996 yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etdi, uning qo'shni mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov taklifiga binoan 1998 yil 4-yanvar kuni Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonov O'zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo'yicha qo'shma axborot imzoladilar. Uchrashuv paytida ikki davlat o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda hamkorlik bo'yicha bitimlar imzolandi. O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari o'zining yangi mustahkamlanish va taraqqiyot davriga o'tdi. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1997 yilda 50 million AQSh dollaridan oshdi. 2000 yilda O'zbekistonda 15 ta o'zbek-tojik qo'shma korxonasi, Tojikistonda 3 ta o'zbek-tojik qo'shma korxonasi faoliyat ko'rsatdi.

So'nggi yillarida O'zbekiston va **Turkmaniston** Respublikalari o'rtasida ham do'stlik va ikki tomonlama hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi va hozirgi davrda bu hamkorlik rivojlanib bormoqda.

2017 yil 23-24 aprel kunlari Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhammedov davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasida savdo uylari ochish, ishbilarmonlar kengashi tashkil etish, transport, tranzit, qishloq xo'jaligi, fan texnika, sport va boshqa sohalarga doir 17 ta hujjat imzolandi. Oliy o'quv yurtlari o'rtasida, axborot kommunikatsiya sohasida 15 ta hujjat imzolandi. Toshkent shahrida turkman shoiri Maxtumluliga atab ko'cha va unga me'moriy yodgorlik ochildi. Toshkent shahrida 10 gektar maydonni egallagan Ashgabat saylgohi

ochilib, unda Turkmaniston ramzi bo'lgan axalteki otlarining haykallari o'rnatildi.

### **3. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari**

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvida Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora rivojlantirish alohida o'rin tutadi. 1996 yil 21-iyunda O'zbekiston bilan **Yevropa Ittifoqi** o'rtasidagi "Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim" mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negiziga aylandi. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik aloqalari yildan-yilga chuqurlashib bormoqda. Mamlakatimizda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning 145 firma va kompaniyasi vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan. Yevropalik sarmoyadorlar ishtirokida 491 ta korxonalar ishlayapti. 1995-2002 yillarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining firma va kompaniyalari umumiy qiymati qariyb 8 mlrd dollarlik yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirishda qatnashdi.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqining a'zosi **Germaniya** bilan o'zaro manfaatli aloqalari kengayib bormoqda. Bu davlat bilan mamlakatimizning o'zaro aloqalari o'tmishga borib taqaladi. O'zbekiston Germaniya munosabatlari 1992 yildan boshlangan. Germaniya mamlakati O'zbekiston mustaqilligini 1991 yil 31-dekabr kuni tan olgan. O'zbekiston Respublikasi bilan GFR o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 6 yanvarda o'rnatilgan. 1992 yil 6 martda o'zaro elchixonalar va konsulliklar ochish, diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yish, siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlik qilishga kelishib olindi. Shu kungacha ikki davlat o'rtasida 140 dan ortiq turli bitim va shartnomalar imzolangan.

2017 yil 30 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida ikkitomonlama hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 20 yanvarda GFR federal kansleri Angela Merkel taklifiga binoan ushbu mamlakatda bo'ldi. Uchrashuvda asosiy e'tibor ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni

rivojlantirish masalalariga qaratildi. O‘tkazilgan Biznes forumda 8 mlrd yevroga teng qiymatdagi yangi loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi. 2018 yilda ikki mamlakat o‘rtasidagi tovor-ayrboshlash hajmi 700 mln yevrodan oshgan bo‘lsa, 2019 yil bu ko‘rsatkich 1 mlrd yevrodan oshishi ko‘zda tutildi.

**Fransiya** O‘zbekistonning Yevropadagi muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Fransiya davlat va rasmiy tashriflari (1993 va 1996-yillar) hamda Fransiya Respublikasi Prezidenti F.Mitteranning O‘zbekistonga davlat tashrifi (1994-yil) bo‘lib o‘tgan. 1996-yil iyun oyida Florensiya shahrida o‘tkazilgan Yevropa Ittifoqi davlatlari rahbarlari sammiti va 2002-yil noyabr oyida Praga shahrida bo‘lib o‘tgan NATO/YeAHK sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Fransiya Prezidenti J.Shirak bilan uchrashuvlari ham o‘tkazilgan.

Ikki davlat Tashi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi 10 ta siyosiy maslahatlashuvlar bo‘lib o‘tgan. Oxirgisi 2017-yilning aprel oyida Toshkent shahrida o‘tkazildi.

2008-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida parlamentlararo hamkorlik guruhi tuzildi, 2010-yildan boshlab Oliy Majlis Qonunchilik palatasida «O‘zbekiston – Fransiya» do‘stlik guruhi faoliyat yuritmoqda.

Fransiya O‘zbekistonning Yevropadagi muhim savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biridir. 2017-yil yakunlari bo‘yicha ikki tomonlama savdo aylanmasining hajmi 251,6 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu ko‘rsatkich yana ham o‘smoqda.

Fransiyada Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish Assosiasiyasi hamda «Avisenna – Fransiya» Assosiasiyasi faoliyat yuritib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi **Amerika Qo‘shma Shtatlari** bilan ham faol aloqalar olib bormoqda. 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi delegasiyasi AQShga va Vakillar palatasi a‘zosi T.Kelli boshchiligidagi bir guruh kongress a‘zolari O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

2018-yil 15-17-may kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning AQShga rasmiy davlat tashrifi amalga oshirildi. Sh.Mirziyoyev AQSh Prezidenti Donald Tramp bilan uchrashdi. Keng doiradagi muzokaralarda O‘zbekiston va AQSh delegatsiyalari



vakillari ishtirok etib, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va boshqa sohalrda hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama etildi.

Mamlakatlar o'rtasidagi ishbilarmonlik aloqalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda AQSh-O'zbekiston savdo palatasi muhim ahamiyat kasb etadi. AQSh va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida imzolangan TIFA savdo va investisiyalar to'g'risidagi bitimning amalga oshirilishi Amerika bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

«Boeing» kompaniyasi «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasini zamonaviy avialaynerlar, xususan «Boeing-787-8 Dreamliner» rusumidagi yangi avlod samolyotlari bilan ta'minlovchi asosiy va doimiy hamkor sanaladi.

«General Electric» korporasiyasi O'zbekistonning neft-gaz va aviasiya sektorlarida, shuningdeq salomatlik va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish sohasidagi muhim hamkori hisoblanadi.

AQShning O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan boshqa kompaniyalari ichida «Exxon Mobil», «CNH Industrial», «Coca-Cola», «Hyatt», «Hilton», «John Deyere», «Honeywell», «Caterpillar» va boshqalar ham mavjud.

Universitetlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish doirasida O'zbekistonning bir qator oliy ta'lim muassasalari hamda AQShning Ogayo va Michigan universitetlari, Boston yuridik kolleji, Amerika va Jorjtaun universitetlari kabi oliy ta'lim muassasalari bilan aloqalarni kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, Toshkentda Vebster universiteti filialini ochish to'g'risida kelishuvga erishildi.

**Turkiya** O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991 yil 16 dekabrda tan olgan. Diplomatik aloqalar 1992 yil 4 martda o'rnatilib, shu yil aprel oyida Turkiyaning Toshkentda elchixonasi ochilgan. 1993 yil may oyidan Anqarada O'zbekiston elchixonasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 4 marotaba Turkiyaga tashrif buyurgan (1991, 1994, 1997 va 1998 yy.).

2017 yil 25-26 oktyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga davlat tashrifi amalga oshirildi.

Turkiya prezidentlari T.Ozal (1993 y.), S.Demirel (1996 y., 1996 y., 1999 y.), N.Sezer (2000 y.) R.Erdog‘an (2016 y., 2022 y.), bosh vazirlari S.Demirel (1992 y.), T.Chiller (1995 y.), M.Yilmaz (1998 y.) va R.Erdog‘an (2003y.) O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurgan.

Turkiya O‘zbekistonning yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi (Rossiya, Xitoy va Qozog‘istondan keyin 4-o‘rinda). 2017-yil yakunlariga ko‘ra, o‘zbek-turk savdo aylanmasi hajmi 1,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017 yil 25-26 oktyabr kunlari Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘onning taklifiga binoan Turkiya davlatiga tashrif buyurdi. Uchrashuvda ikki mamlakat o‘rtasida savdo- iqtisodiy, siyosiy, turizm, transport, logistika, madaniy- gumanitar va boshqa sohalarda, jami 3.5 mld dollar hajmidagi 30 dan ortiq loyihalar bo‘yicha bitimlar imzolandi. Tashrif chog‘ida ikki mamalakat o‘rtasida tovar ayrboshlash hajmi 2020 yillarga borib 3-4 mld dollarga yetkazishga kelishuvga erishildi.

O‘zbekiston va **Pokiston** hukumatlararo savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo‘yicha qo‘shma komissiyasi 1993-yilda tuzilgan bo‘lib, uning so‘nggi 5-yig‘ilishi 2011-yil mart oyida Islomobadda bo‘lib o‘tgan. 2017-yil 5 apreldan boshlab “Toshkent-Lahor-Toshkent” yo‘nalishi bo‘yicha haftasiga ikki parvoz qayta tiklandi.

2018-yil yanvar-noyabr oylarida o‘zaro savdo ko‘rsankichi 92,4 mln.ga etdi, eksport 28,7 mln., import 63,7 mln. O‘zbekistonda Pokiston kapitali ishtirokida tuzilgan 81 korxonada ishlab turibdi. Ularning 4 tasi 100 foiz Pokiston sarmoyasi asosida faoliyat yuritmoqda. 23 qo‘shma korxonada 2018-yilda tashkil etilgan. Ular asosan savdo, to‘qimachilik qog‘oz, charm, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, transport va sayyohlik xizmatlari kabi sohalarda ishlaydi.

**Eron Islom Respublikasi** 1991-yilning 25-dekabrida O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini rasman tan oldi.

1992-yil 10-mayda O‘zbekiston va Eron o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi.

Eronning Toshkentdagi elchixonasi 1992-yil noyabr oyida va O‘zbekistonning Tehrondagi elchixonasi 1995-yil may oyida ochilgan.

O'tgan muddat davomida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning Eronga to'rt bor tashrifi amalga oshirildi. (1992 va 2003-yillarda rasmiy, 1996 va 2004-yillarda EKO sammiti doirasida).

O'z navbatida Eron prezidentlari A.Rafsanjoni (1993-yil oktyabr) va S.Hotamiylarning (2002-yil aprel) O'zbekistonga rasmiy tashriflari bo'lib o'tgan.

Islom hamkorlik tashkilotining (IHT) 2017-yil sentyabrda Ostonada o'tkazilgan fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammiti doirasida O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Eron Islom Respublikasi Prezidenti H.Ruhoniy bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

2018-yil natijalariga ko'ra, o'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari \$306,5 mln, shu jumladan O'zbekiston eksporti – \$172,5 mln., import esa \$133,9 mln. hajmida qayd etildi.

O'zbekistonning Eronga eksporti paxta, paxta tolasi, qora va rangli metallar, mineral o'g'itlar, elektromexanik jihozlar, mevalar, quruq mevalar va plastmassa mahsulotlaridan iborat bo'lmoqda.

Hozirgi davrda O'zbekistonning **BAA, Saudiya Arabistoni, Misr Arab Respublikasi, Isroil, Quvayt** va boshqa Osiyo dalatlari bilan har tomonlama aloqalari kengayib bormoqda.

Sovet tuzumi davrida mamlakatlarimiz xalqlari vakillari qanchalik intilmasinlar, qanchalik harakat qilmasinlar, O'zbekiston – **Xitoy** hamkorligi cheklanganligicha qolib ketavergan edi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin ko'p asrlar davomida shakllanib kelgan O'zbek va xitoy xalqlari o'rtasidagi do'stlik hamkorlik aloqalarini tiklash, umuman, ko'p tomonlama faol tashqi siyosat yuritish imkoniyati paydo bo'ldi.

Xitoy O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan olgan dastlabki davlatlardan biri hisoblanadi (1991 yil 27 dekabr). 1992 yil 2 yanvarda XXR tashqi savdo va iqtisodiy hamkorlik vaziri Li Lyansinning O'zbekistonga tashrifi davomida ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlarni o'rnatish to'g'risida Bayonnoma imzolangan.

1992 yil 12–14 mart kunlari O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligidagi hukumat delegatsiyasi XXR raisi Yan Shankunning taklifiga binoan Xitoyga tashrif buyurdi. Tashrif davomida XXR va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi yigirmaga yaqin muhim hujjatlar imzolangan. O'zbekiston Respublikasi va XXR o'rtasidagi o'zaro

munosabatlarning tamoyillari to'g'risidagi Shartnoma, O'zbekiston Respublikasi va XXR qishloq xo'jaligi vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi Bitim, O'zbekiston Respublikasi va XXR tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida konsultasiyalar o'tkazish to'g'risidagi Bayonnomalar o'zaro hamkorlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ikki davlat hukumatlarining o'zaro kelishuviga va imzolangan bitimlariga asosan, 1992 yilda Xitoyning O'zbekistondagi elchixonasi rasman o'z faoliyatini boshladi. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining XXRdagi elchixonasi 1995 yil 6 mayda Pekin shahrida ochildi. Shuningdeq savdo-tijorat ishlari bo'yicha vakolatxonamiz Xitoyning 15 eng yirik shaharlaridan biri hisobangan Shanxay shahrida o'z faoliyatini bugungi kunga qadar samarali olib bormoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonning tashqi eksport-import savdosida Xitoy birinchi o'rinda turadi.

O'zbekistonning mustaqillik sharoitidagi **Janubiy Koreya** bilan hamkorligining huquqiy asoslarining shakllantirilishi 1991-yil 31-dekabrga to'g'ri keladi. Mazkur sanada Koreya Respublikasi O'zbekistonning mustaqil davlat sifatidagi suverenitetini e'tirof etdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi rasmiy diplomatik aloqalar 1992-yil 29-yanvar kuni o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1992-yilning 16-iyunda rasmiy ravishda Janubiy Koreyaga birinchi tashrifini amalga oshirdi. Ushbu tashrif davrida imzolangan kelishuv va shartnomalarda ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslariga dastlabki poydevorni qo'ydi deb hisoblash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 7-apreldagi qaroriga muvofiq Janubiy Koreya poytaxti Seul shahrida O'zbekiston Respublikasining Konsullik vakolatxonasini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-sentyabrdagi qaroriga muvofiq Koreya Respublikasida O'zbekiston Respublikasi elchixonasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga asosan, 2014-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi 2016,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, ulardan eksport 143,7 mln. AQSh dollar, import – 1872,7 mlrd. AQSh dollar tashkil qildi. Janubiy Koreya tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investisiyalarning hajmi 5 mlrd. AQSh dollardan oshgan.

O‘zbekiston-Janubiy Koreya tovar ayirboshlash miqdorida O‘zbekistonning eksportining asosini paxta tolasi tashkil qiladi. Undan tashqari O‘zbekiston Koreya Respublikasiga uran, teri va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini eksport qiladi. O‘zbekiston bo‘lsa Janubiy Koreya importida asosiy urg‘uni zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni olishga qaratgan. Chunki O‘zbekiston iloji boricha tayyor mahsulot olishdan ko‘ra uni o‘zimizda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni asosiy maqsad deb biladi. Shuning uchun ham ko‘pincha raqobatdardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir bo‘lgan texnologiyalarni sotib olishga harakat qiladi.

O‘zbekistonning Sharqning eng rivojlangan mamlakati – Yaponiya, janubi-sharqiy Osiyo va Okeaniya mintaqasidagi Malayziya, Indoneziya, Vyetnam, Avstraliya kabi mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik aloqalari yo‘lga qo‘yildi, o‘zaro manfaatli iqtisodiy va madaniy hamkorlik rivojlanib bormoqda.

1991-yil 28-dekabrda **Yaponiya** O‘zbekistonning mustaqilligini tan oldi. 1992-yil-26 yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 3 marotaba – 1994, 2002 va 2011 yillarda Yaponiyaga tashrif buyurdi. O‘zbekistonga javob tashriflari 2006 yilning avgust oyida Yaponiya bosh vaziri J.Koidzumi va 2015-yil oktyabrda Yaponiya bosh vaziri S.Abe tomonidan amalga oshirildi. 2010 va 2014-yillarning mayida Yaponiya bosh vaziri o‘rinbosarlari, moliya vazirlari N.Kan va T.Aso O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

2002 yildan boshlab ikki davlatning tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida doimiy ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazib kelinmoqda. 2017-yil martda siyosiy maslahatlashuvlarning navbatdagi uchrashuvi Tokio shahrida o‘tkazildi.

O‘zbekistonda 10 ta qo‘shma korxonalar mavjud bo‘lib, shundan bittasi 100 foiz yapon sarmoyasi ishtirokida tuzilgan. 13 ta yapon kompaniyalarining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o‘tgan.

2017-yil yanvar-oktyabr oralig‘ida o‘zaro tovar aylanmasi 138,5 million dollarni tashkil qildi.

Yaponiyaning O‘zbekistonga ko‘rsatgan moliya-texnikaviy yordami 4,1 milliard dollardan oshdi. Ushbu yordam tufayli O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, maorif, energetika, transport, telekommunikasiya va boshqa sohalarda qator ijtimoiy ahamiyatli va infratuzilma loyihalari amalga oshirildi.

Hozirgi kunda Yaponiya O'zbekistonning eng yirik hamkorlaridan biridir.

#### **4. O'zbekistonning ShHT bilan aloqalari**

Hozirgi davrda O'zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashkilot (1996-y. Shanxayda chegara hududlarida harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida imzolangan Bitim doirasida) Xitoy bilan qo'shni davlatlar o'rtasida chegaralarga doir masalalarni hal etishga qaratilgan norasmiy forum sifatida tashkil etilgan edi.

ShHT - submintaqaviy xalqaro tashkilotga sakkizta davlat – Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston, Hindiston va Pokiston a'zo bo'lgan. Rasmiy tillari - rus va xitoy tili. Qarorgohi Pekinda joylashgan.

2001-yilning iyun oyida bo'lib o'tgan sammitda «Shanxay beshligi» unga a'zo bo'lgan davlat - O'zbekiston Respublikasi ishtirokida Shanxay Hamkorlik tashkilotiga aylantirildi. O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zo bo'lib kirishi ma'qullangach, mamlakatimiz shakllantirilayotgan yangi tashkilotning maqomi va ahamiyati, maqsad hamda vazifalarini aniqlashtirish, jumladan, SHHT hech qachon harbiy yoki harbiy-siyosiy tashkilotga aylantirilmasligiga oid takliflarni ilgari surdi. Davlat boshliqlari tomonidan Mintaqaviy antiterroristik tuzilma Ijroiya qo'mitasi qarorgohini Bishkekdan (Qirg'iziston) Toshkent shahriga ko'chirish, shuningdek, 2004-yil 1-yanvaridan tashkilotning doimiy faoliyat yurituvchi organlari - SHHT Kotibiyatining Pekin shahrida, MATT Ijroiya qo'mitasining Toshkent shahrida ish boshlashi haqida qaror qabul qilindi.

SHHT asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

-a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaqin qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash;

-mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, yangi demokratik, adolatli va oqilona siyosiy hamda iqtisodiy xalqaro tartibni shakllantirishga ko'maklashish maqsadida turli yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish;

-terrorizm, separatizm va ekstremizmning barcha ko'rinishlariga qarshi birgalikda kurash olib borish, giyohvand moddalar va qurol-

yarog'ning noqonuniy savdosi hamda transmilliy jinoiy faoliyatning boshqa turlari, jumladan, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish;

-siyosiy, savdo-iqtisodiy, mudofaa, huquq-tartibotni saqlash, ta'biatni muhofaza etish, madaniy, ilmiy-texnikaviy ta'lim, energetik, transport, moliya-kredit va boshqa sohalarda samarali mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;

-a'zo davlatlar xalqlari turmush darajasi va sharoitlarini uzluk-siz yaxshilash maqsadida teng sherikchilik asosida mintaqada har tomonlama va barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy hamda madaniy taraqqiyotga ko'maklashish;

-jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda yondashuvlarni muvofiqlashtirish;

a'zo davlatlarning xalqaro majburiyatlari hamda milliy qonunchiligiga mos ravishda insonning huquq va erkinliklarini ta'minlashga ko'maklashish;

boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish;

-xalqaro nizolarni oldini olish hamda ularni tinch yo'l bilan hal etilishida o'zaro aloqalarni mustahkamlash;

-XXI asrda vujudga keladigan muammolarning yechimini birgalikda izlab topish.

SHHT a'zo davlatlar o'zaro kelishuv asosida hamkorlik sohasini kengaytirishi mumkin. O'z maqsad hamda vazifalarini bajarish uchun SHHT doirasida davlat rahbarlari Kengashi, hukumat rahbarlari (Bosh vazirlar) Kengashi, Tashqi ishlar vazirlari Kengashi, vazirlik va (yoki) idoralar rahbarlari Yig'ilishi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar Kengashi, mintaqaviy antiterroristik tuzilma (MATT), Ko-tibiyat faoliyat yuritadi.

O'zbekiston xalqaro terrorizm, ekstremizm, separatizm va narkotrofikka qarshi kurash SHHT faoliyatini ustuvor yo'nalishi etib belgilanganini shak-shubhasiz qo'llab-quvvatlaydi. Mintaqaviy antiterroristik markaz faoliyati aynan xuddi shu masalalarning hal etilishiga qaratilgan. Birinchi galda, nafrat va terrorizm g'oyalarini targ'ib etayotgan turli radikal va ekstremistik markazlarga qarshi kurashish zarur ekani ta'kidlandi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tarixiy jixatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik o'zaro foydali

hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. Konstitutsiyamizda O'zbekistonning tashqi siyosati haqida nimalar deyiladi?
2. O'zbekistonning tashqi siyosati konsepsiyasi qanday tamoyillarga asoslanadi?
3. O'zbekiston va BMT aloqalari haqida nimalarni bilasiz?
4. O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida qanday o'rin tutadi?
5. O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan o'zaro munosabatlari haqida so'zlang.
6. O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo qanday o'rin egallaydi?
7. O'zbekiston va Qozog'istonning o'zaro aloqalari haqida so'zlang.
8. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari haqida so'zlang.
9. O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalari qay darajada rivojlanmoqda?
10. O'zbekiston va ShHT aloqalari haqida nimalarni bilasiz?

### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон.. 2017.
3. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2019.
4. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабилов. - Тошкент: Академия, 2013.
5. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018.
6. Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви. – Тошкент: Молия, 2003.
7. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Тошкент: Маънавият, 2011.



## AXBOROT MANBALARI

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

### **Mavzu: YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON: MILLIY TIKLANISHDAN - MILLIY YUKSALISH SARI**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Yangi O‘zbekiston, Harakatlar strategiyasi, 2017-2021 yillar, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat, xalq bilan muloqot, virtual va xalq qabulxonalari, milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari*

#### **1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati**

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston o‘zining boy tarixiga tayanib, porloq istiqbolini qurayotgan davlat, hamjihat, xalq, tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri sifatida dunyoga tanildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan, hayotga tatbiq etilayotgan izchil islohotlar, amaliy sa’y-harakatlar yangi taraqqiyot marralarini egallash, zamon shiddatiga mos tarzda rivojlanish, xalqimiz manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgani bilan g‘oyat ahamiyatlidir.

O‘zbekistonda **2016 yil 4 dekabrda** bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovidan keyin xalq davlatining mustahkam poydevorini qurish, demokratik imkoniyatlarni kengaytirish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining mustaqil hokimiyat sifatida faoliyat olib borishi bo‘yicha asosiy taladan kelib chiqib chiqadigan bosh tamoyil - xalqqa xizmat qilish va uning oldida hisob berish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Agar ana shu tamoyilga amal qilinmasa, har qanday hokimiyat faqat

byurokratik tuzilmadan iborat bo‘lib qolishi haqli ravishda ta’kidlab kelinmoqda. Haqiqatan ham, xalqqa yaqinlashish, uning ichiga kirib, eng dolzarb muammolarini hal etish, elu yurt dardu tashvishlari bilan yashash har qanday hokimiyatning borligini bildiradi. Chunki u shu tariqa hokimiyatning birdan-bir manbai bo‘lgan xalq tomonidan e’tirof etiladi, qo‘llab-quvvatlanadi.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan **“Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”** degan ezgu va hayotbaxsh shior asosida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli har bir kunimiz inson manfaatlarini ta’minlash, fuqarolar haq-huquqlarini kafolatli himoya etish, odamlarni rozi, baxtli, saodatli qilishga qaratilgan yangi, qudratli o‘zgarishlar ruhida kechmoqda. O‘zbekiston jamiyati sifat jihatidan mutlaqo yangi davrga qadam qo‘ymoqda.

2016 yil 14 dekabr kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tdi. Tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi. «Bizning vazifamiz – to‘plangan tajriba va ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda, - dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishishi marosimiga bag‘ishlangan nutqida, - o‘zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat’iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o‘rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat’iyat bilan harakat qilishimiz zarur. Shu maqsadda 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish yaqin kunlarda yakunlanadi».

O‘zbekistonning oldida 25 yil davomida bosib o‘tilgan yo‘l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi.

Mazkur vazifani amalga oshirish yo‘lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari,

ma'ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o'rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o'rganish hamda umumlashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni loyihasi ishlab chiqilib, u bilan:

- 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi;

- Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi. Loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muhokamalar olib borildi. Loyihalar muhokama uchun turli axborot maydonlariga joylashtirildi, ularning natijasida ko'plab taklif va mulohazalar kelib tushdi. Fuqarolar siyosiy-huquqiy borada yuksak faollik ko'rsatib, olib borilayotgan islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlikni namoyon qildilar.

Harakatlar strategiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog'ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat edi.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi **5 ta ustuvor yo'nalishi belgilandi:**

- 1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;**
- 2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;**
- 3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;**
- 4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;**
- 5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.**

Mazkur yo‘nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo‘limlardan iborat. Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutildi, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi tasdiqlandi.

**2017 yil 7 fevralda Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan e‘lon qilingan “Harakatlar strategiyasi”**, o‘z mohiyat e‘tiboriga ko‘ra, dunyoda tub o‘zgarishlar yuz berayotgan hozirgi zamonda davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar va xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha beshta ustuvor yo‘nalishda aniq muddatga mo‘ljallangan tom ma‘nodagi milliy strategiya hisoblanadi. U besh bosqichda, besh yil davomida yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshirildi. Va bu O‘zbek modelining mantiqiy davomi bo‘lib xizmat qilidi, deyish mumkin.

Ushbu hujjat 1992 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari hamda 2010 yilda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov taqdim etgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar doirasidagi demokratik yangilanish hamda modernizatsiya jarayonlarining mantiqiy va qonuniy, izchil va uzviy davomidir. Ayni paytda bu muhim strategiya davlatimiz va jamiyatimizni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab bermoqda. Bu bejiz emas. Nega deganda, Prezident Sh.M.Mirziyoyev Asosiy Qonunimizning Istiqlol arafasida ishlab chiqilishi va mustaqillikning ilk yillarida qabul qilinishi davrida ham, Konsepsiyani tayyorlash va unda belgilangan eng muhim vazifalarni hayotga chuqur tatbiq yetish jarayonlarida ham Yo‘lboshchimizning yonida turib, ta‘bir joiz bo‘lsa, yelkama-yelka birga ishlagan, davlat siyosatini yuritish bobida yuksak mahorat maktabini o‘tagan.

Bugun xalqimiz, Vatanimiz intilayotgan milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xos asosiy xususiyatlar, maqsad va vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligida ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasi va boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hujjatlarda aniq belgilab berildi. Ularda jahondagi,

Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyat, rivojlanish tendensiyalari, istiqboldagi taraqqiyot yo‘llari chuqur tahlil etilgan.

O‘zbekistonda ayni shu asosda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada liberallashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekani haqidagi Konstitusiyaviy tamoyil asosida xalq bilan muloqot davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish, odamlarda faol fuqarolik pozitsiyasi va tashabbuskorlikni kuchaytirish, mustaqil dunyoqarash va fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, jamiyatda adolat ustuvorligini ta’minlash, huquqiy-demokratik davlat asoslarini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurash, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish bo‘yicha muhim vazifalar amalga oshirildi.

Jamiyat hayotining barcha bo‘g‘inlarida xalq bilan muloqotning turli shakl va vositalari, jumladan, **Xalq qabulxonalari, Virtual qabulxonalar, Bosh vazir qabulxonasi**, mas’ul va mutasaddi rahbarlarning xalq deputatlari mahalliy kengashlaridagi hisobotlari, sayyor qabullar, ijtimoiy muammolarni, odamlarning yashash sharoitlarini bevosita joylarga chiqib o‘rganish kabi usullar keng qo‘llanayotgani milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash orqali milliy g‘oya tamoyillarini takomillashtirishga, pirovard natijada aholi manfaatlari va farovonligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, bozor munosabatlariga to‘liq o‘tish, xususiy mulk, xususiy tadbirkorlik erkinligiga yanada keng yo‘l ochish, barcha sohalarda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini faol qo‘llashga alohida e’tibor berilmoqda. Yer osti va yer usti boyliklaridan, inson resurslaridan to‘la foydalanish uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichida fuqarolar qalbi va ongidagi yangi sifat o‘zgarishlari hayot darajasining yuksalishi bilan uyg‘un holda kechmoqda.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlariga e’tibor bersak, har bir davrning o‘z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va hayotiy tamoyillari bo‘ladi. Tabiiyki, bularning barchasini shakllantirish va rivojlantirishga, ularga alohida ma’no-mazmun bag‘ishlashga, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo‘nalishlarini belgilab beradigan ulkan tarixiy voqealarning guvohi bo‘ladi.

## **2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar**

Haqiqatan ham, Prezidentimizning bevosita rahbarligi ostida «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» Davlat dasturini ham o‘z ichiga oladigan mazkur keng ko‘lamli dasturiy hujjat har tomonlama puxta ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017 yil 7 fevralda imzolangan Farmoniga muvofiq uni hayotga joriy etish bo‘yicha qonuniy tamoyil va mexanizmlar tasdiqlandi. Mazkur Farmonga berilgan sharhda Harakatlar strategiyasining aqamiyati alohida ta’kidlanib, bu boradagi loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg‘in muhokamalar olib borilgani, ular turli axborot maydonlariga joylash- tirilgani, buning natijasida ko‘plab taklif va mulohazalar kelib tushgani, xususan, «Qonun hujjatlari ta’sirini baholash tizimi» portalida yo‘lga qo‘yilgan muhokamalar tufayli kelib tushgan 1310 ta taklif-mulohaza asosida «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko‘rib chiqilgani qayd etiladi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda ham, chet el ijtimoiy-siyosiy doiralari tomonidan ham katta qiziqish va e’tibor bilan o‘rganildi. Bu borada atoqli olimlar, nufuzli ekspert va kuzatuvchilar, turli darajadagi ko‘zga ko‘ringan rahbarlar o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo‘nalishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

**Birinchi yo‘nalishda davlat va jamiyat tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari alohida belgilab berildi.** Unda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, shu orqali qonun ustuvorligiga erishish asnosida jamiyatda boshqaruvning erkin va xalq hokimiyatchiligi tamoyillarini chuqurlashtirishga erishiladi. Davlat boshqaruvi tizimini liberallashtirish, turli byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, davlat boshqaruvida keng jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash choralari ko‘rish bo‘yicha aniq g‘oyalar ilgari suriladi. Ochiq

jamiyat qurish, davlat va fuqaro munosabatlarini mustahkamlash va natijada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida muhrlab qo'yilganidek, **davlatning yagona va birdan-bir manbai xalq ekani, davlat xalq manfaatlarini himoya qilishi, ayni paytda xalq o'z maqsad va intilishlarini, orzu-umidlarini davlat timsolida ko'rishi** kabi prinsip va qoidalarni to'liq amalga oshirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

**Ikkinchi yo'nalish qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan iborat.** Bunda sud hokimiyatining chinakam samaradorligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish ustuvor vazifa qilib qo'yildi. Mazkur yo'nalishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash, qonun ustuvorligiga erishish orqali inson manfaatlarini himoya qilish, qabul qilingan barcha qonunlarning to'la va samarali ishlashi bo'yicha tegishli choratadbirlarni amalga oshirishga jiddiy e'tibor beriladi. Oliy sud faoliyatini isloh qilish, uning zamonaviy, hozirgi kun talablari asosida ishlaydigan tizimini vujudga keltirish borasida yangi g'oyalar ilgari surildi. Jumladan, ma'mu riy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish orqali adolatli, xalqchil, fuqarolar manfaatlarini to'la himoya qila oladigan, ularning muammolarini o'z vaqtida hal qilib beradigan sud tizimini vujudga keltirish talab etiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, eng muhimi, turli huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilmasligi choralarini ko'rish, profilaktika tizimini yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash, qonunga rioya kilish va qonun ustuvorligiga erishish orqali sud va sudlovning yuksak madaniyatga erishish yo'l-yo'riqlari aniq-ravshan aks ettiriladi.

Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish orqali sud-huquq organlarini «jazolovchi organdan fuqarolar manfaatini himoya qiladigan, ularning kundalik yumushlariga yordam beradigan, har qanday muammolarini qonun doirasida hal qilib beradigan xizmatlar organiga aylantirish» bo'yicha amaliy yechim va takliflar ilgari suriladi.

**Uchinchi yo'nalish iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi.**

Bunda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamalash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan ishlab chiqarilayotgan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, mamlakat eksport salohiyatini kuchaytirish bosh vazifa qilib qo'yilgan. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, tuproq unumdorligini va ekinlar hosildorligini oshirish, yangi va xaridorgir mahsulotlar etishtirish orqali jahon bozoriga chiqishning yangi yo'nalishlarini joriy etish nazarda tutilgan.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokni kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish, mulkka egalik qilish va uning hajmini oshirish orqali yuqori saradorlikka erishish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, uni rag'batlantirish mo'ljallangan. Viloyat, tuman va shaharlarni ularning tabiiy-geografik imkoniyatlari, yer sharoiti va dehqonchilik madaniyatini nazarda tutgan holda, hududiy ehtiyoj va manfaatlar nuqtai nazaridan iqtisodiy rivojlantirish choralari ko'rish belgilangan.

**To'rtinchi yo'nalishda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari o'z ifodasini topgan.** Bunda aholi bandligi va uning real daromadlarini izchil oshirish, jumladan, mehnatga layoqatli aholi qatlami uchun yangi ish o'rinalari yaratish, mehnat faoliyatning yangi shakl va turlarini joriy etish nazarda tutilgan edi. Aholining ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini yanada chuqurlashtirish masallariga alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash, hayot sharoitlarini yaxshilash, yo'l-transport, muxandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish orqali uzoq istiqbolga mo'ljallangan va munosib turmush darajasini ta'minlaydigan yuksak madaniyatli yashash sharoitiga erishish chora-tadbirlarini ko'rish eng muhim vazifa qilib belgilanganligi e'tiborga sazovordir.

Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirishga, har tomonlama barkamol, etuk inson – yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Bu esa yoshlarga oid davlat siyosatini turli chorlar bilan takomillashtirishni taqozo etadi.

**Beshinchi yo'nalish xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli**



**va amaliy tashqi siyosat sohasidagi usutuvor vazifalar bilan bog'liq bo'lib**, bunda dunyo qalqib turgan, turli mintaqalarda urush davom etayotgan, qon to'kilayotgan bir sharoitda milliy xavfsizlikni ta'minlashga jiddiy e'tibor berish eng muhim vaziflardan biri sifatida belgilangan. O'ndan ortiq diniy konfessiyalar, 130 dan ziyod millat va elat vakillari yashayotgan O'zbekistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, o'zaro ishonch, bir-birini tushunish, turli e'tiqod va madaniyatlarni hurmat qilish singari bag'rikenglik fazlatlarini yanda chuqurlashtirishning ahamiyati beqiyos ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston deb atalgan umumiy xonadonimiz, 35 millionli oilamiz istiqboli uchun diniy e'tiqodi, milliy mansubligi, kasbu kori va yoshidan qat'i nazar, har bir fuqaro mas'ul ekanini anglash, farzandlarimizni shu ruhda tarbiyalash asosiy vazifa etib belgilangan. O'zbekistonning tashqi siyosatida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, davlatlarning suverenitetini, hududiy yaxlitligini hurmat qilish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan taxdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligini saqlash, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoida va normalariga asoslanib, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat olib borish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish muhim vazifa qilib qo'yilgan.

Aytish mumkinki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'tgan 25 yil davomida mamlakatimiz erishgan ulkan yutuqlar, tarixiy tajribalarni umumlashtirib, hozirgi kunda davrning o'zi oldimizga qo'yayotgan dolzarb masalalarni hisobga olib, keyingi besh yilga va undan keyingi davrga mo'ljallangan tarixiy taraqqiyotning yangi ufqlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, u o'zining mohiyat e'tibori bilan O'zbekistonni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarishni ta'minlagan strategik dasturdir.

### **3.Harakatlar strategiyasining Yangi O'zbekistonning taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning **beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi**

mamlakatimiz hayotida taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ongu tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko'zga tashlandi.

Shu ma'noda, Harakatlar strategiyasi O'zbekistonni tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo'ljallangan muhim dasturilamaldir, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Bu keng ko'lamli, noyob hujjat davlatimizning barcha sohalarida yangicha yondashuv va mezonlarni joriy etish, aholining barcha qatlamlari o'rtasida tashabbuskorlik, tadbirkorlik, elu yurtimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyat va daxldorlik tuyg'usini oshirish, aniq tizim asosidagi samarali faoliyat tartibini joriy etishda tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etib borayotganini hozirgi kunda yurtimizda va xorijdagi nufuzli ekspert va tahlilchilar, jahon siyosat maydonida katta o'rin tutadigan atoqli davlat va siyosat arboblari keng e'tirof etishmoqda.

Hozirgi vaqtda davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bosqichlarida tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom qabul qilinayotgan har bir qonun, farmon va qaror, joriy etilayotgan yangilikka ongli munosabat birinchi o'ringa chiqib, ishchanlik muhiti keng qaror topib borayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz.

Har bir sohada davlat tomonidan belgilab berilgan aniq va samarali tizim va standartlar asosida ish tutish, masalan, iqtisodiyot sohasini oladigan bo'lsak, nafaqat mahsulotlar sifatini, balki shu mahsulotlarni ishlab chiqaradigan odamlarda kasbiy rivojlanishning uzluksizligi, ularda o'z shaxsiy mas'uliyatini doimo chuqur his etib yashashni ta'minlaydi, bu esa faoliyatda barqarorlik, izchillik va sifat omillariga rioya etishni zaruriyatga aylantiradi.

Harakatlar strategiyasi odamlarni ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik muhitida yashash va ishlashga da'vat etmoqda. Har bir soha faoliyati ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lgan, fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi bo'lgan jamoatchilik nazorati ostida rivojlanishi zarurligini kun tartibiga qo'ymoqda. Bunday muhitda insonning davlat, jamiyat va o'z oldida mas'uliyatni to'la his etib yashashi, so'zi bilan ishi bir bo'lishiga rioya etish fazilatlarini asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Harakatlar strategiyasi

O‘zbekistonda huquqiy demokratik asosdagi xalq davlatini barpo etish yo‘lini har tomonlama asoslab beradigan hujjat hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatidagi dastlabki nutq va ma’ruzalaridayoq **“Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”** degan g‘oyalarni o‘rtaga tashladi. Bu g‘oyalar mamlakatimiz Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan **“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir”** degan qoidaga har tomonlama mos bo‘lib, uning mantiqiy rivoji, amaliy natijasini ifoda etadi. Ya’ni, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai bo‘lsa, bu hokimiyatni amalga oshiradigan davlat idoralari avvalo kimga xizmat qilishi kerak? Albatta, birinchi navbatda xalqqa xizmat qilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, davlatimiz rahbarining yuqorida zikr etilgan g‘oyalari ham mantiqiy jihatdan to‘liq konstitutsiyaviy mazmun va mohiyatga ega bo‘lib, ular O‘zbekistonda barpo etilayotgan davlat va jamiyat mazmunini yanada aniqlashtiradi. Ya’ni, biz barpo etayotgan huquqiy demokratik davlatning birinchi o‘rinda turadigan qadriyati adolat, huquq, va qonunlarni belgilaydi. Xalqning erkin, tinch, ozod va farovon yashashi, shu g‘oyalarni himoya qilib, mustahkamlab, o‘zaro tenglik asosida oldinga intilishi – demokratiyadir.

Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunda **mamlakatimizda mazmunan yangi davlat, yangi jamiyat tarkib topayotgan ekan**, unga mos yangi qadriyat va munosabatlar tizimi shakllanishi ham tabiiydir. Hozirgi vaqtda qabul qilinayotgan qonunlar, farmon va qarorlar ana shu ulkan o‘zgarishlarga yangi turtki va yo‘nalish bermoqda.

Biz bugun ajdodlarimiz ming-ming yillardan beri orzu qilgan, ammo amalga oshira olmagan, adolat, tinchlik, obodlik, farovonlik kabi qadriyatlar mujassami bo‘lgan chinakam xalq davlatini barpo etishga kirishdik.

**Harakatlar strategiyasining ilmiy-nazariy asoslari va xususiyatlari quyidagilar o‘z ifodasini topadi:**

1. Harakatlar strategiyasi xalqchilik, insonparvarlik, bag‘rikenglik va ezgulik g‘oyalari tayanadi. Ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni baholash va ularga yondashishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligining ustuvor ahamiyatga ega ekani haqidagi nazariyaga asoslanadi.

Ma'lumki, dunyoda azaldan ikki omil kurashi, ya'ni **kuchni hurmat qilish madaniyati** hamda **mehrni, yaxshilikni hurmat qilish madaniyati** o'rtasida tortishuv davom etib keladi.

2. Kuchni hurmat qiladigan madaniyat nazariyotchilari "maqsadga erishish uchun har qanday vositadan foydalanish mumkin, chunki natija vositani oqlaydi" degan tamoyil asosida ish tutsa, mehrni hurmat qilish madaniyati tarafdorlari esa **natijaga faqat to'g'rilik, haq-haqiqat va haqqoniylik orqali** erishishni talab etadi. O'zbekiston tazyiq o'tkazuvchi kuchni, zo'ravonlikni emas, o'zaro hurmat, mehr va do'stlikni hurmat qiladigan, qadrlaydigan mamlakatdir. Harakatlar strategiyasining asosiy nazariy asosi do'stlik, tinchlik va hamkorlikni, qo'shni davlatlar bilan raqobatga kirishish emas, balki yaqin do'st va hamkor bo'lib, umumiy muammolarni birgalikda samarali hal etishni tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi etib belgilanganida namoyon bo'ladi.

3. Tarixni yaratuvchi kuch alohida aholi qatlami, ma'lum bir partiya yoki atoqli arboblar, alohida shaxslar emas, balki xalq ekani Harakatlar strategiyasi uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix xalq va uning faol, fidoiy vakillarining mehnati, sa'y-harakatlari, ularning shu yo'lga baxshida umri natijasida yaratiladi. Shu boisdan ham Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, jadid bobolarimiz, F.Xo'jaev, A.Ikromov, Sh.Rashidov, I.Karimov singari yurtimiz mustaqilligi va ravnaqi uchun kurashgan tarixiy shaxslar hamda mustaqillikni qo'lga kiritish va uni mustahkamlash yo'lida o'zini ayamadan mehnat qilgan minglab zahmatkash insonlar, ishlab chiqarish sohasi xodimlari, olimlar, yozuvchilar, rahbarlarning mehnatiga munosib hurmat va e'zoz ko'rsatilmoqda.

4. Harakatlar strategiyasi hayotga qat'iy ishonch va pozitiv qarash nazariyasini ham taqozo etadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Richard Vaysman va boshqalar o'z asarlarida kelajakka yaxshilik nazari bilan qarash, hayotga shukronalik bilan yondashuv barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilishini, odamlarning baxtli hayotini yuzaga keltirishi, ta'minlashi va kafolatlashini nazariy asoslab berishgan va ana shunday dorilamon zamon kelishini orzu qilishgan.

5. Harakatlar strategiyasi mantiqan puxta asoslangan hujjat sifatida hayotga pragmatik yondashuv nazariyasiga tayanadi. Pragmatik yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni aniq ijtimoiy

manfaat va foydani ko‘zlab, oqilona va natijadorlik tamoyillari negizida boshqarishning amaliyotga joriy etilishida namoyon bo‘ladi.

6. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga preventiv yondashuv nazariyasi bugungi kunda boshqaruv jarayonida real amal qila boshladi. Bunday yondashuv yuz berishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarning oldini olishning maqbul yo‘li sifatida tinchlikni saqlash, aholi salomatligini muhofaza qilish, farzandlar tarbiyasida, ularning qalbi va ongini turli zararli ta’sirlardan asrashda hushyor va ogoh bo‘lish sohalarida profilaktik yondashuv sifatida namoyon bo‘lmoqda.

7. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish faqat navqiron avlod kuchiga emas, balki o‘rta hamda katta avlod kuchi va salohiyatiga bab-barobar tayanish, avlodlararo yakdillikni ta’minlashni taqozo etadi. Aholi turli qatlamlari, xususan, katta avlod vakillari va yoshlar o‘rtasida ma’naviyat, odob-axloq, ijtimoiy ideallar talqini, Vatanimiz takdiri va istiqboli masalalarida o‘zaro tushunish, avlodlararo vorisiylik munosabatlarining amal qilishi nazariyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi bilan 2017 yil 14 fevralda mamlakatimizda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasi samaradorligini ta’minlash maqsadida **“Taraqqiyot strategiyasi” markazi** tashkil etildi. Ushbu markaz nohukumat va notijorat tashkilotdir.

**Harakatlar strategiyasining to‘la bajarilishi quyidagi natijalarga olib kelishi ko‘zda tutilgan edi:**

1. Huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etiladi, aholi turmush darajasi va hayot sifati oshadi.
2. Mamlakatimizda muvaffaqiyatsiz va qoloq ishlovchi sohalar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar yoki rahbar va xodimlar bo‘lmaydi. Hamma tashkilot va muassasalarda xalqaro qabul qilingan standartlar asosida hamda o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda ishlash ta’zi to‘la kuch bilan amal qila boshlaydi.
3. Tadbirkorlik faoliyati odamlar orzusidagi ishdan real hayot tarziga, yalpi ijtimoiy harakatga aylanadi.
4. Soliq to‘lovchilarning umumiy miqdori oshadi, demakki, ish bilan band aholi hissasi keskin ko‘payadi.
5. Mamlakatimizda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi hajmi

oshadi, davlatning eksport salohiyati keskin ko‘tariladi.

6. Davlat xalqqa to‘laqonli xizmat qila boshlaydi, bu jarayon nodavlat tashkilotlar tomonidan jamoatchilik nazoratiga olinadi.
7. Har bir ish, sohaning, u bank, fermerlik, ularning holatiga jamoatchilik tomonidan baho berib boriladi.
8. 2021 yilga kelib yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida industrial mahsulotlar, intellektual-madaniy mulk va xizmatlarning hissasi keskin oshadi.
9. Dunyoda andozasi bo‘lmagan yangi demokratik, insonparvar tuzilma - xalq davlati shakllanadi va butun jahon mamlakatlari uchun xalqchil, demokratik tartibotlar o‘rnatishda namunaviy model sifatida tavsiya etiladi.
10. Iqtisodiy holati turli darajada bo‘lgan aholi qatlamlariga moslab, yangi uy-joy qurilishi keng ko‘lamlarda olib boriladi. Uy-joyga ehtiyojmand oilalarning muammolari yechiladi.
11. Yoshlarda mehnatga bo‘lgan ko‘nikmani tarbiyalash, ularga mehnat qilib zavqlana olishni o‘rgatishning amaliy mexanizmlari ishlab chiqiladi va yagona milliy siyosat sifatida joriy etiladi.
12. Diniy ekstremistik oqimlarga berilish holatlarining oldi olinadi, davlat qonunlari, jamiyat qoidalari, haqiqiy islom ma‘rifatining hamkorlikdagi kuchi o‘z ta‘sirini samarali namoyon eta boshlaydi va boshqalar.

Mamlakatimizni 2017 – 2021 – yillarda rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan yillar davomida 300 ga yaqin qonun, 4000 dan ortiq Prezident Qarorlari qabul qilindi.

2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF60-sonli **“2022 – 2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”**gi Farmoni e‘lon qilindi. Ushbu farmon bilan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan 7 ta ustuvor yo‘nalish, 100 ta maqsaddan iborat Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi tadiqlandi. Ular quyidagilar:

- 1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;**
- 2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;**
- 3. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash;**
- 4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;**

5. **Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;**
6. **Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;**
7. **Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.**

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi deganda nimani tushunasiz?
2. Harakatlar strategiyasi nechta ustuvor yo'nalishni o'z ichiga oladi?
3. Ijtimoiy sohani rivojlantirish ustuvor yo'nalishi qaysi vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi?
4. Davlat va jamiyat tizimini isloh qilishda nimalarga e'tibor beriladi?
5. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik deganda nimani tushunasiz?
6. Harakatlar strategiyasining to'la bajarilishi qisqa qilib ifodalanganda qanday natijalarga olib keladi?
7. Harakatlar strategiyasining ilmiy-nazariy asoslari va xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Virtual qabulxona va Xalq qabulxonalarining vazifalari nimalardan iborat?

### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон маънафаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йилигига бағишланган тантанали маросимидаги маърузаси. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент:

- Ўзбекистон..2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
  6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018.

## **AXBOROT MANBALARI**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

### **Mavzu: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O‘RNI VA NUFUZINI ORTIB BORISHI**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Xalqaro reyting, xalqaro indeks, xalqaro reytinglar bilan ishlash, elektron hukumat, Milliy monitoring tizimi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, korrupsiyaning oldini olish, Adliy avazirligi, “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” yagona portali, axborot texnologiyalari, “Transparency International” reytingi*

#### **1. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish borasidagi davlat siyosati**

Insoniyat taraqqiyoti, barcha sohalarda kechayotgan globalashuv jarayonlar, sifat va tarkibiy o‘zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarish barobarida har bir mustaqil mamlakatning ushbu holatlarga yangicha qarashga, ular bilan birga odim tashlash vazifasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Bu esa, eng avvalo, o‘sha mamlakatning jahon miqyosidagi o‘rni, xalqaro reyting va ko‘rsatkichlarda tutgan mavqei bilan belgilanadi.

Bugun hayotning har bir jabhasida yangilik va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday



yangilanishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko'rsatkichlarida ham o'z ifodasini topayotir.

Aytish kerakki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o'zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko'zguvidir. Bu jihatlarda mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug'lashga, odamlarning hayotdan rozi va mamnun bo'lib yashashini ta'minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

2017 – 2021 - yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy obro'sini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini xolis va haqqoniy baholashni ta'minlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ko'rilayotgan choralarga qaramasdan, mamlakatda tegishli yo'nalishlar bo'yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini baholashning yaxlit tizimi mavjud emas.

Mazkur holat xalqaro tashkilotlar va ilmiy muassasalar bilan tizimli hamkorlik aloqalarini o'rnatish, mas'ul vazirlik va idoralarda baholanayotgan yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar va boshqa davlatlarning ijobiy tajribasini o'z ichiga olgan tegishli ma'lumotlar bazasini, xodimlarda esa xalqaro reytinglar metodologiyasini qo'llash bo'yicha dunyoqarashni shakllantirish imkonini bermayapti.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, shuningdek, respublikaning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashni ta'minlash maqsadida **2019 yil 2019-yil 25-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4210-sonli Qarori** e'lon qilindi. Qarorda Milliy monitoring tizimi yaratish, boshqaruv sifati va siyosatning samaradorligini o'lchash, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonini baholash, tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqan holda islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishga yordam

beruvchi ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari Milliy monitoring tizimining tarkibiy qismi etib belgilash ta'kidlandi. Respublikadagi tadqiqot institutlariga alohida xalqaro reytinglar birlashtirildi va ularga quyidagi vazifalar yuklatildi:

xalqaro reytinglarning metodologik va boshqa tarkibiy qismlarini aniqlash, ularni amaldagi qonunchilikka implementatsiya qilish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi past ko'rsatkichlariga sabab bo'layotgan asosiy omillarni aniqlash;

o'zini o'zi baholash uchun ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari asosida milliy indekslarni ishlab chiqish;

loyihalar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rnini yuksaltirishga to'sqinlik qilayotgan normalarni aniqlash nuqtai nazaridan ekspert tahlil qilish hamda tahlil natijalariga ko'ra tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasining tegishli reytinglardagi rivojlanish jarayoni to'g'risidagi axborotlarni, shuningdek, baholanayotgan yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'z ichiga olgan axborotlar ma'lumot bazasini yaratish;

O'zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashga to'sqinlik qilayotgan mavjud haqiqiy muammolarning tizimli tahlilini olib borish, ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash, aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqishi darajasini hamda ularning xodimlari kasbiy mahoratini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Savdo-sanoat palatasining "davlat xizmatlarining sirli mijoz" institutini joriy etish to'g'risidagi taklifga rozilik berildi.

"Davlat xizmatlarining sirli mijoz" institutidan foydalanish doirasidagi chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Savdo-sanoat palatasi tomonidan tashkil etiladi;

"sirli mijoz" tomonidan monitoring nafaqat bevosita obyektlarga tashrif buyurishlar, balki monitoring amalga oshirilayotgan davlat xizmatlariga qarab boshqa vositalar (telefon qo'ng'iroqlari, elektron pochta orqali murojaat qilish va boshqalar) orqali ham amalga oshirilishi mumkin;

"davlat xizmatlarining sirli mijoz" instituti faoliyatini yuritish bilan bog'liq xarajatlar Adliya organlari va muassasalarini

rivojlantirish jamg‘armasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi *Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi* “**O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda**” yagona portali faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yangilash bo‘yicha **mas’ul organ** etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o‘rnini yaxshilash uchun mas’ul vazirliklar, idoralar va tadqiqot institutlari har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyni 15 sanasiga qadar O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, zarur statistik axborotlar va boshqa materiallarni taqdim etishni ta’minlashi belgilab qo‘yildi.

Bunda, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o‘rnini yaxshilash uchun mas’ul vazirliklar, idoralar va tadqiqot institutlari rahbarlari “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” yagona portalida e’lon qilinadigan axborotlarning ishonchliligi uchun shaxsan javobgar hisoblanishi belgilab qo‘yildi.

### **Alohida xalqaro reytinglar biriktirilgan tadqiqot institutlari RO‘YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Xalqaro reyting nomi</b>	<b>Mas’ul tadqiqot institutlari</b>
1.	Iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of economic freedom), tuzuvchi — Meros jamg‘armasi (The Neritage foundation)	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti
2.	Global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index), tuzuvchi — Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum)	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budget-soliq tadqiqotlari instituti

3.	Biznes yuritish (Doing business), tuzuvchi — Jahonbanki (The World bank)	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Xalqaro-huquqiy tadqiqotlar va qiyosiy ommaviy huquq markazi
4.	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) kredit reytingi	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjet-soliq tadqiqotlari instituti
5.	Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of law index)	Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti
6.	Korrupsiyani qabul qilish indeksi (The Corruption perceptions index), tuzuvchi — Transparency international	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi
7.	Inson kamoloti indeksi (Numan development index), tuzuvchi — Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (United Nations Development Programme)	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligining Tarmoq bozorlari va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish tadqiqotlari markazi
8.	Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi (The Democracy index), tuzuvchi — The Economist Intelligence Unit tadqiqot markazi	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti
9.	Erkin matbuot indeksi (Worldwide press freedom index), tuzuvchi — “Chegarasiz reportyorlar” xalqaro nohukumat tashkiloti (Reporters Without Borders)	O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
10.	Logistika samaradorligi indeksi (Logistics performance index), tuzuvchi — Jahon banki (The World bank)	Transport vazirligining Transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o‘rganish markazi

11.	Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (The UN E-Government development index), tuzuvchi — Birlashgan Millatlar Tashkiloti (The United Nations)	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Toshkent shahridagi Inxa universiteti
12.	Statistik salohiyat indeksi (Statistical Capacity Indicators), tuzuvchi—Jahon banki (The World bank)	O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti
13.	Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi (Competitive Industrial Performance Index), tuzuvchi — YuNIDO (UNIDO)	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining Tarmoq bozorlari va ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi tadqiqotlari markazi
14.	Korrupsiyani tiyib turish (Control of Corruption), tuzuvchi — Jahon banki (The World Bank)	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi
15.	Innovatsiyalar global indeksi (The Global Innovation Index), tuzuvchi — INSEAD xalqaro biznes-maktabi, Kornel universiteti (Cornell University), Xalqaro intellektual mulk tashkiloti (World Intellectual Property Organization, WIPO)	O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining Innovatsion ishlanmalarni tatbiq etishning ilmiy-amaliy markazi
16.	Boshqaruv sifati indikatorlari (Worldwide governance indicators), tuzuvchi — Jahon banki (The World Bank) (“Korrupsiyani tiyib turish” indeksi (Control of Corruption	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti

	Index) bundan mustasno)	
17.	Byudjet ochiqligi (Open budget index), tuzuvchi – Xalqaro budjet hamkorligi (International budget partnership)	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjet-soliq tadqiqotlari instituti

## **2.O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim kor‘satkichlari**

Xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan vositadir. Ular nafaqat ekspertlar, balki davlatlar darajasida ham islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat mezonini sifatida qo‘llanib kelinadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz ko‘pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani yurtimizda aholi turmush farovonligini oshirish, jamiyatimizda ochiqlik, oshkoralikni ta'minlash borasida qilinayotgan ezgu ishlarning muhim natijasidir.

Masalan, yaqinda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining (YUNIDO) “Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi” bo‘yicha hisoboti chop etildi. Unda mamlakatimiz ilk marotaba aks ettirilib, 152 ta mamlakat orasida 92-o‘rinni, MDHga a'zo davlatlar orasida 5-o‘rinni, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o‘rinni egalladi.

Aytish kerakki, bugun jamiyatimizdagi islohotlarning bosh maqsadi xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadga yo‘naltirilmoqda. Barcha sa'y-harakatlarimiz, islohotlarimiz, qabul qilayotgan qonun va qarorlarimiz zamirida ham ushbu maqsad mujassam. Aholi yuritilayotgan siyosatdan qanchalik rozi bo‘lsa, turli reyting va indekslardagi o‘rnimiz o‘z-o‘zidan oshib boraveradi. Xususan, iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o‘sish istiqbollari yaxshilashga qaratilgan bosqichma-bosqich islohotlar 2020 yilda Jahon bankining “Biznes yuritish” indeksida 76-o‘rindan 69-o‘ringa ko‘tarilishimizga, “Transparency International”ning Korruptsiyani qabul qilish indeksi hamda “World Justice Project”ning Qonun ustuvorligi indeksida mamlakatimiz o‘rni yaxshilanishiga olib keldi.

Endilikda vazirlik va idoralar rahbarlari o'zlari mas'ul bo'lgan reyting va indekslarda ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan respublika kengashida hisobot berib boradilar.

Xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatimiz o'rnining yaxshilanishi ko'p jihatdan qabul qilayotgan qonunlarimizning joylardagi ijrosiga bog'liq. SHuning uchun ham kengash tarkibiga mahalliy hokimlar kiritildi. Bu esa qonun talblarining joylardagi ijrosi yuzasidan muammolarni vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

SHu orqali bu yo'nalishdagi ishlarda parlament, vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklarning o'zaro hamkorligi ta'minlanadi, sansalorlik holatlarining oldi olinadi, barcha ishlar muvofiqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

Albatta, bu ko'p vaqt sarflanadigan, progressiv bilimlarni talab etuvchi yangi jarayonlardan biri. Bu, shubhasiz, mas'ul davlat organlarining o'zlariga birlashtirilgan xalqaro reyting va indekslar metodologiyasini izchillik bilan o'rganish, uni to'g'ri talqin qila olgan holda amaliyotga tatbiq eta olish, xalqaro reyting va indeksni beruvchi tashkilot bilan aloqalarni o'rnatish bilan bog'liqdir.

Barcha vazirlik va idoralar, ayniqsa, joylardagi hokimliklar yoki parlament a'zolarining barchasi ham masalaning tub mohiyatini to'la anglab etdi, deb aytish mushkul. Reyting va indekslar joylardagi vaziyatga bog'liq, qonunlarning ijrosiga bog'liq. Ming afsuski, joylardagi hokimliklar yoki davlat organlari vakillarining ba'zida bilib-bilmay aytgan gap-so'zlari yoki xatti-harakatlari reyting va indekslardagi o'rnimizga salbiy ta'sir qiladi.

Barcha rahbarlar, ular qaysi darajadagi rahbar bo'lishidan qat'i nazar, o'z harakatlarini qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshirishlari zarur ekanini yana bir karra ta'kidlamochiman. Odamlar bilan muloqotlarda esa inson sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi shart.

SHu bilan birga, eng asosiy ishimiz qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning amaldagi ijrosini, bir so'z bilan aytganda, qonun ustuvorligini ta'minlashdir.

Jahon iqtisodiy forumining "Global raqobatbardoshlik indeksi"ga mamlakatimizni kiritish masalasi yuzasidan Moliya vazirligi olib borgan muzokaralar natijasida indeksga kirish jarayoni 2 yil muddatni talab etishi ma'lum bo'ldi. Birinchi yilda tashkilot

tomonidan O'zbekistonda rasmiy so'rovnoma o'tkazish uchun hamkor, ya'ni nodavlat notijorat tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari tanlab olinadi va so'rovnoma o'tkaziladi. Ikkinchi yilda so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonning indeksdagi norasmiy o'рни belgilanadi hamda ularning O'zbekiston ko'rsatkichlarining haqiqiy tendentsiyalari bilan qay darajada mos kelishi tekshirib ko'riladi. Tendentsiyalar maxsus ekspertlar tomonidan 2 yil mobaynida muntazam kuzatilib boriladi va tahlil qilinadi.

Xalqaro byudjet hamjamiyatining "Byudjet ochiqligi indeksi"ga kirish indeks bo'yicha mamlakatda tadqiqot o'tkazish uchun zarur resurslar (jumladan, mablag'lar) faqatgina xalqaro nodavlat tashkilotlar va institutlar (donorlar) hisobidan amalga oshiriladi. Hamjamiyatning asosiy talablaridan biri – tadqiqot o'tkazishdagi mahalliy hamkor sifatida mustaqil fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlar) bo'lishi zarur. Mazkur indeks hisobotida mamlakatimizni aks ettirish bo'yicha yakuniy qaror tashkilotning joriy yil avgust oyidagi yig'ilishida ko'rib chiqilishiga kelishilgan.

Ayrim reyting va indekslarda talab etilgan statistik ma'lumotlar respublikamizning davlat idoralari va tashkilotlari tomonidan shakllantirilgan statistik ma'lumotlar bazasiga asoslanadi. Masalan, BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari"da jami 206 ta milliy indikator tasdiqlangan. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan yaratilgan maxsus saytga bu boradagi zarur ma'lumotlar doimiy ravishda joylashtiriladi. SHuningdek, xalqaro reyting va indekslar uchun kerakli ma'lumotlar davlat idoralari tomonidan muntazam yangilanib boriladi.

Hukumat portali doirasida "Ochiq ma'lumotlar portali" ishga tushirilgan. Mazkur portal Davlat statistika qo'mitasining davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar bazasi yuritilishi va yangilanishi, shuningdek, tegishli axborotlarning o'z vaqtida aks ettirilishini muvofiqlashtirib kelmoqda.

Umuman olganda, xalqaro reyting va indeksni yurituvchi tashkilotlar tadbirkorlar va aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga, nodavlat notijorat tashkilotlar ma'lumotlariga hamda milliy va xorijiy ekspertlar xulosalariga tayanadi. Bu esa, o'z navbatida, respublika miqyosida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy



sohadagi islohotlar va ularning natijalaridan mahalliy aholi va tadbirkorlar qay darajada xabardor ekanini ko'rsatib beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda mamlakatimiz o'rinlari nisbatan quyi pog'onalarda. Masalan, So'z erkinligi va hisobdorlik indeksida 191-o'rinda, Normativ sifat indeksida 184-o'rinda, Korruptsiyani nazorat qilish indeksida 183-o'rinda, Qonun ustuvorligi indeksida 182-o'rinda, Jahon matbuot erkinligi indeksida 156-o'rinda turibmiz. Albatta, so'nggi 3-4 yil mobaynida ushbu sohalarni tartibga soluvchi ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi, turli institutsional o'zgarishlar ro'y berdi.

Xususan, mamlakatimizda so'z erkinligi hamda ommaviy axborot vositalarining cheklov va to'siqlarsiz faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari uchun media bozorida teng sharoit yaratish va ularni yanada rivojlantirish hamda jurnalist va blogerlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi.

Korruptsiya qarshi kurashish sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu boradagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish, turli organlar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamiyatda Korruptsiya nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida Korruptsiya qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etildi. Korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini yurituvchi Korruptsiya qarshi kurashish agentligi tuzildi.

SHu bilan birga, mamlakatimizning Korruptsiya qarshi davlatlar guruhi (GREKO) xalqaro tashkilotiga a'zo bo'lishi va bu tashkilotning Korruptsiya qarshi tegishli konventsiyalari talablarini milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish masalasini ham o'rganib chiqishimiz lozim.

Ommaviy axborot vositalari, fikrlar xilma-xilligi va so'z erkinligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashimiz zarur. Ayniqsa, jurnalistning qonuniy professional faoliyatiga to'sqinlik qilishga oid huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlikni belgilashimiz kerak.

Prezidentimizning **2020 yil 2 iyunda** qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi

o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi Farmoni yurtimizda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim dasturilamal bo'ldi.

Mazkur farmonga muvofiq, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tuzilib, sohada parlament nazorati o'rnatildi. Farmonda jumladan shunday deyiladi:

Inson huquqlari himoyasini kafolatlash, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faoliyatda erkinlikni ta'minlash, sud-huquq sohasidagi moddiy va protsessual normalarni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlari oshishiga sabab bo'lmoqda.

Jumladan, so'nggi to'rt yil mobaynida mamlakatimiz Meros jamg'armasining "Iqtisodiy erkinlik" indeksida 52 pog'onaga, Jahon bankining "Logistika samaradorligi" indeksida 19 pog'onaga, "Biznes yuritish" indeksida 18 pog'onaga ko'tarildi.

O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash" tizimidagi 6-guruh mamlakatlari qatoridan 5-guruh mamlakatlari qatoriga ko'tarildi. Shu bilan birga, ayrim rahbarlar reytinglar bilan ishlashga yetarlicha e'tibor qaratmayotganligi va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan so'rovlarda aksariyat islohotlar o'z aksini topmayotganligi oqibatida ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasi quyi pog'onalarda qolmoqda.

Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash, davlat organlari va tashkilotlarida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish, shuningdek, 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida **Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi** tashkil etildi. Kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o'rnini yaxshilash maqsadlariga xizmat qilishini ta'minlash, mazkur

yoʻnalishdagi ishlarning samaradorligiga toʻsiq boʻlayotgan muammolarni bartaraf etish;

Oʻzbekiston Respublikasi uchun ustuvor boʻlgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning oʻrnini yaxshilash maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini takomillashtirish, jamiyatni demokratlashtirish, ilgʻor xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni amalga oshirish boʻyicha tashabbuslarni ilgari surish;

davlat va jamiyat hayotining turli jabhalarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini Oʻzbekiston Respublikasi uchun ustuvor boʻlgan xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatning oʻrniga taʼsiri nuqtayi nazaridan kompleks baholab borish.

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Adliya vazirligi Kengashning ishchi organlari etib belgilangan.

Kengash ishchi organlari boʻyicha taqsimlangan Oʻzbekiston Respublikasi uchun ustuvor boʻlgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning oʻrnini yaxshilashga qaratilgan taʼsirchan choralar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi hamda ushbu yoʻnalishda tizimli xalqaro hamkorlik olib borilishi ustidan Kengash tomonidan nazorat oʻrnatiladi.

Masʼul davlat organlari birinchi **rahbarlarining** faoliyati samaradorligini baholashning **bosh mezonlaridan** biri etib Oʻzbekiston Respublikasi uchun ustuvor boʻlgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning oʻrnini yaxshilash belgilandi.

Bunda, xalqaro reyting va indekslarning navbatdagi nashrida zarur koʻrsatkichni qayd etishga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqish, shuningdek, reyting va indekslarni eʼlon qiluvchi tashkilotlar hamda ularni tuzishda foydalaniladigan axborot manbalari bilan hamkorlik qilish mexanizmlarini nazarda tutilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Internet tarmogʻida **“Oʻzbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” yagona portalini** ishga tushirdi.

Kengash ishchi organlari Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda portal faoliyatining uzluksiz ishlashini taʼminlash va uni yangilab borish uchun masʼul etib belgilandi.

### **3.Xalqaro reyting va indekslar bo'yicha ko'rsatkichlarni oshirish borasida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar**

Bugun O'zbekiston mintaqada barcha sohalarda jadal sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakat – bu xalqaro ekspertlar tomonidan bildirilayotgan e'tirof. Rivojlanish, taraqqiyot esa o'z-o'zdan bo'lmaydi. Iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda kuzatilayotgan hozirgi o'zgarish va yutuqlar mamlakat rahbari tomonidan ko'tarilgan keng qamrovli chora-tadbirlar hamda ijrochilarning mashaqqatli mehnat mahsuli ekanligi shubhasiz. Bu e'tiroflar, dastlabki yutuqlar o'zimizniki albatta. Lekin ularni yanada yaxshilash mamlakat siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir.

Davlatimiz rahbarining “O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida”gi Farmoni ana shu sa'y-harakatlarni yangi pog'onaga olib chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Oqibat natijada mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardagi jozibadorligini oshirish mezoni bo'lib xizmat qiladigan xalqaro reyting va indekslarni oshirish jarayonida parlamentning o'rnini qanday bo'ladi?

Jahon banki, Birlashgan millatlar tashkiloti, Birlashgan millatlar tashkilotining Taraqqiyot dasturi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon iqtisodiy forumi, Xalqaro byudjet hamkorligi, INSEAD xalqaro biznes-maktabi va Economist Intelligence Unit kabi xalqaro reyting agentliklari va tashkilotlari bilan rasmiy aloqalar yo'lga qo'yildi.

O'tgan davr mobaynida xalqaro reyting agentliklarining 2019-2020-yillarda chop etilgan hisobotlariga binoan respublikaning iqtisodiy reytinglardagi o'rnini sezilarli darajada o'sdi. Xususan “Fitch Ratings” va “S&P Global Ratings” xalqaro reyting agentliklarining bahosiga ko'ra 2019-yilda mamlakatning suveren kredit reytingi “BB–” barqaror darajada saqlanib qolmoqda.

Jahon banki “Biznes yuritish 2020” yangi yillik hisobotida (Doing Business 2020) so'nggi bir yilda O'zbekiston Respublikasi biznes islohotini amalga oshirishda eng katta yutuqlarga erishgan 20 ta mamlakat qatoriga kirishga imkon bergan to'rtta islohotni amalga oshirgani to'g'risidagi axborotni tarqatdi. Shuningdek, 2019-yilda

O‘zbekiston ushbu reyting hisobotida dunyoning 190 mamlakati orasida 69-o‘rinni egallab, 7 pog‘onaga ko‘tarildi.

2019-yilning sentyabr oyida Jahon bankining Boshqaruv sifati indikatorlarining 2018-yil uchun e‘lon qilgan hisobotida O‘zbekiston Respublikasi bir qator indikatorlardan yaxshilanganligini ma‘lum bo‘ldi. Xususan, “Korrupsiyani nazorat qilish” indeksida 1 pog‘onaga, “Hukumat samaradorligi” indeksida 3 pog‘onaga, “Normativ sifat” indeksida 7 pog‘onaga, “Qonun ustuvorligi” indeksida 4 pog‘onaga, “So‘z erkinligi va hisobdorlik” indeksida 5 pog‘onaga ko‘tarildi.

So‘nggi to‘rt yil mobaynida mamlakatimiz Meros jamg‘armasining “Iqtisodiy erkinlik” indeksida 52 pog‘onaga, Jahon bankining “Logistika samaradorligi” indeksida 19 pog‘onaga, “Biznes yuritish” indeksida 18 pog‘onaga ko‘tarilganligi e‘tirof etish lozim. Ushbu yo‘nalishdagi ishlarning natijasini aks ettirish uchun Internet tarmog‘ida **“O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda”** yagona portali ish olib bormoqda.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Xalqaro reyting va indekslarning mamlakat uchun ahamiyati nimada?
2. O‘zbekistonni xalqaro reyting va indekslarda joy egallashi masalasida qanday hujjatlar qabul qilindi?
3. O‘zbekistonni xalqaro reyting va indekslarda joy egallashi uchun qanday ishlar olib borilayapti?
4. “Fitch Ratings”, “S&P Global Ratings” xalqaro reyting agentliklari, Jahon banki “Biznes yuritish 2020” yangi yillik hisobotida (Doing Business 2020) O‘zbekiston qanday o‘rin egalladi?
5. Aholi yuritilayotgan siyosatdan qanchalik rozi bo‘lsa, turli reyting va indekslardagi o‘rnimiz o‘z-o‘zidan oshib boraveradi, degan tushunchaga munosabatingiz qanday?
6. Alohida xalqaro reytinglar biriktirilgan tadqiqot institutlaridan qaysilarini bilasiz?
7. O‘zbekistonda elektron hukumatni shakllantirishda qanday amaliy ishlar qilindi?

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон..2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз. - Тошкент: Ўзбекистон.2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон маънафаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йилигига бағишланган тантанали маросимидаги маърузаси. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
5. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.

## **AХВОРОТ MANBALARI**

1. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

## ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: Ўзбекистон..2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: Ўзбекистон.2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон маънафатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йилигига бағишланган тантанали маросимидаги маърузаси. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
5. Каримов И.А. Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари - олий кадрят. Т.14. - Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
8. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. - Тошкент: Ўзбекистон.2015.
9. Мустақил Ўзбекистан тарихининг дастлабки саҳифалари. - Тошкент, 2000.
10. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Тошкент: Маънавият, 2011.
11. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Тошкент: Шарқ, 2006.
12. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
13. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабилов. - Тошкент: Академия, 2013.
14. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.
15. Азизхўжаев А.А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. - Тошкент: 2001.

16. Азизхўжаев А.А. Чин ўзбек иши. - Тошкент, 2003.
17. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. - Тошкент: Абу Али ибн Сино нашриёти, 2002.
18. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
19. Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
20. Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви. – Тошкент: Молия, 2003.
21. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
22. Ўзбекистон тарихи. Р.Ҳ.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. –Тошкент, 2005.
23. Ўзбекистон халқининг дини, маданияти ва урф-одатлари: тарих ва ҳозирги ҳолат. - Тошкент: ТИУ, 2011.
24. Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодий назарияси. - Тошкент: Шарқ, 2006.
25. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон. Масъул муҳаррир Р.Ҳ.Муртазаева. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
26. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 2 том. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, Қ.Ражабов, М.Раҳимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
27. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2019.
28. Юнусова Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). - Тошкент: Abu matbuot- konsalt, 2009.
29. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70 80-йиллар мисолида). Қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 1999.
30. Қорақалпоғистон тарихи (1917-1994 йй.). - Нукус, 1995.
31. Ғуломов С., Убайдуллаева Р., Ахмедов Э. Ўзбекистон. - Тошкент: Мехнат, 2001.



## **AXBOROT MANBALARI:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

## MUNDARIJA

So‘zboshi .....	3
Kirish. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari .....	5
Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar .....	19
Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.....	38
O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li .....	50
O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.....	65
Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.....	94
O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar .....	113
Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.....	127
O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.....	150
Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi .....	168
O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.....	182

Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari .....	201
O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi.....	216
Adabiyotlar .....	231

Ilmiy nashr

**OBID HAYDAROV, SUHROB QORABOYEV**

**O‘ZBEKISTONNING  
ENG YANGI TARIXI**

***USLUBIY QO‘LLANMA***

(Kunduzgi ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining  
talabalari uchun)

Bosishga 29.06.2022 yilda ruxsat etildi.  
Qog‘oz bichimi 60x84<sub>1/32</sub>. Ofset bosma usulda.  
Nashr bosma tabog‘i 14.75.  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma raqami № 42/22.

MChJ “NAVRO‘Z POLIGRAF” matbaa bo‘limida chop etildi.  
Litsenziya № 18-3327 30.08.2019 yil.  
Manzil: Samarqand shahar, L.M.Isayev ko‘chasi, 38-uy.